


Qambarov Musoxon

PEDAGOGIKA TARIXI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Qambarov Musoxon Muxtorjonovich

PEDAGOGIKA TARIXI

Barcha bakalavr yo'nalishlari uchun

O'QUV QO'LLANMA

**Toshkent
2022**

UDK: 811.512.133.(038)
KBK: 74.202.5 81.2. O'zb
Q – 21

Pedagogika tarixi. [matn] o'quv qo'llanma / Qambarov M. – Toshkent: Bayoz, 2022. – 288 bet.

*Qambarov Musoxon Muxtorjanovich. Pedagogika tarixi.
O'quv qo'llanma. Barcha bakalavr yo'nalishlari uchun*

Taqrizchilar:

Nishanov Maxmudjon Sobirovich – Namanagan davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

Usmanova Umida Aybekovna – Andijon davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha (PhD).

Annotatsiya

Ushbu o'quv qo'llanmada umumiy pedagogika fanining "Pedagogika tarixi" bo'limida eng qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha bo'lgan davlardagi ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlarning rivojlanishi, allomalning pedagogik qarashlari hamda milliy ma'naviyatimiz fidoyilarining yosh avlodga qoldirgan boy ijodiy meroslari haqida qiziqarli tafsilotlar berilgan. Jumladan, Sharq uyg'onish davri va undan keyingi davrlarda pedagogik fikrlarning paydo bo'lishi yoritilgan. Qo'llanma pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari talabalari, magistrantlari va tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan.

Аннотация

В данном учебном пособии в разделе "История педагогики" общей педагогической науки представлена интересная информация о развитии учебно-воспитательной и педагогической мысли с древнейших времен до наших дней, о педагогических взглядах ученых и о богатом творческом наследии, оставленном молодому поколению самоотверженными деятелями нашей национальной духовности. В частности, освещается зарождение педагогической мысли в эпоху Восточного возрождения и более поздних периодов. Пособие предназначено для студентов, магистрантов и исследователей высших учебных заведений педагогической направленности.


Annotation

In this textbook, in the section "History of Pedagogy" of general pedagogical science, interesting information is presented about the development of educational and pedagogical thought from ancient times to the present day, about the pedagogical views of scientists and about the rich creative heritage left to the younger generation by selfless figures of our national spirituality. In particular, the origin of pedagogical thought in the era of the Eastern Renaissance and later periods is highlighted. The manual is intended for students, undergraduates and researchers of higher educational institutions of pedagogical orientation.

UDK: 811.512.133.(038)
KBK: 74.202.5 81.2. O'zb

ISBN 978-9943-7955-7-0

© "Bayoz", 2022.
© Qambarov M



SO'Z BOSHI

Har bir ijtimoiy tuzumda insonning ma'naviy yuksalishini ta'minlovchi ta'lim-tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat kabi tushunchalar mavjud bo'lib, ular pedagogika sohasidagi o'zgarishlarni jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda o'rganishni talab etadi.

Pedagogika tarixi qadim zamonlardan tortib, to hozirgi kungacha bo'lgan turli tarixiy davrlarda tarbiya, maktab va pedagogika nazariyalarining taraqqiyotini davrlar talabi asosida o'rganib keldi. Har bir ijtimoiy tuzum, uning kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqlir.

Ming yillar davomida shakllanib, rivojlanib kelayotgan xalq pedagogikasi milliy pedagogika tarixining asosiy zaminidir. Asrlar osha omon qolib, bizgacha yetib kelgan milliy qadriyatlarimiz, ma'naviy va ma'rifiy madaniyatimiz, ta'lim-tarbiya, ilm-ma'rifat, shuningdek, pedagogika fani mustaqillik sharofati bilan yangidan rivoj topa boshladi.

Mamlakatimizda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun ta'lim-tarbiya va maorifni isloh qilish to'g'risidagi nazariy va amaliy talab hamda ko'rsatmalar asosida, shuningdek, mustaqillik yillarida ijodkor mutaxassislarimiz va olimlarimiz tomonidan «Pedagogika tarixi» faniga doir bir qator darsliklar, o'quv qo'llanmalar va ma'ruza matnlari yaratildi. Tabiiyki, darsliklar, o'quv qo'llanmalar va ma'ruza matnlarining alternativ turlarining ko'payishi faqat bir maqsadni - bo'lajak mutaxassis kadrlarga nafi tegishini nazarda tutadi.

Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasining to'rtinchi bo'limida ta'kidlangan, maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish. Maktablarni rivojlantirish Milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rni yaratish. 2026-yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.¹

Hozirgi zamon dars jarayonining yanada takomillashuvi ta'limning masofaviy shakli, elektron darsliklarning yaratilishi, ta'lim

¹ Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi "Taraqqiyot strategiyasi" markazi. @dsc.uzbekistan www.strategy.uz @dsc_uzb @dscuzbekistan @dscuzbekistan Development Strategy Center

jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiya elementlari, internet materiallari, turli didaktik o'yinlardan foydalanish, mashg'ulotlar jarayonida ustoz-shogirdning erkin muloqoti bilimlarni puxta o'zlashtirishga asosiy zamin hozirlaydi..

Pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallab tayyorlangan mazkur o'quv qo'llanmani yaratishda «Pedagogika tarixi» fanidan mustaqillik yillarida yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalari, yetakchi olimlar tomonidan tayyorlangan alternativ ma'ruza matnlari asos qilib olindi.

Mazkur o'quv qo'llanmada eng qadimgi davrlardan bugungi kungacha bo'lgan davrda ta'lim-tarbiya jarayoni va pedagogik fikrlar taraqqiyoti hamda buyuk allomalarning hayoti, ularni maktab, maorif, ta'lim-tarbiyaga qo'shgan hissalari, pedagogik qarashlari bayon qilingan.

O'quv qo'llanmada kiritilgan mavzular bo'yicha yechimini kutayotgan muammolar ko'p va bu borada ilmiy izlanishlar olib borilishi lozimligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Siz aziz talabalar, nafaqat oliy ma'lumotli o'qituvchi, balki mazkur sohada ilmiy izlanishga layoqatli fan zahmatkashlari bo'lishingizga ishonamiz.

1-mavzu: Pedagogika tarixi fan sifatida. Ibtidoiy jamoada tarbiya. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar

Reja:

1. Pedagogika tarixi fanining maqsad va vazifalari
2. Pedagogika tarixi fani g'oyalarining kishilik jamiyati taraqqiyoti bilan o'zaro aloqadorligi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'lim-tarbiya jarayonida milliy meros, pedagogik qadriyatlardan samarali foydalanishning ijtimoiy ahamiyati haqida.
4. Ta'lim-tarbiya va pedagogika tarixini davrlashtirish muammolari
5. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti

Yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish nazariyasi bilan amaliyotning qanday taraqqiy qilib kelganligini bilmay turib, yoshlarni har tomonlarni komil inson etib tarbiyalash masalalarini ilmiy ravishda hal qilib bo'lmaydi. O'zbek xalqi tarixan ta'lim-tarbiya sohasida o'ziga xos dorilfunun yaratgan. Hatto hozirgi o'zbek xalqi yashab turgan zaminda zardushtiylik dini keng yoyilgan davrda ham nekbin pedagogik mafkura hukm surgan. Bu zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"ning bizgacha yetib kelgan ayrim sahifalarida o'z ifodasini topgan.

Biroq islomgacha davr tarbiyashunosligi, fan va madaniyati tarixini yoritish imkoni chegaralangan. Chunki, Qutayba rahbarligida arab istilochilari olib borgan janglar, talonchiliklar, vayrongarchiliklar tufayli o'sha davrga tegishli barcha asarlar, manbalar yoqib yuborilgan. Lekin islom va islomdan keyingi mavjud pedagogik qarashlarni, milliy ta'lim-tarbiyaga oid an'analarni, qadriyatlarni, xalq pedagogikasini ilmiy o'rganish, puxta tahlil qilish va hayotga tatbiq etish bugungi kunning muhim va dolzarb muammosidir.

Pedagogika tarixi fanining maqsadi – qadimgi O'rta osiyo hududida, shuningdek, dunyoning boshqa mintaqalarida pedagogik fikrlar taraqqiyotini, sharq mutafakkirlari va ma'rifatparvar shoirlari hamda jadidlarning ta'lim-tarbiya nazariyasiga qo'shgan hissalarini, mustaqillik davrida zamon va makon talabiga javob beruvchi milliy

maktab va milliy pedagogikani rivojlantirish hamda ta'lim-tarbiyaning nazariy asoslarini yaratish qonuniyatlarini o'rganishdan iborat. Zero, boshqa ijtimoiy hodisalar singari ta'lim-tarbiyaning paydo bo'lishi va rivojlanishi ham ma'lum ob'yektiv qonuniyatlar asosida sodir bo'ladi. Pedagogika tarixi fani vazifalaridan biri ana shu ob'yektiv qonuniyatlarni aniqlashdan iborat. Ma'lumki, ijtimoiy fanlarning qonuniyatlari ham ob'yektiv xarakterga ega. Ular ma'lum joyda, mamlakatda ayrim kishilar tomonidan ochilishi, kashf etilishi mumkin. Lekin bu ob'yektiv qonuniyatlarning ta'sir doirasi juda keng bo'ladi, ayrim millat, mamlakat, mintaqa doirasi bilan cheklanmaydi.

Pedagogika tarixi fanining ilmiy-nazariy, ijtimoiy-amaliy vazifalari quyidagilardan iborat:

– ta'lim-tarbiya qonuniyatlarini umuminsoniy va milliy, ijtimoiy hodisa sifatida, shuningdek, jamiyatning o'zgaruvchan ehtiyojlari bilan bog'liq holda o'rganish;

– ta'lim-tarbiyaning maqsadi, mazmuni va shakllarini jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan bog'liq holda yoritish;

– o'tmishda pedagogika ilmi va ta'lim-tarbiya sohasi orttirilgan ijobiy tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga tatbiq etish usullarini ko'rsatib berish;

– ijtimoiy-pedagogik fikrlar taraqqiyotining har bir bosqichida o'rta osiyo hududida va jahonning boshqa mintaqalarida pedagogik fikrlar rivojlanishini va ta'lim-tarbiya holatini tarixan haqqoniy tasvirlash;

– pedagogik-tarixiy bilimlar – bo'lajak pedagoglarning milliy, tarixiy, ma'naviy-pedagogik ongini shakllantirishga faol ta'sir etishini nazarda tutish va h.k.

Pedagogika tarixi jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlariga suyanan holda turli pedagogik nazariyalarni ta'lim-tarbiyaning mazmuni va metodlarini o'rgatadi. O'tmishning pedagogik tizimlarida bo'lgan ilg'or fikrlardan ijodiy foydalanadi.

Pedagogika tarixi ijtimoiy fandir. U tarixiy pedagogika hodisalariga davr talabi asosida yondoshadi, tarbiya nazariyasi va amaliyotini turli bosqichlarda xilma-xil bo'lganligini ochib beradi.

«Pedagogika tarixi» fani qadim zamonlardan tortib, to hozirgi kungacha bo'lgan turli ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar davrida ta'lim-tarbiya va maorif, pedagogik fikrlar taraqqiyoti hamda buyuk

allomalarning hayoti, ularning maktab, maorif, ta'lim-tarbiyaga qo'shgan hissalarini, pedagogik qarashlarini o'rganadi va o'rgatadi

Bu fanni o'rganish o'qituvchining umumpedagogik bilim darajasini kengaytiradi, pedagogik merosga to'g'ri munosabatda bo'lishga undaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, biz pedagogika tarixini o'rganishimiz orqali jahon madaniyati, ta'lim-tarbiya, maorif muassasalari tizimini takomillashib borish jarayoni haqidagi umumiy tasavvurga ega bo'lamiz.

«Pedagogika tarixi» fani bo'lajak o'qituvchilarga bilim beribgina qolmay, ularda milliy iftixor va g'urur hissini ham tarbiyalaydi.

Chunonchi, yurtboshimiz ta'kidlaganidek: «Xalqimiz tayanchi-ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosning o'zi bir xazina. Bu xazinadan odilona foydalanish lozim».

Biz pedagogika tarixi fanini o'rganish va tahlil qilishda quyidagilarga asoslanamiz.

Bular: qadimgi yozuvlar, bitiklar, qo'l yozma yodgorliklari, Sharq mutafakkirlarining ilmiy, ma'naviy merosi, xalq og'zaki ijodi, muqaddas kitoblar, pandnomalar, dasturlar, o'quv qo'llanmalari, darsliklar va xalq maorifi masalalariga oid materiallar.

Pedagogika tarixi fanining metodologiyasi esa milliy va umumbashariy qadriyatlar, xalq pedagogikasi, Markaziy Osiyo va Sharq mutafakkirlarining ilmiy va ma'naviy merosi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimovning ta'lim-tarbiyaga oid asarlari va milliy istiqloq g'oyasi haqidagi nazariyalar hisoblanadi.

Pedagogika tarixi fani g'oyalarning kishilik jamiyati taraqqiyoti bilan o'zaro aloqadorligi

Pedagogika fanining tarmoqlaridan biri pedagogika tarixidir. U har bir ijtimoiy tuzumda insonning ma'naviy-ma'rifiy yuksalishini ta'minlovchi ta'lim-tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat tushunchalarini, pedagogika fanidagi o'zgarishlarni jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda atroflicha o'rganishni taqazo etadi. Pedagogika fanini o'zlashtirish – ma'naviy, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotning harakatlantiruvchi kuchi bo'lmish inson kamoloti haqidagi g'oyalarni, pedagogik nazariyalarni, ta'lim-tarbiyaning mazmuni va metodlarini nihoyatda puxta bilishni talab etadi. Pedagogika tarixi fanini o'rganish – kishilik jamiyati taraqqiyoti yo'lidagi ta'lim-tarbiya bosqichlarining pedagogik va tarixiy asoslarni, tahlil qilish va ularga munosabat bildirish kabi malaka va ko'nikmalarni shakllantiradi.

Pedagogika tarixining metodologik asosi hamda yosh avlodni tarbiyalash an'analaridagi o'qitish va kamol toptirish tizimlarini, ularning qonun-qoidalarini, qomusiy mutafakkirlar, ma'rifatparvar shoirlar va pedagoglarning ta'lim-tarbiya, ma'rifaga doir g'oyalarni, shuningdek, ularning rivojlanishini mukammal o'rganadigan fandır.

1991- yilga kelib, O'zbekiston xalqi mustaqillikka erishgach, o'zining yangi milliy qomusi asosida barcha sohada bo'lganidek, o'zbek milliy fani va madaniyati «pedagogika tarixi»ga ham yangicha yondashish imkoniyati tug'ildi.

«Pedagogika» atamasi «peyne»-«bola» va «aygogeyn»-«yetaklamoq» degan ma'noni bildiruvchi lotincha «daydagogos» so'zlaridan paydo bo'lishi quyidagicha izohlanadi: eramizdan oldingi I asrlarda Gretsiyada, quldorlarning bolalarini ovqatlantiradigan, sayrga olib boruvchi tarbiyachi-qullarni «pedagog» deb atalgan. U bolalarning kamolga yetishiga mas'ul bo'lgan. Quldorning bolasini yetaklab maktabga olib borgan va olib kelgan. Maktabda ishlovchi o'qituvchilarni «didaskallar» (didayko-men o'qitaman) deyishgan. Feodalizm jamiyatiga kelib, har ikki kasbdagi kishilar hamkorligi natijasida ta'lim-tarbiya bilan maxsus shug'ullanuvchilar vujudga kelgan. Ularni chex pedagogi Ya.A.Komenskiy ta'kidlaganidek, «pedagog» deb nomlaganlar va bu so'z hozir ham ta'lim-tarbiya beruvchi o'qituvchilarga nisbatan qo'llaniladi.

1. Ayrim adabiyotlarda «pedagog» atamasini qul deb tarjima qilingan. Buning sababi ana shu faoliyat natijasidan kelib chiqqan. Qulning faoliyati ovqatlantirish, sayrga olib borish va o'qituvchini oldiga olib borish bilan uning xavfsizligiga mas'ul bo'lgan shu mas'ullik nuqtai nazaridan bolaga ayrim tushunchalarni uqtirib boradi. Masalan: suv havzasining oldiga borma, daraxtga chiqma va hokazo iboralar orqali unga o'zi bilmagan holda tarbiya bergan. Bola ham unga bir qator o'zini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qilgan. Ma'lumki, bolalarning yosh xususiyatlariga ko'ra 4 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan yosh davrda savol beruvchanlik xususiyati tabiatan mavjud bo'ladi. Masalan, nima uchun yomg'ir yog'adi, shamol bo'ladi kabi savollariga ham yetaklovchi qul javob berib boradi. O'qituvchi uning bilim olishiga mas'ul bo'lgan. Shaxs kamoloti uchun talim-tarbiya birdek zarur bo'lgani uchun har ikki shaxs faoliyatidan pedagog atamasi kelib chiqqan. O'zbek pedagogi Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida ta'lim va tarbiya uzviy bog'liq ekanini ta'kidlaydi: "Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayirmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kapidur," – deydi.²

O'tmishda atoqli mutafakkirlar pedagogikaga doir muhim fikrlarni qoldirganlar. Bularni o'rganish pedagogik tafakkurning o'sishiga, pedagogik madaniyatning ortishiga imkon beradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, biz o'rganmoqchi bo'lgan pedagogika tarixi fanining maqsad va vazifalarini aniqlashimiz va buni ta'lim-tarbiya jarayonida amaliyot bilan bog'lab qo'llashimiz va takomillashtirishimiz lozimdir.

²Авлоний А. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 15-бет)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'lim-tarbiya jarayonida milliy meros, pedagogik qadriyatlardan samarali foydalanishning ijtimoiy ahamiyati haqida

Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz. Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim.

Mana, ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar: "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib, xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq". Qarang, qanday bebaho, oltinga teng so'zlar!

Bugungi kunda yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" degan turli balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo'lsak, bu so'zlarning chuqur ma'nosi va ahamiyati yanada yaqqol ayon bo'ladi. Haqiqatan ham, hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan masala bo'lib qolmoqda.

Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu borada uyushmagan yoshlar bilan ishlashga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz. Farzandlarimiz, ayniqsa, qiz bolalarning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini, xorijiy tillarni egallashlari, har tomonlama sog'lom va barkamol bo'lib, hayotdan munosib o'rin topishlari uchun barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Ma'lumki, tarbiya o'z mohiyat-e'tibori bilan milliy, umuminsoniy va gumanistik mazmunga egadir. Har bir jamiyat o'z oldiga yetuk, har tomonlama kamol topgan, o'zida butun ijobiy, oliyjanob fazilatlarni birlashtirgan avlodni tarbiyalashni orzu qiladi. Tarbiyasi og'ir, ma'naviyati qashshoq yoki ma'naviyatdan mahrum

bo'lgan odamdan biror ezgulik kutish mumkin emas. Chunki u yaxshilik va ezgulik haqida umuman o'ylamaydi. Atrofga va hatto ota-onasi, qarindosh-urug'lari taqdiriga ham befarq, loqayd holda yashaydi. Tarbiyali, ma'naviyatli inson bugungi kun va kelajak haqida fikr yuritadi, shuningdek, kelgusi hayot va turmushning ravnaqi uchun o'z hissasini qo'shishga intiladi. Zotan, bugun xalqimizning «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» buyuk maqsadiga erishuvida ma'naviyati yuksak, barkamol insonlar zarur.

Mazkur masala o'ta dolzarb bo'lganligidan barcha zamonlar donishlari yoshlar tarbiyasi haqida bosh qotirib kelishgan. Masalan, buyuk yunon olimi Aristotelning «Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi», degan so'zlari bor. Zardushtiylik uch asosiy axloqiy qoidaga tayanadi: «Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal». Shu uchallasiga rioya qilgan odam kamolotga yetgan hisoblangan. Imom Buxoriy bu xususda yanada yorqinroq so'z aytgan: «Bolaning tabiati rivojlanishga moyil bo'ladi, uni qanday g'oyalari bilan to'ldirish ota-ona va ustozga bog'liq».

Forobiyning ta'lim-tarbiya yo'llari, usullari, vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir. U «Insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l – ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim, faqat, so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa, amaliy ish, tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo'lishi, o'rganishidir», deya ta'kidlaydi. Olim, o'z navbatida, ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilsa, tarbiyada ma'naviy-axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o'rganiladi. Kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb uqtiradi. Shuning uchun ushbu g'oyalardan jamiyatning tarbiyaviy-ta'lim salohiyatini mustahkamlash-da, ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilashda foydalansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Navoiy inson qadr-qimmatini uning mol-mulki, zeb-ziynati, mansabi yoki ijtimoiy kelib chiqishi bilan emas, balki uning ma'naviy qiyofasi, axloqiy sifatleri, undan elga qanchalik naf tegishi bilan belgilanishini ko'p marta takrorlagan. Shoir she'rlaridan birida:

Tut bargichalik qimmating yo'qmi?

Ipak qurtichalik himmating yo'qmi?

– deya insonni o'ylashga, o'ylaganda ham o'z hayotidan kelib chiqib xulosa qilishga chorlaydi. Shu ikki satrda insonning dunyoga

kelishidan tortib, bu yorug' olamda yashashning tub mohiyat ochib berilgan.

Shoirning quyidagi so'zlari ham tahsinga sazovor: «Kishilarning so'z bilan naf yetkazish qo'lidan kelmasa, loqal ko'nglidagi andishasi yaxshi bo'lishi kerak. Ko'ngli odamlarning xursandligidan xursand bo'lishi lozim. Kimning xalq g'amidan g'ami bo'lmasa, haqiqiy odam bo'lsang, uni odam dema».

Bu fikrlarning tub negizida tarbiya yotganligini anglab olish qiyin emas. Zero, Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek, "Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning asriy qadriyatlarimiz asosida yaratgan "Turkiy «Guliston» yoxud axloq" asari sharqona tarbiyaning noyob qo'llanmasi sifatida bugungi kunda ham o'zining qadri va ahamiyatini yo'qotgan emas. Biz «Tarbiya» fanining nazariy asoslarini ishlab chiqishda mana shunday bebaho asarlardan samarali foydalanishimiz zarur".

Ta'lim-tarbiya va pedagogika tarixini davrlashtirish muammolari

Pedagogika tarixi – ta'lim-tarbiyaning tarixiy tajribasini, jahon madaniyatini rivojlanishi (sivilizatsiyasi, ya'ni tamadduni)ni hozirgi zamon bilan, har bir xalq madaniy va pedagogik fikrlari taraqqiyotini butun insoniyatning sivilizatsiyasi bilan uzviy bog'liq holda o'rganishni taqozo etadi. Pedagogik-tarixiy hodisalar, g'oyalar, nazariyalar, qarashlarni bayon etish mantiqi va xarakteri pedagogika tarixi fanini talabalar tomonidan oson o'zlashtirishiga imkon yaratadi.

O'zbekistonda pedagogika tarixini yahlit, yagona madaniy, pedagogik tarixiy jarayon sifatida yoritish uchun shartli ravishda quyidagicha beshta davrga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq:

1. Eng qadimgi davrlardan arablar istilosigacha (VII asrgacha) bo'lgan davr;
2. VIII asrdan XIX asr o'rtalarigacha – Turkistonni Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinguncha o'tgan davr;
3. XIX asrning 60-yillaridan XX asr boshlarigacha o'tgan davr;
4. 1917-1920-yillardan (oktyabr inqilobidan) 1991-yilgacha o'tgan davr;

5. O'zbekiston respublikasining mustaqillikka erishgan va hozirgi kunda pedagogik-tarixiy rivojlanish davri.

Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti

Hozirgi o'zbek xalqining ajdodlari bundan bir necha ming yillar oldin yashagan bo'lib, ular yuksak va o'ziga xos madaniyatni vujudga keltirishda juda katta va mashaqqatli yo'lni bosib o'tgan.

Dastlabki tosh qurollaridan tirikchilik uchun foydalanishda ancha takomillashgan mehnat qurollari yasashgacha, undan urug'chilik, qabilachilik davrlariga kelib, xo'jalik va madaniy taraqqiyotda erishilgan yutuqlarigacha bo'lgan tariximiz otabobolarimizning boy qadimiy madaniyatiga ega bo'lganligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, kishilar va kishilik jamiyati vujudga kelishi jarayonida inson ham biologik jihatdan, ham inson sifatida takomillashib borgan. Dastlabki diniy e'tiqodlar, oddiy ixtirolarning takomillashib borishi, inson ongining shakllanib borishiga turtki bo'ldi. Bu jarayon ming-ming yillar davom etib, inson ongi shakllanishining asosi bo'lgan xulq-odob qoidalari tarkib topadi.

Eng qadimgi kishilarning dastlabki oddiy istaklari, orzu-umidlari, hislatlari qadimgi eposlarda, ulardagi afsonaviy obrazlar qiyofasida o'z ifodasini topgan. Ruhga sig'inish: onimizm, ajdodlar ruhiga sig'inish totemizm, sehrgarlik kabi diniy e'tiqodlar va marosimlar aks etgan afsonalar. Rivoyatlarda eng qadimgi avlodlarimizning tafakkur dunyosi aks etgan. Ammo bu rivoyatlar, afsonalar massagetlar, saklar, xorazmiylar, so'g'dlar, parfiyaliklar yashagan davrlarga borib taqaladi.

Eng qadimgi tarbiya haqidagi yodgorliklar bizgacha bevosita yetib kelmagan. Turkiy va forsiyzabon xalqlarning «hayot kechirish san'ati, donolik majmuasi sifatida yuzaga kelib, borliqqa amaliy munosabatda bo'lish namunasi» ifodalangan ma'naviy madaniyat yodgorliklari:

- Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi marosimlari, urf-odatlari, ijtimoiy-falsafiy, madaniy, adabiy-tarixiy voqealarini ifoda etuvchi qomusiy yodgorlik namunasi bo'lmish «Avesto»;

- afsonaviy qahramonlar tasvirlangan dostonlar ya'ni, «Alpomish», «Manas», «Shiroq», «To'maris», «Go'ro'g'li», «Murodxon», «Ravshan», shuningdek, «Geografiya» asarlari, Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk», Urxun-Enisey bitiklari va boshqa shu kabi adabiy-tarixiy manbalarda saqlangan va shular orqali bizgacha yetib kelgan. Bu yodgorliklar insonning shakllanishida moddiy va ma'naviy madaniyat qay darajada katta rol o'ynaganligidan dalolat beradi. Xususan, tarbiya insonning aqliy va axloqiy jihatdan tarkib topa borishiga ta'sir etgan bo'lsa, insonning shakllana borishi ham o'z navbatida, insoniyat jamiyatining tarkib topa borishiga yordam bergan. Xullas, insonning o'z-o'zini anglashi va jamiyat taraqqiyoti bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan. Bu tarixiy jarayonni bilish, inson tafakkurining qadimgi davrlardan boshlab bosqichma-bosqich rivojlanishi va, shu bilan birga, insonning ham tobora shakllana borganligi haqida to'la tasavvur hosil qilishga imkon beradi.

Yuqorida keltirilgan tarixiy, falsafiy, pedagogik adabiyotlarda tadqiqotchilar umuman, eng qadimgi madaniy boyliklarimizni o'rganishda uch asosiy manbaga tayanganligini ko'ramiz:

1. Xalq og'zaki ijodi materiallari;
2. Buyuk adiblar, allomalarning ijodiy merosi;
3. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ashyolar.

Ma'lumki, o'tmishda kishilar mehnat faoliyati jarayonida o'z ehtiyojlarini qondirgan va bu jarayon yosh avlodga mehnat ko'nikma va malakalarini hosil qilishga yordam bergan. Tarixchilar va tarixchi-pedagoglarning ko'rsatishicha, kishilarning mehnat faoliyati yosh jihatidan uch guruhga bo'lingan:

- 1) bolalar va o'smirlar;
- 2) hayot va mehnatda to'la ishtirok etuvchilar;
- 3) keksalar.

Ibtidoiy jamiyat davrida bola o'zi uddalay oladigan faoliyatga bevosita qo'shilib, u hayot kechirish va mehnat qilishga o'rgangan. O'g'il bolalar erkaklar bilan bajariladigan ov qilish, qurol yasash kabi ishlarni bajarsa, qizlar ayollar mehnati bilan tanishar edi. Bola ma'lum tayyorgarlikdan so'ng sinovlardan o'tib, keyin amaliy faoliyatda ishtirok eta boshlaydi.

Urug'chilik jamoasi bosqichida bolalar mehnati, kasb-hunarga intilishi faollashib bordi. Tajribali kishilar bolalarni tarbiyalash bilan

birga, ularni yozishga ham o'rgata boshlaydilar. Asta-sekin tarbiya tizimiga harbiy vatanparvarlik tarbiyasining boshlang'ich turlari kirib kela boshlaydi.

Jamiyat taraqqiyoti bilan birga, bolalarga dalalarni o'lchash, suv toshqinlarining oldini olish, odamlarni davolash usullariga oid bilimlar berish ishlari avj oldi. Natijada maktablarga va yozuvga ehtiyoj sezila boshlaydi. Dastlab suratlashlik rivojlanib, piktografik xat paydo bo'lgan bo'lsa, keyinchalik qo'shni mamlakatlardan kirib kelgan harf bilan yozish usuli paydo bo'ladi va tez tarqala boshlaydi.

Tadqiqotchilar eramizdan oldingi birinchi ming yillik o'rtalarida oromiy yozuvi, Aleksandr Makedonskiy istilosidan so'ng esa Yunon yozuvi va shu bilan birga, forsiy mixxat ham ma'lum vaqtlarda qo'llanib kelinganini ta'kidlaydilar.

Demak, o'sha davridayoq Xorazm, Kushan, Run (Urxun-Enisey), uyg'ur va boshqa yozuvlar paydo bo'lgan hamda bu yuksalish ta'lim-tarbiyaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib kelgan.

Chunki, inson ibtidoiy jamoa bo'lib yashash tarzini asta-sekin rivojlantirib borib, jahon madaniyatida katta kashfiyotlar yaratdi.

Xitoyda qog'ozning ixtiro qilinishi, Hindistonda hisoblash o'nlik sistemasining paydo bo'lishi, Mesopotamiyada yer kurrasini graduslarga, sutkani soat, daqiqa va soniyalarga bo'lishning joriy etilishi, Markaziy Osiyoda O'ra dengiz bilan Hindistonni bog'lovchi arxeologik topilmalari, tarixchilar, adabiyot va san'at namoyondalarining ijodiy merosi, san'at va adabiyot namunalari buning dalilidir.

Ma'lumki, o'tmishda kishilar mehnat faoliyati jarayonida o'z ehtiyojlarini qondirgan va bu jarayon yosh avlodga mehnat ko'nikma va malakalarini hosil qilishga yordam bergan.

Eng qadimgi davrlarda ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlarni biz xalq og'zaki ijodi namunalari: afsonalar, qahramonlik eposlari, qo'shiqlar, maqol va iboralarda ham ko'ramiz. Chunki xalq donishmandligining ko'zgusi bo'lgan xalq og'zaki ijodida xalq pedagogikasiga xos bo'lgan tarbiya tajribalari umumlashgandir. Ayniqsa, Poliennning «Harbiy hiylalar» asarida keltirilgan «Shiroq» afsonasi, Gerodotning «Tarix» kitobidagi jasur To'maris haqidagi afsonalar shular jumlasidandir.

Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida esa ilm olishning qadri, bilimli, donishmand kishilarni hurmat qilish, mehmondo'stlik, xushxulqlik, mardlik va jasurlikni targ'ib etuvchi,

o'z manfaatini ko'zlagan molparast, baxil, ochko'z, do'stiga va xalqiga xiyonat kabi salbiy tomonlarni qoralaydigan she'rlar ko'p uchraydi. Bunday she'rlar turkiy xalqlar qadim-qadimlardan boshlab, inson shaxsini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor berganligini ko'rsatadi.

Ayniqsa, pand-nasihatlarda asosiy o'rinni ilm olishga undash, uning foydalari, ilm ahlini hurmat etish to'g'risidagi fikrlar egallaydi. Yoshlarga ilmi kishilarga yaqinlashish, ulardan o'gitlar olish maslahat beriladi:

*O'g'lim, senga qoldirdim o'git,
Unga amal qil.
Olimlarga yaqinlash, bahra olgil,
Tutib dil.*

Aqlli odamning zehni o'tkir bo'ladi, u har qanday o'git-nasihatni xuddi yuqorida parvoz etayotgan qushning pastda ovni ko'rgandagi tezlik bilan sho'ng'ishiga o'xshatadi. Oqil odam zehning tezligi qush parvozigacha qiyoslanadi:

*Qush ov ko'rsa, yuksaklardan pastga cho'kar,
Olim kishi o'git bersa, darhol uqar.*

(III t. 53)

Bu misolda aqlli, bilimli odamning tabiati, o'ziga xos hislati ifodalangan.

«Devonu Lug'atit turk» asarida insoniy fazilatlarining ajralmas qismi xushxulqlik alohida ajratib ko'rsatiladi. Har bir inson egallashi lozim bo'lgan ezgulik-yaxshilik, umummanfaati uchun mehnat qilish xushxulq insonga xos fazilat ekanligi uqtiriladi:

*Ulug'liging oshsa agar
Xushxulq bo'lg'il.
Bek yonida xalq uchun,
Xo'b ish qilg'il.*

(I t.95)

Kishilar o'rtasidagi totuvlik, ahillikning muhimligini ham quyidagicha ifodalaydi:

*Qo'ni-qo'shni, qarindosh
Ko'rsin sendan yaxshilik.
Ne-ne sovg'a qilishsa
Yaxshirog'in qil tortiq.*

(I t. 137)

Yana bir she'riy parchada shoir inson faqat o'zini o'ylamasligi, o'zgarlar manfaati uchun ham harakat qilishi lozimligini aytadi:

Ko'rklik to'ning o'zingga,

Totlig' oshing o'zgaga.

Qo'noqqa ko'rgiz izzat,

Yozsin sha'ning uzoqqa.

(I t.80)

Shoir mol-mulikka xirs qo'ymaslik, insonning mol-mulki ko'payganda ham mag'rurlanib ketmaslikni, bu borada kekxa avlod o'gitlariga rioya etishni ta'kidlaydi.

Ta'lim-tarbiyaga oid pand-nasihatlariga boy she'rlar inson turmushining turli tomonlariga oiddir. Inson hayotining abadiy emasligi, shuning uchun ham kishilarga yaxshilik qilish lozimligi, yoshlik husniga ishonish suvga suyanish bilan barobar, deydi.

Shu bilan birga she'r parchalarida:

Kimning ko'ngli bo'lsa

Qashshoq kambag'al.

To'q bo'lmaydi,

Boy bo'lmaydi, deyilgan misralar ham uchraydi.

(III t.257)

Bu pandlar hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Chunki ma'naviy boy bo'lmagan mamlakat hech qachon moddiy tomondan mustahkamlana olmaydi.

«Devonu Lug'atit turk» asarida xalqning ta'lim-tarbiyaga oid tajribalari ifodalangan maqollar ham mavjud. Maqollarda ham qo'shiqlardagi kabi do'stlik va hamkorlik mehnatga muhabbat, ilm olishga va kasb-hunar egallashga undash, vatanparvarlik va qon-qarindoshlik tuyg'usi, tejamkorlikning ahamiyati va isrofgarchilikning oldini olish, adolat va adolatsizlik, yaxshilik va yomonlikning natijalari, axloq-odob qoidalari, sihat-salomatlikni saqlashga oid o'gitlar talqin etiladi.



Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalarining yoritilishi

Eramizdan oldingi minginchi yillarning o'rtalarida eng qadimgi ajdodlarimiz tomonidan qahramonlik mazmunidagi juda ko'p afsonalar, rivoyatlar aytilgan bo'lib, ular zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»ga kiritilgan.

«Avesto»da insonning barkamol bo'lib yetishishida uning so'zi, fikri, ishi, birligiga katta e'tibor berilgan. Bu axloqiy uchlik eng qadimgi davrlardan boshlab undan keyin yaratilgan barcha ma'rifiy asarlarga asos bo'lgan desak, xato qilmagan bo'lamiz.

Ma'lumotlarga ko'ra, «Avesto» eramizdan avvalgi VII asrning oxiri va VI asrning boshlarida yaratilgan bo'lib, u uzoq davrlar mahsuli sanaladi. Hamda davrlar o'tishi bilan u qayta-qayta ishlanadi. Barcha manbalarda to'liq kitob holida shakllanishini eramizdan avvalgi birinchi asrga to'g'ri keladi deyiladi.

«Avesto»ning Vatani Xorazm ekanligini olimlar ishonch bilan ta'kidlaydilar:

Zardusht Sharqning birinchi faylasufi, notig'i, shoiri, donishmandi, xalq dohiysidir. Zardusht miloddan avvalgi VII-VI asrda yashagan. Xorazm hokimligiga qarashli hududda chorvachilik bilan shug'ullangan Spitamen urug'idan bo'lgan. Otasi Paurushaspa, onasi Dugdova deb nomlanganlar, ular ot va tuya boqish bilan shug'ullanganlar. Zardusht ko'p xudolikka sig'inish, qurbonlik natijasida mollar qirilib ketayotganinini hamda qabilalar o'rtasidagi nizolarni ko'rib, uni oldini olishni o'ylaydi va o'z ta'limotini targ'ib eta boshlaydi. Lekin qabila boshliqlariga uning ta'limoti yoqmaydi. Zardusht xudodan kelgan vahiy orqali ko'pxudolikka qarshi yakka xudolikni targ'ib etib chiqadi, kuchli hokimiyat o'rnatib, yer yuzida tinchlikni barqaror etish uchun kurashadi, yaxshilik va ezgulik xudosi Axura Mazdani himoya etadi.

Zardushtning yangi ta'limotini istamagan qabila boshliqlari uni ta'qib etadilar. U Rayga (Eronga) qochadi va o'z dinini o'sha yerda tarkib toptiradi. «Avesto»ni shoh Vishtaspga (Gushtasp) taqdim etadi. Shoh Vishtasp uning homiysiga aylanadi. Vishtaspning farmoniga binoan otashxona-ibodatxonalar qurdiriladi va zardushtiylik dini keng tarqaladi.

Zardusht³ ta'limoti tobora xalqqa ta'sir o'tkazayotganini sezgan Muxoliflar unga qarshi qat'iy kurashga kirishadi. Zardusht 77 yoshida oltin suvi bilan zarhallangan binoda ibodat paytida ko'pxudolik tarafdori, shoh Arjasining sodiq navkari Bratarvaxsh tomonidan o'ldiriladi. Ammo Zardusht ta'limoti, u asos solgan din Ajam o'lkalarida islom majburan qabul qildirilguncha e'tiqod bo'lib qoladi. Hozir ham Janubiy Hindiston, Shimoliy Eronda zardushtiylik e'tiqodidagilar mavjud.

Adabiyotshunos H.Hamidov Zardushtning shoh Gushtasp vazirining qizi Havoviga uylangan, undan uch o'g'il – Istavatra, Urvatatnara, Xvarachira va uch qiz – Freni, Triti, Pourichista nomli qizlari bo'lganligini keltiradi (93, 87-88 b.).

Vishtaspning farmoniga ko'ra 1200 bobdan iborat «Avesto»ni oltin taxtaga yozdirilib, shoh otashkadasiga topshiriladi.

Manbalarda «Avesto»ning kitob holidayi matni eramizdan oldingi 12 ming oshlangan mol terisiga oltin harflar bilan bitilgani keltiriladi. Bu nusxasi Iskandar istilosigacha Istahr shahrida saqlangan. Iskandar Istahrni bosib olgach, «Avesto»dagi tibbiyot, nujum, ilmu hikmat soxalariga oid matnlarni Yunon tiliga tarjima qilib, boshqasini yoqib yuborishga buyurgan. Ba'zi tadqiqotchilar eng qadimgi nusxasi 1324-yilda ko'chirilgan bo'lib, Kopengagen kutubxonasida saqlanishini aytishsa (N.Mallayev), boshqalar esa (V.A.Livits) 1288-yilda eng qadimgi qo'lyozma nusxasi yaratilganini aytadilar.

Zardushtiylik ta'limotini jamg'arilgan Zardushtning kitobi bizgacha 2 nusxada yetib kelgan.

Birinchisi-duolar to'plamidan iborat bo'lib, «Vendidot» - sedee, ya'ni «Pok Vendidot» deb ataladi (A.Irisov). Bu kitobga «Yasna»lar, «Vispered» ham kiritilib, bir butun tarzda shakllangan. Ikkinchisida ham birinchisidagi kabi «Vendidat», «Yasna», «Vispered»lar kiritilgan bo'lsa ham, bu kitob tarjima qilinib sharhlar bilan beriladi. Shuning uchun ham sharhli nusxasi «Avesto va Zand» yoki «Zand Avesto» deb yuritiladi.

Ikkinchi variantiga binoan «Avesto» quyidagi qismlardan iborat:

1. «Vendidot» 22 bobdan iborat. Asosan, Axuru Mazda bilan Zardushtning savol-javobi shaklida yozilgan bo'lib, u yomon ruhlarni, devlarni yengish voqealari, gunohlardan pok bo'lish qoidalari hamda mifologik unsurlarni o'z ichiga oladi. Ya'ni devlarga qarshi qonun,

³ Zardusht sariq tuya egasi demakdir

qonunnoma bo'lib, yomonlik timsoli bo'lgan devlarga nafrat bilan qarashdan iboratdir.

Axura Mazda yurtida yaxshilik, xayrli ishlarni yuzaga keltirsa, Anxra Manu (Axriman) o'z yurtida yomonlik yaratadi.

2. «Visparad». U 24 bobdan iborat. «Visparad» ibodat qo'shiqlarini o'z ichiga oladi.

3. «Yasna». Yasnalar 72 bobdan iborat. Diniy ibodatlar paytida, qurbonlikka chaqirish marosimida aytiladigan qo'shiqlar, xudolar madhiyasi va boshqalar. Uning 17 bob Gotlar deb ataladi. Bular «Avesto»ning eng qadimgi qismlari sanaladi.

4. Yashtlar. U zardushtiylik xudolari va ma'budalari madhiga aytilgan 22 qo'shiq (Gimnlar)ni o'z ichiga oladi.

5. Kichik Avesto (Xurda Avesto, Xvartak-apastak). Quyosh, Oy, Ardivisura, Mitra, olov va boshqa xudo hamda ma'budalar sharafiga yig'ilgan kichik ibodat tekst (gimnlar)idan iborat.

Zardushtiylik to'g'risida so'z borganda unda to'g'rilik bilan yashash va axloqiy unsurlarga asoslanganligini ta'kidlash lozim. Ayniqsa, «Avesto»da zardushtiylikning insonga, insonning jamiyatda tutgan o'rniga munosabati «got»larda to'liq yoritilgan.

Tarbiyaviy manba sifatida «Avesto» katta ahamiyatga ega.

Yuqorida aytganimizdek, Zardusht qadimgi qabilalarda diniy e'tiqodlarni isloh qilgan. Zardusht ta'limotining yangiligi shundaki, Axura Mazda (Qodir iloh adolat va yaxshilikning ijodkori sanaladi Anxra Mani esa (yovuz ruh) barcha yomonliklar sababchisi. «Avesto»ning mazmuni haqida uning bizgacha yetib kelgan parchalari matnlariga asoslanib quyidagilar ifodalanganini ko'ramiz:

«Vendidot»ning dastlabki uch bobida xalq hayotida yerning qay darajada muhim ahamiyatga ega ekanligi kuylanadi. Masalan, 1 bobida yovuzlik va adolat o'lkalar tasniflanar ekan, Axura Mazda tinchlik o'lkasi, Adolat o'lkalarning asoschisi, Angro Manvyu esa jaholat urug'ini sochuvchi sifatida talqin etiladi. Anna shu o'lkalardan 17 o'lka sanab o'tiladi.

«Avesto»da tasvirlangan Adolat o'lkasining keyingi davrlardagi nomlarini quyidagicha keltiradi:

1. Aryana Vedja - Xorazm yoki Araks daryosi Qirg'og'idagi yoki Amu va Sirdaryo deltasidagi o'lka.

2. Gafa-So'g'diyona.

3. Mouru (Margav)-Marshana (Marv, hozirgi Mari).

4. Baxdi-Baqtriya (Balx).

5. Nisaya-Nisa, Parfiya poytaxti.
6. Xaroy-Isfaxonda birj oy.
7. Xnenta-Gurkaniya.
8. Xaraxvaiti-Garut (Araxoziya bilan bog'liq).
9. Xetumant-Gilmenda havzasidagi viloyati.
10. Raga - Midiyadagi bir shahar, Ray Tehronga yaqin.
11. Chaxra-Xurosondagi birj oy.
12. Varna-janubiy Kaspiy bo'yi viloyati.
13. Xapta Xindav - Inda, Panjob havzalari hududi.
14. Rangxa irmoqlari - mifologik o'lka.


Ikkinchi bobda Yima haqida afsona keltiriladi. Unda yerni uch barobar ko'paytirish, odamlarni, hayvon va o'simliklarni himoya qilish uchun chegara belgilanadi. Yerning suvdan paydo bo'lganligi haqida qadimgi Hind-Eron qabilalarining dastlabki tasavvurlari ifodalanadi. Keyingi boblarida esa gunoh va uning jazosi, poklikning mohiyati ta'riflanadi, olov, suv, yer, chorva, daraxt, o'simliklar ulug'lanadi, kohinlar, harbiylar, dehqon va chorvadorlar madh etiladi. Hayvonlarga zulm o'tkazish eng katta gunoh sifatida qoralanadi. Mazkur bo'limda gigienaga oid qoidalar: tirnoq va sochlarni parvarish qilishga ham e'tibor beriladi.

«Avesto»da biz inson shaxsining takomiliga oid ma'rifiy fikrlarning ma'lum bir tizimini ko'ramiz. Hatto «Avesto»ni dastlabki pedagogik asar desak ham xato qilmagan bo'lamiz va eng qadimgi davrlarda xalqimizning tabiiy, ilmiy, ma'rifiy fikrlariga oid qiziqarli materiallarga ega bo'lamiz. Shuningdek, tadqiqotchilar ham uni diniy xarakterga ega bo'lishi bilan birga falsafa, siyosat, ta'lim-tarbiya, adabiyot masalalarini ham qamrab olgan asar sifatida va uning kelib chiqishi haqida muhim fikrlar bayon etadilar.

Xulosa qilib aytganda, «Avesto»da insonning barkamol bo'lib yetishishida uning so'zi, fikri, ishi birligiga katta e'tibor beriladi. Bu axloqiy uchlik eng qadimgi davrlardan boshlab undan keyin yaratilgan barcha ma'rifiy asarlarga asos bo'lgan desak xato qilmagan bo'lamiz. Zero, unda insonning inson sifatida ma'naviy va moddiy kamol topishi uchun zarur bo'lgan muayyan talablar o'z ifodasini topib, hayot kodeksi sifatida faqat Sharq xalqlarining emas, g'arbning ham muqaddas merosi bo'lib qoldi.

Zardushtiylik axloqining asosiy uchligini jadvalda quyidagicha ifodalash mumkin:

ZARDUSHTIYLIK AXLOQINING ASOSIY UCHLIGI



1-rasm. Zardushtiylik axloqining asosiy uchligi

Eng qadimgi turkiy tilda yaratilgan va turk-runiy yozuvida bitilgan Urxun-Enisey bitiklari ham VI-VIII asrlarda yozib qoldirilgan bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlar beradi.

Garchi Urxun-Enisey yozma yodgorliklari bevosita ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlanmagan bo'lsa ham, ulardan o'sha davr axloqiy talablar yuzasidan ma'lum bir ma'lumot olish mumkin. Xususan, hoqonlar va alplarning jangovor faoliyati, turmush tarzi, vatanparvarlik, birdamlik, ittifoq bo'lib yashashga intilishi, mardlik, jasorat, samimiylik, insonparvarlik, ezgulik kabi insoniy hislatlari jamiyat har bir a'zosining axloqiy qiyofasini belgilovchi muhim fazilatlar sifatida ma'rifiy qadriyatlarimiz tarixida muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, VI asr o'rtalariga kelib Oltoy, Yettisuv va Markaziy Osiyo turk qabilalaridan turk hoqonligi tashkil topdi. Bu hoqonlik g'arbdan Vizantiya, janubdan Eron va Hindiston, sharqdan Xitoy bilan chegaradosh bo'lgan. Turk hoqonligi Turkyut davlati deb ham atalgan. Hoqonlik 603-yilda Sharqiy va G'arbiy hoqonlikka ajralgan. 745 -yilga kelib esa Turk hoqonligi tugallanadi.

Turk hoqonligi, asosan, 3 kishi: Bilga hoqon (Mog'ilyon), Kul tegin, Tunyuquqlar qo'lida markazlashgan edi. Bilga hoqon (Mog'ilyon) hoqon, Kul tegin-sarkarda, Tunyuquq esa vaziri dono bo'ladi.

Bitik toshlarda turk hoqonlarining yurishlari, bu yurishlarda ko'rsatgan jasoratlari, ularning bilimli, mard, xalqparvar alp yigitlar ekanligi bayon etiladi. O'z Vatani mustaqilligi uchun kurash, xalqni azoblardan olib chiqish, ularning birdamligini ta'minlash, hoqonlar Bo'min, Istami, Eltarish, Eltarishning o'g'illari -Bilga hoqon va lashkarboshi Kul tegin, ma'naviy otalari Tunyuquqlarning zimmasiga tushgani hikoya qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, eng qadimgi ma'rifiy yodgorlikda insonda qadrlanadigan hislatlar: jasurlik, mardlik, adolat, sadoqat, insoniylik, xushmuomalalik bo'lgan. Bu hislatlar o'z-o'zidan

shakllanmagan. Tabiat va jamiyatdagi o'zgarishlar, ibtidoiy urug'chilik qabilachilik turmush tarzi buni taqozo etgan. Ikki katta kuch – yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi ayovsiz kurash insondagi bu hislatlarning bevosita shakllanishiga turtki bo'lgan.

Tayanch ibora va atamalar: Pedagogika tarixi, g'oya, eng qadimgi davrlar, "Avesto", qadimgi ma'rifiy yodgorlik, xalq ijodiyoti namunalari, afsonalar, qo'shiqlar, ertaklar, dostonlar, "O'gitnoma"lar, axloq-odob, ta'lim-tarbiya.

Bilimingizni sinab ko'ring

1. Pedagogika tarixi fani nimani o'rgatadi?
2. Pedagogika tarixi fanining maqsadi, vaazifasi, predmeti»,
3. «Pedagogika tarixi fanining metodologiyasini rimalar tashkil etadi?
4. Pedagogika tarixi qanday fan?
5. Pedagogika tarixi fanini o'rganish jarayonida o'qituvchiga xos qanday malakalar shakllanadi?
6. Ta'lim-tarbiya va pedagogika tarixinini o'rganishdagi asosiy manbalarni tasniflang.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. T.: O'qituvchi 2021
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. Yoshlar nashriyoti uyi. T.: O'qituvchi, 2019
3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent – "O'zbekiston" -2016.
4. Авлоний А. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. – Toshkent: Ўқитувчи, 1992.
5. А.Навоий. Махбуб ул-қулуб. Асрлар 15 томлик, 13-том, Т., «Адабаёт ва санъат» 1990.
6. Хаджаев В.Х. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. T.: Sano-standart. 2017.
7. Хаджаев В.Х., Choriev A., Salieva Z.T., Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. –T.: Iqtisod dunyosi. 2018.
8. А.Навоий. Махбуб ул-қулуб. Асрлар 15 томлик, 13-том, Т., «Адабаёт ва санъат» нашриёти 1990.
9. Ўзбек педагогикаси тарихи (проф Аскар Зуннуновнинг умумий тахрири остида). Т., «Ўқитувчи».1997

2-Mavzu: VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha O'rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar

Reja:

1. Islom dinining tarqalishi va uning ta'lim-tarbiyaga ta'siri.
2. Musulmon maktablari va unda ta'lim-tarbiya mazmuni
3. Hadis ilmining paydo bo'lishi. Imom al-Buxoriy va uning «Al-jome' as-sahih», «Al-adab al-mufrad» asarlarida tarbiya masalalari

VII asr boshlarida tashkil topgan Arab xalifaligi o'z mavqeini mustahkamlash uchun boshqa mamlakatlarni ham zabt eta boshladi. Eron, Kavkaz orti, Suriya, Shimoliy Afrika, Janubiy Ispaniya ham xalifalik tarkibiga kiritildi.

VII asrdan boshlab arablar Movarounnahrda ham hujum boshladi. VIII asr o'rtalarida esa butun Movarounnahr zabt etildi, natijada bu o'lkada ham xalqqa islom dini qabul qildirildi. Arablar istilo etgach, Movarounnahrda ham islom g'oyalariga asoslangan ta'lim-tarbiya tizimi o'rnatila boshlandi va yangi tizimga ega bo'lgan ta'lim muassasalari paydo bo'ldi. Islom dini qabul qilingan joylarda machitlar, machitlar qoshida esa maktablar tashkil etilda. Arab tilini o'rganish joriy etildi, maktablarda ta'lim arab tilida olib borilar va u yerda, asosan, «Qur'oni Karim» o'rganilar edi. Arab bo'lmagan bolalarga islom dini asoslarini o'rgatish maqsadida «Haftiyak», «Chor kitob» kabi darsliklar o'qitilardi.

XII asrdan boshlab, islom dinini turkiy tilda yozilgan asarlarda ham ommalashtirish boshlandi. Misol tariqasida Ahmad Yassaviyning «Hikmatlar» asarini keltirish mumkin.

Xalq, asosan, o'z ona tilida so'zlasa ham, yozuv arab alifbosida edi. U davrda savod chiqarish harf va so'zlarni yozishni o'rganishdan boshlanar edi. Maktab so'zi arabcha «yozuv o'rgatadigan joy» deb atalar edi.

Maktablarda bolalarga yozish va hisoblash o'rgatilgan, bundan tashqari, o'smirlarga savdo san'ati, arab tili, mantiq, notiqlik, husnixat, arifmetikadan saboq berilgan.

Har bir maktab talabasining soni 30-40 dan oshmagan. Machitlar huzuridagi maktablarda, asosan, «Qur'on» o'qitilgan.

Maktab va madrasalarda ta'lim mazmuni

Bolalarga dastlabki saboq harflarni o'qishdan boshlangan, bu usulda har bir bola alifbe tartibida harfning nomini bilib olishi (alif, be, te, se va h.k.), so'ngra shu harflarni qo'shib o'qishni mashq qilar edi. Ana shu mashq oxiriga yetganidan so'ng bolalarning qo'llariga «Qur'on» berilgan va domla rahbarligida «Qur'on»ning har bir surasi takrorlanib o'rgatilar edi.

X-XII asrda islom dini ruknlari dars tojik tilida she'r va nasr bilan bayon qilingan. «Chorkitob» o'qitila boshlandi. XII asrdan boshlab Ahmad Yassaviy, undan so'ng XVII asrdan So'fi Olloyorning turkiy tilda yozilgan she'r va boshqa asarlari vositasida islom dini rukunlari turkiy tilda o'rganila boshlandi. Maktablarda faqat o'g'il bolalar o'qir, qizlar esa otinoyilar uyida o'qitilar, ular yozuvni emas, faqat o'qishni o'rganar edilar.

X asr boshlarida madrasalar ham paydo bo'la boshlaydi. «Madrasa» so'zi «dars o'qitiladigan joy», «ma'ruza tinglaydigan joy» ma'nosini anglatadi. Ma'lumki, madrasalarda musulmon diniy oqimlari arab tili grammatikasi va qoidachilik, ilohiyot, mantiq, notiqlik mahorati, kalom o'rgatilgan. Asta-sekin madrasalarda astronomiya, matematika, geografiya, kimyo kabi dunyoviy fanlar ham o'qitila boshlandi.

Madrasalarda 15-20, 30-40 va 100-150 tacha talaba o'qishgan. Madrasani bitirib chiqqanlar imom-xatib, qozixonalar va boshqa ma'muriy ishlarda ish olib borar edi.

Ma'lumki, islom aqidalari e'tiqod va talablari, huquqiy va axloq me'yorlari «Qur'on» va uning tavsiflarida, «Hadis»larida hamda shariat qo'llanmalari, ilohiyot adabiyotlarida ifodalangan. «Qur'on» - dunyo madaniyatining ulkan boyligi, islomda muqaddas kitob. U arab tilida «Qiroat» ma'nosini anglatadi. «Qur'on» 114 suradan iborat. U kishilarni tenglikka, birodarlikka, tinch-totuv yashashga, sahiylikka undaydi.

Shunga ko'ra u katta axloqiy qimmatga ega. Buni biz «Qur'on»ning necha asrlardan buyon insoniyatning eng ulug' qadriyati sifatida e'zozlanib kelinishidan ham bilsak bo'ladi.

Lekin «Qur'on»ning axloqiy tamoyillarini noto'g'ri talqin qilib, yoshlarni to'g'ri yo'ldan ozdirishga harakat qilgan ba'zi yovuz kuchlar hozirgi kunda ham tajovuz qilmoqda.

Biz uning mazmun-mohiyatiga qanchalik yaxshi va tez o'rgansak, ana shu yomon niyatli kishilarga shunchalik tez zarba beramiz va g'oyaviy bo'shliqning oldini olgan bo'lamiz. Bunda bizga «Hadis»lar ham katta yordam beradi.

«Ota-ona bilan muloqotda bo'ladigan farzandlar quyidagi besh narsani bilishlari kerak». Muloqot chog'ida u:

- ota-onalari qattiq-quruq gapirib yuborganlarida ham ularga malol kelib «uff» demasliklari;
- ota-onani xafa qiladigan so'z so'zlamasliklari;
- ota-onalarga doimo ehtirom bilan yaxshi so'zlarni so'zlashlari;
- ota-onalarga doimo rahm-shafqat ko'rsatib, o'zlarini ularning oldida kamtar tutishlari;
- Allohdan ota-onalariga rahmat tilab duo qilishlari.

«Qur'oni Karim» (o'zbekcha izohli tarjima). Toshkent, «Cho'lpon», 1992 -yil.

Hadis ilmining paydo bo'lishi. Imom al-Buxoriy va uning «Al-jome' as-sahih», «Al-adab al-mufrad» asarlarida tarbiya masalalari

«Hadis» va «sunna» so'zlari bir ma'noni anglatib, Rasulullohning hayoti va faoliyatida diniy va axloqiy ko'rsatmalari haqidagi rivoyatlardan iborat. Hadislar dastlab yozib borilmagan. Chunki, payg'ambarimiz «Qur'oni Karim» nozil bo'lgan vaqtlarda arab bo'lmagan kishilarning hadislarni Qur'on oyatlaridan deb o'ylashlaridan cho'chib, uni yozib borishlariga ruxsat etmaganlar. Lekin payg'ambarimiz Muhammad salallohu alayxivasallam huzurida sahobalar bo'lib, ular Rasuli akramdan eshitgan hadislarni yodlab borganlar. Masalan, Hazrati Abu Xurayra shunday mo'tabar kishilardan bo'lib, butun umrini hadislarni yodlashga baxsh etgan. Mazkur hadislar to'g'ri, ishonarli (sahih) bo'lgan.

Lekin, hadislarni yod olgan kishilar tobora kamaya borgan hamda asta-sekin ular unutilib ketishining oldi olinib, xalifalar ishonarli hadislarni to'plashga farmon berdilar. Islomshunos olimlar bu ishni boshida turgan dastlabki xalifa Umar Ibn Abdulaziz ekanligini ta'kidlaydilar. VIII-IX asrlar hadis ilmi uchun «oltin davr» hisoblanadi.

Islom dunyosida eng nufuzli manbalar deb sanalgan oltita ishonchli to'plam (As-sahih as-sitta)ni yaratgan muhaddislar ham vatandoshlarimiz bo'lib, hadis ilmi rivojlangan IX asrda yashab ijod etganlar. Bular: Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy 194 (810)-256 (870); Imom Muslim ibn al-Hajjoj 206 (819)-261 (874); Imom Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy 209 (819)-279 (892); Imom Dovud Sulaymon Sijistoniyy 202 (817) – 275 (880); Imom Ahmad al-Naso'iy 215 (820)-303 (915); Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazid ibn Moja 209 (824) 273 (886) kabi allomalardir.

Al-adab al-Mufrad (arabcha: *المعرد الأدب*) – Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al-Buxoriy qalamiga mansub inson xulqini takomillashtirish haqidagi hadislar to'plami.

Kitobda Muhammad payg'ambarning odob-axloqi to'g'risida hadislar bor. Asardan umumiy 1322 hadis joy olgan. Ushbu kitob Imom al-Buxoriyning boshqa kitobi - „Al-Jome as-Sahih“ hadislar to'plamining soyasida qolgan deyiladi. Musulmon ulamolari o'rtasida al-Jome 'as-Sahih va Sahihi Muslim, Islomning Qur'ondan keyingi eng haqiqiy kitoblari ekanligi to'g'risida yakdil fikr mavjud.

Garchi al-Adab al-Mufrad o'zining muhim asari bo'lgan bo'lsa-da, Imom al-Buxoriy al-Adab al-Mufrad ichidagi hadislarning o'zi uchun qo'ygan Al-Jome as-Sahihdek juda qattiq va qat'iy haqiqiylik shartlariga javob berishini talab qilmagan. Biroq, hadis zanjirlarini al-Adab al-Mufrad ichida tushuntirgan, sharhlagan yoki izlab topgan va tasniflagan keyingi olimlarning asarlariga asoslanib, undagi rivoyatlarning aksariyati sahih yoki hech bo'lmaganda kuchsiz deb topilgan.

Adab al-Mufrad ichidagi hadislarning o'zi uchun qo'ygan Al-Jome as-Sahihdek juda qattiq va qat'iy haqiqiylik shartlariga javob berishini talab qilmagan. Biroq, hadis zanjirlarini al-Adab al-Mufrad ichida tushuntirgan, sharhlagan yoki izlab topgan va tasniflagan keyingi olimlarning asarlariga asoslanib, undagi rivoyatlarning aksariyati sahih yoki hech bo'lmaganda kuchsiz deb topilgan.

Imom al-Buxoriyning bu asari bir qancha hadislarni o'z ichiga oladi. Bu asar 645 bobdan iborat bo'lib, har bir bobi inson uchun zarur bo'lgan odob-axloq qoi-dalariga qaratilgan. "Al adab al mufrad" kitobi 1889-yil Hindistonning Bixar viloyatidagi "Al-xaliliy" matbaasida, 2 marta Konstantinada va 1930-yilda Qohirada chop etilgan.

«Sahih» yo'nalishining asoschisi, eng yetuk va mashhur muhaddis Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydir (825-870). Imom Buxoriy hadis ilmida «Amir ul-mo'minin», «Imom al-muhaddisiyn» («Barcha muhaddislarning peshvosi») degan sharafli nomga sazovor bo'lgan.

Imom al-Buxoriy juda boy ijodiy meros qoldirgan. Shubhasiz, bu asarlaridan eng yetuk shoh asarlari «Al-Jome' as-sahih»dir. Bu asar «sahih al-Buxoriy» nomi bilan ham dunyoda mashhur.

Imom Buxoriy 4 jildidan «Al-jome' as-sahih» asarining bir jildida odob haqidagi hadislarni jam etgan. Keyinchalik alloma butun Islom olami odob-axloqi va tarbiyasi masalalariga bag'ishlangan «Al-adab al-mufrad» («Adab durdonalari») maxsus hadislar to'plamini yaratadi. Bu asar 644 bobda bayon etilgan, 1322 hadisdan iborat.

Mashhur muhaddislardan yana biri vatandoshimiz Abu Iso at-Termiziy (824-992) bo'lib, ularning o'tkir zehni, xotirasi, yodlash qobiliyatining kuchliligi tufayli Imom Ismoil al-Buxoriy ham ularni faqat shogird sifatida emas, hamkor do'st sifatida ham hurmat qilganlar.

At-Termiziy ham o'ndan ortiq asarlar yaratib, ayniqsa, «Al-jome' as-sahih» («Ishonchli to'plam»), «Ash-Shamoil an-Nabaviya» («Payg'ambarlarning alohida fazilatlarini»), «Al-ilal fi-l-hadis» («Hadislardagi illatlar va og'ishlar haqida») asarlar mashhurdir.

Hadislarda insonning kamolga yetishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar aks ettirilgan bo'lib, bular mehr-oqibat ko'rsatish, sahiylik, ochiq ko'ngillik, ota-ona va kattalarga, qarindoshlarga muruvvat, g'amxo'rlik, hurmat, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug'lash, halollik, poklik, o'zaro do'st, tinch-totuv bo'lish va boshqalardan iboratdir. Bundan tashqari, insonning o'zini illatlardan tiyish, yaxshilik sari intilish kerakligi borasidagi pand-nasihatlar ham o'z ifodasini topganki, bularning barchasi "Qur'oni Karim" ko'rsatmalaridan kelib chiqadi va komil insonni shakllantirish mezonini sanaladi.

Avvalo, islom aqidasi binoan har bir musulmon iymonli bo'lishi kerakdir. Qur'oni Karimda ta'kidlanganidek, hadisning ham birinchi kitobi Iymon kitobidir. Islomdan murod iymon demakdir. Iymonning mukammal bo'lmog'ining uch sharti ko'rsatiladi:

– to'g'ri e'tiqodli bo'lmoq;

– kishilar bilan yaxshi munosabatda bo'lmoq;

– kishi o'z ustida ishlamoq'i va o'zini ibodat va itoatga chaqirmog'i (34, 14-6. Keyingi parchalar ham ushbu kitobdan olinadi).

Iymon daraxtga tenglashtiriladi va uning 60 dan ortiq shoxlari bor deb, iymon belgilari sanab o'tiladiki, bularning har biri inson ma'naviy qiyofasining mukammallashuviga ta'sir etuvchi hislatlardir. Bular quyidagilardan iborat: «Qo'li bilan va tili bilan o'zgalarga ozor bermagan kishi musulmondir», «Ucha hislatni o'zida mujassam qilgan kishining iymoni mukammal bo'lg'aydir (25-bob)».

Hadislarda insonning ma'naviy kamoloti mezoni, uning tafakkur doirasi, dunyoqarashining kengligi, ilmiy bilimlarni qay darajada egallagani, o'z bilimi bilan atrofdagilarga, jamiyatga foyda keltiruvchi shaxs bo'lib yetishida muhim omil-bilim deb ko'rsatiladi. «Tolibi ilm qilish farzdir. Tolibi ilmga har bir narsa istig'for aytadi, hatto dengizdagi baliqlar ham». Bilimsizlik kishilarni nodonlikka olib keladi, ilmsiz jamiyatda esa jaholat, razolat hukmronlik qiladi, deyiladi.

Demak, hadislar Muhammad payg'ambarimizning sunnatlari bo'lib, mazmunan har bir mo'minning ishonchini, e'tiqodini mustahkamlaydi, shu bilan insonni ma'naviy kamolotga da'vat etadi. Islom dini ma'rifatga asoslangani uchun ham har bir shaxsni aqliy, jismoniy, axloqiy jihatdan kamolatga yetkazishga oid e'tiqod va iymondan iborat bo'lib komil insonni shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi va undan yoshlar tarbiyasida foydalanish shu kurning dolzarb muammolaridan sanaladi.

Tayanch iboralar: Mavorounnahr, Islom dini g'oyalari, ta'lim-tarbiya, musulmon maktablari, Islom dinining muqaddas manbalari ("Qur'on" va "Hadis"), Al-adab al-Mufrad musulmon maktablari, hadis ilmi, muhaddislar.

Bilimingizni sinab ko'ring

1. Mavorounnahrda Islom dini g'oyalari yoyilishi

2. "Qur'on" va "Hadis" o'rtasidagi tafovut nimalardan iborat?

3. Islom dinining tarqalishi va uning ta'lim-tarbiyaga ta'siri.
4. Musulmon maktablari va unda ta'lim-tarbiya mazmuni haqida nimalarni bilasiz?
5. Al-adab al-Mufrad asarida qnday masalalar qamrab olingan?
6. Movorounnahrda Islom dini g'oyalari yoyilishining ta'lim-tarbiyaga ta'siri

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Iso at-Termiziy "Ash-Shamoil an-Nabiya", Toshkent, "O'qituvchi" 1990-yil;
2. Sh. Boboxonov, A. Irisov "Hadis ilmining peshvolari", Toshkent, 1991-yil;
3. Imom Ismoil al-Buxoriy "Al-adab al-mufrid" Toshkent, "O'zbekiston", 1990-yil;
4. Imom Ismoil-Buxoriy "Al-Jome' as-sahih", Toshkent, I-III-IV, 1990-yil;
5. K. Hoshimov va boshqalar "Pedagogika tarixi", Toshkent, "O'qituvchi" 1996-yil;
6. O'zbek pedagogikasi tarixi (prof Asqar Zunnunovning umumiy tahriri ostida). Toshkent, "O'qituvchi" 1997-yil.
7. Xadjaev B.X., Choriev A., Salieva Z.T., Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi.
Darslik. –T.: Iqtisod dunyosi. 2018.
8. Ўзбек педагогикаси тарихи (проф Асқар Зуннуновнинг умумий тахрири остида). Т., «Ўқитувчи». 1997

3-Mavzu: Sharq Uyg'onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi. Ta'limiy-axloqiy fikrlar rivoji. IX-XI asrlar – Sharq Uyg'onish davri

Reja:

1. Abu Abdulloh Xorazmiyning didaktik qarashlari.
2. Abu Nasr Forobiyning asarlaridagi pedagogik fikrlar.
3. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-pedagogik qarashlari.
4. Abu Ali ibn Sino ta'lim va tarbiya haqida.
5. Maxmud ibn-Xusayn ibn-Muxammad Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida ta'lim-tarbiya masalalari.
6. Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilik asari" pandnoma asar sifatida.
7. Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarida didaktik qarashlar
8. Kaykovusning "Qobusnoma" asarining tarbiyaviy ahamiyati haqida

X asrdan boshlab Movarounnahr va Xurosonda mustaqil feodal davlatlari: Toxiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar davlatlarining paydo bo'lishi va xalifalik yemirilishi ham madaniy hayotning orqaga ketishiga emas, balki yanada ravnaq topishiga olib keldi. Bu davrda pul muomalasi rivojlanadi. Jamiyat siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlar, albatta madaniy hayotga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

Somoniylar davlatida Marv, Buxoro, Samarqand va Urganch o'sha davrning madaniy markazlari sanalardi.

Bu davrda arab tili ilmiy va aloqa tili edi. Maktablarda darslar arab tilida olib borilar edi. Rasmiy hujjatlar, shariat qoidalari arab tilida yuritilar edi. Ilmiy asarlar ham arab tilida yozilar edi. X asr o'rtalariga kelib, fors-tojik tilida ham ish yuritila boshlandi. Ammo yoziladigan hujjatlar, ishlar fors-tojik tilida bo'lsa ham, arab imlosida yozilar edi.

Bu shaharlardagi maktablarga hatto tevarak-atrofdagi qishloqlardan oddiy xalq bolalari ham kelib o'qiganligi manbalarda keltiriladi.

O'sha davrda Buxoroda katta kitob bozori bo'lgan, kitob do'konlarida olim va fozil kishilar uchrashib, ilmiy muloqat, munozaralar o'tgan.

Abu Ali ibn Sino kitob do'konlarining biridan Forobiyning Aristotel «metafizika»siga yozgan sharhlarini sotib olganligini tarjima holida hikoya qiladi.

Buxoro amiri saroyida esa yirik kutubxona mavjud bo'lgan. Amir kutubxonasini o'sha davrdagi Sheroz kutubxonasi bilan bellasha oladigan yagona kutubxona sifatida tan olganlar. Chunki Sheroz kutubxonasida kitoblar maxsus javonlarda saqlansa, amir kutubxonasida esa sandiqlarda saqlangan.

Bu davrda xind, eron, arab-yunon tillaridan tibbiyot, astronomiya, matematika, mantiq, psixologiya, falsafaga oid asarlar tarjima qilinishi shu sohaga oid bilimlarning rivojlanishiga ta'sir etdi. Eronlik Abdulla ibn al-Mukaffo (724-750) yozuvchi, pedagog, olim va tarjimon sifatida salmoqli ishlar qildi. U «Buyuk ishlar uchun nasihatlar» va «Kichik ishlar uchun nasihatlar» asarlarini yaratgan, pahlaviy tilidan hindlarning «Kalila va Dimna» didaktik asarini, «Shohlar kitobi», «Mazdak», «Oynoma»ni arab tiliga tarjima qilgan. Aristotelning «Kategoriya», «Talqin haqida» va boshqa asarlarini ham arab tiliga tarjima qilgan. Ibn al-Mukaffo 750 -yilda Moniy targ'iboti tarafdorlari sifatida qatl etiladi.

Qadimgi yunoniston olimlari Platon, Aristotel, Gippokrat, Galen, Evklid, Ptolomey, Arximed va boshqalarning asarlari, fors tilidan badiiy-didaktik asarlar «Kalila va Dimna», «Fors shohlari hayoti», hind tilidan «Hind dorilari va ularning nomlari», «Saorad», «Siddxanta», «Nabotiy dehqonchiligi to'g'risida kitob» va boshqa kitoblar tarjima qilindi.

Somoniylar davrida Rudakiy, Firdavsiy, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkirlar ijod etganlar.

X asrning ikkinchi yarmidan tashkil topgan Qoraxoniylar davlatida ba'zi xonlar o'z saroylarida kutubxonalar tashkil etdilar. Bu kutubxonalarda arab va xatto G'arbiy Yevropa olimlarining asarlari ham mavjud edi. Bu davrda turkiy til shakllanib bordi. Yusuf Xos Hojib, Mahmud kabi olimlar jahon ahamiyatiga ega bo'lgan asarlarini yaratdilar.

XI asr boshida G'aznaviylar davlati, keyinroq Saljuqiylar, Xorazmshohlar davlati ham tashkil topdi. G'aznaviylar davrida ham ilmiy, ijtimoiy fikrlar rivojlandi. Mahmud G'aznaviy o'z saroyiga juda katta madaniy boyliklarni to'playdi, olimlarni ilmiy ishga taklif etadi. Jumladan, Abu Rayxon Beruniyning mashhur «Hindiston» asri shu yerda yaratilgan edi. Saljuqiylar davrida Ali-Arslon Muhammad hokimiyatni boshqarganda uning vaziri Nizom ul-Mulk o'z davrining mashhur siyosiy arbobi va eng ma'rifatparvar kishilaridan bo'lgan. Saljuqiylar hokimiyati harbiylashgan bo'lib, bu hokimiyatning ichki va tashqi siyosatini Nizom ul-Mulk boshqarar edi.

G'aznaviylar ish uslubiga bir oz o'zgartirishlar kiritib, hokimiyatni boshqarish uslubini ishlab chiqadi va o'zining «Siyosatnoma» asarini yaratadi (1091-92). Bu asarda davlatni boshqarish tamoyillari bayon etiladi.

Nizom ul-Mulk maorifni rivojlantirishda katta xizmat qildi. 1067- yilda Bag'dodda o'zining shaxsiy jamg'armasiga o'sha davrning eng mashhur o'quv yurti- «Nizomiya» madrasasini qurdirdi. U olimlar, diñ peshvolari, so'fiylarga katta e'tibor berib, g'amxo'rlik qiladi. Uning katta xizmatlaridan yana biri taqvimni isloh qiladi. U 1074 -yili O'rta Sharq mamlakatlari uchun kalendar-taqvim tuzadiki, bu taqdim hozirgi eng takomillashgan kalendarlardan hisoblanadi.

XI asrda Xorazmda ilm-fan ayniqsa taraqqiy etdi. Xorazm shohi Ma'mun o'z saroyiga eng zabardast olimlarni taklif etadi. U tashkil etgan «Baytul hikma» - Donishmandlar uyi tarixda «Ma'mun akademiyasi» deb nom qoldirgan. Bu akademianing rivoj topishida Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, tarixchi Miskavayh, riyoziyotchi Abu Nasr ibn Iroq, faylasuf Abu Sahl al-Masihiy, tabib Abulxayr Xammor kabi olimlar ilmiy ijodlar bilan muhim rol o'ynadilar. Lekin toj-taxt uchun kurash natijasida bu ilm dargohi o'z faoliyatini to'xtatib, olimlar tarqalib ketadi.

Sharq uyg'onish davri madaniy rivojlanishida ilm-fanning shartli ravishda uch yo'nalishda rivojlanganini ko'ramiz.

Birinchi yo'nalish – matematika, tibbiyot yo'nalishidagi fanlar bo'lib, bularga matematika, astronomiya, kimyo, geografiya, geodeziya, minerologiya, tibbiyot, farmakologiya va boshqa shularga turdosh fanlar kiritilib, Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniyalar matematikaga oid, Zakriyo ar-Roziy kimyo va tibbiyotga oid, Ibn Sino, Jurjoniylar tibbiyot va falsafa, Abu Rayxon Beruniy,

Ulug'bek, Ali Qushchilar astronomiya va tibbiyotga oid yirik asarlar yaratdilar.

Ikkinchi yo'nalish – ijtimoiy-falsafiy yo'nalish bo'lib, bunda falsafa, mantiq, fiqh, ruhshunoslik, notiqlik va boshqa sohalar bo'lib, bu sohada Al-Forobiy, Al-Kindiy, Ibn Rusht, Ibn Sino, Zahiriddin Bayxakiy, Muhammad Narshaxiy va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Lekin biz yuqorida zikr etgan olimlar qomusiy olimlar bo'lib, asosiy kashf etgan ilm sohalari bilan bir qatorda boshqa bir necha fanlarga doir ham tadqiqotlar olib borganlar.

Uchinchi yo'nalish – ta'limiy-axloqiy yo'nalish bo'lib, bu sohada qomusiy olimlar o'z qarashlarini ijtimoiy-falsafiy asarlarida ifodalaydilar.

Mazkur davrda ilmiy bilishga asoslanuvchi metod shakllandi. Natijada aqliy tarbiya olimlar diqqat markazida bo'ldi Xorazmiy, Forobiyalar bu metodni asoslab bergan buyuk mutafakkirlar bo'lsalar, ular bilan bir qatorda o'sha davrda yaratilgan barcha ta'limiy-axloqiy risolalarda ham aqliy tarbiyada zehnni tarbiyalash, aqliy kamolat yo'llari, bilimning asl mohiyatlarini yoritishga harakat qildilar.

Mutafakkirlarning o'z ishlarida o'qitish va ta'lim-tarbiyaga e'tibori natijasida ta'limiy-axloqiy masalalarga qiziqish orta bordi. Aniq fanlarni o'qitishning uslubiy masalalariga ayniqsa e'tibor kuchaydi. Pedagogika sohasida inson va uning kamoloti bilan bog'liq muammo asosiy o'rin egallaydi. Ta'limiy-axloqiy asarlarda bir tomondan inson aqli, uning quvvati, ilm-fanni egallashi, xushxulq bo'lishi ifodalansa, ikkinchi tomondan bu ifodalar ta'limiy-axloqiy asarlarda o'zining badiiy ifodasini topadi.

Mutafakkirlar ta'lim-tarbiyaga oid fikrlarida inson kamoloti baxt-saodatga erishish uchun sharoit yaratish degan g'oyani ilgari surish bilan bog'lab talqin etadilar.

Xulosa qilib aytganda, markazlashgan Arab xalifaligida ilm-fan taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va qadimgi ma'naviy yodgorliklar Movarounnahr va Xurosonda IX asrlarga kelib ma'naviy ko'tarilish, Sharq Renessansi – Uyg'onish davrining boshlanishiga olib keldi.

Butun Sharq bilan bir qatorda, Movarounnahr ham ilm-fan va ma'rifat sohasida o'z xizmatlari bilan dunyoga mashhur bo'lgan faylasuf va munajjim, matematika, fizika, tibbiyot, tarix, til va adabiyot, pedagogika sohasida ilmiy merosi bilan nom qoldirgan Al-

Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Al-Fargʻoniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar maydonga keldi. Qomusiy olimlar oʻz ilmiy merosida taʼlimiy-axloqiy asarlar yaratishga ham katta eʼtibor berib, bu asarlarda ilgari surilgan gʻoyalar insonning ham aqliy, ham axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan kamol topishida, pedagogik fikr taraqqiyotida katta ahamiyatga ega boʻladi.

Shuningdek, Sharq Uygʻonish davrida sof pedagogik asarlar yaratib, taʼlim-tarbiyada inson takomilining xususiy va umumiy metodlar haqida oʻlmas taʼlimoti bilan nom qoldirgan, tarbiyashunos olimlar ham maydonga chiqdi.

Demak, Uygʻonish davri inson kamoloti muammolari ikki yoʻnalishda:

1. Qomusiy olimlar ijodiy merosida komil insonni tarbiyalash muammosi.

2. Sof taʼlimiy-axloqiy asarlarda komil insonni tarbiyalash muammolari yoritilganini koʻramiz.

Quyida biz qomusiy olimlarning taʼlim-tarbiya toʻgʻrisidagi fikrlari, maʼnaviy, axloqiy qarashlari haqida toʻxtalamiz.

Abu Abdulloh Xorazmiyning didaktik qarashlari

(780(3)-850)

Jahon matematika fanining buyuk namoyandasi Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy taxminan 783 -yilda Xorazmda tugʻiladi.

U boshlangʻich maʼlumotni oʻz uyida otasidan olgan. Chunki uning otasi oʻqimishli boʻlgan. qadimiy diniy urf-odatlarini, yerli xalq yozuvlarini bilgan. Diniy va ilmiy adabiyotlardan xabardor boʻlgan. shuning uchun Al-Xorazmiy bolaligidayoq bu ilmiy manbalardan oʻrganish imkoniga ega boʻlgan. Xorazmiy matematika bilan juda berilib shugʻullangan. shu sohaga oid barcha asarlarni qunt bilan oʻrgangan. U arab, fors, Yunon tillarini ham oʻrganib, bu tilda yaratilgan asarlarni ham oʻqiy olish qobiliyatiga ega boʻlgan. U «Al jabr va al-muqobala» asari bilan matematika fanini rivojlantirdi hamda amalda qoʻllash usullarini bayon etdi. «Al-jabr» keyinchalik matematikaning alohida boʻlimiga aylandi va «algebra» deb ataladigan boʻldi.

Xorazmiyning matematika oid ikkinchi kitobi «Xind arifmetikasi haqida kitob» bo'lib, ular o'nlik sistemasi raqamlariga bag'ishlangan. Xorazmiy hindlarning falakiyot jadvallarini tahlil etib, «Xorazmiy ziji» nomi bilan mashhur astranomik jadvallar tuzdi. shuningdek, olim «Er satxini o'lchash», «quyosh soati to'g'risida», «Yaxudiylar tarixi va ularning bayramlarini belgilash» kabi asarlari bilan fan sohasiga juda katta hissa qo'shdi. Insonning kamolga yetishi va insoniy munosabatlarni yo'lga qo'yishda ilm-fanning muhim ahamiyatiga ega ekanligi to'g'risidagi g'oyani ilgari surgan holda pedagogik fikr taraqqiyotida munosib o'rin egallaydi. Ayniqsa, u matematika sohasida yangilik yaratgan nazariyotchi hamda pedagog-uslubiyotchi olim sifatida tarixda qolgan. Xorazmiy o'z davrigacha bo'lgan qadimiy matematika fani rivojlangan mamlakatlar Vavilion (Bobil), Yunoniston, Hindiston, Xitoy, Misrdagi deyarli barcha matematiklarning kashfiyotlarini o'rgandi va o'zi hayotiy talablar nuqtai nazarida ulardan farq etuvchi yangi kashfiyot yaratdi.

Muhammad al-Xorazmiy ilmiy merosi bilan bilish nazariyasiga o'zining ulkan hissasini qo'shdi. «Al-kitob al-muxtasar fi-hisob al-jabr va-l muqobala» asarida («aljabr val muqobala hisobi haqida qisqacha kitob») sonli kvadrat va chiziqli tenglarnalar va ularni yechish yo'llarini bayon etadi. Bu asar uch qismdan iboratdir. Birinchisi algebraik qism. Uning oxirida savdo muomalasiga oid kichik bir bo'lim kiritiladi; ikkinchsi, geometrik qism-algebraik usul qo'llab o'lchashlar haqida; uchinchi qism vasiyatlar haqida bo'lib, muallif uni «Vasiyatlar kitobi» deb ataydi.

Muhammad al-Xorazmiy matematika fanida abstraktsiya tushunchasini kengaytiradi. Induktsiya yo'li bilan umumiy yechish usullarini hal etadi, deduktsiya yo'li bilan umumiy usullar yordamida xususiy masalalarni yechadi. «al-jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob» asari bilan ham matematika fanini rivojlantirib, o'zidan avvalgi bilimlarni o'rgandi va ularni sintezlashtirdi hamda amalda qo'llash usullarini bayon etdi.

Muhammad al-Xorazmiy o'sha paytlarda amalda uchraydigan barcha chiziqli va kvadrat tenglarnalarni jamlab, hozirgi matematik simvol orqali beriladigan quyidagi olti tipga keltirdi:

$$ax^2 + vx = 0 \quad (1)$$

$$ax^2 = s$$

$$vx^2 = s$$

$$x^2 - vx = s$$

$$x^2 - s = vx$$

$$x^2 - vx - s = 0$$

Mutafakkir ushbu tenglarni yechish uchun “Al-jabr” va “al-muqobala” (“tiklash” va “qiyoslash”) amallarini kiritdi. Bu amallarning mohiyati tenglarni hadlarining ishorasini o'zgartirgan holda ularni bir tomondan ikkinchi tomonga o'tkazish va yig'ishdan iboratdir. “Al-jabr” keyinchalik matematika fanining alohida bo'limiga aylandi va “algebra” deb ataladigan bo'ldi. Mazkur amallar yordamida har qanday tenglarni kononlik shakliga, ya'ni asosiy tiplardan biriga keltirib, keyin yechiladi. Bu usul fan olamida muhim ahamiyatga ega edi. Shu asar tufayli “Al-Xorazmiy” nomi lotincha transkripsiyada “Algoritmi” shaklini oldi, keyin “Algoritmus” va nihoyat hozirgi zamon hisoblash matematikasining asosiy tushunchasi “algoritm” (“algorifm”) ga aylandi. U matematikaning nazariy rivojlanishi bilan birga, undan turmushda foydalanish yo'llarini ham berdi. Meros taqsim qilish, vasiyatnomalarni tuzish hamda mol taqsim etish uchun zarur bo'lgan hisoblarni ta'rif etdi.

Muhammad al-Xorazmiyning matematikaga oid ikkinchi kitobi “Hind arifmetikasi haqida kitob” (“Hisob al-hind”)dir. Asar o'nlik tizim raqamlari (1,2,3,4,5,6,7,8,9)ga bag'ishlangan. Mutafakkir hindlarning falakiyot va matematikaga oid “Sindihin” nomli qo'llanmasini o'qib, uning yangiligi va qiyin tomonlarini qayta tikladi, uning mundarijasiga yangi boblarni qo'shdi va bu asarni “qisqargan Sindihind” (“Algorizmi hind hisobi haqida”) deb atadi. Mazkur asar faqat sharqdagina emas, Yevropada ham qo'llanma sifatida shuhrat taratdi. U Hindistonda kashf etilgan raqamlarni soddalashtirdi va birinchi marta arab tilida bayon etdi. Ungacha ancha qo'pol sanoq usullaridan foydalanib kelingan. O'nlik tizimining kashf etilishi fan olamida sanoq tizimida inqilobiy o'zgarish deb ta'riflanadi. Yevropaga 1,2,3,4,5,6,7,8,9 raqamlaridan foydalanish va nol yordamida eng katta sonlarni yozish va joylarni aniq ko'rsatish X-XI asrlarda arablardan kirib kelgan.

Muhammad al-Xorazmiy arifmetikaning algoritmlari bo'lgan qo'shish, ayirish, bo'lish hamda ko'paytirish qoidalarini yaratgan. Shuningdek, turli “jins”dagi sonlarni ko'paytirish algoritmini ham bergan. Masalan, minut va sekundlarni bir-biriga ko'paytirish uchun, avvalo bir xil shaklga keltirish, ya'ni, sekund yoki minutga aylantirish

maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatgan. Maxsus bobda kasr va ildizdan chiqarish amallarining mohiyatini bayon etgan.

Muhammad al-Xorazmiy o'zining falakiyotga doir ishlarida hindlarning falakiyot jadvallarini tahlil etib, "Xorazmiy ziji" nomi bilan mashhur astronomik jadvallar tuzdi.

Ma'lumotlarga ko'ra VIII-XV asrlarda hammasi bo'lib, yuztacha zij (trigonometriya va falakiyotga oid) jadvallar mavjud bo'lgan. Bu zijlar orasida boshqa olimlar bilan birga Muhammad al-Xorazmiy tuzgan zijlar ham bor edi. Bu kitob ham bir necha asrlar bu soha olimlariga qiziqish uyg'otadi va 1126 -yilda latinchaga tarjima qilinadi. Arab tilida birinchi yozilgan sinuslar va tangenslar ziji Xorazmiyga taalluqli. Tadqiqotchilar fanda tekis, uchburchak trigonometriyasi va sferik uchburchak trigonometriyasini tadqiq qilish ham Xorazmiydan boshlangan deyishadi. Uning sinus zijlari latin tiliga o'girilib, Yevropa falakiyotchi va geodez olimlariga qo'llanma sifatida xizmat qildi. Allomaning bu asari XII asrda lotin tiliga tarjima etilib, bir necha asr davomida undan foydalanib kelindi. Bundan tashqari "Kitob surati-l-ard" ("Evropa surati kitobi") birinchi yozilgan geografiyaga oid kitob sanaladi. Bu asar xaritani tavsiflagan asardir. Asar Muhammad al-Xorazmiyning ko'p yillik olib borgan tekshirish-kuzatish ishlarining natijasi edi. Alloma sharq mamlakatlari ustida kuzatishlar olib borib, mamlakat va shaharlarning xaritalarini chizadi, nomlar ro'parasiga uzunlik va kenglik darajalarini ko'rsatadi. U geografiyaga oid asarlarida yerni yetti iqlimga bo'ladi hamda yerning xaritasini chizadi. Olimning to'rt xaritasi (Azov dengizi, Nil daryosi, Yaqin va o'rta sharq xalqlari xaritasi) saqlanib qolgan. Uning yuqoridagi asari ham sharq va g'arbda katta hamiyatga egadir.

827-yilda Xorazmiy rahbarligida yer kurrasining kattaligini aniqlash maqsadida yer meridianining bir gradusi o'lchab chiqildi. Bog'dodda yozilgan trigonometriyaga oid dastlabki asar ham Xorazmiyga tegishli bo'lib, unda sinus, tangeneslarning o'zgarish qonuniyati ko'rsatiladi. Uning trigonometrik jadvali o'sha davr jadvalaridan farq qilgan.

Muhammad al-Xorazmiyning tarix va musiqaga oid, quyosh soatlari to'g'risida ham asarlari bo'lib, "Tarix kitobi" ("Kitob at-tarix") halifalik tarixiga oid va halifalikning birinchi tarixchilaridan sanaladi.

Shuni ta'kidlash joizki, alloma o'zigacha bo'lgan ilmiy

bilimlarning asosiy g'oyalari, tamoyil va metodlarini sintezlashtirdi. U ilmiy bilimlarni o'rganuvchilarning mustaqil bilim olishlariga e'tiborni qaratdi.

Xorazmiy bilim olishda talabning shaxsiy kuzatishlariga hamda olgan bilimlaridan foydalanishga katta e'tibor berdi. Bunda u ilm izlovchilarning ilmiy manbalarni to'plash, ularni ifodalash va kuzatganlarni tushintira olish malaka va ko'nikmalarini hosil qilishga katta baho berdi. Masalan, "Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va-l muqobala" asarida olimlarni uch guruhga bo'lib shunday yozadi: Ulardan biri o'zidan avvalgilar qilgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o'zib ketadi va uni o'zidan keyin qoluvchilarga meros qilib qodiradi.

Boshqasi o'zidan avvalgilarning asarlarini sharxlaydi va bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi, yopiqni ochadi, yo'lni yoritadi va uni tushunarliroq qiladi. Yoki bu ayrim kitoblarda nuqsonlar topadigan va sochilib yotganni to'playdigan odam bo'lib, u o'zidan avvalgilar haqida yaxshi fikrda bo'ladi, takabburlik qilmaydi va o'zi qilgan ishidan mag'rurlanmaydi.

Muhammad al-Xorazmiyning bu fikri bir tomondan, olimlar faoliyatining ezgulikka xizmat qilishini yoritisa, ikkinchi tomondan, o'sha davrda ilmiy tadqiqot ishlari va o'qitishning metod va vositalaridan qay darajada foydalanganligini ko'rsatadi.

Barcha mutafakkirlar kabi Muhammad al-Xorazmiy ham ko'rgazmali-tajriba metodlari, bilim berishning turli vositalari, savol-javob, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish metodlari, bilimlarni sinash metodlaridan foydalangan. Allomaning arifmetikaga oid risolalari tafakkurni rivojlantirish uchun bilimlarni izchil bayon etishga e'tibor berganligini ko'rsatadi. "Men arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini o'z ichiga oluvchi "Aljabr val-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob"ni ta'lif qildim, chunki meros taqsim qilishda, vasiyatnoma tuzishda, mol taqsimlashda va adliya ishlarida, savdoda va har qanday bitimlarda, shuningdek, yer o'lchashda, kanallar o'tkazishda, geometriyada va boshqa shunga o'xshash turlicha ishlarda kishilar uchun zarurdir". Muhammad al-Xorazmiy bilishni sezgidan mantiqiy tasavvur orqali farq qilish haqida fikr bayon etgan: "sezgi" orqali bilish bu qisman bilish bo'lsa, mantiqiy bilish esa haqiqiy bilimning muhim tomonini namoyon etadi.

Muhammad al-Xorazmiy bilish nazariyasiga muhim hissa

qo'shdi. U birinchilardan bo'lib, sinov-kuzatish va sinov metodlariga asos soldi (samoviy ob'ektlarning harakatini aks ettiruvchi jadval asosida matematik masalalarning algoritm metodida yechishni ishlab chiqdi). U matematik g'oyalar asosida odamlarning hayotiy zarurati yotishini, ilmiy kashfiyotlar odamlarning amaliy talablari asosida paydo bo'lishini asosladi. Masalan, yer ishlari, binolar qurish, kanallar ochish shunday paydo bo'lgan, deydi. U birinchi marta insonlar o'rtasidagi munosabatlarni matematik shakllarda ifodaladi.

Alloma ilmiy faoliyatining metodologik jihatlariga katta ahamiyat berdi.

Bo'lar ma'rifiy-tarbiyashunoslik jihatidan ham hozirgi kunda ahamiyatga molikdir.

Al-Xorazmiy bilish nazariyasiga muhim xissa qo'shdi. U birinchilardan bo'lib, sinov-kuzatish va sinov metodlariga asos soldi.

U birinchi marta insonlar o'rtasidagi munosabatlarni matematik shakllarda ifodaladi.

Xulosa qilib aytganda, al-Xorazmiy Yevropa va sharqda falakiyot va matematika sohasida yangi davr ochdi. Xindlarning o'nlik raqamlari Xorazmiy tufayli «Arab raqamlari»i bilan butun dunyoga yoyildi.

Xorazmiyning falakiyot va geodeziyaga oid kuzatishlari, geografiyaga oid asarlari, u chizgan yer xaritasi ham sharq va g'arb olimlari uchun tekshirish, kuzatish ishlarini olib borishda muhim qo'llanma bo'lib xizmat qildi.

Xullas, al-Xorazmiy ilmiy bilim, ta'lim metodlari, ilm-fanga qo'shgan xissasi bilan insonni aqliy kamolga yetkazishda, ta'lim-tarbiyada o'z o'rniga ega bo'lgan buyuk allomadir.

Abu Nasr Forobiyning asarlaridagi pedagogik fikrlar (873-950)

Abu Nasr Forobiy (to'liq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzaliq ibn Tarxon al-Forobiy) hijriy 260 -yil (milodiy 873 -yil)da shosh – Toshkentga yaqin Forob (O'tror) degan joyda harbiy hizmatchi oilasida tug'ilgan. U boshlang'ich ma'lumotni o'z yurtida oladi. 5 yoshdan u yozish va o'qishni bilar edi. U yoshligidanoq o'rta asr fanlarini chuqur o'rganadi. U ilmiy malakasini takomillashtirish maqsadida 10 yoshidan Shosh, Samarqand va Buxoroga kelib ta'lim oladi.

Lekin bu joylar uning ilmga bo'lgan chanqoqligini qoniqtirmaydi. U Eronning Ray, Hamadon shaharlarida bo'ladi.

U umrining 40 yildan ortig'ini Bag'dodda o'tkazadi. U bir vaqtning o'zida arab, fors, yunon tillarini o'rganadi.

Forobiy aniq fanlar: ilmi nujum, riyoziyot, musiqa, tabobat fanlariga qiziqadi. Lekin u ko'proq falsafa ilmi bilan shug'ullanadi.

Tarixiy manbalarga ko'ra u Buxoroda bo'lgan kezlarida Buxoro amiri Mansur ibn Nux Somoniyning iltimosiga ko'ra falsafiy asar «At-tahlimiy» asarini yozadi. Shu asari tufayli «Muallim as-soniy» (ikkinchi muallim) laqabi bilan mashhur bo'ladi.

Olim 70 dan ortiq tilda so'zlasha olgan. U 160 dan ortiq asarlar yozgan. Bizgacha 40 ga yaqini yetib kelgan xholos.

Forobiy asarlarining mazmuniga qarab 7 ta katta guruhga bo'lib chiqishimiz mumkin. Ana shu turkumlash jarayonidagi eng muhim bo'limi tarbiya masalasiga bag'ishlangan yettinchi qismdir.

U ta'lim-tarbiyaga oid «Baxt-saodtga erishish yo'llari haqida risola», «Fozil odamlar shahri», «Fazilatli xulqlar», «Shaharni o'rganish haqida» kabi asarlar yaratgan.

Olimning yuqorida biz tilga olgan asarlari butun jahon ziyolilari tomonidan haqli ravishda yuksak baholangan.

Forobiyning asarlari arab tilidan dunyoning ko'p tillariga: rus, ingliz, ispan, fransuz, o'zbek tillariga tarjima qilingan.

Forobiy nihoyatda buyuk olim va mutafakkir edi. Chunonchi, uning asarlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, o'z ilmiy qarashlari bilan yangi davrga darcha ocha bilgan va zamondoshlaridan bir necha asr olg'a ketgan.

Forobiyning quyidagi pedagogik qarashlari yoshlarga muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Forobiy birinchi bo'lib ta'lim va tarbiyaga ta'rif bergan olimdir.

1. Ta'lim-so'z va o'rganish bilangina amalga oshiriladi.
2. Tarbiya-esa amaliyot, ish-tajriba bilan, ya'ni shu yo'l orqali amalga oshiriladi, deydi.
3. Har kimki ilm, hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, so'zining ustidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo'lsin, hiyonat va makr-xiylalardan uzoq bo'lsin, diyonatli bo'lsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin.
4. Inson yaxshi tarbiya ko'rmagan va turmushda yaxshi tajriba orttirmagan bo'lsa, u ko'p narsalarni nazarga ilmay va ulardan jirkanadi. Bunday narsalar unga noo'rin ko'ringan narsalar zaruriy bo'lib chiqadi.
5. Ma'lumki, inson hech qachon tug'ilganda yaxshi va yomon bo'lib tug'ilmaydi... Biroq har bir kishida biron bir fazilatga yoki qabixlikka mayl, qobiliyat bo'ladi va shu fazilatlarni 2 turga bo'ladi.

- | | | |
|-----------|---|---------|
| 1. Fikriy | } | Fazilat |
| 2. Xulqiy | | |

Fikriy fazilat aqliy quvvatga kirib, aqllilik, donolik, fahm-farosatlilik, zehnlilikdan iborat.

Xulqiy fazilat – intiluvchi quvvatga kirib iffat, shijoat, sahiylik va adolatlilikni o'z ichiga oladi. Yomon fazilatlar razillikdir.

Xulosa qilib aytganda, Forobiyning yuqoridagi ta'lim-tarbiyaga oid konsepsiyasi shaxsni komil inson qilib tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

Forobiy inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo'lish, ularning ko'maklashuvchi yoki munosabatlariga muhtoj bo'ladi. Uning fikricha, tarbiya jarayoni tajribali pedagog, o'qituvchi tomonidan tashkil etilishi muhimdir. Chunki har bir odam ham baxtni va narsa-hodisalarni o'zicha bila olmaydi. Unga buning uchun o'qituvchi lozim.

Bunga Forobiy ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish orqali erishish mumkin, deydi. Chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim – tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan komolga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini to'g'ri bilib oladi va hayotda to'g'ri yo'l tutadi, boshqalar bilan to'g'ri

munosabatda bo'ladi, jamiyat tartib-qoidalariga rioya etadi. Demak, Forobiy ta'lim- tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Forobiy taxminan 941-yillardan boshlab Damashqda yashaydi. Shahar chekkasidagi bog'da qorovul bo'lib ishlaydi va faqirona hayot kechirib, ilmiy ish bilan shug'ullanadi. 943-967-yillarda esa Halabda yashaydi. 949-950 -yillarida Misrda ham bo'lgan. So'ng yana Damashqqa qaytib, shu yerda 950-yilda vafot etgan. Damashqdagi «Bob as-sag'ir» qabristoniga dafn qilingan.

Rivoyatlarga ko'ra Abu Nasrning hikmat falsafani o'qishiga bir kishi sabab bo'lgan ekan. O'sha kishi unga Arastuning bir necha kitobini, shu yerda tura tursin, keyin olib ketaman deb qo'yib ketgani sabab bo'lgan, deyishadi. Ittifoqo, kitoblarga ko'zi tushib, ular Abu Nasrning ko'ngliga ma'qul bo'lib qoladi va o'qishga kirishadi. Natijada yetuk faylusufga aylanadi. Haqiqatdan ham, Abu Nasr Forobiy o'rta asr davri ilm-fani taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan olimdir. Forobiy tabiiy, ilmiy va ijtimoiy bilimlarning barcha sohalarida ilmiy ish olib borgan. Forobiy o'zidan keyin juda boy ilmiy meros qoldirgan. Falsafa, musiqa, filologiya va boshqa tabiiy, ilmiy bilimlarning turli sohalarida asarlar yaratgan. Demak, Forobiy inson baxt-saodatga erishuvi uchun ularni baxtli-saodatli qila oladigan jamoa rahbari bo'lishi kerak, deydi. U fozil shaharni boshqaradigan Hokim tabiatdan: 1-sog'-salomat bo'lib, o'z vazifasini bajarishda hech qanday qiyinchilik sezmaligi; 2-tabiatni nozik, farosatli; 3-xotirasi mustahkam, 4-zehni o'tkir, 5-o'z fikrini tushuntira oladigan notiq, 6-bilim-ma'rifatga havasli, 7-taom yeyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat emas, aksincha, o'zini tiya oladigan bo'lishi (qimor yoki boshqa o'yinlardan), zavq, huzur olishdan uzoq bo'lishi, 8-haq va haqiqatni, odil va haqgo'y odamlarni sevadigan, yolg'onni va yolg'onchilarni yomon ko'radigan, 9-o'z qadrini biluvchi va oriyatli bo'lishi, 10-mol dunyo ketidan quvmaydigan, 11-adolatparvar, 12-qatiyatli, sabotli, jur'atli, jasur bo'lishi muhimligini qayd etadi. Forobiy bu fazilatlarini har bir yetuk insonda ko'rishni istaydi.

Forobiy o'zining fozil jamoasida odamlarni turli belgilarga qarab guruhlarga bo'ladi. Bunda u, kishilarning diniy mashabiga, millatiga, irqiga qarab emas, balki tabiiy xususiyatlariga, qobiliyatlariga, aqliy iqtidoriga, bilim ko'nikmalariga e'tibor berishlik zarur deydi. U

o'zning «Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola» asarida «Davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borishdir, - deb yozadi. U, - bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo'lga kiritadi». Forobiy davlatni yetuk shaxs boshqarishi lozim deydi; ya'ni jamoani idora etuvchi adolatli, dono bo'lishi, qonunlarga rioya etishi va qonunlar yarata olishi, kelgusini oldindan ko'ra bilishi, boshqalarga g'amxo'r bo'lishi lozim deydi.

Forobiy «Musika haqida katta kitob» degan ko'p jildi asari bilan O'rta asrning yirik musiqashunosi sifatida ham mashhur bo'ldi. U musiqaga ilmini nazariy, amaliy jihatdan yoritib, musiqani inson axloqini tarbiyalovchi sihat-salomatligini mustahkamlovchi vosita deb qaragan. Uning muzika sohasida qoldirgan merosi musika madaniyati tarixida muhim ahamiyatga molikdir.

Forobiy ta'lim-tarbiya ishlarini ikki yo'l bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

«Amaliy fazilatlar va amaliy san'at (kasb-hunar)lar va ularni bajarishga odatlanish masalasi»ga kelganda, bu odat ikki yo'l bilan hosil qilinadi: bulardan birinchisi – qanoatbahsh so'zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so'zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g'ayrat, qasd-intilish harakatga aylantiriladi.

Ikkinchi yo'l (yoki usul) – majbur etish yo'li. Bu usul gapga ko'nmovchi, qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan qo'llaniladi. Chunki ular o'z istaklaricha so'z bilan g'ayratga kiradiganlardan emaslar. Ulardan birortasi nazariy bilimlarni o'rganishga kirishsa, uning fazilati yaxshi bo'ladi. Kasb hunarlarni va juz'iy san'atlarni egallashga intilish bo'lmasa, bunday odamlarni majbur etmaslik kerak. Chunki shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad – ularni fazilat egasi qilib va san'at ahllariga aylantirishdir

Demak, Forobiy ta'lim-tarbiyada rag'batlantirish, odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surgan. Har ikkala usul ham pirovardida insonni har tomonlarni kamolga yetkazish maqsadini ko'zlaydi.

Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-pedagogik qarashlari (973-1048)

Qomusiy olim Abu Rayxon Beruniy 973 -yil 4 -sentabrda Xorazmda dunyoga keladi. Beruniy yoshligidan ilmga, ayniqsa, aniq fanlarga qiziqadi. U matematika, jo'g'rofiya, yulduzlar ilmi, tibbiyot fanlariga oid ko'p kitoblarni o'qib chiqadi. Fors va arab tillarini va qadimgi ajdodlar tillarini qunt bilan o'rganadi.

Beruniy yirik olim Abu Nasr Ibn Iroqdan Yevklid geometriyasi, Ptolemeyning astronomik ta'limotlaridan dars olgan.

Bundan tashqari, o'zidan oldin o'tgan matematik, munajjim va geografiya olimi Muhammad Xorazmiy, geografiya olimi Abo'l Abbos, Ahmad Farg'oniy (IX asr), Marvaziy (IX asr), Javhariy (IX asr), faylasuf va tabiatshunos Abu Nasr Forobiy, Abo'l Vafo Juzjoniy (940-998), seyistonlik Abu Said as-Sijiy (951-1024), Abu Muhammad Hamid Xo'jandiy va boshqalarning asarlarini mustaqil o'rganadi.

Beruniy bir necha yil koinot, metallar va qimmatbaho toshlar ustida kuzatishlar va tajribalar olib boradi, keyinchalik ana shu tadqiqotlari asosila «Minerologiya» asarini yaratadi. Uning «Geodeziya» asarida geografiya va astronomiya fanlari bilan bir qatorda poleontologik kuzatishlari natijalari ham bayon qilingan.

Beruniyning yana bir muhim asari «Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar»dir. Bu asarda ham u bir qancha fanlar yuzasidan dastlabki tushuncha va ma'lumotlar bergan.

Olim 1030-yilda o'zining sharq va g'arbda keng e'tirof qilingan mashhur «Xindiston» asarini yaratadi. Asarda Beruniyning Xindiston haqidagi barcha qarashlari o'z ifodasini topgan.

Hammasi bo'lib 150 dan ortiq asarlar yaratgan. Olim o'z asarlarini o'sha davr an'anasiga ko'ra arab tilida yozgan. Beruniy yuqoridagi asarlarida inson kamoloti haqida o'z qarashlarini bayon etadi.

Beruniy mamlakat obodonchiligi ilm-fanning ravnaqiga bog'liq bo'lsa, yoshlarning baxt-saodati va kamolotini uning bilimi, axloqi va ma'rifatida deb biladi. Shuning uchun u yoshlarni ilm-ma'rifatga chorlaydi. Beruniy yoshlardan rahmdil, mehribon, kishilarga iltifotli, xayrixoh bo'lishni, najotsiz odamga qo'l cho'zishni, makkorlik, ayyorlik, adolatsizlik, boylikka xirs qo'yish, yolg'on gapirish kabi sifatlarga yo'l qo'ymaslikni talab qiladi.

Beruniy insonni tabiatning eng oliy kamoloti deb qaraydi. U insonning ma'naviy qiyofasidagi barcha axloqiy hislatlarni yaxshilik va yomonlik kabi 2 turga bo'ladi.

Beruniy inson va axloqiy tarbiya haqida fikr yuritir ekan, «insonga yer yuzini obod etishi va uni boshqarib turishi uchun aql-zakovat ato etilgan, shuning uchun har bir inson yuksak axloqli bo'lishi lozim», - deydi.

Aqliy tarbiya, deydi Beruniy, kishining tafakkurini rivojlantirib, dunyoqarashini kengaytiradi. Uning o'z-o'zini anglab yetishiga ta'sir etadi.

Mutafakkir inson kamolotida mehnat va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etadi. U har bir hunar egasining mehnatiga qarab turlarga bo'ladi.

Og'ir mehnat sifatida binokor, ko'mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini keltiradi. Ayniqsa, ilm ahli, olimlar mehnatiga alohida e'tibor beradi va xayrixohlik bildiradi. Shu bilan birga, og'ir mehnat qiluvchi konchilar, yer ostida ishlovchilar, dehqonlar haqida gapirib, ularning mehnatini rag'batlantirib turish kerak, deydi. Ayniqsa, podshohlar bunday mehnat ahliga g'amho'r bo'lishi kerakligini alohida eslatadi. Chunki, ana shu mehnat ahli ular hukmronligining tayanchi, deb ta'kidlaydi.

Olim bolalarni mehnatga o'rgatish metodlari, yo'llari haqida ham fikr yuritadi. U bolalarni eng kichik ilk yoshidan mehnatga o'rgatish kerak, deydi.

Beruniy «Minerologiya» asarida faqat qimmatbaho metallar, toshlar haqida emas, hunarmandchilikka oid, shogird tayyorlash jarayoni, ustalarning hunar o'rgatish metodlari haqida qimmatli fikrlar bildiradi. Shuning uchun ham Beruniy inson har tomonlarni kamolga yetishi uchun u ilmi bo'lishi bilan birga mehnatsevar va hunar egasi bo'lishi ham kerak, deydi.

«Saydana» nomli mashhur asarida esa sharqdagi dorivor o'simliklarning tavsifi bayon qilingan. Beruniy inson kamolotida 3 narsa muhim rol o'ynaydi deydi:

1. Irsiyat. 2. Muhit. 3. Tarbiya.

Yoshlarni tarbiyalashda esa axloqiy mehnat tarbiyasi, nafosat tarbiyasi, oila tarbiyasi, insonning shaxsiy gigienasi, xalqlar o'rtasidagi do'stlik, hamkorlik haqidagi tushunchalar katta ahamiyatga egadir.

Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. O'quvchiga bilim berishda u:

- o'quvchini zeriktirmaslik;
- bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik;
- uzviylik, izchillik;
- yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko'rgazali bayon etish va hokazoga e'tibor berish kerakligini uqtiradi.

Olim fan sohasidagi yodgorliklarni, ilmiy bilimlarga oid qoldirilgan barcha boyliklarni qunt bilan o'rganishga da'vat etadi. Ilm toliblariga qalbni yomon illatlardan, qotib qolgan urf-odatlardan, xirsdan, behuda raqobatdan, ochko'zlikdan, shon-shuhratdan saqlanishi zarurligini uqtiradi.

Beruniy sahovat (o'zaro yordam, bir-biriga foyda keltirish uchun hamkorlik), muruvvat (odamlarga xayrixoh bo'lish, halollik va haqgo'ylik, o'z mehnati bilan kun ko'rish v.b.)ni insonning axloqiy kamolotini ko'rsatuvchi hislatlar deb biladi. Insonning axloqiy kamolga yetishi muammosi butun ta'lim-tarbiya tizimida markaziy masala bo'lib kelgan.

Abu Rayhon Beruniy ezgu tilakka yetishga to'sqinlik qiluvchi ziqnalik, yolg'onchilik, munofiqlik, manmanlik, takabburlik kabi nuqsonlarni qorlaydi, boylikka ruju qo'yish va ta'magirlik, g'azab va johillik inson uchun eng ashaddiy dushman deb biladi.

Har bir shaxsda sharm-hayo, ozodalik, nafis did, iffat, latofat, shirinsuxanlikning tarkib topishi turmushning yanada go'zal bo'lishiga olib keladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Beruniyning komil insonni shakllantirishga oid bu fikrlari o'z zamonasi uchun emas, hozirgi davr ta'lim-tarbiyasini takomillashtirishda ham katta ahamiyatga egadir.

Mashhur Amriqolik tarixchi olim J.Sarton jahon fani tarixida XI asrning birinchi yarmini Beruniy davri deb atadi. Shuningdek, uni o'z davrining jahondagi birinchi donishmandi deb baholaydi.

Shuningdek, Abu Rayhon Beruniyning tabiiy-ilmiy va ma'rifiy-pedagogik hamda psixologik qarashlarining shakllanishida qomusiy olimlardan Muhammad al-Xorazmiy (780-850), Abu Abbos Ahmad Farg'oniy (IX asr), Marvoziy (IX asr), Javhariy (IX asr), Abu Nasr Forobiy (870-950), Abul Vafo Buzxoniy (840-938), Abu Said as-Sijiy

(951-1024) hamda yunon olimlaridan Fales, Pifagor, Arximed, Galen, Gippokrat, Evklid, Ptolemey, Platon, Aristotel, hind olimi Bramagupta va boshqalarning asarlari ta'lim va tarbiya maktabi vazifasini o'tadi. Beruniy bu olimlarning asarlarini o'qib bilish uchun yoshligidanoq arab, fors, yunon, sanskrit, yahudiy tillarini puxta o'rgandi.

Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha, X asrning birinchi yarmida Xorazmda ro'y bergan siyosiy voqealar sababli ilmu ma'rifat bilan jiddiy shug'ullanayotgan yosh olim Abu Rayhon Beruniy ma'lum muddat vatanini tark etib, dastlab Eronning Jurjon, so'ngra Rey shaharlariga ketishga majbur bo'ladi. Jurjon (Gurgon) hokimi Qobus ibn Vashmigir (928-1012) Abu Rayhon Beruniyga ilmiy ijodi uchun qulay sharoit yaratib beradi. 1000 -yilda esa Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarini yozib tugatadi. Bu asar yosh olimning nomini butun Sharqqa tanitdi. Taxminan 1005 -yilda Abu Rayhon Beruniy Xorazmshoh Abu-l Abbos Ma'mun ibn Ma'mun (937-1017) tomonidan Xorazmga chaqirib olinadi va saroyda olim hamda davlat arbobi sifatida mulozamatda bo'ladi.

Beruniy Abul Abbos Ma'mun ibn to'g'risida mana shunday bir hodisani quyidagicha eslaydi. Bir kuni shoh otda bir qancha yo'l yurganidan keyin Beruniyning uyi yaqinida to'xtab, uni chaqirishga buyuribdi. Beruniy uyidan sal kechikib chiqibdi. Ma'mun uni ko'rishi bilan oldiga ot choptirib kelibdi va otdan tushmoqchi bo'lganida Beruniy egilib, uning otdan tushmasligini o'tinib iltimos qilibdi. Shoh bir bayt o'qibdi, uning mazmuni bunday: "Ilm har narsadan ulug'dir. Hamma ilmga intiladi, ammo ilm (hech kimga) o'zi kelmaydi".

Ilm ahlining qadriga yetuvchi Abu-l Abbos Ma'mun ibn Ma'mun Gurganchda "Ma'mun akademiyasi"ni tashkil etganligini yuqorida ta'kidlab o'tgandik. Beruniy ana shu "Ma'mun akademiyasi"ning rahbari sifatida 8 yil (1009-1017) faoliyat ko'rsatgan. Mashhur olimlarni yig'ib, madrasa talabalariga dunyoviy ilmlardan saboq berganlar va yosh olimlarning ilmiy tadqiqotlariga rahbarlik qilish bilan birga ularga fan asoslaridan ma'ruza o'qiganlar.

"Ma'mun akademiyasi"dagi tinimsiz mehnat Beruniyning shoh oldidagi hurmat-e'tiborini oshirdi, xalqiga ilm-ma'rifat tarqatishdek buyuk maqsadni amalga oshirishga yaqindan yordam berdi.

Mahmud G'aznaviy 1017 -yili Xorazmni istilo qilgach, mahalliy olimlarni mamlakat manfaatlarini ko'zlab ish yuritishga majbur etgan. Ammo olimlar unga bo'ysunishni istamaganlar; buyuk alloma ibn

Sino shu vajdan Markaziy Osiyoni butunlay tark etgan, Abu Sahl esa sahroda halok bo'lgan. Abu Rayhon Beruniyning ustozlaridan biri Abdusamad karmatlar (feodallarga qarshi tenglik va adolat talab qiluvchilar) harakatiga qo'shilganlikda, shakkoklik qilishda ayblanib, qatl etilgan. Abu Rayhon Beruniyga ham shunday ayb qo'yishmoqchi bo'lishgan. Lekin kimdir sultonga Abu Rayhon Beruniy munajjimlik ilmida o'z zamonasining peshvosi, podshohlarning undaylarga ehtiyoji zo'r bo'ladi, deb qutqarib qoladi. Mahmud G'aznaviy Abu Rayhon Beruniyning saroyidagi bir necha olimlar bilan birga G'aznaga jo'natishni talab qilgan. Mahmud G'aznaviy Beruniyning o'tkir zehniligini bilib, har doim u bilan ilm sohasida maslahatlashibgina qolmasdan, hatto harbiy yurishlarda ham uni o'zi bilan birga olib yuradi. Shunday yurishlardan birida Beruniy Hindistonga boradi va u yerdan hind (sanskrit) tilini o'rganib qaytgach, bir qancha asarlarni hindchadan arabchaga, arabchadan hindgacha tarjima qiladi va o'zining "Tahqiqi molil hind" va mashhur "Tarihul hind" ("Hindiston") asarlarini yozadi.

Ali ibn Ma'mun (997-1010), Abul Abbos al-Ma'mun ibn al-Ma'mun (1010 - 1017), Abul Horis Muhammad ibn Ali (1017 -yil mart-iyun) hukmronlik qilgan davrlarda Gurganchda "Dorul hikma va maorif" ("Majlisi ulamo"), ya'ni "Ma'mun Akademiyasi" tashkil etilib, bu akademiya Abu Sahl Iso ibn Yah'yo al-Masihiy al-Jurjoniy, Abu-l-Xayr al-Hasan ibn Suvor ibn Bobo ibn Bahrom ibn al-Xammor, Abu Mansur ibn Ali Ibn Iroq, al-Ja'diy, Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Xorazmiy al-Beruniy, Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn Sino, Abu Said Ahmad ibn Muhammad ibn Iroq, Ahmad Ma'suriy, Al-Xoroji, Al-Hamdakiy, Abul Hakim Muhammad ibn Abdumalik as-Solih al-Xorazmiy al-Qosiy, Abu Muhammad Hamid ibn al-Xidr al-Xo'jandiy, Abu Mansur Abdumalik ibn as-Saolibiy, Abu Abdulloh al-Biy an-Naysa-Buri; Ahmad ibn Muhammad as-Suxayliy al-Xorazmiy, Ahmad ibn Muhammad as-Sahriy Abu Said Ahmad ibn Muhammad ibn Miskovayx, Umar Isfaxoniy, Abu al-Xayr Hammor, Ishoq ibn Ahmad al-Buxoriy, Abu Abdulloh ibn Ibrohim an-Natiliy, Sharofiddin Abu Abdulloh ibn Yusuf Ayloqiy, Abu Ali al-Hasan ibn Xoris al-Hububiy al-Xorazmiy, Zayniddin Jurjoniy, Abulkarim Zirg'oliy, Abu Abdulloh al-Vazir, Abdulhasan Ma'mun, Abu Muhammad al-Xorazmiy, Abduavval ibn Abdusamadiy, Abu Azoq ibn Bahnom, Abusaid Shabibiy, al-Xarojiy,

al-Hamdiki, Ahmad Ma'suriy, Abu Muhammad Rakkoshiy, Abu Abdulloh ibn Hamid al-Xorazmiy, Abu Bakr Muhammad al-Xorazmiy, Qamariy kabi yuzga yaqin olimlar matematika, astronomiya, psixologiya, falsafa, mantiq, tibbiyot, tarix, tilshunoslik, fiqh, geografiya, geodeziya, topografiya, mexanika kabi fanlar bilan shug'ullanib, ularning kelajakda jahon miqyosida rivojlanishiga zamin yaratganlar.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, "Ma'mun Akademiyasi" olimlari hayoti va ijodlari asosiy yo'nalishlari bilan tanishish ularning diniy masalalarda betaraflik mavqesida turganliklarini ko'rsatadi. Masalan, Abu Rayhon Beruniyning ustozlari Abu Nasr ibn Iroq mutakallimlarning ja'diya maktabiga mansub bo'lgan. Keyinchalik Xorazm xanafiylari orasida mutakallimlarning asosiy maktabi Mu'taliziya XI-XIV asrlarda keng tarqaldi. Abu Rayhon Beruniy o'zi yozgan asarlarida abumuslumiylar, al-Muqanna tarafdorlari, mubayyidlar, qarmatiylarga ko'p e'tibor bergan. Ibn Sino esa ismoiliylarga xayrixohlik bilan qaraganliklari yaxshi ma'lum. Bu ta'limot va harakatlarda umumiy jihatlar mavjud. Birinchidan ular Abbosiylar xalifaligiga muxolifatda bo'lib, milliy mustaqillik uchun kurashayotgan sulolalarni qo'llar edilar. Ikkinchidan, ular din asoslari, ayniqsa, uning dunyoviy hayot bilan chambarchas bog'liq sohalarini talqin etishda ratsionalistik (aqliy) yondashuvga katta o'rin berardilar. Bu borada ular antik falsafa va fanlar, mahalliy ilmu fan yutuqlaridan keng foydalanar edilar. Shu jihatdan bu yo'nalish dindagi boshqa oqim-diniylikni dunyoviylikdan ustun qo'yuvchi, o'zlaridan avvalgi diniy jamoa amaliyotiga so'zsiz taqlid qiluvchi ("muqalladu") an'anachilaridan farq qilardi.

Abu Ali ibn Sino ta'lim va tarbiya haqida (980-1037)

Abu Ali ibn Sino 980-yilda Buxoro shahri yaqinidagi Afshona qishlog'ida kichik amaldor oilasida dunyoga keladi. Uning otasi Abdulloh va uning do'stlari bilimdon kishilar bo'lib, ularning ilmiy munozaralarida yosh ibn Sino ham qatnashar edi. Bunday oilaviy muhit, Buxoro shahridagi ko'plab madrasalar, kasalxona va nodir kitoblar saqlanadigan kutubxonalarning mavjudligi ham yosh va iqtidorli ibn Sinoga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

U maktabda o'qib ko'pgina ustozlardan ta'lim oladi. Masalan: Abdulloh Notiliydan falsafa, mantiq, handasa bo'yicha, Buxorolik Abu Mansur Qamariydan til bo'yicha ta'lim oladi.

IX asr oxiri X asr boshlariga kelib, o'lkada siyosiy ijtimoiy vaziyat murakkablashadi. Shuning uchun Ibn Sino Xorazmga-Urganchga ko'chib o'tadi. Xorazmda bir qator olimlar bilan hamkorlikda Beruniy boshqarayotgan «Ma'mun akademiyasida» ilmiy ish bilan shug'ullanadi. Natijada o'zining yirik asari «Tib qonunlari», «Ash-shifo» ustida ish olib boradi.

Ibn Sino haqiqiy qomusiy olim sifatida o'z davridagi fanlarning hammasi bilan muvaffaqiyatli shug'ullangan va ularga oid ilmiy asarlar yaratgan. Turli manbalarda uning 450 dan ortiq asarlari qayd etilgan bo'lsa ham bizgacha faqat 242 tasi yetib kelgan bo'lib, ulardan 50 dan ortiq qo'l yozmalari O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik institutining kitob fondida saqlanib kelmoqda.

242 dan 80 tasi falsafa, ilohiyot va tasavvufga tegishli, 43 tasi tabobatga oid, 19 tasi mantiqqa, 26 tasi psixologiyaga, 23 tasi tibbiyot ilmiga, 7 tasi astronomiyaga, 1 tasi matematika, 1 tasi muzikaga, 2 tasi kimyoga, 9 tasi etikaga, 4 tasi adabiyotga va 8 tasi boshqa olimlar bilan bo'lgan ilmiy yozishmalarga bag'ishlangan.

U ta'lim-tarbiyaga taalluqli bo'lgan quyidagi asarlarni yaratgan. Masalan: «Tadbir al-Manozil» (turar joyni boshqarish), «Axloq haqida risola», «Burch haqida risola», «Nafsni pokiza tutish», «Badanni boshqarish», «Adolat haqida kitob», «Al-qonun», «Ishq haqida risola», «Xay ibn-Yaqzon», «Namozning mohiyati haqida risola», «Ziyorat qilishning ma'nosi haqida», «Al-Najot», «Ash-shifo»,

«Donishnoma» kabi asarlari bilan ilm-fanga hissa qo'shgan buyuk allomadir.

Olim barcha fanlarni tasnif etadi. Bunda u birinchi o'ringa tibbiyot fanlarini qo'yadi. Falsafani esa ikki guruhga, ya'ni nazariy va amaliy guruhlarga bo'ladi. Nazariy guruh kishilarni o'zidan tashqaridagi borliq holati haqidagi bilimlarni egallashga yo'llasa, amaliy qism bizga bu dunyoda nimalar qilishimiz kerakligini o'rgatadi, deydi.

Shuning uchun ham Sharqda unga «Shayx Ur-ra'is»- ya'ni olimlarning olimi degan yuksak unvon berilgan.

U o'zining «Axloqqa oid risola»sida insonning umumiy fazilati haqida gapirib, kishilarda yuz beradigan yaxshi va yomon xulqlarning paydo bo'lish sabablari to'g'risida to'xtaladi.

Uning fikricha, «Yaxshi va yomon xulqlarning hammasi odatdan paydo bo'ladi, odamlarning yaxshi yoki yomon bo'lishida hukumat a'zolarining ta'siri ham bo'ladi», - deydi.

Ibn Sino axloqiy hislatlardan: iffat, qanoat, sahiylik, shijoat, sabr, muloyimlik, sirni saqlay bilishlik, ilm-ma'rifatli bo'lish, kamtarlik, adolatlilik, do'stlik, vafodorlik kabi axloqiy kategoriyalarga ta'rif beradi.

U insoniy fazilatlarga:

Jasurluk-biror ishni bajarishda kishining jasurligi;

Chidamlilik-inson boshiga tushgan yomonlikni to'xtatib turuvchi quvvat;

Aqllilik – biror ishni bajarishda shoshma-shosharlik qilishdan saqlovchi quvvat;

Ziyraklik – sezgi bergan narsalarning haqiqiy ma'nosini tezlik bilan tushunishga yordam beruvchi quvvat.

Ibn Sinoning fikricha, insonlar xulq-atvorida birmuncha nuqsonlar bor. Bo'lar aldash, rashk, o'ch olish, adovat, bo'xton, irodasizlik kabilardir.

U fanlar tavsifi haqida ham fikr bildirgan olim birinchi o'ringa tibbiyot fanlarini qo'yadi. Falsafani esa ikki guruhga – nazariy va amaliy guruhga bo'ladi.

U birinchi guruhga etika, iqtisod, siyosatni kiritadi.

Ikkinchi guruhga fizika, matematika, metafizika dunyo qonuniyatlarini o'rganuvchi barcha fanlarni kiritgan.

Olim fizika, adabiyot, tarix fanlari bilan shug'ullangan.

Ibn Sino bilim olishda bolalarni jamoa bo'lib maktabda o'qitish zarurligini ko'rsatadi va ta'limda quyidagilarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi.

Ibn Sino bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash zaraurligini qayd etib, maktabga barcha kishilarning bolalari tortilishi va birga o'qitilishi va tarbiyalanishi lozim deb, bolani uy sharoitida yakka o'qitishga qarshi bo'lgan. Bolani maktabda jamoa bo'lib o'qishini foydasi quyidagicha ifodalangan:

Agar o'quvchi birga o'qisa u zerikmaydi, fanni egallashga qiziqish yuzaga keladi, bir-biridan qolmaslik uchun harakat, musobaqalashish istagi rivojlanadi. Bo'larning hammasi o'qishning yaxshilanishiga yordam beradi.

O'zaro suhbatda o'uvchilar bir-biriga kitobdan o'qib olganlari, kattalardan eshitganlarini hikoya qiladilar.

Bolalar birga to'planganlarida bir-birini hurmat qila boshlaydilar, do'stlashadilar, o'quv materiallarini o'zlashtirishda bir-biriga yordamlashadilar, bir-biridan yaxshi odatlarni qabul qiladilar. Shuningdek:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'yimaslik;
- ta'limda yengildan og'irga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;
- o'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish kabi masalalarga katta ahamiyat beradi.

Talabaga bilim berish o'qituvchining ma'suliyatli burchidir. Shunga ko'ra ibn Sino o'qituvchining qanday bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritir ekan, shunday yo'l-yo'riqlar beradi. Bo'lar quyidagilardan iborat:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;
- berilayotgan bilimning talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berishi;
- ta'limda turli metod va shakllardan foydalanishi;
- talabalning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
- fanga qiziqitira olishi
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;

– bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berishi;

– har bir soʻzning bolalar hissiyotini uygʻotish darajasida boʻlishiga erishishi zarur, deydi olim

Bu talablar hozirgi davr taʼlim tamoyillariga ham mos kelishi bilan qimmatli boʻlib, bolalarni yengil-yelpi bilim olish emas, balki har tomonlama chuqur va mustahkam bilim olishiga yordam beradi. Shu jihatdan olimning «Hay ibn Yaqzon» asari kishilarning did-farosatini oʻstirishi, fikr doirasini kengaytirishi bilan taʼlim-tarbiyada katta ahamiyatga ega. Uning nomi ham shunga ishor qiladi: «Hay ibn Yaqzon» (Uygʻoq oʻgʻli Tirik). Bu asar farosat ilmi haqida ekanligini ibn Sinonining oʻzi ham taʼkidalaydi. Mazkur asarni ibn Sino 1023-yilda Hamadonga yaqin boʻlgan Faradjon qalʼasi qamoqxonasida yozgan deyishadi.

Ibn Sino bu asarida ilm-maʼrifatni oʻrganishga kirishishi natijasida koʻzi ochilgani, uning natijasida Aql (Hay ibn Yaqzon) koʻziga koʻringani va ilm ham unga oʻz jamolini namoyon qilganini hikoya qilar ekan, ilm – aqlni oʻlim bilmaydigan uygʻoq, qarimaydigan, yosh, beli bukilmaydigan – barvasta, nuroniy sifatida tasvirlaydi. Tafakkur qilib, zarur boʻlgan va bilishi mumkin boʻlgan narsalarni oʻqishga kirishgani, bu yoʻlda aqlni ishga solib, oʻzini yomonliklardan chetlashtiradigan turli xususiyatlarini bilib olganligini qayd etadi

U bola tarbiyasi haqida fikr bildirar ekan, bola tarbiyasini unga ism qoʻyishdan boshlashni lozim deb topadi. Bolaga munosib ism tanlash ota-onaning dastlabki olijanob vazifasi deb biladi.

Agar qadimgi Yunon faylasuflari Platon va Aristotellar bola tarbiyasini davlat ixtiyoriga qoʻysalar, ibn Sino- «bola tarbiyasi bilan, avvalo, ota-ona shugʻullanishi kerak», deydi.

Ibn Sino inson kamolotining muhim axloqiy jihatlarini ham tahlil etadi va har biriga taʼrif beradi: masalan, adolatni ruhiy lazzatning bosh mezonini sanaydi. Inson qanoat, jasurlik, donolik bilan adolatga ega boʻladi, yomon illatlardan oʻzini tiyib, yaxshilikni mustahkamlaydi, haqiqiy ruhiy lazzat oladi, deydi olim. Insondagi ijobiy, axloqiy hislatlarga sahiylik, chidamlilik, kamtarlik, sevgi-muhabbat, moʻtadillik, aqllilik, ehtiyotkorlik, qatʼiyatlilik, sadoqat, intilish, uyatchanlik, ijrochilik va boshqalarni kiritadi.

Qanoat va moʻtadillikni insonning hissiy quvvatiga kiritadi,

chidamlilik, aqllilikni g'azab quvvatiga, donolik, ehtiyotkorlikni ziyraklikka, sadoqat, uyatchanlik ijrochilik, achinish, sofdillikni tafovut quvvatiga kiritadi.

Ibn Sino insonning kamolga yetishida to'siqlik qiluvchi nuqsonlar sifatida johillik, nodonlik, shafqatsizlik, takabburlik, nafratni ko'rsatib o'tadi. Johillikni – ilmga, nodonlikni – zehni o'tkirlikka, shafqatsizlik, takabburlikni – adolatga, nafratni – sevgi-muhabbatga qarama-qarshi illat sifatida ta'riflaydi.

Ibn Sino yuksak axloqiy hislatlarga yana kishilarning bir-birlariga do'st bo'lib yashashi, hamkorlik qilishini ham kiritadi. Chunki har bir kishi jamiyatda, odamlar bilan birga yashar ekan, ular bilan do'stona yashashga intiladi.

Modomiki, inson aloqaga muhtoj ekan, boshqa birov bilan qo'shinchilik qilish uchun uning uyi yoniga uy soladi, o'zining ehtiyojini qondirish uchun esa ishlab chiqarish mahsulotlarini almashtiradi, dushmanlardan saqlanish uchun o'zgaralar bilan birlashadi. Mana shu tariqa kishilarda birlik hissi, boshqalarga nisbatan sevgi-muhabbat va umumiy axloqiy negizlar ishlab chiqila boshlaydi. U insonda yaxshi xulqning shakllanishida xushxulq, ilmli do'st muhim rol o'ynaydi, deydi. Olim do'stlikni shunday ta'riflaydi:

– har qanday qiyinchiliklarga qaramay o'z do'stini xavf-xatarda yolg'iz qoldirmaydigan do'stlik;

– manfaatlari o'xshash va g'oyaviy yaqin do'stlik;

– o'z shaxsiy manfaati va ehtiyojini qondirishga qaratilgan do'stlik. Ibn Sino birinchi va ikkinchi xil do'stlikni haqiqiy do'stlik deb e'tirof etadi.

Olim haqiqiy do'stlik natijasida sevgi-muhabbat paydo bo'lishi mumkinligini aytadi. U «Risoi ishq» asarida sevgi-muhabbatning asl mohiyatini ham ijtimoiy, ham fiziologik jihatdan yoritib beradi. Insonlarga ularning tashqi ko'rinishiga qarab emas, balki ularning ichki, ma'naviy dunyosiga qarab baho berish kerakligini uqtiradi. Har bir kishi tabiatan sevgi tuyg'usiga ega, u tabiiy zarurat sifatida namoyon bo'ladi, lekin inson o'z tuyg'ularini boshqara olishi, aql va farosat bilan haqiqiy sevgini xirs tuyg'usidan, ehtiros kuchidan ajrata oladi. Chunki haqiqiy sevgi, olimning fikricha, inson zimmasiga axloqiy, huquqiy burch yuklaydi. Bu esa olimning sevgiga ijtimoiy omil sifatida ham qaraganligini ko'rsatadi.

Ibn Sinoning tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy tarbiya

masalalariga keng o'rin berilgan. Chunki inson avvalo oilada kamolotga yetadi.

O'zining "Tadbir al-manozil" asarida oilada ayollarning 17 ijobiy hislati haqida fikr bildiradi: 1. Oqila. 2. E'tiqodli. 3. Sharm-hayolik. 4. Or-nomuslik. 5. Ziyrak. 6. Farosatlilik. 7. Yoqimlilik. 8. O'z eriga mehr-muhabbat qo'ygan. 9. Farzand ko'ra oladigan. 10. Ezma bo'lmagan. 11. Dili pok. 12. Bexarxasha. 13. Pokiza. 14. Vazmin va o'zini tutib olgan, jiddiy va ulug'vor. 15. Har bir xatti-harakatida o'zining yaxshi hislatlari bilan ajralib turadigan. 16. Erini birini ikki qiladigan. 17. Erining og'ir damlarida unga malham bo'la oladigan mushfiq-mehribon.

Olim oilada ota-onaning vazifasi va burchiga katta e'tibor beradi. Oila munosabatlariga to'xtalar ekan, ayniqsa, - ota-onalarning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb va hunarga o'rgatishi borasida muhim fikrlar bayon etadi. Insonning xulqi va ruhiga mehnatning ijobiy ta'sirini ta'kidlash bilan bir qatorda turli kasb egalari: hunarmand, dehqonlar mehnatini ulug'laydi va qimorboz, sudho'r kabilarni qoralaydi. U mehnatsiz hayot kechirish insonga ham jismoniy ham ruhiy tomondan salbiy ta'sir etishini to'g'ri talqin etadi.

Xulosa qilib aytganda, ibn Sino buyuk olim, faylasuf adib, tabib bo'lishi bilan birga buyuk murabbiy edi. U ta'lim tarbiya - haqida juda ko'p bosh qotiradi.

Olimning pedagogika faniga qo'shgan hissasi shundaki, u ta'limiy tarbiyaviy qarashlarida insonning ham aqliy, ham axloqiy, ham estetik hamda jismoniy tomondan rivojlanishi, kamolga yetishining mezonini ishlab chiqadi.

Tarbiya tizimiga jismoniy tarbiyaning kiritilishi esa olimning tarbiya sohasidagi katta xizmatlaridan hisoblanadi.

Yana uning xizmatlaridan biri shundaki, u insonning mehnati, qobiliyati, aql zakovatini ulug'ladi, undagi qudratga ishondi. Inson tafakkurining tantana qilishi kerakligini targ'ib qildi.

Ibn Sinoning jahon fani va madaniyati rivojiga qo'shgan hissasini e'tiborga olib, Jordano Bruno Ibn Sinoni qadimgi Yunonistonning buyuk faylasufi Aristotel, (vrach) tabib Golenlar bilan teng qatorga qo'ysa, A. Dante o'zining «Ilohiy komediya»sida olimni Ptolomey, Evklid, Gippokratlarga tenglashtiradi. Nemis faylasufi L. Feyrbax olimni «mashhur tabib va faylasuf»dir desa,

Hindostonning buyuk davlat arbobi J.Neru o'zining «Hindistonning ochilishi»degan asarida O'rta Osiyo olimlarining tilga olar ekan, Ibn Sino nomini alohida ta'kidlab: «Ulardan eng mashhuri (vrachlar) tabiblar podshohi» degan nomni olgan buxorolik Ibn Sino (Avitsenna) dir, -deb hurmat bilan tilga oladi.

Demak, ibn Sinoning shaxsiy faoliyati dunyoviy ilmlarni o'rganish haqidagi ti'limotlari, ta'lim-tarbiya haqidagi mulohazalari, umuminsoniy pedagogik fikr taraqqiyotida o'ziga xos o'rinni egallaydi.

Mahmud ibn-Xusayn ibn-Muhammad Qoshg'ariyning – Devonu lug'otit-turk asarida ta'lim-tarbiya masalalari

Mahmud Qoshg'ariy 1028-yoki 1029-yil Issiqko'l janubiy sharqidagi

Barsxon shahrida tug'ilgan – 1101-yoki 1126-yilda Qoshg'ar yaqinida – O'palda vafot etgani taxmin qilinadi) – turkiy tilshunos olim, filolog.

Mahmud Qoshg'ariyning hayoti va faoliyatiga doir to'liq ma'lumotga ega emasmiz. Ma'lumotlarga qaraganda ota-bobolari Qoshg'arlik bo'lib, XI asrda Bolasog'unda tavallud topadi. Dastlab Qoshg'arda, so'ngra Samarqand, Buxoro, Marv, Nishopur, Bag'dod kabi markaziy shaharlarda tahsil ko'rgani aytiladi. Aytish mumkinki, u yoshligidan til va adabiyot ilmiga alohida qiziqish bilan qaragan.

Mahmad Qoshg'ariy Markaziy Osiyoda ilk O'rta asr madaniyatining buyuk arboblardan bo'lib, tilshunoslik sohasida, xususan, turkiy tillarni o'rganish sohasida mashhur bo'ldi va tarixda o'chmas iz qoldirdi.

Mahmudning otasini ismi Husayn, bobosi Muhammad bo'lib, kelib chiqish va tiliga ko'ra Qoshg'ariy nisbatini olgan. U XI asrda tug'ilib, yashab ijod etdi. Bu davrda Movarounnahrda Somoniylar o'rmini Qoraxoniylar sulolasi egallagan, turkiy adabiy til mintaqada keng urf bo'la boshlagan edi. Hatto Abbosiylar xalifaligi markazlarida, azaldan arab va boshqa somoniy xalqlar yashab kelgan o'lkalarda turkiy o'lkalar namoyandalari ko'payib, turkiy tilga e'tibor oshgan edi. Mahmud Qoshg'ariy ham o'zining uzoq yillar davomida

bunyod etgan "Devonu lug'otit turk"ni yozishni boshladi va ikki yil davom etgan mashaqqatli mehnatdan keyin 1074 yil yozib tugatdi.

"Men bu kitobni maxsus alifbe tartibida hikmatli so'zlar, saj'lar, maqollar, qo'shiqlar, rajaz va vasl deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim. ... Men iste'moldagi so'zlarnigina berdim, iste'moldan chiqqanlarini tashladim. ... So'ngra men har bir qabilaga mansub so'zlarning yasalish xususiyatlarini va qanday qo'llanishini qisqacha izoqlab ko'rsatish uchun alohida yo'l tutdim. Bu misol tariqasida turklarning tilida qo'llanilib kelgan she'rlaridan, shodlik va motam kunlarida qo'llanadigan hikmatli so'zlaridan, maqollaridan keltirdim."

Qoshg'ariy asari, o'zi ta'kidlashicha, "oldin hech kim tuzmagan va hech kimga ma'lum bo'lmagan alohida bir tartibda" tuzilgan. Unda ko'p shevashunoslikka oid qiyosiy qoidalar, grammatik, morfologik, leksik, semantik alomatlar ko'rsatilgan. Asar foydalanuvchilarga osonlik tug'dirish uchun sodda va lo'nda yozilgan. Unda qadim turk alifbosi, fonetik qonuniyatlar, orfoepik va orfografik qoidalar puxta tushuntirib berilgan. Lug'atda turkiy so'z tuzilishi an'analari, jumladan, so'z tartibi, fe'l shakllari, so'z etimologiyasiga oid fikrlar bayon etilgan. Muallif ko'rsatishicha, kitob 8 bo'limdan, muqaddima va xulosadan iborat. Har bir bo'limda ot-ism so'zlar, fe'llar qulaylik uchun alohida ajratib berilgan. "Devon"da 7500 dan oshiq turkiy so'z va iboralar izohlangan. "Devonu lug'atit turk" ham adabiy til, ham asosiy turkiy shevalarni qamrab olgan bo'lib, undagi adabiy til, sheva unsurlari nisbati o'rtacha adabiy tildagi 10-12 so'zga, shevaga oid bir so'zga to'g'ri keladi, ya'ni umumturkiy adabiy tilga ayricha ahamiyat ajratilgan.

Turkiy xalqlar tarixiga oid qadimiy afsona va rivoyatlar, 300 ga yaqin maqol va matallar, hikmatli so'zlar, 700 satrdan oshiq she'riy parchalar ushbu asar sahifalaridan o'rin olgan. She'riy parchalarning ko'p qismi turkiy xalqlar og'zaki ijodiga xos to'rtliklardan iborat. Ammo "Devon"da keltirilgan she'riy satrlardan 150 satrga yaqini islom davri she'riyatiga xos bo'lgan "bayt" tipidagi masnaviy, qasida, g'azal, qit'a parchalari bo'lib, ularni Qoshg'ariy o'zi ham ko'pincha "bayt" deb ataydi. Kitobda 7 ta epik doston, ishqiy qo'shiqlar, pandnomalar, koinot yaratilishiga oid asotir, she'rlar, tabiat manzaralari tasviri, madhiyalar, falsafiy mushohadalar uchraydi. Qoshg'ariy devonida keltirilgan VIII – IX asrlarga oid turkiy she'riyat namunalari u yoki bu darajada aruz vazniga o'tish moyilligi

seziladi. Aruzning rajaz, ramal, munsarihi, hajaz, basit, qarib, muta qarib vaznlari turkiy she'riyat namunalari ishlatilgan bo'lib, ayniqsa rajaz bahridan keng foydalanilgan. Bunday she'rlarni muallif o'zi alohida urjuzalar deb nomlaydi. Ular turkiy xalq she'riyatida keng tarqalgan bo'lib, bu bahr ohangi turkiy she'riyat tabiatiga mos kelishidan bo'lsa kerak.

“Devonu lug'atit turk”da keltirilgan qasida va qatralar mazmun jihatdan o'sha davrning turkiyzabon shoiri Yusuf Xos Hojib dostoni mavzulari bilan juda uyg'undur. Shu jihatdan ham undagi parchalarni Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq”iga va Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asari orasidagi davr she'riyatiga mansub ekanligini tan olish mumkin.

Mahmud Qoshg'ariy asarida dunyo xaritasi doira shaklida chizib ko'rsatilgan. Uning markazida Markaziy Osiyo joylashgan. Balasog'un, SHosh, O'zgan, Isfijob, Marg'inon kabi shaharlar ushbu hududga aloqador ko'rsatilgan. XI asr jug'rofiy tasavvurlaridan darak beruvchi xaritaning ilova qilinishi Qoshg'ariyning qomusiy alloma ekanini yana bir marta isbot etadi. “Devonu lug'atit turk”ni o'sha davrlarda Markaziy Osiyo mintaqasida yashagan turkiy xalqlar hayoti haqidagi qomusiy asar deb atash mumkin.

Buyuk tilshunos olim Mahmud Qoshg'ariyning “Devoni lug'atit turk” asari Qoraxoniylar davrining noyob durdonasi hisoblanadi. U o'lmas obida sirasiga kiradi va o'zida davr tili, adabiyoti, tibbiyoti, tarixi, geografiyasi, etnografiyasi, hunarmandchiligi va astronomiyasi xaqidagi bilimlarni qamrab olgan.

Yer yumaloq ekani haqidagi qarashlar qadimdan paydo bo'lganini bilasiz. Mahmud Qoshg'ariy bu boradagi fikrlarni ilmiy asosda rivojlantirgan. Yer yumaloqligini tasdiqlovchi u yaratgan xarita o'z davri uchun g'oyatda qadrlil hisoblanadi. Vaholanki, Yevropada XVI asrdagina Kopernik (1473-1543) Mahmud Qoshg'ariy haqligini – yer yumaloqligi, o'z o'qi atrofida aylanishini isbotlab berdi.

Qadimiy turkiy she'riyatda tilga olingan ushbu muammo – bilim va boylikning bir-biriga zidligi to'g'risidagi tushuncha o'sha davr uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan. Bu masala sharhi o'rta asrlardagi ko'plab shoirlar, olimlar, mutafakkirlar merosida uchraydi. Ayni paytda u turkiy til va adabiyotining asoschisi – Mahmud Qoshg'ariy asarlarida alohida o'rin egallaydi.

Mahmud Qoshg'ariy voqelikni jonli bo'yoklarda aks ettiradi, unumli hayot kechirish, insofli bo'lish, ilm egallash, barcha quvonchlardan bahramand bo'lishga da'vat etadi.

"Devoni lug'atit turk" asarini yaratish uchun Mahmud Qoshg'ariy turkiy qabilalar yashaydigan ko'plab shaharlar va qishloklarni keziib chiqqan. 14 yillik (taxminan 1057 -yildan 1071 -yilgacha) safari davomida keng ko'lamli tarixiy materiallarni to'pladi. Buyuk olim o'z kitobida 6800 dan ziyod turkiy so'zni guruhlashtirdi, (110 hudud, ko'l va daryo, 40 elat va qabila nomlari), turkiy tilda izohlar keltirdi. Kitobdan 242 ta she'r, 262 ta maqol va matal o'rin olgan. Hayratlanarlisi shundaki, u qo'llagan 875 ta so'z, 60 ta maqol va matal biron-bir o'zgarishsiz zamonaviy turkiy tilimizga kirib kelgan.

"Devonu lug'atit turk" asarida ilm olishning qadri, bilim eng bebaho boylik bo'lib, uning negizida insonning ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashi, odob-axloqi, go'zal insoniy fazilatlarini shakllanadi, bilim va kasb-hunar insonning butun xatti-harakatlarini belgilaydi, deb ta'lim beradi:

Ilm deb yugurdim,
Donishni qidirdim.
O'zimni ayirdim,
Oq yol otim yechilur.

Yoki:

Egamni maqtayman,
Bilimni taxlayman.
Ko'ngilni jahrlayman,
Hunar butun to'planur.

Shu boisdan ham Mahmud Qoshg'ariy ilm-marifatni qadrlash, donishmand olimlarga hurmat ko'rsatish, ulardan bilimni o'rganish zarurligini, bilimli bo'lish kibr-havo manmanlikdan asraydi, deb uqtiradi:

Ilm-ma'rifat o'rgangin, bo'lma mag'rur,
Maqtanchoqning sharmandasi chiqdi, ko'r

Yoki:

O'rgan uning bilimin,
Borgin uning sari.
Qutlug' ishga bo'ysungin,
Kibmi quv nari.

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk"da yaxshi fazilatlarni kasb etish zarurligi, kek saqlamaslik, qasd olishga intilmaslik, yaxshilik qilishga, shirin so'zlashga, xushxulq bo'lishga odatlanish kerakligi pand-nasihat qilib o'tilgan.

Mutafakkirning inson shaxsini, uning qadr-qimmatini ulug'lash bilan bog'liq mehmondo'stlik qoidalari to'g'risidagi yo'riqlari ham barcha davr va zamonlar uchun asqatadigan ma'naviy boylikdir:

Mehmon kelsa o'tqazgil,
Hordiq olib tinch bo'lsin.
Oti ham yorug'likdir,
Arpa, samonga to'ysin.

Kelsa agar xonang uzra g'arib mehmon,
Bor narsangni oldiga qo'y, bo'l mehribon

Kelsa kishi chehrasiga,
Qul sochmagil.
Izzat bilan kutib,
Unga yaxshilik qil.

Yoki:

Kulib boqqan kishilarga,
Sochmagil kul,
Yaxshilik-la-ular uchun,
Tabassum qil.
Qo'rklik to'ning o'zingga
Totlig' oshing o'zgacha.
Qunoqqa ko'rgiz izzat,
Yozsin sha'ning uzoqqa

Mahmud Qoshg'ariy mol-mulkka xirs qo'ymaslik, inson mol-mulki ko'payib ketganda ham mag'rurlanib ketmasligini, keksalarning o'gitlariga quloq solishni qayta-qayta uqtiradi:

Eshitib ota-onangni,
So'zlarini qadrla.
Mol-mulking ko'paysa,
Mag'rurlanib quturma.

Mutafakkir o'z o'g'itlariga mol-mulk ko'payib ketganida mag'rurlanish kerak bo'lmaganidek, mol-mulkdan biror sabab bilan ajralib qolganda o'kinmaslikni ham maslahat beradi:

Borliq mulkin sevarsan,

Unga mulkin sevingin.

Ketgan molga achinma,

Unga ozroq o'kingin.

Shuningdek, alloma mol-dunyoga intilishni va xirs qo'yishni huddi tog'dan kelayotgan selga o'xshatadi. Mol-mulk xirsiga berilib ketgan kishi shu sel ostida qolgan toshdek chilparchin bo'ladi, deydi:

Mol yig'ishni sel kelish deb hisobla,

Mol egasi tosh kabi yumatalar.⁴

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida Xitoydan Movarounnaxr, Xorazm, Farg'ona, Buxoroga qadar cho'zilib ketgan bepoyon xudularda yashagan turkiy qavmlarning urf-odatlarini, an'analari, odob-axloqlari hamda ta'lim-tarbiyaga oid tajribalari ifodalangan maqollar mavjud. Masalan, "Tirishqoqning labi yog'liq", "Erinchoqning boshi qonlik", maqolida tirishqoq va xarakatchan odam mehnat qilib yaxshi tamolar topadi, moyli ovqatlar yeydi, erinchoq, dangasa esa, yalqovligi tufayli ishdan qochadi va pirovardida boshiga urib, faryod chekadi, degan ma'no yotadi. "Odamning olasi ichida, yilqiniki tashida, sirtida" maqoli esa dilidagi hiyonatni yashirib, yuzaki yoqimli muomala qiluvchi kishilarga nisbatan aytilgan. "Odobning boshi til" maqolida esa xushxulqlikning talablaridan biri-odobning boshi til ekanligi, shirinso'z kishi martabaga ega bo'ladi va kamolotga erishadi, degan ma'no yotadi. "Ho'kizning orting'i oyog'i bo'lguncha, buzoqning boshi bo'lgan yaxshiroq" maqolida mustaqillikning bo'ysunishdan, mutelikdan afzalligi ifodalangan. Xalq orasida "Ilon o'zining egriligini bilmay tuyaning bo'ynini egri deydi" maqoli qo'llanilgan. Inson o'zini ayab, yaxshi yeb-ichsa, tez qarimasligi "Maishatlik odam tez qarimas" maqolida ifodalangan. "Alp chirikda, bilga tirikda - botir jangda - dono majlisda sanaladi" maqolida esa insonning qanday fe'l-atvorli kishi ekanligi uning jasorati va oqilligiga bog'liq ekanligi ifodalangan. Ishda shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymaslik "Shoshgan kishi uyiga yeta olmaydi" insoning kasb-hunar va xulq-odobiga ega bo'ilish

⁴ O'zbek pedagogikasi antologiyasi. -T.: "O'qituvchi", 136-189-betlar.

“Erdamsizdan qurt chertilur – hunari va odobi bo‘lmagan kishidan baxt va davlat ketadi” kabi maqollarda talqin etiladi.

“Kichikda qatig‘lansa ulg‘adu sevinur” maqolida ilm-hunarni yoshlikdan egallash zarurligi ham ifodalangan. Chunki inson yoshlikdan tirishib mehnat qilsa katta bo‘lganda uning rohatini ko‘radi, albatta.

Shuningdek, maqollarda yomonlik qilgan kishining o‘ziga yomonlik qaytishi mumkinligi ham “Ko‘kka suzsa, yuzga tushun-osmonga tupurgan kishining tupugi o‘zining yuziga tushadi” qabilida ifodalangan.

Ayniqsa, pand-nasihatlarida asosiy o‘rinni ilm olishga undash. uning foydalari, ilm ahlini hurmat etish to‘g‘risidagi fikrlar egallaydi. Yoshlarga ilmi kishilarga yaqinlashish, ulardan o‘gitlar olish maslahat beriladi:

*O‘g‘lim, senga qoldirdim o‘git,
Unga amal qil.
Olimlarga yaqinlash, bahra olgil,
Tutib dil.*

Ma‘lumki, bilim-ma‘rifatli kishi kibr-havodan uzoqroq turishini ta‘minlaydi, bunga insonning o‘zi ham sababchi deb uqtiriladi, o‘gitlarda. Ilm sari intilishni qutlug‘ ish sanaladi. Demak, har bir kishi ilm sari intilishi, unga bo‘ysunishi, moyil bo‘lishi, kibrni esa o‘zidan nari surishi kerak bo‘ladi.

*O‘rgan uning bilimin,
Borgin uning sari.
Qutlug‘ ishga bo‘ysungin,
Kibrni quv nari.*

(II t. 161-162)

Aqlli odamning zehni o‘tkir bo‘ladi, u har qanday o‘git-nasihatni xuddi yuqorida parvoz etayotgan qushning pastda ovni ko‘rgandagi tezlik bilan sho‘ng‘ishiga o‘xshatadi. Oqil odam zehning tezligi qush parvozig qiyoslanadi:

*Qush ov ko‘rsa, yuksaklardan pastga cho‘kar,
Olim kishi o‘git bersa, darhol uqar.*

(III t. 53)

Bu misolda aqlli, bilimli odamning tabiati, o‘ziga xos hislati ifodalangan.

«Devonu Lug'atit turk» asarida insoniy fazilatlarining ajralmas qismi xushxulqlik alohida ajratib ko'rsatiladi. Har bir inson egallashi lozim bo'lgan ezgulik-yaxshilik, umum manfaati uchun mehnat qilish xushxulq insonga xos fazilat ekanligi uqtiriladi:

*Ulug'liging oshsa agar
Xushxulq bo'lg'il.
Bek yonida xalq uchun
Xo'b ish qilg'il.*

(I t.95)

Kishilar o'rtasidagi totuvlik, ahillikning muhimligini ham quyidagicha ifodalaydi:

*Qo'ni-qo'shni, qarindosh
Ko'rsin sendan yaxshilik.
Ne-ne sovg'a qilishsa
Yaxshirog'in qil tortiq.*

(I t. 137)

Yana bir she'riy parchada shoir inson faqat o'zini o'ylamasligi, o'zgalar manfaati uchun ham harakat qilishi lozimligini aytadi:

*Ko'rklik to'ning o'zingga,
Totlig' oshing o'zgaga.
Qo'noqqa ko'rgiz izzat,
Yozsin sha'ning uzoqqa.*

(I t.80)

Shoir mol-mulkka xirs qo'ymaslik, insonning mol-mulki ko'payganda ham mag'rurlanib ketmaslikni, bu borada keksa avlod o'gitlariga rioya etishni ta'kidlaydi.

Ta'lim-tarbiyaga oid pand-nasihatlariga boy she'rlar inson turmushining turli tomonlariga oiddir. Inson hayotining abadiy emasligi, shuning uchun ham kishilarga yaxshilik qilish lozimligi, yoshlik husniga ishonish suvga suyanish bilan barobar, deydi.

Shu bilan birga she'r parchalarida:

Kimning ko'ngli bo'lsa

Qashshoq kambag'al.

To'q bo'lmaydi,

Boy bo'lmaydi, deyilgan misralar ham uchraydi.

(III t.257)

Bu pandlar hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Chunki ma'naviy boy bo'lmagan mamlakat hech qachon moddiy tomondan mustahkamlana olmaydi.

«Devonu Lug'atit turk» asarida xalqning ta'lim-tarbiyaga oid tajribalari ifodalangan maqollar ham mavjud. Maqollarda ham qo'shiqlardagi kabi do'stlik va hamkorlik mehnatga muhabbat, ilm olishga va kasb-hunar egallashga undash, vatanparvarlik va qon-qarindoshlik tuyg'usi, tejamkorlikning ahamiyati va isrofgarchilikning oldini olish, adolat va adolatsizlik, yaxshilik va yomonlikning natijalari, axloq-odob qoidalari, sihat-salomatlikni saqlashga oid o'gitlar talqin etiladi

Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» asaridagi she'riy parchalar, maqollar ezgulikni targ'ib qilgan, insonning kamolga yetishiga katta ta'sir etgan.⁵

Xulosa qilib aytganda «Devoni lug'atit turk» turkiy xalqlarning islom iste'losigacha bo'lgan davrlar hayoti, ma'lumoti, badiiyati, xususan she'riy janrlari, shakli, tasvir vositalari haqida tasavvurlar beruvchi adabiy yodgorlik ham hisoblanishi bilan qimmatlidir.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asari – pandnoma asar sifatida

Har bir davlatda bo'lganidek, Qoraxoniylar davlatining ham idora qilish usuli, yurgizadigan siyosati, qonunlari tarbiya tamoyillari ifodalangan qomus-nizomnoma zarur edi.

Shunga ko'ra, u yaratgan “Qutadg'u bilig” asari ta'lim-tarbiya tarixi, uning nazariy masalalari, komil insonni shakllantirishda, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi.

“Qutadg'u bilig” asarida hokimiyat Qoraxoniylar qo'liga o'tishi munosabati bilan ta'lim va tarbiyaning ham hokimiyatni mustahkamlash va taraqqiy ettirish uchun xizmat etadigan o'ziga xos talab va tamoyillarini belgilash zarur edi. Shuning uchun ham mazkur asar didaktik, ya'ni ta'limiy-axloqiy usulda yozildi.

O'sha davrlarda bunday asarlar (masalan, Nizom ul-mulkning “Siyosatnoma”, Kaykovusning “Qobusnoma”) yozish an'anaga kirgan bo'lsa ham, har biri o'ziga xos yo'l-uslubga ega bo'lib, “Qutadg'u

⁵ Pedagogika tarixi. O'quv qo'llanma. –T.: “O'qituvchi”, 1996, 102-103-betlar.

bilig" ulardan ancha oldin yaratilgandir. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari ta'limiy-axloqiy asar sifatida pedagogika tarixida eng yuqori o'rinlarda turadi.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari 6500 baytdan yoki 13000 misradan iborat. Uni buyuk mutafakkir yozib tugatgach, qoraxoniylar hukmdori Tavgachxon (kitobda Tavgach-Ulug' Bugra Qoraxon (xoqon), Abo Ali Xasan binni Sulaymon Arslon Qoraxon (xoqon) nomlari bilan zikr etilgan) huzuriga kelib, unga taqdim etadi. Kitob xonga manzur bo'lib, uning muallifiga Xos hojiblik lavozimini beradi. "Qutadg'u bilig" asari katta shuhrat qozonadi. Shuning uchun ham "Qutadg'u bilig"ni chinliklar (Xitoy) "Adab ul-muluk" ("Hukmdorlar odobi"), mochinliklar (Sharqiy Turkiston) "Anis ul-mamolik" ("Mamlakatning tartib-usuli"). Eronliklar "Shohnomai Turkiy", sharq elida "Ziynat ul-umaro" ("Amirlar ziynati"), turonliklar "Qutadg'u bilig", ba'zilar esa "Pandnomai muluk" ("Hukmdorlar nasihatnomasi") deb atagani kitob muqaddimasida keltiriladi.

Mazkur asarning shuhrat topishi bejiz emas edi. Chunki Yusuf Xos Hojib o'z davrining yetuk mutafakkiri, chuqur bilimli, donishmand inson edi. Buni asarning mundarijasi va mazmunidan ham bilsak bo'ladi. U o'z davrida tibbiyot, falakiyot, tarix, tabiiyot, geografiya, riyoziyot, xandasa, falsafa, adabiyot, ta'lim-tarbiya, diplomatiya, fiqh sohasiga oid fikrlarni bayon etib, faylasuf va qomusiy olim sifatida o'zini namoyon etdi. Chunonchi, u barcha ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi muomala-munosabatlarni yoritish bilan birga, diplomatiyaga oid qoidalar tizimini yaratdi, turli kasb egalarining kasbu koriga oid talablar va jamiyatning axloqiy tamoyillarini tarannum etish bilan ta'lim-tarbiya sohasida o'ziga xos uslubni yaratdi.

Qutadg'u bilig - baxt-saodatga eltuvchi bilim, ta'lim degan ma'noni bildiradi. Demak asar nomidan ham uning pand-nasihat, ta'lim-tarbiyaga oid etuk didaktik asar, har tomonlarna yetuk insonni tarbiyalaydigan darslik ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi.

"Qutadg'u bilig" asari sharqda pandnoma turkumidagi an'anaviy kitob tuzish tartibiga rioya qilingan holda tuzilgan. Avval nasriy muqaddima, so'ng 73 bobdan iborat kitobning mundarijasi beriladi. Dastlabki o'n bir fasl debocha bo'lib, Qoraxoniyni madh etish, ta'lim maqsadi, yetti kavokib va o'n ikki burj, tilning ahamiyati,

muallifning uzri, ezgulik haqida, bilim olishning ahamiyati, kitobga nom berilishi, keksalikdan afsuslanish kabi fasllardan iboratdir. O'n ikkinchi fasldan boshlab asosiy voqea bayoni e'tirof etiladi. Lekin asarda to'rt qahramon: Kuntug'di – adolat ramzi, vazir Oyto'ldi – davlat va baxt ramzi, vazirning o'g'li O'g'dulmish – aql ramzi sifatida, vazirning qarindoshi O'zg'urmish – qanoat timsoli o'rtasidagi munozara asosida hayotiy masalalar bir-biriga bog'langan holda bayon etilib, kitobni yozishdan o'z oldiga qo'ygan maqsadga bo'ysundiriladi.

Yuqorida ta'kidlangan to'rt qahramonning suhbatlari, munozaralari asosida Yusuf Xos Hojib o'z maqsad va g'oyalarini bayon etadi.

Masalan, Oyto'ldining Elig bilan uchrashuvida uning Elig sinovidan o'tishi jarayonidagi savol-javoblar natijasida davlatning sifati va fazilatlarini, uning bevafoqligi va bebaqoligi, adolatning hislatlari, shuningdek el-yurt boshqaruvchilarining hislatlari bayon etiladi.

Oyto'ldining o'g'li O'g'dulmish bilan Eligning suhbatida esa Saroy amaldorlari: beklar, vazirlar, lashkarboshilar, hojiblar, elchilar, sarkotib, xazinador, dasturxonchilar, sharobdorlar, beglarning o'z xizmatkorlariga munosabati qanday bo'lishi kerakligi bayon etiladi.

O'g'dirmish bilan O'zg'urmish munozaralari, Elig bilan O'zg'urmish munozarasida esa insoniy hislatlar, xizmat va turmush odoblari borasida fikrlar bayon etiladi, turli kasb egalari vasfi beriladi.

“Qutadg'u bilig”dagi bosh g'oya insonni hayotda baxt-saodatga eltuvchi asosiy qarashlari to'rt ramziy qahramon: Kuntug'di Elig podsho – adolat timsoli, Oyto'ldi vazir – davlat timsoli, O'g'dulmish vazir – aql timsoli, O'zg'urmish vazirning qarindoshi – qanoat timsolining hayoti va davlatni boshqarish jarayonidagi xatti-harakatlari va fikrlari orqali berilganki, bo'lar inson kamolotining muhim mezonini sanaladi. Asarda ilgari surilgan axloqiy hislatlarni sanab o'tish olimning qay darajada ta'lim-tarbiya, axloq masalalarini chuqur bilganligidan dalolat beradi: insoniylik, rostgo'ylik, to'g'rilik, soflik, mehr-muhabbat, vafo, shafqat, muruvvat, insof, adolat, ishonch, sadoqat, xushmuomalalik, shirinso'zlik, sahovat, mardlik, himmatlilik, hurmat va ehtirom tadbirkorlik, aql, zakovat, halollik, ezgulik kabi hislatlar ulug'lanadi, ularda yolg'onchilik, noinsoflik, fisqu fasod, bevafoqlik, mehrsizlik, dag'allik, qo'pollik, baxillik,

nomardlik, quvlik, hurmatsizlik, nodonlik, johillik, haromxo'rlik, ochko'zlik kabi hislatlarni qiyoslab, ezgu hislatlarning yaxshi oqibatlari va salbiy xususiyatlarning yomon oqibatlarini misollar vositasida ishonarli qilib bayon etadi.

Olim ulug'lar va kichiklar o'rtasidagi xulq-odob qoidalari haqida gapirar ekan, shu asnoda kamtarlik, salomlashish odobi, talablari, qoidalarini ham tavsiya etadi. Ayniqsa, Yusuf Xos Hojibning amaldorlar axloqi haqidagi o'g'itlari diqqatga sazovor va bu fikrlar hozirgi davrda ham qimmatli sanaladi. Olimning beklar, hojiblar, vazirlar, saroyboshilar, elchilar, lashkarboshilar, devonboshilar, xazinadorlar, sarkotiblar kabi ko'plab amaldorlarning xatti-harakatlari, ish yuritishlari, xulq-odobi haqidagi amaliy o'g'itlari va yo'l-yo'riqlari har bir amaldor uchun dastur sanaladi. Shuningdek, har bir insonning kamolga etishida to'sqinlik qiladigan yomon illatlar, nuqson va kamchiliklardan birinchi navbatda el-yurt xizmatida bo'lgan amaldorlar ham holi bo'lishi lozimligi: maishat, ishratparastlikka berilish, kek, gina, adovat, nizo, xusumat, fisqu fasod, maishiy buzuqlik, mayparastlik, kayfu safoga berilish, mutakabbirlik, xiyonat, davlat ketidan quvish, manfaatparastlik, xudbinlik, boshqalarning haq-huquqlarini toptash, ta'magirlik, haqorat kabilar shunday illatlardirki, buning natijasi davlatning rivojiga putur etkazib, jamiyatni ma'naviy qashshoqlika olib boradi, deb bunday yomon illatlardan tiyilishni maslahat beradi.

Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarida didaktik qarashlar

Qoraxoniylar xukmronligi davrida yaratilgan ta'limiy-axloqiy asarlardan yana biri Ahmad Yugnakiyning «Hibbat ul haqoyiq» («Haqiqatlar sovg'asi») asaridir.

Mazkur asar mazmunini ham o'z davrining ijtimoiy, siyosiy, diniy, axloqiy, iqtisodiy masalalar va ularni ma'lum talablar asosida tartibga solish tashkil etadi.

«Hibbat ul-haqoyiq» To'grul qilich Sipoxsolorbekning nomiga atab yozilgan manbalarda keltiriladi. Uning yozilgan vaqti taxminan XII asr boshlariga to'g'ri kelishi ta'kidlanadi.

«Qutadg'u bilig» kabi Ahmad Yugnakiyning «Hibbat ul-haqoyiq» asari ham qoraxoniylar xukmronligi davrida mamlakatning ma'naviy xayot darajasini ko'tarishga xizmat qilish maqsadida yozilgan. Uning mazmuni ham didaktik xarakterga ega. «Hibbat ul-haqoyiq» asari mundarijasining o'ziyoq buni ko'rsatib turadi.

Asar o'n to'rt bobdan iborat. Dostonning dastlabki to'rt bobi an'anaga ko'ra muqaddima bo'lib, beshinchi bobdan asosiy qism boshlangan. Bu boblarda, asosan bilimning ahamiyati, jaxolatning zarari, til odobi, dunyoning foniyligi, sahovat va baxillik, kamtarlik hamda axloqlilikning eng muhim xususiyatlari tarannum etiladi.

Ahmad Yugnakiyning «Hibbat ul-haqoyiq» asarida ham markaziy o'rinda inson, uning xar tomonlama yetuk qilib tarbiyalash masalasi turadi.

Asarda boshqa ta'limiy-axloqiy asarlar kabi insonni barkamol etishning asosiy belgisi, bu uning xushxulqligidir deyiladi. Shuning uchun adib asarda axloqiy tarkibiy qismi sanalgan tilni tiyish, mol dunyoga muxabbat qo'yishning oqibatlari, sahovat va baxillik, kamtarlik, jinoyat yo'lidan saqlanish haqida, xarom va xalollikning farzlari, ularni bir-biridan farqlay olish, e'tiqod va sadoqat kabi muhim masalalar ustida fikr yuritadi.

Ahmad Yugnakiy inson axloqliligini ko'rsatuvchi muhim belgilardan birinchisi til odobi deb biladi.

Insonda ikki narsa bo'lsa unga muruvvat yo'li yopiladi, deydi adib: biri bexuda so'zlarni ko'p gapirsa, ikkinchisi, uning so'zlari yolg'on bo'lsa. Shunga ko'ra, adib yolg'on va ko'p so'zlashning oldini olish yo'llarini bayon etadi:

Yolg'onchi kshidan o'zingni uzoq tut, sen umringni to'g'rilik bilan kechir, og'iz va tilning bezagi to'g'ri so'zdir, so'zni to'g'ri so'zla, dilingni beza, deb to'g'ri so'zni asalga, insonni davolovchi shifoga o'xshatadi:

*Tili yolg'on ertin yiroq tut teza,
Kechur sen-la umrning ko'nilik uza.
Og'iz til bezagi qo'ni so'z turur,
qo'ni so'zla so'zni dilingni beza.
qo'ni so'z asal tek bu yalg'on basal,
Basal yeb achitma ag'iz yo asal.
Yo yalg'on so'z yigtek ko'ni so'z shifo,
Bu bir so'z o'zagi urulmish masal.*

Adib to'g'ri so'zlash bilan birga, sir saqlash haqida ham foydali masalaxatlar bera oladi:

Inson sir saqlay olishi kerakligi, xatto do'stga ham sir aytsa, siri oshkor bo'lishi mumkinli, chunki kishining o'zida saqlanmagan sir boshqada ham saqlanishi mumkin emasligini ishonarli misollar bilan tushuntiradi.

Asarning to'rtinchi bo'limi sahovat va baxillik oqibatlariga bag'ishlangan, Ahmad Yugnakiy ham boshqa mutafakkirlar kabi sahovatni eng ezgu insoniy hislatlardan deb biladi. Saxiyalar hamma tomondan ulug'lanishi, dunyoda inson faqat yaxshi va nuqsonsiz nom qoldirishi mumkinligini ta'kidlar ekan, qo'llar ichida in'om beruvchisi baxtli (qo'l)dir, o'zi olib, boshalarga bermagan (qo'l) qo'llarning qutsizdir, deydi. Baxillikni adib davolab bo'lmaydigan kasallikka o'xshatadi.

Ahmad Yugnakiy saxiylikni kamolot belgisi deb tushuntiradi.

Saxiylikka baxillik, ochko'zlik qarama-qarshi qo'yiladi, boylik to'plab, yemay-ichmay, boshqalarga bermay yashagan kishilarning mol-dunyosi oxiri do'stga emas, dushmanga buyurishini quyidagicha yoritadi:

Taturmas oshin-da tuz do'stina,

O'lur qolur axir sir dushmani

Ahmad Yugnakiy kamtarlik ham inson yetukligini ko'rsatuvchi hislatlardan bo'lib, kibrlilik va xarislik insonni tubanlashtiradi, deydi. Kim o'zini manman deb, o'zini baland tutsa, uni xech kim xurmat qilmaydi, tavoze'-kamtarlik, muloyimlik insonning xusni deb biladi.

U yaxshi xulq-odobni shakllantirish va yomon illatlardan soqit bo'lish yo'llarini ham tavsiya etadi. Masalan, boylik to'plashga mukkasidan ketgan kishilarga mo'ttabar, mo'tadil xayot kechirishni maslaxat beradi va kishilarni sabr-toqat, qanoat, tinch-totuvlikka undaydi:

Balo kelsa sabr et, farraxqa kutub,

Kutub tur faraqqa balo-ranj yutuq.

Uchar maxnat o'ti, kechar navbati,

qolur sabr idish savobin tutub.

Ahmad Yugnakiy kishi gunox qilsa kechirish, g'azab o'tini iloji boricha o'chirish zarur, deydi.

Shoir boshqalar bilan extiyot bo'lib muomalada bo'lish, foydasiz tortishuvlar ulug'larning g'azabini keltirsa, kichiklarning xulqini buzadi, deydi.

U kishilarni, ayniqsa, amaldorlarni martabaga erishgach, kamtar, samimiy bo'lishga chaqiradi. Mavqeini suiiste'mol qilmaslikni nasixat qiladi.:

*Ulug'luqqa tegsang yengilma o'zing
qoli keysang atlas unutma bo'zung*

(ulug'likka yetishsang, agar atlas kiysang, bo'z kiyganingni unutma).

Adib do'st-dushmaning farqiga yetish, yaxshi kishilarni do'st tutish, do'st tanlashda xato qilmaslik kerakligini ta'kidlaydi. Shuningdek, doim yaxshi kishilar bilan hamkor bo'lishni, kishining o'zi ham ezgu, yaxshi ishlar qilib yashasa, yaxshi natijaga erishishi mumkinligini ta'kidlaydi.

*Ayo ed gu umgon esizlik qilip
Tikan eylagan er uzum bichmas ul*

(Ey, yomon qilib yaxshilikdan umidvor bo'luvchi, tikan izlagan (qidirgan) kishi hech uzum uzmaydi), deydi.

Adib ba'zi kishilardan, ulardan xatti-harakati va xulqidan norozi ekanligini ham ko'rsatadi. Masalan, u:

*Yirarsan zamonangni xalqin qo'dub,
Zamonangni yirma kishisini yir.*

(Xalqingni qo'yib zamonangni ayblama, zamonangni emas, balki kishilarni aybla,) deydi.

Shuning uchun ham Ahmad Yugnakiy kishilarga yaramas ishlar qilmaslik, tinch va farog'atda yashash, xalol bo'lish, ochko'z-suq bo'lmaslik, xaromdan saqlanish kabi xayotiy pand-nasixatlarni beradi.

Kaykovusning "Qobusnoma" asarining tarbiyaviy ahamiyati haqida

Ming yilga yaqin davrdan beri xalqni, ayniqsa, yoshlarni xayotga, amaliy faoliyatga tayyorlashda qo'llanma bo'lib kelayotgan «qobusnoma» asari esa hozirgi o'zgarishlar davrida insonni ma'naviy kamolatga yetkazishda yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur asar juda ko'p sharq va g'arb tillariga tarjima etilgan. Uning muallifi Unsurul Maoliy Kaykovus gilondan qabilasidan bo'lib, Tabristonda (Hozirda Kaspiy dengizining janubidagi hudud) yashagan. Ammo biz Kaykovus va uning avlodlari haqida juda oz ma'lumotga egamiz.

Kaykovusning o'zi ta'kidlaganidek, butun bir asar oxirgi bobda ta'rif berilgan juvonmardlar⁶ tarbiyasiga bag'ishlangan. Kaykovus «... barcha fikr va tushunchalarim sening uchun kitobga yozdim va xar bir ilm, xar xunar va xar peshakim bilur edim, hammasini qirq to'rt bobda bayon etdim», deyish bilan har bir yoshning aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyasiga oid turmush tajribasi bilan bog'langan xolda kamolga yetkazish yo'llari va usullarini bayon etgan. Kitobda juvonmardlar egallashi zarur bo'lgan quyidagi yo'nalishlarda ta'lim-tarbiya berish nazariyasi ko'zda tutilgan:

1. Kaykovus bilim haqida.
2. Xunar va turli kasb egalari haqida.
3. Turmush va xulq-odob qoidalari haqida.
4. Jismoniy yetuklik haqida.

Chunki har bir juvonmard uchun tan, jon, havas va maoni, ya'ni ham sipoxiylik, ham ma'rifat, ham donishmandlikka ega bo'lish zarur bo'lib, bu hislatlar ana shu yuqoridagi to'rt yo'nalishda zikr etilgan.

Kaykovusning «Qobusnoma» asarida esa yoshlar tarbiyasida juvonmardlik talablaridan eng muhimi-bu yusak axloqlilik tarbiyas ekanligi keltiriladi. U yoshlarda insonga nisbatan insoniy munosabatda bo'lish, adolatlilik, samimiylik, sahiylik, mardlik kabi hislatlarni tarkib toptirishni istaydi va asarning boshidan oxirigacha ana shu ezgu maqsadini amalga oshirishga xarakat qiladi.

Kaykovusning xayotda xulq-odob qoidalariga qanday rioy etish haqidagi fikrlari, ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Bu qanoatli muruvvatli bo'lish haqidagi qarashlari, ayniqsa, diqqatga sazovor

⁶ Juvonmard – sahiy Kaykovus. Qobusnoma. T. «Meros», 1992 y. 132-bet

Uning axloqiy qarashlari yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi qarama-qarshilik asosida bayon etilgan: «Ey farzand, yaxshilik qil va qilg'on yaxshilikdan xargiz pushaymon bo'lmagil. Bir kishiga bir yaxshilik qilsang, ko'rgilki, yaxshilik qilg'on vaqtda u kishiga naqadar rohat yetadi, sening ko'nglingga ham undan ziyodroq shodlik va yozish xurramlik yetishur. Demak, bu jaxonda yaxshilik va yomonlik mukofoti, albatta, yetgulsidir. Yaxshilikning yaxshilik bilan qaytishi ayni haqiqatdir. Kaykovusning kundalik turmushdagi xulq-odob qoidalariga oid fikrlari asarning «majoz (xazil-mazax) qilmoq, shatranj (shaxmat), nard o'ynamoq zikrida», «Shikorga (ovga) chiqmoq zikrida», shuningdek, ovqatlanish, dam olish, hammomga borish, mexmondorchilik, sharob ichishga bag'ishlangan boblarida bayon qilingan bo'lib, hozirgi paytda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bunday xulq-odob qoidalari inson kamolotini ko'rsatuvchi sevgi va muhabbat, do'st tanlash va dushmandan saqlanish masalalarida, ayniqsa, namoyon bo'ladi. «Ishq va uning odatlari zikrida» bobida Kaykovus ishqda yanglishmaslikni, latif ta'b bo'lishni manzur ko'radi.

Kaykovus inson tarbiyasiga katta e'tibor bergan, axloqiy yuksak insonni tarbiyalash mezonlarini ham ko'rsatib o'tgan.

U axloqlilikning birinchi belgisi suhandonlik deb biladi, suhandonlik (notiqlik)da rost so'zlash kerakligini ta'kidlaydi. U so'zlarni to'rt xilga bo'lgani kabi odamlarni ham to'rt xilga bo'ladi: birinchi xil kishilar ko'p narsani biladi va yana belgisi kelaveradi. Bular olimlar bo'lib, ularga bo'ysunish kerak, deydi. Ikkinchisi, bilmagan narsani bilishga harakat qiladi, ular qobil kishilar bo'lib, bunday kishilarga o'rgatish kerak. Uchinchisi, bilganini ham bilmaydi, uyquda yashagandek ularni uyg'otish kerak. To'rtinchisi, bilmaydi va bilmaganini tan olmaydi. Bular johil kishilar bo'lib, ulardan qochish kerak, deydi.

So'zlarning esa birinchisi-bilinmaydi va aytilmaydi: ikkinchisi aytiladigan va biladigan, uchinchisi-ham bilinadi, ham aytishga, bilishga zarurati yo'q. Ammo aytsa ham bo'ladi. To'rtinchisi-bilinadigan va aytilmaydigan. Eng yaxshisi to'rtinchisi, ya'ni bilinadigan va aytilmaydigani, deydi. So'zlaganda andishalik bo'lish, sovuq so'zlik bo'lmaslik, kam gapirish, kamtarlik, maqtanmaslik, birovning so'zini diqqat bilan eshitish odoblarini ta'kidlaydi.

Uning axloqiy qarashlari kitobda ota-ona haqqini bilish bilan boshlanadi. Unda Kaykovus «Qur'on» va «Hadis»lardagi talablardan kelib chiqqan xolda o'zining nuqtai nazarini bayon qiladi: «o'z farzanding sening haqingda qanday bo'lishini tilasang, sen ham ota-onang haqida shunday bo'lgil, nedinkim sen ota-onang haqida nima ish qilsang, farzanding ham sening haqingda shundoq ish qilur, chunki odam mevaga, ota-ona daraxtga o'xshaydur», deydi.

Kaykovus oilada otaning vazifasi va burchiga aloxida ahamiyat beradi. Farzand tug'ilganida avvalo unga yaxshi ot qo'yish, undan so'ng aqlli va mehribon murabbiyga topshirish, o'qitish, ulg'aya boshlaganda kasb va hunar o'rgatish kerak, deydi. Kaykovus otaning burchi yana o'z farzandiga adab ham o'rgatish ekanligini ta'kidlaydi. U ilm, hunar va adabni farzandga meros qoldirish har bir otaning farzandi haqqini bajargani, deb hisoblaydi.

Kaykovus otalarning o'z farzandlariga nisbatan qattiqqo'li bo'lishini talab etadi. Lekin bolalarni jazolashni otaning o'zi emas, murabbiy tomonidan bajarilishini istaydi. Chunki otaning o'zqo'li farzandini jazolashi unda adovat hissini paydo qiladi. Lekin otadan farzand hayiqib tursin, agar u hayiqmasa ota-onani xor qiladi, deb ta'lim beradi.

Tayanch iboralar: Adib, Falakkiyot va matematikaga doir asarlar: «Er satxini o'lchash, ta'lim-tarbiya, fikriy-xulqiy. Fazilat Muallim as soniy; Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar; «Xindiston», «Shayx ar-Rais», «Donishnoma», jasurlik, chidamlilik, aqllilik, ziyraklik.

. Bilimingizni sinab ko'ring

1. Sharq Uyg'onish davrida ilm-fan, madaniyat, ta'lim-tarbiya taraqqiyoti nimalarda namoyon bo'ldi?

2. Abu Abdulloh Xorazmiyning didaktik qarashlari nimalardan iborat?

3. Abu Nasr Forobiyning asarlaridagi pedagogik fikrlar.

4. Abu Rayhon Beruniy qanday pedagogikaga oid asarlar yozgan?

5. Abu Ali Ibn Sinoga nima uchun Shayx ur rais deb ta'rif berildi?

6. Abu Nasr Forobiyning ta'lim – tarbiyaga oid qanday asarlarini bilasiz?

7. Beruniyning fozil insonni shakllantirishga oid qarashlarining

hozirgi davrdagi ahamiyatini izohlang.

8.Ibn Sinoning ta'lim va tarbiya usullari, shakl va metodlarini izohlab bering.

9.Ibn Sino oilada bola tarbiyasi haqida qanday fikrlarni ilgari surgan?

10. Abu Nasr Forobiy ta'lim tarbiya haqidagi g'oyalarining mohiyati

11.“Qutadg‘u bilig” asarining mazmuni haqida nimalarni bilib oldingiz?

12. Nima uchun “Qutadg‘u bilig” asari shuhrat topdi?

13. Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarida didaktik qarashlar haqida fikrlaringiz.

14. Kaykovusning “Qobusnoma” asarida, oila va oilaviy tarbiya haqida qanday g'oyalar aks ettirilgan?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Махмудов Қ. Ахмад Югнакийнинг «Ҳиббат ул-хақойиқ» асари тўғрисида. Т., 1996й.

2.Мухаммад Содик Қошғарий. «Одоб ас-солихин», «Шарқ юлдузи», 1981.

3.Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1996.

4.Умарова.М. Теория и история педагогики. Учебное пособие.

Т.: «Издательско полиграфический дом имени Чулпана» 2018.г.

6.Yo‘ldoshev O‘.J. Umumiy pedagogika. Darslik. Toshkent. Fan va texnologiyalar. 2019.

7.Xadjaev B.X., Choriev A., Salieva Z.T., Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. –T.: Iqtisod dunyosi. 2018.

8.Ўзбек педагогикаси тарихи (проф Асқар Зуннуновнинг умумий тахрири остида). Т., «Ўқитувчи».1997

4-Mavzu: XIV asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji

Reja:

1. So'fiylik ta'limotining ma'naviy hayotga ta'siri.
2. Movaraunnahrda Amir Temur tomonidan markazlagan davlat barpo etilishi va uning fan, madaniyat va ma'rifat rivojiga qo'shgan hissasi.
3. Mirzo Ulug'bekning pedagogik g'oyalari. Ulug'bek davrida maktab islohoti.
4. Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik fikrlari.
5. Alisher Navoiyning asarlarida tarbiya va insonparvarlik masalalari. Maktab va madrasalar rivojiga qo'shgan hissasi.
6. Abdurahmon Jomiyning pedagogik qarashlari.
7. Jaloliddin Muhammad Ibn Asad as-Siddiqiy al-Davoniyning axloqiy qarashlari.

Sufiylik – islomda insonni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yo'llovchi ta'limot. Tasavvuf so'zining o'zagi va mazmuni haqida olimlar turli fikr va taxminlar bildirishgan. Ular ichida Ibn Xalidning fikri haqiqatga yaqin deb e'tirof etilgan. U «Muqaddima» asarida Tasavvuf «sufi» – «jun», «po'stin» so'zidan olingan bo'lishi kerak. zero qadimdan tarkidunyo qilgan zohidlar jundan to'qilgan kiyim yoki po'stin kiyib yurishni odat qilganlar, bu bilan ular bashang kiyinib yuruvchi ahli dunyolardan farqli hayot tarzini o'zlarida namoyon etganlar, deydi. Tasavvuf va «sufiy» so'zlari 9-asrning boshlarida yashagan Abu Hoshim Sufiydan boshlab joriy etilgan. Undan oldingi davrlarda bu atama o'mida «zuhd» («zohidlik», tarkidunyochilik), «taqvodorlik», «parhezkorlik» kabi so'zlar ishlatilgan. Ibn Xalidning fikriga ko'ra, sahobalar, tobeinlar va ulardan keyingi asr kishilarida hidoyat, ibodat, taqvo va zohidlik kabi qistuyg'ular mujassam bo'lgan. Lekin hijratning 2-asri va undan keyingi davrga kelib, odamlarning ko'pchiligida mazkur xususiyatlar o'mida dunyoparastlik, din ishlariga beparvolik, kibr va riyokorlik kabi salbiy xususiyatlar paydo bo'la boshlagandan keyin obidli va zohidlikni ixtiyor qilgan bir guruh kishilar tasavvuf va sufiylik nomi bilan ajralib chiqqanlar.

So'fiylik, so'fizm tasavvuf – islomdagi diniy falsafiy oqim. VIII asrda arab mamlakatlarida vujudga kelgan.

Tarixdan ma'lumki, VII asrga kelib, O'rta Osiyoda ham keng yoyildi. O'rta Osiyo arablar tomonidan bosib olinib, arab davlati halifaligi o'rnatiladi.

Halifalik ko'pchilik G'arb va Sharq davlatlarini o'ziga bo'ysundirdi. Natijada VII asrning oxiriga kelib, Atlantika okeanidan Tyanshangacha, Kavkazdan Xind okeanigacha bo'lgan yerlarni, turli tillda gaplashuvchi xalqlarni birlashtirgan buyuk Arab davlati vujudga keldi.

Arab istilochilari bosib olingan yerlarda xalqni islom diniga kiritib boshladilar. Tarixchi at-Tabariyning "At-Tabariy tarixi" Narshaxiyning "Buxoro tarixi" Irofesiyuv B.B.Bertoldning tarixiy asarlarida keltirilishicha xalqni islom diniga kiritish jarayoni qiyin kechgan va bir necha yillarga cho'zilgan. Zero Movorounnaxr arab istilosigacha ham ma'naviy ham iqtisodiy, tarixiy mamlakat bo'lib, uning aholisi arab bosqinchilariga tezda bo'ysuna qolmadi, sababi bosqinchilariga mahalliy xalqning yillar davomida tarkib topgan boy ma'naviy merosi: san'ati, adabiyoti, yozuvi, osoru-atiqalarini poymol etishga harakat qilganligi ham bo'ldi. Shuning uchun ham arab istilochilari xalqni bo'ysundirish uchun xarbiylar bilan bir yerda, islom targ'ibotichilaridan ham foydalandilar va ma'lum darajada asta-sekin ma'lum natijalarga ham erisha boshladilar. Jumladan, islom dinini qabul qilganlarni turli soliqlardan ozod qildilar.

VII asr boshlarida Arabistonda o'ziga xos madaniyat – arabiy til yaratilgan bo'lib, unda notiqlik va ma'suliyat yuqori qadirlangan. Ayniqsa, qur'onning o'zi ajoyib adabiy fazilatlariga ega bo'lib, u o'rta asr arab adabiyotining eng nodir adabiy yodgorliklaridan o'rin olgan. Jumladan, qur'onda axloq-odob, imon, insonni ulug'lash, jamiyatga xizmat qilish, oilani mustahkamlash, ota-onaga hurmat kabi masalalar aniq-ravshan aks etgan. Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Muslum ibn al-Xattot, Abu Iso Muhammad ibn at-Termiziy, Imom Abu Dovud Sulaymon, Imom Ahmad ibn Shu'ayb an-Nasoniy to'plagan hadislar ham ta'lim-tarbiyada muhim ahamiyat kasb etgan.

VII-asrning 2-yarmidan boshlab, islomning o'z ichida turli yo'nalishlar, mazhablar, oqimlar yuzaga kela boshlagan. Jumladan:

1-yo'nalish: Xorijiyalar-(ajralib chiqqan isyonchi ma'nosini bildiradi) - Hazrat Aliga qarshi kurashganlar, ular haqiqiy dinni qayta tiklamoqchi bo'lganlardir. IX-asrga kelib yo'qolgan.

2-yo'nalish: Sunniylik – VII-XII-asrlarda eng yirik yo'nalishlardan biri sifatida shakillangan. Hozirda jahon musulmonlarining 90% sunniy mazhabidadir. Bu yo'nalish tarkibida 4 ta diniy-huquqiy mazhab bo'lgan: ya'ni-xanafiya, malakiya, giofiya, xanbaliya mazhablaridadir.

3-yo'nalish: Shiyalik-bo'lib, arabcha “guruh”, “tarafklar” ma'nolarini bildiradi. Bu oqim mohiyati jihatidan islom olamida sunniylikdan so'ng 2-o'rinda turadi va jahon musulmonlarining 10% shiya mazhabiga mansub (Iroq, Eron, Azarbajon) sunniylar halifalik hokimiyati tarafdorlari bo'lsa, shiyalar imomat tarafdorlaridir...

Keyinchalik, sunniylik va boshqa din farqli oqimlar davirlarida, VII-asr oxiri va IX-asr boshlarida so'fiylik ta'limoti paydo bo'lgan. Mazkur oqim butun musulmon mamlakatlarida, jumladan, O'rta Osiyoda keng tarqaldi va Sharq xalqlari hayotida komil inson g'oyalarining shakillanishida muhim rol o'ynaydi. Bu sohada bir qator tadqiqotlar olib borildi.

So'fiylik ko'p qirrali oqim Jaloliddin Rumiy ma'naviy-ruhiy komilik haqida

So'fiylik musulmon Sharqi xalqlarining ko'p asrli ma'naviy hayotning g'oyaviy asosini belgilab bergan ta'limot bo'lib maydonga chiqdi. U ilohiy poklik va insoniy go'zallikni idrok etish yo'li, haq va haqiqatni himoya etish vositasi bo'lib xizmat qildi.

Sufiylik ko'pqirrali oqim bo'lib, “sof”, “yagona” degan ma'nolarni bildiradi. So'fiylik hech qachon bo'lmagan. U turli ko'rinishlarda, oqimlar tarzda nomoyon bo'lgan.

Birinchi oqim: Asosan, poklikni asosiy maqsad qilib qo'yadilar. Mansur Xalloy, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy shu oqim nomoyondalaridandir. So'fiylar inson ma'naviy-ruhiy komilikka erishish uchun quyidagi 4 bosqichni o'tashi zarur deb hisoblaydilar:

1-Bosqich-Shariat: diniy marosimlar va shariy aqidalarni, taqvolarni aynan bajarish. Vujud va qalbni tarbiyalash.

2- Bosqich-Tariqat: nafsni tiymoq, xushozodlik, ma'naviy muhabbatni chuqurlashtirish, Alloh to'g'risida o'ylash, ya'ni tariqat ko'nglini poklash.

3- Bosqich-Ma'rifat: hamma narsaning, butun borliqning asosixudo ekanini o'zining mohiyati Alloh mohiyati bilan birligini bilish va anglash. Bunday odam kibru havo, manman, shon-shuxhratga beriluvchi bo'lmaydi. U orif va bilimli bo'ladi.

4- Bosqich-Haqiqat: Bunda sufiy xudoning dargohiga erishadi, vasliga vasl bo'ladi, u bilan birlashadi.

Ikkinchi oqim: Bu oqim birinchi oqim nazariyalariga qarshi emas. Uning nazariyotchilari Zayniddin binni Muhammad Imom G'azzoliy (1058-1111), Ahmad Yassaviy (1041-1166) (130 -yil umr ko'rgan)lardir. Imom G'azzoliy "Hujjatul islom" maqsadini olgan so'fiylik asoschilaridan hisoblanadi. Uning haqida xatto "Qur'on yoqolib qolsa uni G'azzoliy asarlari bo'yicha tiklash mumkin" deb ataganlar. (Matn ilovasi. 10-bet)

Uchinchi oqim: Naqshbandiya ta'limoti. Bu oqim VII asrda vujudga kelib, XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoda rivojlandi.

Naqshbandiya tariqatining asosini insonni ham ruhiy, ham jismoniy poklanishni tashkil etib, bu jarayon hozirgi davrda ham o'z mohiyatini yo'qotmagan.

So'fiy shoir Jaloliddin Rumiy yuqorida tilga olingan islom dinidagi turli oqimlar va mazhablar haqida shunday xulosa beradi:

Har valivu har nabiru maslakest, lek to haq merovand yakest.

(har bir vale yoki nabini o'z shaxsligi bor, ammo haq oldiga borganda hammasi bir bo'ladi Men "yetmish uch mazhab bilan birdurman" deydi.) Bu mazhablarni o'zaro tortishuv, bahsu munozaralari balog'atga yetmagan odamlarni din-diyonat, islom va iymonning mohiyatiga yetmay chalg'itadi, adashtiradi, deydi. Chunonchi biron-bir mazhabda ham Allohning o'zi, uning yagonaligi inkor etilgan emas.

So'zning mohiyatini tushunmasdan, o'zaro janjallashganlar va uning yechimi haqida shunday hikoya qiladi:

"To'rt kishi: turk, fors, arab va yunon yo'lda birga ketayotganlarida ularga birov bir dirxam pul beradi. To'rtovlon bir-birini tilini tushunmaganlari uchun pulga nima sotib olish kerak deb o'zaro janjallashib qoladilar.

- fors-"angur"-sotib olamiz, desa;
- arab-"inab"-istayman, deydi.
- turk-"uzum"-olamiz desa;
- yunon-"istofil"-emoqchiman deydi.

Natijada, ular bir-birlariga tushunmay yoqalashib ketadilar. Shunda “yuz tilni biladigan sirlar sohibi” ularga yo‘liqib pulni oladi va hammasiga uzum olib beradi. To‘rtovlon tilaklari amalga oshganini ko‘rib, yarashib ketadilar.

Rumiy deydi, Allohning yaratgan odamlari cheksiz bo‘lganiday, unig ilmi ham cheksizdir va Qur‘oni Karim Alloh ilmining hammasi emas.

Jaloliddin Rumiy yozadi:

– Men komil insonni ko‘rish orzusidaman

Dedilar:

– Biz ham uni ko‘p izladik, ammo topilmadi.

Dediki:

– O‘sha topilmaganni izlayman, mening orzuyim-o‘sha.

Ha, insonning qalbi noziklashgani aqli-zakovati to‘lishgani singari, yanada barkamollik sari intilaveradi. Ruhimiz buyuk idial sari intilaveradi. Bu insoniylik mazmuniga mazmun qo‘shadi, insonni yanada sharafli va yanada qudratli zotaga aylantiraveradi.

So‘fiylik ta‘limotida Ahmad Yassaviy qarashlari

Naqshbandiyaga qadar (XIV-XV asr) O‘rta Osiyoda Yassaviylik ta‘limoti hukmron edi. Hozir ham islom dunyosida Ahmad Yassaviyni “Shayxul mashoyix” - “Hikmatli so‘zlarning ulug‘ shayxi” deb ulug‘lanadi.

Ahmad Yassaviy yoshlik chog‘laridan boshlab, Muhammad payg‘ambarimizning quydagi so‘zlarini tez-tez takrorlab yurar edi:

“Ilm egallang! Ilm sahosida – do‘st, hayot yo‘llarida – yo‘ldosh, baxtiyor daqiqalarda – rahbar, qayg‘uli onlarda – madadkor, odamlar orasida – zebu ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda quroldir”.

Haqiqattan ham, Ahmad Yassaviy Hikmatlarida hayotiy haqiqatlar ko‘pligi jihatidan insonni lol qoldiradi. Chunonchi:

To‘qqiz oyu to‘qqiz kunda yerga tushdim, to‘qqiz soat turolmadim, ko‘kka uchdim.

Deylik, so‘fiylik tariqatida Dunyo quyidagi ma‘nolarga ega:

Dunyo- mahluqot olami, moddiy borliq.

Dunyo- jism, inson badani.

Dunyo- davlat, boylik.

Dunyo- nafs, zulmat, qorong'ulik timsoli.

Dunyo- majoziy, obraz, foniylilik, yolg'on mavjudodlik ramzi.

Yassaviy nazarida dunyo mehr-muhabbatga arzimagan uchun, uni sevmaganlar ham baxtli emas. "Bu dunyoda lahza forig' bo'lmoq qayda", deb yozdi u alam bilan.

Darhaqiqat, ham dunyoda oromu osoyishtalik, farog'at yo'q. Inson hamma tashvishu g'amda, tashvishlari esa mayda va ularni kemiruvchi, ma'naviyatni berkituvchi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, "Dunyo nafs ekan"-Ahmad Yassaviy quyidagi hikmatida nafsga nafratini kuchli ifodalaydi:

Nafs yo'liga kirgan kishi, rasvo bo'lur,
Yo'lidan ozib, toyib to'zib gumroh bo'lur,
Yotsa-qopsa, shayton bilan hamroh bo'lur,
Nafsni tepgil, tepgil, ey badkirdor.

Inson zotini buzib, harob etgan, eng qabih ishlarni qilishga yo'llagan narsa uning nafsidir. Jahongirlik, urush va vayronaga behisob qirg'in va sharq aybsizliklarning sababi ham nafs

Ajdodlarimiz, asrlar davomida Ahmad Yassaviyning purma'no hikmatlaridan asrlar osha bahra oldilar. U umri davomida mazlumlarni, yetim, g'ariblarni himoya qildi, o'z halqasiga oldi. Darveshlar, sofdil, solih, odamlar uning ta'limotini qabul qilib, el orasiga yoydilar. Sharq poraho'rlik, xirsu-hasadni, jaholatni tanqid qildi, harom yegan qozilar, rishva olgan muftilar, riyokor shayxlarini mazzamat etdi.

Ahmad Yassaviy qarashlari va ijodiyoti eng xalqchil va xalqsevar, xalqsevar insoniyat qozongan eng ardoqli g'oyalar qatorida abadiy yashab kelaveradi.

Movaraunnahrda Amir Temur tomonidan markazlashgan davlat barpo etilishi hamda uning fan, madaniyat va ma'rifat rivojiga qo'shgan hissasi

Tarixdan bizga ma'lumki, qariyb bir yarim asr davomida Movarounnahr mo'g'ul istilochilari tomonidan vayron etildi. Xonavayron bo'lgan Movarounnahr xalqi XIV asrning boshlariga kelib, Mo'g'ul istilochilari zulmidan qutila boshladi. Movarounnahrda kuchli davlat tuzishga bo'lgan intilish g'olib keldi. Mo'g'ul istilochilariga qarshi Buxoroda xalq Mahmud Torobiy boshchiligida qo'zg'aldi. Samarqand va Xurosonda esa Sarbadorlar qo'zg'alonlari ro'y berdi. Natijada Sarbadorlar uzoq muddat hatto hokimiyatni ham boshqarib turdilar.

XIV asrning o'rtalarida Markaziy Osiyoda mayda feodal hokimlar o'rtasida nizo kuchaydi, iqtisodiy qiyinchiliklar yuz berdi, siyosatda qat'iyatsizlik avj oldi. Hokimlar o'rtasida nizolar kuchayishi natijasida mamlakat 10 ta mustaqil beklik va amirliklarga bo'linib ketdi. Beklar va amirlar o'rtasida o'zaro kurash kuchaydi, mamlakat urush va talon-tarojlar iskanjasida qoldi. Shunday og'ir bir parokandalik vaziyatda El-yurtning og'ir yukini Amir Temur o'z yelkasiga oldi va qariyb 10 yil (1360-1370) davom etgan og'ir kurashdan so'ng mamlakatni mo'g'ullar istibdodidan xalos qildi. 1370-1380 -yillar mobaynida Amir Temur say'i harakatlari samarasi natijasida beklar va amirlar o'rtasida nizolarga barham berildi va Movarounnahrda tarqoq amirliklar markazlashgan yagona feodal davlatning bayrog'i ostida birlashtirildi.

Shunday qilib, XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrning feodal tarqoqligiga barham berildi, mamlakat mo'g'ul bosqinchilaridan tozalandi. XIV asrning oxiri XV asrlarda Markaziy Osiyoda feodal munosabatlar yanada rivoj topa boshladi. Sohibqiron Temur va dastlabki temuriylar hukmronlik qilgan davr Movarounnahr tarixida alohida o'rin egalladi.

Markazlashgan buyuk Temur davlatining barpo etilishi bilan Movarounnahrda yana fan va madaniyat, maorif qaytadan ravnaq topa boshladi. Shuning uchun ham XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr O'rta Osiyo Sharq Uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi deyilishi bejiz emas... chunki, bu davrga kelib, Markaziy Osiyoda iqtisodiyot, fan va madaniyat gurkirab rivojlandi.

Amir Temur hukmronligi davrida jahonning ko'plab shaharlaridan Samarqandga hunarmandlar, san'atkorlar, muhandislar, olimu fozillar taklif etildi va ularning tajribalaridan ilm-ma'rifat, madaniyat va qurilish jabhalarida keng foydalanildi.

Samarqand va Hirotda madrasalalar, rasadxonalar, bog'u-rog'lar, madaniyat o'chog'lari barpo etildi. Shu davrga kelib tibbiyot ilmini o'rganishga qiziqish yanada kuchaydi. Riyoziyot, falakkiyot, jo'g'rofiya, tarix, adabiyot, falsafa, huquqiy, targ'ibot, tarbiyashunoslikka oid bir qator ajoyib va muhim asarlar yaratildi. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Hayyom, Sa'diy, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Imom Buxoriy, At-Termiziy meroslarini, shuningdek, Yunon-rim madaniyatini o'rganishga harakat kuchaydi. Mamlakatda davlatni boshqarishni mukammallash-tirish, qurilish, obodonchilik, sug'orish ishlariga, shaharlar o'rtasidagi savdo yo'llarini kengaytirishga katta e'tibor berildi.

Sohibqiron Amir Temur sa'yi harakati tufayli Samarqand shahri yangidan qayta tiklandi. Shaharda "Ko'k Saroy", "Bibixonim masjidi", "Shohizinda" maqbarasi, shahar atrofida "Bog'i Chinor", "Bog'i Shamol", "Bog'i Dilkusho", "Bog'i Behisht", "Bog'i Nav" kabi bog' va saroylar barpo etildi.

Ko'hak-zarafshon, Amudaryoga ko'priklar qurildi. Toshkent atrofida kanallar qazildi. Sirdaryodan Ohangarongacha bo'lgan kanallar shular jumlasidandir.

Markaziy Osiyoda rassomchilik, naqqoshlik, bezakli-badiiy buyumlar ishlab chiqarish yuqori darajaga ko'tarildi.

Sohibqiron Temur va temuriylar davrida-she'riyat, mantiq, falsafa, tarix, huquq, astronomiya, matematika, nafosat, tilshunoslik, lug'atshunoslik, musiqashunoslik, tarbiyashunoslik, me'morshunoslik, tijorat-tadbirkorlik, tarjimonlik, xattotlik, jo'g'rofiya va elshunoslik kabi boshqa o'nlab dunyoviy bilimlarni o'rganish, shu bilimlar asosida asarlar yaratish yo'lga qo'yildi.

Amir Temur hukmronligi davrida o'rnatilgan tinchlik mamlakatda madaniyat, ilm-fan, xalq og'zaki ijodi, adabiyot va san'atning rivojida, madrasalarda ta'lim-tarbiyaning yuqori saviyada bo'lishida muhim omil bo'ldi.

Ulug'bek zamoniga kelib esa matematika, astronomiya kabi fanlar ayniqsa, rivoj topdi. Tibbiyot, tarix, adabiyot va shular bilan bir qatorda diniy bilimlarning ham ravnaq topishiga katta e'tibor berildi.

Oliy maktab-madrasalar qurildi. Buxoro, Samarqand va G'ijduvonda qurilgan uch madrasa fan taraqqiyotida ilmiy markaz bo'lib keldi.

Buxorodagi madrasa peshtoqiga bitilgan quyidagi yozuvlar haligacha yaqqol ko'zga tashlanadi: «Ilm olmoqqa intilmoq har bir muslim va muslima uchun qarzu farzdir». Su sababli ham, biz hech ikkilanmay XIV asrning ikkinchi yarmi XV asr Markaziy Osiyo tarixida uyg'onish davri bo'lib tarix sahifalaridan o'rin oldi deya olamiz.

Shuni ta'kidlash lozimki, bu davrda o'zbek adabiyotida ancha siljish ro'y berdi. Atoiy, Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Durbek va Lutfiylar tomonidan qimmatli asarlar yaratildi. Tarjima qilish ishlari jonlantirildi. Ulug'bek olimlarga homiylik qilib, ularni rag'batlantiradi. Uning o'zi ayniqsa, astronomiya va matematika fanlari bo'yicha muhim ishlarni amalga oshirdi. Ulug'bek tomonidan rasadxona barpo etildi. Shu davrda Samarqandda Qozizoda Rumiy, Jamshid ibn ma'sudiy, Mansur Koshiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, ulug' rassom Kamoliddin Behzod, tarixshunos Xondamir, xattot Sulton Ali Mashhadiy va boshqalar ijod cho'qqilariga ko'tarildilar.

Ulug'bek shogirdi Aloviddin Ali ibn Muhammad qushchi Samarqandiy, ya'ni Ali Qushchi o'sha davrda Movarounnahrning madaniy va ilmiy hayotida katta rol o'ynadi, uning «Risoi dar falakkiyot» deb nomlangan astranomiyaga oid risolasi jahonga mashhur bo'ldi va o'z davrining Ptolomeyi deb atay boshladilar.

XV asrda Markaziy Osiyoda tarix fani keng rivoj topdi, til, mantiq, falsafa, tarbiyashunoslikka doir o'nlab asarlar yaratildi. Ayniqsa, Mir Sayd Jurjoniy, Hofizi Abro' Abdurazzoq Samarqandiy, Xondamir, Davlatshoh Nizomiddin Shomiy, Ibn Arabshoh, Sharofiddin Ali Yazdiy va shu kabi o'nlab olimu-fuzalolarning yaratgan asarlari jahon fanida katta o'rin egalladi. Sulton Husayn Boyqaro hukmronlik qilgan davrga kelib, olimlar va shoirlar Samarqanddan Hirotga ko'chib o'tdilar. Hirot ilmiy-madaniy markazga aylantirildi. Alisher Navoiy Hirotida Fan, madaniyat, ilm va ma'rifatga homiylik qilishi natijasida bu yerda shoirlar, musavvirlar, xattotlar, olimu-fozillar yetishib chiqib, jahon ilmu fani olamida nom qozondilar.

Bu davrda bir qator ilm maskanlari barpo etildi, xususiy maktablar yuzaga keldi, muallim yollab, bolalarni uyda o'qitish

tadbirlari odat tusiga kirdi. Shahar va qishloqlarda, ovullarda ochilgan maktablarda bolalarni o'qitish 6 yoshdan boshlandi. Aholi savodxonligini oshirish maqsadida ko'plab tadbirlar o'tkazildi. O'quvchilar maktablarda savod chiqarganlaridan so'ng Buxoro, Samarqand, Xuroson, G'ijduvon va boshqa shaharlardagi madrasalarga borib u yerda ham diniy, ham dunyoviy fanlardan bilim olar edilar. Biz yuqoridagilardan xulosa chiqargan holda, haqiqatdan ham, XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya, madaniyat, san'at va pedagogik fikrlar yuksak taraqqiyot darajasiga erishgan deb ayta olamiz.

Sizlarga ma'lumki, uzoq yillar mobaynida mustamlaka iskanjasida kun kechirgan xalqimiz o'z vatandoshini qadrlash, uning tarixiy mavqeini munosib o'rni qo'yish imkonidan mahrum edi.

Mustaqilligimiz sharofati ila bunday noma'qulchiliklarga chek qo'yildi. Tarixni xolisona o'rganish, tarixni sohtalashtirmay, uning sarhadlarini buzmay, bor haqiqatni oydinlashtirib, ma'lumot berish imkoniyatlariga ega bo'ldik...

Darhaqiqat, o'tmishga nazar tashlaydigan bo'lsak, Amir Temur nomi tariximiz sahifalaridan qora bo'yoq bilan o'chirildi, unutilishga mahkum etildi. Maqsad xalqimizning yuragidan milliy ong, milliy g'urur tuyg'usini yo'qotish, uni qaramlikka, tobelikka ko'ndirish edi. Lekin o'zbek xalqi o'z ajdodlarini, o'z bahodirlarini unutmadi, hamisha yuragida, qalb to'rida saqladi.

Muhammad tarag'ay bahodir o'g'li Amir Temur yoshlik chog'idan mard, dovyurak, g'ururli, o'tkir zehn va aqlu idrok egasi bo'lib o'sdi. Turli dunyoviy ilmlarni, harbiy san'atni egalladi, Qur'oni Karimni yod oldi, hadis ilmini o'rgandi. Iymon-e'tiqodli, xalol pok inson bo'lib yetishdi.

Tarixiy manbalarda zikr etilishicha, Amir Temur xushfe'llik, adolat, sahovat, lutfi-karam, islom axloq-odob qoidalariga rioya va amal qilish, insonlarni jamiyatda tutgan o'rinlari qanday bo'lishidan qat'iy nazar barobar hurmat qilish, ular bilan samimiy muomalada bo'lish, berilgan va'da va zimmaga olingan ahdnomalarni vaqtida bajarish kabi qator yuksak insoniy fazilatlariga ega bo'lgan.

U yoshligidan boshlab, o'z oldiga ona yurtni mo'g'ul bosqinchilaridan ozod qilish maqsadini qo'ydi, yer yuzida buyuk saltanat sohibi sifatida el va elatlarning boshini qovushtirdi. Mamlakat qudratini har sohada yuksaklikka ko'tarib, dunyoga mashhur qildi.

Amir Temur davlati qurilishi, harbiy san'ati ko'p asrlar davomida Sharq G'arb davlatlariga o'rnak va andoza bo'ldi. Uning zamonida madaniyat, ilmu fan, me'morchilik, tasviriy san'at, musiqa, she'riyat beqiyos rivoj topdi, xalqimizning ko'p an'analari takomilga yetdi. Amir Temurning madaniyat va din ahillariga ko'rsatgan cheksiz mehr-muruvvati, ayniqsa, ibratlidir.

Amir Temur nomi umumbashar tarixida Movarounnahr va buyuk Turkiston o'lkalarida ilm-fan homiysi sifatida ham qolganini ta'kidlash lozimdir. Ma'lumki, u, nafaqat, o'z mamlakatini, balki o'zga o'lkalarni ham obod qilish uchun katta kuch va g'ayrat sarflagan. Doktor Shamsuddin Samiying «Alq A'lom» qomusining «Temur» bandida Amir Temurning o'zi olim bo'lgani, ulamolarning rahnamosi, ularni yaxshi ishlarga rag'batlantiruvchi shaxs ekanligi zikr etilgan va o'z poytaxti Samarqandni katta g'ayrat bilan obod qilib, u yerda qator madrasa, kutubxona va madaniyat saroylarini barpo etgani, «Tuzuklar» nomi bilan asar yozib, turli qonunlar yaratgani, o'z tarjimai holini ham adabiy, chig'atoy tilida yozgani hamda Temur va temuriylar davrida san'at va adabiyotning rivoj topganini eslatib o'tadi. Shuningdek, doktor Shamsuddin Boboxonov Amir Temur buyuk lashkarboshi, mohir sarkarda sifatida mukammal, yaxshi qurollangan, tezkor hujum qilishga qodir, muayyan taktika va strategiyaga ega bo'lgan qudratli armiyaga asos soldi. Bu armiya o'nlik, yuzlik, minglik va tumanliklarga bo'lingan edi. Amir Temurning harbiy san'ati, uning taktika va strategiyasi ko'p mamlakatlarda, jumladan, Fransiya, Rossiya va boshqa mamlakatlarning harbiy akademiyalarida maxsus o'rganilgan va hozirgi kunga qadar o'rganib kelinmoqda deb, ta'kidlashi ham Sohibqiron Amir Temurning buyukligidan dalolat beradi.

Zamondosh tarixchilarning e'tirof etishicha, Sohibqiron Temurning eng xarakterli xususiyatlari davlat, mamlakat va fuqaroning g'amxo'ri bo'lganligi edi. Jahongirlik qoidasi esa haqiqat-sihat-salomatlik, haqiqat-tartib, haqiqat-adolat deb tushunilgan.

Buyuk bobokalonimiz har vaqt: «Insonparvarlik va mardlikni Alloh ham, xalq ham ulug'laydi», degan hikmatli so'zni takrorlashni xush ko'rgan va hayotda o'zlari bunga amal qilganlar. Dastavval shuni aytish kerakki, Amir Temur, odob-axloq, iymon-e'tiqod, ta'lim-tarbiya sohasida o'zi yuksaklikka, mukammalikka erishgan siymolardan biridir. Bunga ishonch hosil qilish uchun uning o'zi

tomonidan yaratilgan odob-axloqqa oid dasturlar, o'gitlar, pand-nasihatlarni, sheningdek, Sohibqiron haqidagi tarixiy asarlarni ko'zdan kechirish kifoya.

Tarix fanlari doktori prof. Ashraf Ahmad Sohibqiron Amir Temurning o'zi amal qilgan sifatlarni yuksak baholaydi. Bular quyidagilar:

– ...Hammaga ham bir xil: jiddiy va odil qaradim... Boyni kambag'aldan ustun qo'ymadim;

– ...Islomga qat'iy rioya qildim. ...

– Men kambag'allarga ko'p xayr-ehson qildim. Har mojaro va muammoni diqqat bilan tekshirdim va uni mumkin qadar to'g'ri hal qilishga butun jahdimni sarf qildim;

– Xaloyiqqa rahm qildim, barchaga naf' yetkurdim.

– ...Birovga nohaq ozor yetkazmadim va mendan yordam so'rab kelganlarni ko'krigidan itarmadim...;

– Islomga taalluqli ishlarni men har doim kundalik va dunyoviy ishlardan ustun qilib keldim...;

– Barcha so'zlarimdan doim haqiqatgo'ylikka amal qildim...

– Men har kimga va'da bersam, unga vafo qildim...;

– Doimo o'zimni Allohning yerdagi mulkinging posboni deb bildim va parvardigor iznisiz uni sarf etmadim...;

– Men har doim insof bayrog'ini baland ko'tardim va iymon tarqatishni o'z buyukligimning qudratli zamini deb bildim...;

– Men doim saidlarga ehtirom bilan qaradim, ulamo va shayxlarni e'zozladim...

Shunday qilib, Sohibqiron Amir Temurning ibratli, hayotiy pand-nasihatlari va purma'no o'gitlarining har bir mazmun va ma'no kengligi, mantiqning kuchliligi, teranligi, ta'siri umuminsoniy qadriyatlar asosiga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi, ularni hadsiz xazina, odob-axloqqa oid dasturlar deya olamiz.

Bu o'gitlar Sohibqironning juda mashaqqatli va sertashvish; goh muvaffaqiyatli, goh muvaffaqiyatsiz, goh quvonchli, goho sertashvish anduhli umrining ijodiy mevasidir. Bu o'gitlar xalqlarning bir maqsad sari birlashtirgan, jipslashtirgan, muvoffaqiyatlarga erishtirishda sehrli tarbiyaviy kuchga ega bo'lgan durdona-pedagogikadir.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, Sohibqiron Amir Temur o'gitlarini uning mohiyati va vazifasiga qarab quyidagi guruhlarga ajratib o'rganish maqsadga muvofiqdir:

- islom dini va shariat qonunlari haqidagi o'git-nasihatlar;
- davlat va uni idora etish. Kengash o'tkazish;
- podsho va vazirlar haqida o'git-nasihatlar;
- axloq va odobga oid o'git-nasihatlar.

Yuqorida qayd etilgan pand-nasihatlar Sohibqironning o'z tajribasida sinalgan, hayotga tatbiq etilgan juda katta ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan xulosalaridir. Shu sababli ham ular Temur va temuriylar sulolasi davrida ta'lim-tarbiya tizimida katta ahamiyatga molik bo'ldi.

Mirzo Ulug'bekning pedagogik g'oyalari. Ulug'bek davrida maktab islohoti (1394-1449)

Muhammad Tarag'ay - Ulug'bek 1394 -yilning 22 -martida Eronning g'arbidagi Sultoniya shahrida (bobosi Sohibqiron Amir Temurning harbiy yurishi paytida) tavallud topdi. U Shohrux Mirzoning to'ng'ich o'g'li bo'lib, uni Muhammad Tarag'ay deb atayvergani uchun uning asosiy ismi Ulug'bek bo'lib qoladi va u jahonga shu nom bilan shuhrat tarqatadi. Ulug'bekning bolalik yillari bobosi Temurning harbiy yurishlari davriga to'g'ri keladi. Ulug'bekning tarbiyasi bilan buvisi Saroymulxonim shug'ullanib, sevimli nabirasiga o'qish-yozishni o'rgatgani, tarixiy mavzularda hikoya va rivoyatlar so'zlab bergani, uning hayotida o'ziga xos maktab bo'ldi.

1405-1411-yillarda, o'sha davrning qonun-qoidalariga binoan amir shoh Malik yosh mirzoga otabegi bo'lib tayinlangan. Otabegi Ulug'bekka, asosan, harbiy va siyosiy tarbiyadan ilm o'rgatgan.

O'rta asrlardan saqlanib qolgan kitoblardan ma'lum bo'lishicha, saltanatga vorislar davlatni boshqarishda muayyan tartib-qoidalar, bayon qilingan qo'llanmalar asosida tayyorlangan. Shulardan biri Shaxzodalar va Xonzodalar bilishi zarur bo'lgan «Suluk ul-mulk» (Podshohlarga qo'llanma) kitobidir. Ulug'bek ham an'anaga ko'ra mazkur kitobni mukammal o'rganadi va unda ko'rsatilgan davlatni idora qilish san'ati, turli lavozimlar egallash, boshqa yurtlardan kelgan elchilarni qabul qilish, xayr-ehson, sadaqa berish kabi tartib-qoidalar bo'yicha ko'nikmalarni egallaydi.

Ulug'bek yoshligidanoq ko'p kitoblarni mutolaa qilgan bo'lib, u, ayniqsa, matematika, astronomiya ilmlariga juda qiziqadi.

U bobosining xos munajjimi mavlono Badriddin Tusiy bilan ko'p vaqtini o'tkazar, undan hisob va taqvimdan dars olar, ba'zi kechalari qor tinib osmon yorishgan paytlarida yulduzlarning o'rni va harakatini kuzatish bilan mashg'ul bo'lar edi. Ulug'bek bolalik yillaridayoq mavlono Badriddin Tusiy yordamida al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Nasriddin Tusiy, Abu Rayhon Beruniy, Umar Hayyom kitoblari bilan hamda Oq Saroy va O'trorda «Ziji Malikshohi» bilan tanishadi.

Fanga bo'lgan zo'r muhabbati, katta qobiliyati va mehnatsevarligi tufayligina Ulug'bek astronomiya maktabining asoschisi va rahbari sifatida ajoyib muvaffaqiyatlarga erisha oladi. Bu maktab butun dunyoda hamma tomonidan e'tirof etildi, shuhratga sazovor bo'ldi.

1411-yilda 17 yoshli Ulug'bek Mirzo Movarounnahr va Turkistonning hokimi etib tayinlanishi Temuriylar xonadonida Ulug'bekning mavqei naqadar yuksak ekanligidan dalolat beradi. Ulug'bek hokim bo'lgach, bobosidan farqli o'laroq harbiy yurishlar bilan qiziqmadi. Aksincha, u o'rta asrlardagi boshqa hokimlardan o'zgacha yo'l tutdi, ko'proq ilm-fanga moyil edi.

Lekin ming afsuski, Ulug'bekning boshlang'ich ma'lumoti hamda murabbiy va ustozlari haqida to'liq ma'lumotga ega emasmiz. Shunday bo'lsa-da, munajjim Mavlono Ahmad Ulug'bekning dastlabki ustozlaridan biri bo'lsa kerak, deb taxmin qilish mumkin, chunki bu kishi Temur saroyidagi eng yirik olimlardan bo'lib sayyoralarning kelajak ikki yuzlik taqvimlari jadvallarini tuza olgan edi. Lekin Ulug'bekning o'zi keyinchalik asosiy asari bo'lmish «Ziji»da faqat Qozizoda Rumiyni «ustozim» deb ataydi.

Yangi-yangi qirralarini ocha boshladilar. Ulug'bek o'z faoliyatida, asosan, falakkiyot ilmini rivojlantirishga katta ahamiyat beradi, bu bilan birga, ko'plab iste'dodli shoirlar, ijodkorlarni to'plab, ular faoliyat ko'rsatishlari uchun sharoit yaratadi. Ma'naviy va moddiy jihatdan rag'batlantirib turadi. Masalan, uning rahnamoligida me'morchilik ravnaq topdi. Buxoro, Samarqand va G'ijduvonda madrasalar, Marvda hayriya muassasalari hamda «Chil ustun» («Qirq ustun»), «Bog'i maydon» kabi bog'lar barpo etiladi.

Ulug'bek 1424 -yilda Samarqandda Obirahmat suvi yonida G'iyosiddin Jamshid, Abduvali Birjoniy, Mansur Koshiy, Mirim Chalabiy va boshqa olimlar bilan birgalikda qurgan rasadxonasida sayyoralar sirini o'rganadi. U boshchiligida yuzdan ortiq olimlar ilmiy-tadqiqotlar olib boradilar, falakkiyot va matematika sohasida katta kashfiyotlar qilib, jahonga mashhur bo'ldilar. Bu tadqiqotlar jahonga dong'i ketgan Samarqand rasadxonasida amalga oshiriladi. Natijada, Ulug'bek 1018 yulduzning holati va harakatini aniqlaydi, falakkiyotga doir bir necha asarlar yozadi. Bu asarlarning asosiy mazmunini «Ziji Ko'ragoniy» deb atalmish falakkiyot jadvalini tashkil etadi. Jadval jahon fani rivojiga muhim hissa bo'lib qo'shiladi. Rasadxona negizida Samarqandda astronomiya maktabi vujudga keladi. Bu maktabda taniqli olimlar dars beradilar. Shunday qilib, Ulug'bekning falakkiyot maktabi o'z davrining akademiyasi («Dorul-ilm» bo'lgan va o'rta asrlar musulmon Sharqi falakkiyotining rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan. Mirzo Ulug'bek xizmatlaridan yana biri shundaki, u avvalo. yosh avlodning aqliy va ma'rifiy tarbiyasiga katta ahamiyat berib, ularni dunyoviy bilimlarni egallashga da'vat etdi, har qanday johillik va bilimsizlikka qarshi kurashdi. Ulug'bek rivojlangan fan va madaniyat inson tafakkurining kamol topishini ta'minlashga ishonadi. U insonning imkoniyatlari cheksiz ekanligiga ishora qilib, yoshlarni ilm egallashga, insofli va himmatli bo'lishga, halollik va rostgo'ylikka da'vat etadi.

Ulug'bekning bilimlarini, nafaqat, kitoblardan, balki bevosita hayotning o'zidan ham olishni tavsiya etadi. Ulug'bek yangi-yangi ilmiy kashfiyotlar qilishni inson uchun oliy fazilat deb biladi. U Movarounnahr shaharlarini, xususan Samarqand va Buxoroni ilmu ma'rifat dargohiga aylantiradi. Ulug'bek: «Bilimga intilish har bir musulim va musulima uchun farzdir» degan shiorni ilgari suradi va uni madrasaning peshtoqiga yozdirib qo'yadi. Madrasada esa ilmning turli sohalarining o'qitilishiga jiddiy e'tibor beriladi.

Masalan, Samarqand madrasasida ilohiyot ilmlari: Qur'on, Hadis, Tafsir, fiqh bilan birga riyoziyot, xandasa ilmi, hay'at (falakkiyot), tibbiyot, tarix, geografiya, ilmi aruz, ilmi qofiya, arab tili kabi dunyoviy ilmlar o'rgatilgan. Ulug'bek ilm fani ravnaqi uchun kurashgan, shu maqsad sari harakat qilgan, ta'lim-tarbiya rivojiga hissa qo'shgan fuqarolarni doimo rag'batlantirib, o'qituvchi-ustoz, mudarrisga hurmat-ehtirom bilan qarashni targ'ib etgan. Uning mana

shu say'i-harakatlari tufayli ta'lim-tarbiya sifati yaxshilana bordi, madrasalarda o'qish-o'qitish ta'limni jonlantirishga katta ahamiyat berildi. Madrasadagi o'quv tizimi isloh qilinib, unda falakkiyot, matematika, geografiya kabi fanlarni o'qitishni joriy etdi, ta'lim mazmunining sifatini oshirdi, madrasalarda o'qish muddatini 15-20 yildan 8 yilga tushirdi.

Ulug'bek maktab va madrasalarda berilgan nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish maqsadida mudarrislardan o'quvchilar bilan rasadxona amaliy mashg'ulotlar o'tkazishni talab etib, bunga o'zi rahbarlik qiladi.

Ulug'bek o'z pedagogik qarashlarida bolalarning jismonan sog'lom, harbiy hunarni puxta egallagan, jasur, mard bo'lib yetishuviga alohida ahamiyat beradi.

Ulug'bekning fikricha, ta'lim-tarbiyada matematika, falakkiyot fanlari muhim ahamiyatga ega va bu fanlar bolaning aqliy qudrati va qobiliyatini o'stirishda muhim vosita bo'lsa, tarix va adabiyot fanlari esa bolalarning vatanparvar bo'lib yetishishlariga xizmat qiladi.

Ulug'bek ta'lim-tarbiyada poraxo'rlik, qalloblik bo'lmasligini uqtiradi, mudarrisning odil va halol bo'lishiga, o'z pedagogik mahoratlarini, bilimlarini oshirib borishga, har bir mashg'ulotni yuksak saviyada o'tkazishga da'vat qiladi, ana shu bilangina o'quvchilarda bilimga qiziqish orttirish mumkinligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, tarbiyachi avval o'zini tarbiyalashi, bilim va malakalarini egallashi lozim. Ulug'bek axloqiy tarbiya xususida gapirar ekan, bu masalada insonlar orasidagi o'zaro munosabat, do'stlik va birodarlik alohida ahamiyat kasb etish kerakligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, haqiqiy va soxta do'stlarni ajrata bilish lozim, g'arazli kishi hech vaqt do'st bo'lmaydi, kishilarni u to'g'ri yo'ldan ozdiradi. Do'st tanlashga e'tibor berilmasa, soxta do'stlarning ko'payishiga, bu esa odamlar o'rtasida nopok manfaatlarga xizmat qilishga olib kelishga ishonadi. Shu bois g'arazli kishilardan har qanday yo'l bilan bo'lsa-da, yiroq bo'lish, kasbi va xulq-atvori yaxshi, hamma hurmat qiladigan, xushfe'l kishi bilan do'stlashish lozimligini tavsiya etadi.

Har bir kishi do'stona hamkorlik bilan hayotiy muammolarni hal etishi mumkin, kishi yolg'iz o'zi, do'stlarsiz hech narsa qila olmaydi. Uning ta'kidlashicha, har bir insonning axloqiy shakllanishi, olimlar o'rtasidagi munosabatlarga ham bog'liqdir, ular o'rtasidagi yaxshi

hamkorlik talabalarning axloqiy tarbiyasida g'oyat muhimdir. Bunday do'stona va beg'araz hamkorlik mohiyatini biz Ulug'bek faoliyati misolida ko'rishimiz mumkin. Masalan, Ali Qushchi umrining oxirigacha unga sodiq qoldi. Ulug'bek o'zining ko'p yillik mehnati evaziga yaratilgan «Ziji Ko'ragoniy» asarini unga ishonib topshirdi.

Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik fikrlari (1483-1537)

Markaziy Osiyoda fan va madaniyatning rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan, o'zining g'oyat samarali faoliyati bilan tarixda o'chmas iz qoldirgan, temuriylar avlodining so'nggi vakillaridan biri Umar Shayx Mirzo o'g'li Zahiriddin Muhammad Boburdir. Bobur Mirzo Farg'ona viloyatining hukmdori Umarshayx, ya'ni Sohibqiron Amir Temurning chevarasi oilasida 1483 -yilda tavallud topdi. Bobur saroy muhitida tarbiyalandi va o'qidi, yoshligidan ilmga, she'riyatga berildi. Dovyurakligi, jasurligi va epcilligi tufayli uni «Bobur» ya'ni «Yo'lbars» deb atadilar. Zahiriddin Muhammad Bobur ilm va fanning, san'atning, umuman hayotning hamma sohalari bilan yaqindan qiziqqan, g'ayrat va tashabbus, sinchkovlik va iste'dod Boburni rivojlangan feodal davrning ulug' siymolaridan biriga aylantirdi. O'tkir zehni Bobur Mirzo 9 yoshida savodini chiqaradi, Quronni yod oldi, she'rlar yozib, uni sharxlay bildi. 10-12 yoshlarida harbiy san'at sirlarini, davlatni boshqarish usulini, jismoniy tarbiya mashqlarini mukammal darajada egalladi.

Iste'dod sohibi bo'lgan Bobur 12 yoshida, otasi vafotidan so'ng taxtni egallab, podshoh etib tayinlandi va umrining oxiriga qadar o'zi ko'rgan, hayotda guvoh bo'lgan, jang suronlari, o'zga yurtdagi jahongashtaliklar, Vatanni qo'msash, bolaga, oilaga qarindosh-urug'larga munosabat masalalarini o'zining tarixiy-geografik kitobi bo'lmish «Boburnoma»da bayon etadi.

Bu borada o'zbek olimi taniqli geograf prof. X.Hasanov uni faqat davlat arbobi emas, balki mashhur lashkarboshi, tarixchi, geograf, biolog, musiqachi, tilshunos, me'mor ham bo'lganini ta'kidlaydi. Uning ijodiga mansub bo'lgan «Xatti Boburiy» uzoq yillar davomida maktablarda, madrasalarda savod o'rgatish kitobi sifatida foydalaniladi. Zahiriddin Muhammad Bobur hayotlik

paytidayoq o'ziga xos ma'rifiy maktab yaratdi. Maktab tushunchasi turli ma'nolarda ishlatiladi. Maktab tor ma'noda farzandlarga ilm-ma'rifat, ma'lumot beruvchi joy, keng ma'noda fan, san'at, adabiyot, ijtimoiy, siyosiy hayot kabilarda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan yo'nalish, oqimdir. Bobur hayotiy esdaliklar yozish maktabini «Boburnoma» asari orqali boshlab berdi. Gulbadanbegim otasi Bobur vafotidan so'ng bu maktabni davom ettirib, «Humoyunnoma» asarini yozdi. Bu maktab XX asr adabiyotida ham davom etdi. «Esdaliklar» (S.Ayniy), «Bolalik» (Oybek) v.b.asarlar.

«Boburnoma» nisbatan tor ma'noda bo'lsada, yozuvchi yashagan davrni, muhitni birmuncha aks ettirdi.

Boburning ta'lim nazariyasidagi yana bir muhim xususiyati, o'zi bilgan bilimlarni kelajak avlodga ilinishidir. Avlodim bilsin deb, eliga o'rgatgisi keladi. Bu hol uni bashariyatga buyuk ma'naviy boyliklar qoldirishiga muvaffaq qildi. Undan meros bo'lib qolgan: «Boburnoma», «Muxtasar», «Mubayyin», «Validiya» va boshqa asarlari jahon fanida, ayniqsa, xalq tarbiya qonunlarida alohida o'rin tutadi. «Boburnoma»da esa shu darajada ko'p va turli-tuman ma'lumotlar borki, ulardan hozirgi davrdagi mavjud fanlarning deyarli barcha sohalariga tegishli ma'lumotlarni olish mumkin. Shu jihatdan qaraganda, «Boburnoma» bolalar va yoshlar kitobxonligida katta ahamiyatga molikdir. Shunisi diqqatga sazovorki, «Boburnoma» katta tarixiy manbaa hisoblanadi. Chunonchi, 12 yoshli Bobur Andijonga suv qayerdan, qaysi ariqlardan kelishini, u yerda qanday mevalar pishishini, qanday qushlar ov qilishini, qushlarning og'irligi qancha ekanligini biladi.

Asarda bunday misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Shuni ta'kidlash zarurki, darhaqiqat, «Boburnoma» – muhim terminologik va toponimik manba hisoblanib, unda yer-suv, havo va turli tabiiy hodisalarga tegishli xalq so'zlari ko'plab topiladi. «Boburnoma»da XVI asr boshlaridagi (bir mingdan ortiq) o'sha davrdagi holatida, shuningdek ayrim nomlarning turli variantlari berilishi ham katta ahamiyat kasb etadi. Bobur Mirzo o'z hayoti faoliyatida ko'p yo'l bosganligi uchun yer-suv taqsimotida hamda qurilish ishlaridagi masofa o'lchovlariga katta ahamiyat bergan. «Boburnoma»da tilga olingan o'lchov birliklarini hozirgi paytda qo'llaydigan bo'lsak, bu quyidagichadir: Yig'och-8 km; kuruh-2,5 km; shar'i-2,4 km; qari-55 sm; tutam, musht-8 sm; bir o'q otim yer-110-125 metr; bir o'q

choptirim yer-215 metr; Xarvor (bir eshak ko'taradigan yuk)-300 kilodan 565 kilogacha; mo'g'uliy masofa, quloch-170 sm. Bir kunlik yo'l-40-45 km va hokazo.

Shunisi diqqatga sazovorki, Bobur har bir territoriyani ma'lum bir tartibda tavsiflaydi; avvalo, joyning geografik o'rni, so'ngra qaysi iqlimga mansubligi va qishloq xo'jaligi, shifobahsh joylari, o'simliklari, qazilmalari, hayvonoti va aholisi, uning urf-odatlarini haqida ma'lumot beradi. Bu bilan u dunyoviy ilmlarni mukammal egallaganligi, olim darajasidagi bilimga ega ekanligi kishini lol qoldiradi...

Umuman olganda, Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy merosini o'rganish yoshlarda mehnatsevarlik, oliyjanoblik, fan, madaniyat, san'atga, ma'rifatga mehr uyg'otish hissini shakllantiradi.

Boburning she'rlari original ijod samarasi sifatida ko'p avlodlarga manzur bo'lib kelgan, ota-bobolarimiz serqirra faoliyatidagi ijobiy jihatlari uchun Boburni e'zozlaganlar. Biz ham uning ma'naviy merosini, xususan, yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga molik bo'lgan axloqiy-ma'rifiy, pedagogik qarashlarini qadrlaymiz.

Xulosa qilib shuni aytamizki, umuman, XIV-XVI asrlarda Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti bilan tanishishdan shu narsa ma'lum bo'ladiki, Amir Temur barpo etgan mustaqil markazlashgan davlatda u qo'llagan siyosat o'lkada ilm-fan, san'at, hunarmandchilik va yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Sohibqiron Amir Temur va Temuriy shaxzodalar tomonidan ma'rifatga katta e'tibor berilishi natijasida shahar va qishloqlarda, ovullarda bolalarni 6 yoshdan o'qitish keng joriy etildi, madrasa ta'limi isloh qilindi, qurilish inshootlari, me'moriy obidalar, bog'u-rog'lar, savdo shoxobchalari barpo etildi, «Buyuk ipak yo'li» jonlantirildi. Davlatni boshqarish, siyosat, huquqshunoslik, iqtisodiyot-tadbirkorlik mezonlari ishlab chiqildi.

Amir Temurning tarix oldidagi ulkan xizmatlaridan biri uning ilm-fan taraqqiyotiga hissa qo'shganidadir.

Temuriy shaxzodalar orasida, ayniqsax Mirzo Ulug'bekning xizmatini alohida ta'kidlab o'tmoq maqsadga muvofiqdir. Cheksiz aql-idroki, azmu qat'iyati, odilona siyosati bilan Mirzo Ulug'bek qariyb qirq yil mobaynida Movarounnahr diyorining donishmand hukmdori bo'lib, xalqlarning azaliy orzusi – tinchlik, totuvlik, har

tomonlama taraqqiyotni qaror toptirish yo'lida shijoat va matonat ko'rsatdi.

Mirzo Ulug'bek, avvalo, ilmiy farazlar bilan emas, balki sof amaliy uslubda ijod qildi. Minglab yulduzlarni jamlagan, mukammal xarita va bugungi kun zamonaviy hisoblardan deyarli farq etmaydigan mukammal astronomik jadvalini yaratdi.

Uning hayoti va ijodi o'zbek xalqi ma'naviyati poydevoriga qo'yilgan tamal toshlaridan biri bo'lib, xalqimizning o'rta asrlarda fundamental fanga nechog'lik buyuk ahamiyat berganini ko'rsatadi. XIV-XVI asrlarda xattotlik, tilla suv bilan yozish, surat solish va muqovalash kabi sohalar yanada rivoj topdi. Bu borada Kamoliddin Behzod, Sulton Ali al-Kotib va Mahmud Muzahhib al-Xiraviylarning xizmati katta bo'ldi.

Ular Eron, Buxoro va Samarqandda kitob bezash bo'yicha o'z maktablarini yaratdilar va dunyo kutubxonalarida saqlanib kelayotgan qimmatbaho qo'lyozmalar xazinasini meros qilib qoldirdilar. Boburning pedagogika olamida xizmatlaridan biri shundaki, u Farg'ona, Samarqand, Afg'oniston, Hindiston geografiyasini o'zbek tilida birinchi bo'lib tavsiflagan olimdir. Shu sababli ham Jahon ilmu fanida, uni birinchi o'zbek afg'onshunosi va Beruniydan keyingi hindshunosi deyilishi bejiz emas. Shuni ta'kidlash kerakki, Bobur o'zining Afg'oniston va Hindiston to'g'risidagi ajoyib xotiralarini yozgan davrda G'arbiy Yevropa olimlarining Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindiston to'g'risidagi tasavvurlari taxminiy bo'lgan.

Boburning «Boburnoma» asari zoologiya, botanika, astronomiya, etnografiya, tarix, tilshunoslik sohasidagi qimmatli yodgorlikdir.

Shu bilan birga «Boburnoma»da adabiyot, diplomatiya, harbiy san'at, moliya sohalaridan ham ma'lumotlar olish mumkin. Boburning «tabiat va viloyatlar shaydosi» bo'lishi uning avlodlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatgani, uni o'g'illari Humoyun va qizi Gulbadanbegim, xolavachchasi Haydar Mirzo hayotida ham ko'ramiz. Gulbadanbegim XVI asr o'rtalarida akasi Humoyun safarini hikoya qiladigan «Humoyunnoma» tarixiy-geografik asarini yozgan tarixnavis o'zbek ayolidir. Bu asarni sharqshunos olimlar «Boburnoma»ning davomi deb juda o'rinli aytadilar.

Boburning xolavachchasi Toshkentlik Muhammad Haydar Mirzo ham Hindiston, Tibet, Qashqar va Issiqko'l atrofini kezib, «Tarixi Rashidiy» voqeanomasini yozib qoldirgan.

Yuqoridagi fikrlarimizdan ko'rinib turibdiki, Sohibqiron Amir Temur va temuriy hukmdorlar hamda ularning avlodlari o'qimishli, fan va madaniyatni egallagan, zukko insonlar bo'lib, ularning bizga qoldirgan ilmiy merosi bugungi kunda ham hayotimizda ulkan ahamiyat kasb etmoqda va Mustaqil O'zbekistonning obro'sini oshirish yo'lida katta xizmat qilmoqda. Yurtboshimiz taklifi bilan say'i harakatlari tufayli o'tkazilgan Amir Temur, Ulug'bek, Imom al-Buxoriy, Al-Farg'oniy va boshqa buyuk siymolarning tavalludiga bag'ishlangan tantanalar va ular nomi bilan atalayotgan ma'rifat maskanlarining mavjudligi xalqimizning ularga bo'lgan chuqur ehtiromidir.

Alisher Navoiyning asarlarida tarbiya va insonparvarlik masalalari. Maktab va madrasalar rivojiga qo'shgan hissasi

Insoniyatning baxt-saodati, xalqning tinchligi, osoyishtaligi, yurt obodonchiligi, ilm-fan ravnaqi uchun hayoti va ijodiyotini baxsh etgan Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirot shahrida tug'ildi. Otasi G'iyosiddin kichkina Temuriylar saroyidagi amaldorlardan, onasi shahzodalarning enagalaridan bo'lib, Alisherning o'qishi, tarbiyasiga alohida e'tibor beradilar. Ular 4-5 yoshida Alisherni maktabga o'qishga beradilar. Iroqqa ko'chib, Taft shahrida yashay boshlagan yillarida Alisher bu shaharda mashqur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning suhbatida bo'ladi. Oilasi Hirotga qaytib kelishganda Alisher Navoiy Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston", Farididdin Attorning "Mantiq-ut-tayr" ("Qush tili") asarini o'qib o'rganadi, musiqa, tarix fanlari bilan jiddiy shug'ullanadi, 10-12 yoshlaridan boshlab she'rlar yozadi.

Alisher Navoiy 15 yoshida Husayn Boyqaro bilan birga Abulqosim Boburning saroyida xizmat qiladi. Abulqosim bilan Mashhadga borib, bu shaharda o'qishni davom ettiradi, Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy, Lutfiy, Atoiy ijodini o'rganadi, "Majolis-un-nafois" asarini yozadi, 18-19 yoshlarida Abdurahmon Jomiy bilan tanishadi. Samarqand shahrida bo'lgan yillarida atoqli olim va

san'atkorlar: Mirzo Xoji So'gdiy, Sayid Qutb Samarqandiy va boshqalar asarlarini o'rganadi. Husayn Boyqaro Hirot taxtini egallaganda, Hirotga qaytib keladi.

Alisher Navoiy saroyda dastlab muhrdorlik, so'ngra vazirlik vazifalarini ado etadi, shaharning obodonchiligiga, fuqarolar tinchligi, farovonligiga alohida e'tibor beradi, ijodiy ishini davom ettiradi: "Hamsa", "Lison-ut-tayr" ('Qush tili'), "Mahbub-ul-qulub" ("Ko'ngillarning sevgani"), "Majolis-un-nafois" ("Go'zallar majlisi"), "Xazoyin-ul-maoniy" ("Ma'nolar xazinasini") va boshqa asarlarini yozadi. U o'z asarlarida tarixiy-ma'rifiy, ijtimoiy-tarbiyaviy, insonparvarlik, xalqlar do'stligi, tinchlik haqidagi g'oyalarini ifodalaydi. Alisher Navoiy 1501-yil 3-yanvarda Hirot shahrida vafot etdi.

Navoiy pedagogik qarashlarining nazariy asosi

Alisher Navoiy o'zining "Hayrat-ul-abror", "Saddi Iskandariy", "Mahbub-ul-qulub" va boshqa asarlarida o'z pedagogik nazariyasining asosini tashkil etgan tashqi olam, inson va uning o'zligi, insoniy fazilat, jamiyat, insonparvarlik, xalqparvarlik haqidagi g'oyalarini ifodaladi. Navoiy ilmiy-adabiy faoliyatida o'zidan oldin yashab o'tgan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino. Mirzo Ulug'bek va boshqa buyuk mutafakkirlarning pedagogik nazariy fikrlarlarini va ta'limotlarini davom ettirdi hamda boyitdi.

Navoiyning fikricha, olamning yaratilishidan maqsad insondir. Inson butun borliqning ko'rki va sharafidir. Insonning baxt-saodati uchun, uning kamoloti uchun kurash Navoiy faoliyatida yetakchi g'oyadir.

*Odamiy ersang demagil odami,
Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami,*

bayti Navoiy falsafiy qarashlarining tub manbaidir.

Navoiy insonni sevadi, uning haq-huquqdarini himoya qiladi, baxt-saodati uchun kurashadi. Mavoiiy mehnatkash, ijodkor, o'z kasbini mukammal egallagan, mehnati va zakovati bilan o'ziga ham, o'zgalarga ham manfaat yetkazgan insonni ulug'ladi.

Navoiyning fikricha, jamiyatdan, odamlardan ajralib, yakkalanib qolgan odam inson qatoriga kira olmaydi. U dunyodan

bahra topa olmaydi, hayoti yemiriladi, inson shaxsi odamlar bilan muloqotda, odamlarning ruhiy, ma'naviy ta'siri natijasida shakllanadi.

Navoiy ta'lim-tarbiya haqida

Alisher Navoiy tomonidan asoslangan ta'lim tizimi o'zida quyidagilarni aks ettiradi:

- a) maktab yoki madrasada tahsil olish;
- b) olim, hunarmand yoki san'atkorlarga shogird tushish asosida ta'lim olish;
- v) mustaqil ravishda ilm o'rganish.

Yoshlarga chuqur bilim hamda axloqiy tarbiya berishda muallimlarning roli beqiyosdir. Muallimlik faoliyatini olib borish o'ta mas'uliyatli va sharaflı, ayni vaqtda murakkab ish sanaladi.

Navoiyning uqtirishicha, tarbiyaning maqsadi – yosh avlodni xalqparvar, bilimlı, eng yaxshi fazilatlarğa ega kishi qilib yetishtirishdir. Navoiy bolaning voyaga yetishishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga, tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk kishi bo'lib o'sishiga ishonadi.

Navoiyning uqtirishicha, yosh bola yaxshi nima-yu, yomon nimaligining farqiga bora olmaydi, chunki uning tushunish, fikrlash, muhokama qilish qobiliyati o'smagan bo'ladi. Shu sababli u o'z xususiyatiga ko'ra, biror salbiy ta'sir natijasida yaramas, noto'g'ri yo'lga tushib ketishi mumkin. Demak, bolani juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalarniq darkor. Navoiy odob odamning olijanob fazilatlaridan ekanligini aytib, odobli kishi ochiq yuzli, xushmuomala, yoqimli bo'lishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, kishilar uchun ikkiyuzlarnachilik, qo'pollik yotdir. Odobli odam doimo hurmat va izzatda bo'ladi, ota-ona, aka-uka, opa-singilni, do'stlarni hurmat-izzat qilmoq har bir odobli kishining burchidir. Adab muhabbatga bezak va pardoz beradi, adab va tavoze do'silik ko'zqusini yarqiratadi, ikki tomondan yorug'lik yetkazadi. Shu sababdan ham har bir kishi yoqimli, nazokatli, ochiq chehrali va xushmuomala bo'lishi kerak.

"Har kimgaki, daxr ichida donolik erur,

Hilm ila anga majlis oroliq erur", - deydi, ya'ni aqlli, dono kishi odobli, xayoli, kamtarin, shirin muomalali, xulqi yoqimli bo'ladi Shirin so'zlik har bir kishi uchun eng yaxshi fazilatdir, Dag'allik

go'pollik eng yomon hislatdir. Demak, ota-onalar o'z bolalarini chin insonga xos bo'lgan go'zal fazilatlar egasi qilib tarbiyalashlari kerak.

Navoiy o'z pedagogik qarashlarida karamlilik, sahovatlilik va himmatlilikni ham insoniy go'zal fazilat hisoblaydi, el-yurtga, muhtojlarga yordam berish eng yuqori karam ekanligini aytadi. Navoiyning fikricha, yaxshilikni o'ziga maqsad qilib olgan odam baxtli bo'ladi. Bunday odamlar sahiy va himmatli bo'ladilar. "Sahiylik kishilar bog'ining hosildor daraxtidir, balki u daraxtning shirin mevasidir, odamgarchilik o'lkasining to'liqinli daryosi, balki u to'liqinli daryoning asl gavharidir"

Navoiy sahiylikni xalqqa, davlatga faqat mol-mulk bilan emas, balki har bir kishi o'zida bo'lgan kuch, bilim bilan ma'naviy yordam berishi kerakligini aytadi.

Navoiyning fikricha, har bir odam shaxsi kishilar bilan muloqotda, ularning bir-birlariga bo'lgan ruhiy, ma'naviy ta'sir ko'rsatishlari natijasida shakllanadi, har bir odamning asosiy burchi o'z farzandiga yaxshi tarbiya berish va odob o'rgatishdir.

Navoiy dili, ko'zi, tili, so'zi, o'zi pok va sof bo'lgan, xalq hurmatiga munosib odamlarni ulug' inson deb biladi. Bunday odamni:

Oni bashar xaylining insoni bil,

Odamiylar odami oni bil. - deydi Navoiy.

Odamlar odamiysi Navoiyning idealidir. Navoiy insonni millati, irqiy va diniy ayirmalaridan qat'iy nazar, bir-birlari bilan do'st, ahil bo'lib yashashga da'vat etadi.

Alisher Navoiy asarlarida ta'lim-tarbiya masalalari

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ilm-fan va san'atning turli sohalari: adabiyot, tarix, til bilimlari, musiqa, xattotlik, tasviriy san'at, me'morchilik va boshqalarni rivojlantirish bilan birga, ta'lim-tarbiyani takomillashtirishga ham katta e'tibor bergandi. U o'zining "Xamsa", "Mahbub ul-qulub" kabi yirik ta'limiy-axloqiy asarlarida, shuningdek, "Munojot", "Vaqfiya", "Majolisun nafa'is", "Muhokamat ul-lug'atayn" asarlarida, hamda Abdurahmon Jomiyning "Arba'iy" nomli asari tarjimasida "Chi-hil hadis" ("Qirq hadis") kabi asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlarini

ifodalagan bo'lsa, ta'limiy-axloqiy asarlarida esa komil insonni shakllantirishning mazmuni, yo'llari, usullarini bayon etdi.

Alisher Navoiy o'z davrining ilg'or, ma'rifatparvar allomasi sifatida islomdagi ta'lim-tarbiya to'g'risidagi o'g'itlarni, aqidalari, o'zidan ilgari o'tgan mutafakkirlarning pedagogik qarashlarini an'anaviy tarzda davom ettirdi. Ayniqsa, inson kamolotida ilm-fanning o'rni aql-idrokning ahamiyati, aqliy tarbiyaning mohiyatini yoritib beradi.

Alisher Navoiy tasavvurlaridagi komil insonga xos bo'lgan eng yuksak fazilatlariga: ijodkorlik, qobilyat, ilm-fanga muhabbat kiradi. Chunki, baxtli hayotga intilgan Alisher Navoiy fikricha, oqil, qobilyatli, dono inson o'zining kuch-quvvatiga, aqlu zakovatiga ishonadi. Shuning uchun mutafakkir ilm-fanning ahamiyatini yoritib berar ekan, ilmni qorong'ilikni yorititadigan chiroq, hayot yo'lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko'rsatadigan omil sifatida ta'riflaydi. Bu fikrini "Nazmul-javohir" asarida:

*Kim olim esa nuqtada barhaq de oni,
Gar bazm tuzar bihishti mutlaq de oni.
Har kimsaki yo 'q ilmga anga ahmaq de oni,
Majlisdaki ilm bo 'lsa uchmaq de oni*⁷.

Demak, ilmi, oqil odam o'z maqsadiga erishish uchun har qanday qiyinchilikni yengib o'tadi, kim ilmni o'ziga tayanch qilib olsa, u hech qachon qoqilmaydi, xor bo'lmaydi va ilmning vazifasi inson baxt-saodatiga xizmat qilishdir.

Alisher Navoiy ilmni inson kamoloti uchun eng zarur fazilatlaridan deb biladi. U ilmni insonni, xalqni nodonlikdan, jaholatdan qutqaruvchi omil sifatida ta'riflaydi. Shunga ko'ra, o'z asarlarida kishilarni ilm-ma'rifatli bo'lishga undaydi. Ilm olish har bir kishining, insoniy burchi, deb hisoblaydi. Chunki ilm egallashdan maqsad ham xalqining, o'z mamlakatining baxt-saodatli, farovon hayot kechirishi uchun xizmat etishdan iboratdir, deb ta'kidlaydi.

Alisher Navoiy hayotda o'z ilmiga amal qilish, o'rganganlarini hayotga tatbiq etish masalasiga alohida e'tibor beradi. Masalan, u "Mahbub ul-qulub" asarida ilm o'qib uni ishlatmagan kishi, shudgor qilib dehqonchilik qilmaganga yoki urug' sochib hosildan bahra olmaganga o'xshaydi:

⁷ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar, 12-tom. – T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. 69-bet.

*Ilm o'qib qilmag'on amal maqbul,
Dona sohib ko'tarmadi mahsul⁸.*

Alisher Navoiy bilim olishda barcha fanlarni o'rganishni targ'ib etadi. Bunda u olimu fozillarni yig'ib, ular orqali ilm-fanni taraqqiy ettirishga e'tibor beradi. Masalan, Alisher Navoiy o'zining "Ixlosiya" madrasasi yonida maktab ochib, o'z vaqfidan mablag' ajratgan. Madrasada ta'lim olayotgan har bir talabadan ilmda qattiq intizomga rioya qilish talab etilgan. Shuningdek, u ilm-fanni mustaqil holda o'rganish, yetuk ilm sohiblaridan dars olishga ham undaydi.

Alisher Navoiy yoshlarga chuqur bilim berishda muallimlar, mudarrislar hamda ustoz-murabbiylarning o'zlari ham bilimli va tarbiyali bo'lishi zarurligini uqtiradi. U nodon, mutaassib, johil domlarni tanqid etadi va o'qituvchi ma'lumotli, o'qitish yo'llarini biladigan muallim bo'lishi zarur, deydi. Masalan, "Mahbub ul-qulub" asarida maktabdorlar haqida fikr yuritar ekan, ularning o'ta qattiqqo'l, johil va ta'magirliklarini. "Maktab tutuvchi gunohsiz yosh bolalarga jafo qiluvchidir. U yosh bolalarni azoblashga rag'batlangan. Ularni kaltaklashga o'rgangan o'zi rahmsiz, miyasi po'lat va ko'ngli toshdir. G'azabli qoshi chimirilgan, gunohsizlarga achchiqlanishga odatlangandir. Ularning ko'pchiligida ko'ngil qattiqligi va ta'ma kasalligi oshkor va o'zlari aql kamligiga giriftor. Ammo yosh bolalar tabiatidagi qaysarlikni qiynalib rom qiluvchi va kichkinalarning olazarak harakatini do'q bilan tartibga soluvchidir. Agarchi qiliqlarining qo'polligi namoyondir, ammo o'zlari yosh bolalar kelishmaganliklarini silliqlashtirishga yirik egovdir", - deb qoralash bilan birga, o'qituvchi mehnatining og'irligi, murabbiylik haqqini xolisona baholaydi. "Uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga o'zlik qilardi, u esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi, ko'rkim bunga nima yetsin".

Shunisi ham borki, u to'dada fahm-farosati ozlar bo'ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday bo'ladi. Har qanday bo'lsa ham yosh bolalarga uning haqqi ko'pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa ham unga (muallimga) qabul qulluq qilsa arziydi.

*Haq yo'lida kim senga harf o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqqin yuz ganj ila⁹*

⁸ O'sha joyda, 69-bet.

⁹ O'sha joyda, 192-193-betlar.

Alisher Navoiy o'qituvchining hurmatini qanchalik joyiga qo'ysa, unga bo'lgan talabni ham shunchalik oshiradi. Ayniqsa, madrasa mudarrislarining bilimli, fozil va dono, kamtar, ma'naviy pok bo'lishlarini talab etadi: "mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa, va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa va olg'irlik uchun gap-so'z va g'avg'o yurgizmasa, nodonlikdan sallasli katta va pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o'rin bo'lmasa... Yaramasliklardan qo'rqsa va nopoklikdan qochsa, nainki, o'zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni qilmoq undan sodir bo'lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo'lib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir".¹⁰

Alisher Navoiy o'zi barpo etgan "Ixlosiya" madrasasida o'z zamonasining yetuk mudarrislarini yig'di va ilm izlagan talabalar ana shu madrasalarda ilm peshvolaridan tahsil oldilar.

Demak, Navoiy har bir yoshning aqliy kamolotga yetishida ilmu fanning ahamiyatini ko'rsatib o'tish bilan birga jamiyat taraqqiyotining asosi sanalgan ilm ahli, ilmni tarqatuvchi olimu fozillarni hurmat qilishga va ularning turmush darajasini yaxshilash masalalariga ham e'tiborni qaratadi.

Abdurahmon Jomiyning pedagogik qarashlari (1414-1492)

Abdurahmon Jomiyning ta'limiy-axloqiy qarashlari

Abdurahmon Jomiy "Haft avrang" ("Yetti taxt"), ta'lim-tarbiyaga oid «Bahoriston» asarlari bilan jahon madaniyati va pedagogik fikrlar taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan allomalardandir..

Abdurahmon Jomiy XV asrda yashagan boshqa mutafakkirlar kabi insonni, uning yuksak axloqiy hislatlarini, go'zal fazilatlarini bayon etgan allomalardan sanaladi.

Abdurahmon Jomiy ham o'z asarlarida insoniy yuksaklikni ta'rif etadi. Jomiy uchta lirik devon, yetti dostonidan iborat «Haft avrang» («Yetti taxt»), ta'lim-tarbiyaga oid «Bahoriston» asarlari bilan jahon madaniyati taraqqiyotida munosib o'ringa ega bo'ldi. Abdurahmon

¹⁰ O'sha joyda, 189-190-betlarlar.

Jomiyning ta'limiy-axloqiy qarashlari Sa'diyning «Guliston» asari uslubida Tuhfatul ahror yozilgan «Bahoriston» asari va «Haft avrang»ga kirgan hamda «Silsilatuz zahab» («Oltin tizmalar») va boshqa dostonlarida ifodalangan. Bu dostonlarda va «Bahoriston»da Jomiy haqiqiy kamolotga erishgan inson haqidagi qarashlarini bayon etadi.

Jomiy o'zining mashhur «Silsilatuz zahab» («Oltin tizmalar» dostonida esa «Sevimli aziz farzandga nasihat») bobida, eng avvalo har bir yosh bilim olishi zarurligi, chunki inson umri juda qisqa bo'lib, bu umrni behuda o'tkazmasligi, ammo bilim olgandan so'ng unga amal qilish lozimligini ta'kidlaydi va amaliyotsiz ilm ham behuda ekanligini alohida uqtiradi.

Alloma ilmning ahamiyati haqida gapirar ekan, bu bilimni egallashda kitobning har bir yoshning bilim olishidagi o'rniga, uning hislatlariga alohida to'xtalib o'tadi va kitobni «teri yopingan olim»ga o'xshatadi.

U bilimni yoshlikdan egallash lozimligini ta'kidlaydi va johillikni qattiq qoralab, dono bilan nodonni bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi:

*Hammadan avval farzand, bilimdan bahramand bo'l,
Nodonlik yurtidan chiq, bilim tomon olg'il yo'l.
Har bir kishiga bu so'z, oyna kabi ayondir,
Dono tirik hamisha, nodon o'liksimondir.*

Abdurahmon Jomiy donolikni olqishlar ekan, avvalo, mamlakatni boshqaruvchi hukmdorlar ilimli bo'lishi, agar rahbar nodon johil bo'lsa, El boshiga juda ko'p nadomat, zulm yog'ilishi mumkinligini ifodalaydi:

*Shoh agar bo'lmasa bilimdon hokim,
Jahl botqog'ida bo'lur muqim.
Yog'ar undan doim jaholat, o'lim,
El boshiga tushar nadomat, zulm.*

«Bahoriston» asarida esa ilmni behuda egallamaslik, har bir shaxs foydasi tegadigan ilmni egallashi zarurligini ta'kidlaydi:

*Eng zarur bilimni qunt bilan o'rgan,
Zarur bo'lmaganin axtarib yurma.
Zarurini hosil qilgandan keyin,
Unga amal qilmay umr o'tkurma.*

Abdurahmon Jomiy asarlarida ham boshqa allomalardagi kabi tarbiyaning ahamiyatiga katta e'tibor beriladi. Yetuk insonga xos bo'lgan axloqiy hislatlar uning barcha asarlarida keng tarannum etiladi. Masalan, haqiqiy insonga xos bo'lgan axloqiy hislatlardan yaxshilik, sahiylik, shirinsuxanlik, kamtarlik, sabr-qanoat, do'stlik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik kabilarni tarbiyalashga katta e'tibor qaratadi. Bunday sifatlardan sahovat va kamtarlik, karamni eng ulug' insoniy fazilatlaridan biri deb biladi. «Bahoriston»da u «sahovat biror narsaga qarab yoki evaziga biror narsa talab bo'lsa, hatto talab etilgan narsa maqtov va minnatdorchilik bo'lgani taqdirda ham u sahovat emas», -deydi.

Abdurahmon Jomiy inson ta'masizlik va qanoatda xirs va ta'madan uzoq bo'lishini istaydi.

*Kimning qalb diliga kirdi qanoat,
Xirs bilan ta'madan qutuldi bori.
Qanoat gilami to'shalgan yerda,
Sindi ochko'zligu ta'ma bozori.*

Jomiy insoniylik fazilatlaridan sanalgan kamtarlikni targ'ib etar ekan, kibr-havo, manmanlik, razolat, johillik kabi illatlarni fosh etadi.

Masalan, u takabbur, manman shaxslar bosh ko'targan boshqoq kabi o'roq zarbi bilan yerga yiqilib, sarg'ayib so'lishi mumkin desa, kamtar kishilarni esa o'zini tuproqqa tashlagan don, qushlar tomonidan avaylab yerdan ko'tarib ketganlaridek e'zozda bo'ladi, deb ta'kidlaydi.

Ayniqsa, Jomiy «Iskandar xiradnomasi» asarining «Iskandarning pokizalar shahriga yetishi», bobida ifodalangan insonga xos fazilatlarining tarannum etilishi, bizga Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asaridagi «Fozillar shahri hokimining fazilatlar»ni eslatadi. Har ikki asarda ham fozillar shahri aholisiga xos hislatlar yaxshilikning g'olib kelishi va barcha yomon illatlar: urush, nizo, johiliyat, zulm, boylikka, xirs, ta'magirlik yo'q etilishi yoritiladi.

Iskandar jahon aylanib, bir shaharga keladi. U yerning xalqi, turmush tarzi shohni lol qoldiradi. Mazkur shaharda odamlar tinch, osoyishta, urush-janjallsiz hayot kechiradi; barcha barobar mehnat bilan shug'ullanadi. Shaharda o'g'ri yo'q, barcha eshiklar qulfsiz. Bu shaharda adolat hukmron bo'lib, barcha fuqarolar bir xil hayot kechiradi. Ularga bunday hayot ota-bobolaridan meros qolgan bo'lib, shahar ahli bu an'analarni e'zozlab asraydi va amal qiladi. Jomiyning

«pokizalar shahri» uning yuksak orzu-umidi, insoniyat tarixidagi ideal tuzum timsolidir.

Jomiy tasavvurida haqiqiy yetuk inson El, xalq uchun xizmat qilib, yaxshi nom qoldirishi zarur. «Silsilatuz-zahob» dostonidagi quyidagi pandlar uning barcha qarashlariga yakundek sanaladi:

O'z koningdan tashqarii qo'ygil qadam,

Gavharingni ayla, pardoz dam-badam.

El uchun undan kelur ne foyda,

Konda gavhar yotgani befoyda.

Qoldiray desang jahonda yaxshi nom,

Yaxshilik qil yaxshilik qilgil mudom,

Hech keshiga ranju ozor bermagil.

Jomiy asarlarida yaxshilikning barkamol inson ega bo'lishi zarur bo'lgan eng muqaddas axloqiy hislat sifatida tarannum etilishi bejiz emas. Zero, eng qadimgi ma'rifiy yodgorliklardan boshlab yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash va yaxshilik, ezgulikning g'olib kelishiga bo'lgan oliy istak barcha pandnomalarning asosini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, Abdurahmon Jomiyning yetti dostonidan iborat «Haft avrang» («Yetti taxt») asarining «Tuhfatul-ahror» («Erkinlar tuhvasi»), «Sabhatul-abror» («Yaxshilar tasbihi») kabi falsafiy-axloqiy asarlari; «Xiradnomai Iskandar» dostoni, «Silsilatuz zahob» («Oltin tizmalar») asarlarida uning barkamol inson tarbiyasiga oid umuminsoniy g'oyalari o'z ifodasini topgan.

Abdurahmon Jomiy o'zining mashhur «Silsilatuz zahab» («Oltin tizmalar») dostonida esa «Sevimli, aziz farzandga nasihat» bobida, eng avvalo, har bir yosh bilim olishi zarurligi, chunki inson umri juda qisqa bo'lib, bu umrni behuda o'tkazmasligi, ammo bilim olgandan so'ng unga amal qilish lozimligini ta'kidlaydi va amaliyotsiz ilm ham behuda ekanligini alohida uqtirib o'tadi:

Ilm yo'liga qadam qo'y, chunki shu yo'l farovon,

Ammo umringning yo'li, g'oyatda qisqa – bir on.

Har bir kishiga bo'lmas qayta yashash muyassar,

Egalla sen bilimni, mangu turar muqarrar.

Bilim egalladingmi, unga doim amal qil,

Ilming amalsiz bo'lsa, sen oni bir zahar bil.

Faraz qildik bilarsan, ul ilmi kimyoni,

Zar qilmasang misingni, qolmas ishing nishoni.

Abdurahmon Jomiy bilim-hunarsiz kishini o'tindan boshqaga yaramaydigan mevasiz daraxtga o'xshatadi. U har bir yoshni ota obro'si, shon-shuhratidan mag'rurlanmay, o'z yo'lini tanlashga, ilmu hunar o'rganishga undaydi. Shuningdek, hunar o'rganishi har bir kishi uchun, u yoshmi, keksami, shohmi, fuqaromi, barchaga barobar, deb ta'kidlaydi. «Iskandar xiradnomasi» dostonida yunon podshohi Faylaqusning o'z farzandi Iskandarni mashhur muallim Arastu oldiga olib kelib, unga ilm va hunar, davlatni boshqarishni o'rgatishni so'ragani hikoya qilingan. Zero, Faylaqus o'z farzandining bilim va hunar, donolik sirlarini o'rganib olishi uning baxt-saodatga erishish yo'li ekanligini tushungani uchun ham o'z zamonasining nom chiqargan donishmandi oldiga olib keladi. O'z navbatida, Arastuga shogird tushgan Iskandar ham ilmu hunar egallashga zo'r ishtiyoq bilan kirishganligi va uni egallash sharafiga muyassar bo'lganligi bayon qilinadi:

*Iskandarning ta'bi hunar sanj edi,
Dilida hunardan g'azna – ganj edi.
Hech zoe ketmadi chekkan mashaqqat,
Yo'liga kiritdi bir olam hikmat.
Ziyrak aqli bilan do'stlaridan ham,
Har sohada o'zib ketardi ildam ...
Bilim yo'lida tik, to'g'ri bo'ldi u,
Donolar nazdida hikmat faqat shu ...
Qadam qo'ysa hikmat to'la dil bilan,
Hamma vaqt hamma yoq bo'ladi ravshan.¹¹*

Demak, Abdurahmon Jomiy inson uchun ilmu hunarning qay darajada zarurligini to'g'ri talqin etgan. Alloma ilm va hunarni e'zozlagan rahbar ham o'z elining e'zozida bo'lishi, bunday o'lka gullab-yashnashi mumkinligini uqtiradi. Shuningdek, u mehnatkash insonni ulug'laydi, ayniqsa, dehqonlar mehnati haqida fikr yuritar ekan, ular moddiy ne'matlar yaratish bilan jamiyatda hurmatga sazovor ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Abdurahmon Jomiy inson kamolotida musiqaning ham o'z o'rni borligiga alohida e'tibor beradi. Alloma «Musiqha haqida risola» asarini yaratar ekan, o'z o'tmishdoshlarining musiqiy tarbiya haqidagi qarashlarini rivojlantiradi.

¹¹ O'sha joyda, 196 - bet

Avvalo, olim bu asarida an'anaga ko'ra musiqaning kelib chiqishi, ohanglar haqida qimmatli fikrlar bildiradi, maqomlarga tavsif beradi, musiqa asboblari haqida ma'lumotlar keltiradi. Muhimi, musiqaning kishiga ta'siri to'g'risidadir. U musiqaning ba'zi kuylari insonda ko'tarinki ruh paydo qilsa, ba'zilari insonda ijodiy ruh paydo qiladi, deydi.

Abdurahmon Jomiy avvalo, tarbiya haqida fikr yuritar ekan, har bir narsani ham parvarish etsa, undan yaxshi natija chiqishini, insonni ham yaxshi tarbiya etsa, u barkamol bo'lishini alohida ta'kidlaydi..

Shu bois yetuk insonga xos axloqiy hislatlar uning barcha asarlarida keng tarannum etiladi. Masalan, haqiqiy insonga xos bo'lgan axloqiy hislatlardan yaxshilik, sahiylik, shirinsuxanlik, kamtarlik, sabr-qanoat, do'stlik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik kabilarni tarbiyalashga alohida diqqat bilan qaraydi. Bulardan sahovat va karamni eng ulug' insoniy hislatlardan deb biladi. «Bahoriston» asarida u: «Sahovat biror narsaga qarab yoki evaziga biror narsa talab qilinsa, hatto talab etilgan narsa maqtov va minnatdorchilik bo'lgani taqdirda ham, u sahovat emas, deydi:

*Sahiy dema sahovatiga,
Biror talab qo'ysa gar odam.
Sahiqlikmas, bu savdogarlik,
Bunda yo'qdir sharaf va karam.
Sahovatdan kimning maqsadi
Agar bo'lsa shuhrat. ovoza,
Ahli karam shahrida unga,
Har doim berkdur darvoza¹².*

Abdurahmon Jomiy inson xirs va ta'madan uzoq bo'lishini istaydi. «Bahoriston» asarida bu fikr it va gado haqidagi hikoyatda bayon etilgan:

“It dan so'radilar:

Nima uchun sen bor uyga gado qadami yetmaydi, sen yetgan ostonani tilamchi hatlab o'tmaydi?

Men xirs va ta'madan yiroqman, — dedi it. — Ta'masizlik va qanoatda mashhurman. Dasturxondan bir burda nonga qanoat qilaman, qozondan bir g'ajilgan ustixonga xursand bo'laman. Ammo tilanchi xirs va ta'mada shuhrat qozongan. U hamma vaqt ochman deb

¹² O'sha joyda, 317-bet.

qo'l cho'zgani cho'zgan. Xaltasida bir haftalik nonu, o'zi ochman deb nolon. Orqasida bir haftalik ovqat, qo'lida gadolik hassasi.

Abdurahmon Jomiy insoniylik fazilatlaridan sanalgan kamtarlik, halollik, shirinsuhanlik, sofdillikni targ'ib etar ekan, kibr-havo, razolat, johillik kabi illatlarni fosh etadi.

Xullas, Abdurahmon Jomiyning yetti dostonidan iborat «Haft avrang» («Yetti taxt»), «Tuhfat ul-ahror» («Erkinlar tuhfasi»), «Sabhat ul-abror» («Yaxshilar tasbihi») kabi falsafiy-axloqiy asarlari; «Xiradnomai Iskandar» dostoni, «Silsilatus zahab» («Oltin tizmalar») asarlarida uning barkamol inson tarbiyasiga oid g'oyalari o'z ifodasini topgan.

Jaloliddin Muhammad Ibn Asad as-Siddiqiy al-Davoniyning axloqiy qarashlari (1427-1502)

Jaloliddin Davoniy Eronning Kazarun viloyatidagi Davon qishlog'ida 1427 -yilda dunyoga kelgan. O'z davrining ilm-fan va pedagogik fikrlar taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan qomusiy olim. Uning yetuk olim bo'lib yetishishida Samarqand, Xirof ilmiy muhitining, shuningdek, Vizantiya, Ozarbayjon, Qirmon, Hurmuz, Tabaristan, Xuroson va Jurmon olimlari bilan uzviy aloqada bo'lganining katta ta'siri bo'lgan. Ayniqsa, Davoniyning madrasidagi uzoq vaqt mudarrislik faoliyati uning ta'lim-tarbiya to'g'risidagi qarashlarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Taniqli faylasuf olim H.Aliqulovning tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, Davoniydan quyidagi ilmiy meros qolgan: «Risolai isboti zojib» («Zaruriyatning isboti haqida risola»), «Risolat ul-mufradot» («Moddalar haqida risola»), «Risolat ul-huruf» («Harflar haqida risola»), «Risolati fi tavjix ul-tashbix» («Majoz talqini haqida risola»), «Risola dar elm un-nafs» («Ruhshunoslik to'g'risida risola»), «Tariqati tarbiyat ul-avlod» («Bolalarni tarbiyalash usuli»), «Arznoma» («Armiyani boshqarish qoidalari»). kabilar shular jumlasidandir.

Ayniqsa, Davoniyning axloqiy tarbiyaga bag'ishlangan «Axloqi Jaloliy» asari dunyoning ko'p tillariga tarjima qilingan va shuhrat qozongan. Chunki bu asar Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Nasriddin

Tusiy va boshqalarning asarlari qatorida turadigan barkamol inson kamoloti uchun eng zarur va axloqiy fazilatlar bayon etilgan.

«Axloqi Jaloliy» uch qismdan iborat. Birinchi qism – axloq faniga, ikkinchi qism – «Odamning ichki holati» oilaviy hayotiga, uchinchi qism – «Shahar (davlat)ni boshqarish va podshohlar siyosati», deb atalib unda muhim ijtimoiy-siyosiy masalalar ko'tariladi. Chunonchi, jamiyatning paydo bo'lishi, davlat va uni boshqarish masalalari, xalqning farovon hayot kechirishida podshohlarning o'rni, ilm-fan taraqqiyotining jamiyatda tutgan o'rni bayon etiladi.

Davoniy insonning kamolga erishishi uning boshqalar bilan munosabatiga ham bog'liq ekanligini ta'kidlaydi, jamiyatda, ma'lum ijtimoiy muhitda, boshqalar bilan aloqada shakllanib tarbiya topgan inson o'zi yashagan jamiyatda adolat hukmron bo'lsa, unda baxt-saodatga erishishi mumkin, deydi. Shuning uchun u «Axloqi Jaloliy» asarida jamiyatni adolatli – fozil shaharga va johil shaharlarga bo'ladi. Forobiy kabi Davoniy ham fozil shahar boshqaruvchisida o'nta eng yaxshi fazilat mujassamlangan bo'lishi kerak, deydi. Bular: birinchisi – hukmdor odamlarni e'zozlashi; ikkinchisi – davlat ishlarini adolatli ijro etishi; uchinchisi – xirs va shahvatga berilmasligi; to'rtinchisi – hukmdorlikda shoshma-shosharlik va g'azabga yo'l qo'ymasligi, balki shafqat va muruvvatga asoslanishi; beshinchisi – xalqining ehtiyojini qondirish uchun xudoning irodasidan kelib chiqishi; oltinchisi – xalq ehtiyojini qondirishga oid ishlarni bajarishga harakat qilishi; yettinchisi – xalqqa nisbatan odil bo'lishi; sakkizinchi – har bir ishni maslahatlashib, kengashib hal etishi; to'qqizinchisi – har bir kishini uning qobiliyatiga monand lavozimga tayinlashi, qobiliyatsiz kishilarga yuqori lavozim bermaslikni; o'ninchisi – adolatli farmonlar chiqarishi, qonunni buzishga yo'l qo'ymaslik kabilardir. Shuningdek, Davoniy hukmdorning diniy majburiyatlarga ham rioya etishi kerakligini ta'kidlagan. Ko'rinib turibdiki, adolatli shoh timsoli Davoniy istagan axloqiy kamol topgan shaxsdir.

“Axloqiy Jaloliy” asarining pedagogik fikrlar rivojidadagi o‘rni haqida

Davoniy va uning «Axloqi Jaloliy» asari 1470-1478 yillarda yaratilib, G‘arbiy Eron Hokimi Uzun Hasan Oq qo‘yinliga bag‘ishlangan. Bu asar 1839 yilda V.F.Tompson tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan. 1911 yilda Kalkuttada nashr qilingan. 1948 yilda Eshonjon Ibn Muhammadxo‘ja tomonidan o‘zbek tiliga qisqacha tarjima qilingan. Mazkur asarni rus sharqshunosi A.A.Semyonov, Re va Braunlar fikriga tayangan holda uni musulmon Sharqidagi mashhur kitoblar qatoriga qo‘shadi, deydi tadqiqotchi¹. Aliqulov Sh. Jaloliddin Davoniy. Toshkent, O‘zbekiston, 1992, 20-bet.

«Axloqi Jaloliy» asarida jamiyatni adolatli – fozil shaharga va johil shaharlarga bo‘ladi. Forobiy kabi Davoniy ham fozil shahar boshqaruvchisida o‘nta eng yaxshi fazilat mujassamlangan bo‘lishi kerak, deydi. Bular:

- 1- hukmdor odamlarni e‘zozlashi;
- 2-davlat ishlarini adolatli ijro etishi;
- 3-xirs va shahvatga berilmasligi;
- 4-hukmdorlikda shoshma-shosharlik va g‘azabga yo‘l qo‘ymasligi, balki shafqat va muruvvatga asoslanishi;
- 5- xalqning ehtiyojini qondirish uchun xudoning irodasidan kelib chiqishi;
- 6- xalq ehtiyojini qondirishga oid ishlarni bajarishga harakat qilishi;
- 7 - halqqa nisbatan odil bo‘lishi;
- 8 - har bir ishni maslahatlashib, kengashib hal etishi;
- 9- har bir kishini uning qobiliyatiga monand lavozimga tayinlashi, qobiliyatsiz kishilarga yuqori lavozim bermaslikni;
- 10 - adolatli farmonlar chiqarishi, qonunni buzishga yo‘l qo‘ymaslik kabilardir. Shuningdek, Davoniy hukmdorning diniy majburiyatlarga ham rioya etishi kerakligini ta’kidlagan. Ko‘rinib turibdiki, adolatli shox timsoli Davoniy istagan axloqiy kamol topgan shaxsdir.

Davoniy «Axloqi Jaloliy»da ijtimoiy-siyosiy masalalarga qayta-qayta murojaat etadi. Chunonchi, jamiyatning paydo bo‘lishi, davlat va uni boshqarish masalalari, adolatli va adolatsiz podsholar, ilm-fan

¹ Aliqulov Sh. Jaloliddin Davoniy. Toshkent, O‘zbekiston, 1992, 20-bet.

taraqqiyotining jamiyatda tutgan o'rnini, aqliy va axloqiy tarbiya, insonda ijobiy hislatlarni tarkib toptirish masalalari bayon etiladi.

Pedagogik qarashlarida aqliy tarbiya va bilimlarni egallash masalalari muhim o'rinni egallaydi. Bolalarga bilim berishni yoshlikdan boshlash zarurligini ta'kidlaydi. Davoniy inson aqlining qudratiga, uning ijtimoiy hodisalarni bilishiga, aql ilohiy ulug' bir ne'mat, haqiqat mezoni ekanligiga ishonadi. Chunki inson aql yordamida o'z xatti-harakatini, faoliyatini boshqaradi.

Davoniyning fikricha, aql ijtimoiy hayotning barcha sohasida, xoh davlat ishida, xoh ilmni o'rganishda, xoh ijobiy xulq-odob qoidalarini egallashda bo'lsin, xoh shirinsuxanlikda, she'riyatda bo'lsin, faol qatnashadi. Uning bu aqidasi, ya'ni aqliy bilishga tayanishi ilm-fan, ma'rifat, ta'lim-tarbiya va axloq masalalarini talqin etishida ko'proq namoyon bo'ladi.

Davoniy shuning uchun ham bolalarga ta'lim-tarbiya berishda aqliy tarbiyaga katta o'rin beradi. Ilm kishilarni yomon odatlardan, razil ishlardan saqlaydi, ilm bilan shug'ullanish har bir inson uchun hech qachon kech bo'lmaydi, deydi Davoniy. Aflotundan: «Qancha vaqtgacha ta'lim olish va ilm o'rganish yaxshi? - deb so'rabdilar. U: nodonlikning va johillikning ayb ekanligi qay vaqtgacha bo'lsa, ilm o'rganish o'sha vaqtgacha yaxshidir¹³» - deb javob bergan ekan.

Davoniy kishilar o'rtasidagi adovatni ham qoralaydi. O'zaro nizolarda hurmat yo'qoladi, shubha va gumonlar ko'payib, janjallar chiqadi, deb ta'kidlaydi.

Davoniyning tarbiya tizimida odamlarda uchraydigan nuqson va yaramas odatlarni bartaraf etish haqidagi fikrlari ham diqqatga sazovor. Masalan, Davoniy salbiy ruhiy quvvatlar: jahl, g'azab, hasad, g'amginlik, dangasalik va boshqalar haqida gapirib, bular ruhiy jarayon bo'lib, ularni davolash yo'llari, usullari haqida gapiradi. Chunki bu ruhiy kasalliklar ham inson tanasidagi kasalliklarga o'xshab, davoga muhtoj deydi, uning fikriga ko'ra, kishi tanasidagi kasalliklarni tibbiyot yo'li bilan davolansa, kishilarning yaramas odatlarini ruhiy ta'sir natijasida davolash mumkin. Jismoniy davo ovqat yoki dori-darmon vositasida amalga oshadi, ruhiy kasalliklarni davolash esa, yuqoridagi usullardan birmuncha farq qiladi. Ruhiy kasalga chalingan odam eng avvalo yaxshi xatti-harakatlar qilishga

¹³ Aliqulov X., Omonboeva A. Jomiy va Davoniy ta'lim-tarbiya haqida. -T.: "O'qituvchi", 1981, 36-bet.

odatlanishi zarur. Shundagina u yomon odatlardan xalos bo'ladi, deydi.

Demak, Davoniy kishilarning salbiy ruhiy holatlarini davolash mumkin, deb ishonadi va ularni yaxshi maslahat berish, so'z bilan, jazo va mehnat qildirish yo'llari bilan tarbiyalasa bo'ladi, deb hisoblaydi.

Davoniy insoniy hislatlar: mehnatsevarlik, to'g'rilik, insoniylik, yaxshilik, xushmuomalalik, odillik, donolik va boshqa hislatlarni ijobiy baholaydi. U insondagi barcha hislatlarni aqliy faoliyat bilan bog'laydi.

Davoniy shu bois insonning aqliy sifatlari rivojlanishiga katta ahamiyat beradi.

Davoniyning fikricha, aql ijtimoiy hayotning barcha sohasida, xoh davlat ishida, xoh ilmni o'rganishda, xoh ijobiy xulq-odob qoidalarini egallashda bo'lsin, xoh shirinsuxanlikda, she'riyatda bo'lsin, faol qatnashadi. Uning bu aqidasi, ya'ni aqliy bilishga tayanishi ilm-fan, ma'rifat, ta'lim-tarbiya va axloq masalalarini talqin etishida ko'proq namoyon bo'ladi.

Davoniy shuning uchun ham bolalarga ta'lim-tarbiya berishda aqliy tarbiyaga katta o'rin beradi. Ilm kishilarni yomon odatlardan, razil ishlardan saqlaydi, ilm bilan shug'ullanish har bir inson uchun hech qachon kech bo'lmaydi, deydi Davoniy. Aflotundan: «Qancha vaqtgacha ta'lim olish va ilm o'rganish yaxshi? – deb so'rabdilar. U: nodonlikning va johillikning ayb ekanligi qay vaqtgacha bo'lsa, ilm o'rganish o'sha vaqtgacha yaxshidir¹⁴» – deb javob bergan ekan.

Davoniy insonning ma'rifatli, yuksak fazilatli bo'lishida tabiiy fanlarning roli katta, deydi. Matematika, astronomiya, tibbiy fanlar jamiyatga ulkan foyda keltiruvchi ilm sohalaridir, deb biladi. Riyoziyot fanini o'rgangan kishining tabiati qat'iy va sabotli bo'ladi, deydi. Tib ilmining esa jamiyatga foydasi haqida gapirib, tabiblarga zarur bo'lgan kasalga tashxis qo'yish masalalariga to'xtab o'tadi. Tabib bemorga to'g'ri va aniq tashxis qo'ygandan so'nggina bemorni davolashi kerakligini uqtiradi.

Davoniy insoniy fazilatlardan donolikni tahlil etar ekan, inson o'zining aqliy qobiliyatini, iste'dodini tarbiyalash uchun quyidagilarga amal qilishi:

¹⁴ Aliqulov X., Omonboeva R. Jomiy va Davoniy ta'lim-tarbiya haqida. –T.: "O'qituvchi", 1981, 36-bet.

– birinchisi, zukkolik – zehn oʻtkirligi. Bu kishining har xir masalani tezda hal qila olish, unda oʻzi istagan natijani ola bilishida deb koʻrsatadi. Bu malakani hosil qilish uchun kishida tajriba va harakatchanlik boʻlishi talab etiladi;

– ikkinchisi – faxmlilik. Bunda kishining keraksiz va inkinchi darajali masalalarga ortiqcha toʻxtalmasdan, butun diqqatni muhim va zarur masalalarga tez qarata bilishi qobiliyati, yaʼni murakkab va chigal masalalar ichidan eng muhimini tanlay bilish malakasini hosil qilish talab qilinadi;

– uchinchisi – zehn ravshanligi deb koʻrsatiladi. Bu biror masalani hech qanday qiyinchiliksiz, oson yoʻl bilan hal qilish isteʼdod;

– toʻrtinchisi – bilimni tez egallash qobiliyati. Kishi maʼlum masalaga butun diqqat eʼtiborini qarata olishi va uning hech qanday qarma-qarshiliksiz oʻzlashtira olishi;

– beshinchisi – qoʻyilgan muammoni tezda anglashi;

– oltinchisi – yodlash qobiliyati. Insonning ilgari his etgani va tasavvur qilganlarini esda saqlash qobiliyati

– yettinchisi – xotira. Yod olingan, his qilingan narsalarni kerak boʻlganda eslash qobiliyati tezda ishga solishi lozim, deb, koʻrsatadi.¹⁵

Demak, Davoniy kishi yoshlikdan oʻz qobiliyatini oʻstirishi, rivojlantirishi lozimligi, agar u haqiqiy baxt-saodatga erishmoqchi boʻlsa, yuqoridagi aqliy qobiliyatni rivojlantirishga yordam beruvchi fazilatlarini egallashga harakat qilmogʻi lozim, deydi.

Davoniy shu bois insonning aqliy sifatlari rivojlanishiga katta ahamiyat beradi.

Agar u yoki bu shaxsning muayyan kasb-hunarga ishtiyoqi boʻlmasa, uni majbur qilish mumkin emas, aks holda u oʻzini qiynaydi va bu kasb-hunar unga baxt-saodat keltirmaydi deydi. Davoniy insonga foyda keltiradigan kasb-hunarni uchga boʻladi: buni kishilarning ruhiy quvvatiga bogʻlab koʻrsatib, birinchisini inson aqliga tegishli, deb koʻrsatadi va bunga vazirlik kasbini kiritadi. Ikkinchisi taʼlim-tarbiya natijasida vujudga keladi, deb bunga astronomiya, matematika, tibbiyot, geometriya fanlari bilan shugʻullanishni kiritadi. Uchinchisiga kishilarning shijoati, jasurligi bilan bogʻliq kasblarni, yaʼni dushmanga qarshi kurash, chegarani qoʻriqlash va boshqalarni kiritadi. Olim kasbi boʻlmagan, biror kasb

¹⁵ Aliqulov X., Omonboeva R. Jomiy va Davoniy taʼlim – tarbi haqida. –T.: "Oʻqituvchi", 1981, 41-42-betlar.

bilan shug'ullanmaydigan kishilarni qattiq tanqid qiladi. Otasining mol-mulkiga ishonib kasb-hunar egallamaydigan yoshlarni qoralaydi. Mehnat qilish, hunar egallashni targ'ib qilar ekan, mehnat inson kamoloti va baxt-saodati manbai, deb hisoblaydi.

Davoniyning kasb-hunar haqidagi qarashlari shu bilan ahamiyatli, u oddiy xalq mehnatini, ulug'laydi, insonning faqat mehnati tufayligina baxt-saodatga erishuvi mumkinligini, mehnat insonning shaxs sifatida kamol topishining bir mezonini ekanligini isbotlaydi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, Davoniy insoniy fazilatlariga ega bo'lishda ta'lim-tarbiyaning o'rniga katta ahamiyat berganligining guvohi bo'lamiz.

Davoniy insoniy fazilatlarini to'rtga bo'ladi: donolik, adolat, shijoat, iffat. Bular orqali qadim-qadimlardan insonning xulq-odobi belgilangan. Inson fazilatlarini dastlab Sharq mutafakkirlaridan Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiy, Ubayd Zokoni va boshqalar ham shunday tasnif etganlar.

Davoniy mardlik va shijoatkorlikni ham insonning eng zarur fazilatlaridan, deb hisobladi. U shijoatga kamtarlik, yumshoq fe'llik, botirlik, sabot-matonat, chidamlilik kabi sifatlarni kiritadi. Shijoatga kishining xatti-harakati va boshqalar bilan munosabatini baholaydigan tushuncha deb qaraydi.

Olim agar inson biror xavf-xatarga duch kelsa, o'zini mahkam tutib, esankiramasligi, sabotli bo'lishi zarurligi, ana shu hislatlar shijoatga kirishini aytadi. Shijoatkorlik ham aqlga bo'ysunishi kerak, deydi.

Davoniy qo'rqqulikni shijoatkorlikka qarama-qarshi qo'yadi. Ba'zi qiyinchiliklardan qochgan, yengil hayot kechirish yo'lini o'ylaydigan kishilarni olim qo'rqqoq va yuraksiz kishilar, deb aytadi.

Demak, Davoniy davlat hamda jamiyatga foyda keltiruvchi kishilarni haqiqiy shijoatli kishilar deb biladi. Olim sabot-matonatni shijoatning tarkibiy qismiga kiritadi. U Ibn Sino fikriga yanada chuqurroq yondoshib har qanday ehtiyoj, har qanday faoliyatni shijoatga qo'shmaydi. Davlat manfaatlariga bo'ysunadigan, kishilik jamiyatiga xizmat qiladigan inson faoliyatini shijoat deb ataydi.

Olim adolat fazilatini 42 ga bo'ladi. Bulardan eng muhimlari vafu, do'stlik sadoqat, mehr-shafqat, o'zaro hurmat... kabilardir, deydi. Davoniy sadoqatni sodiq kishilar o'rtasidagi do'stlikni

mustahkamlaydi-gan hislat sifatida qarab, odam o'ziga nimani istasa, do'stiga ham shuni ravo ko'rishi va shu tarzda harakat qilishi lozim, deb hisoblaydi. Demak, Davoniy adolatli kishilar o'rtasidagi haqiqiy do'stlikni insonparvarlik, o'zaro hurmat bilan bog'liq qolda tasavvur etadi.

Qanoat tushunchasini Davoniy kishi ruhining yaxshi mevasi deb hisoblaydi. U qanoatni zaruriy xatti-harakatlar bilan bog'lab tushuntirishga intiladi. Kishi faqat zaruriyatga asoslanib ish tutishi lozim, hayotda inson eng zarur narsalarga intilishi kerak, ya'ni yeyish-ichish, hissiyotlarga berilish va boshqa xatti-harakatlarda me'yorni bilish, mo'tadillikka rioya etish, boylikka xirs qo'ymaslik, qanoatni anglatadi, deydi.

Davoniy g'azabni eng og'ir ruhiy kasallik deydi. G'azab kishining katta nuqsoni, kamchiligi, aqlsizligidir, agar aql g'azab va hissiyotga bo'ysunsa, kishi hayvon darajasiga tushib qolishi mumkin, chunki hayvonning aqli bo'lmaganligi tufayli u g'azab quvvatini o'ziga bo'ysundira olmaydi. Inson aqli bo'la turib g'azabni bo'ysundira olmasa, buni hech qachon kechirish mumkin emas. U hamma vaqt o'z g'azabini aqlga bo'ysundirishga harakat qilishi kerak, shundagina u haqiqiy inson bo'lib yetishishi mumkin, deydi. Olim kishilar ruhiyati haqida gapirar ekan, g'azab quvvatini quyidagilarga bo'ladi: ba'zilar tez g'azabga keladi va tez jahldan tushadi, ba'zilar esa sekin-asta g'azablanib, tez jahldan tushadilar, ba'zilar tez g'azablanib, uzoq vaqt jahllaridan tushmay yuradilar. Davoniy g'azab turlaridan ikkinchisini yaxshisi deb, eng oxirgisini yomoni deb belgilaydi.

Demak, Davoniy kishilarning salbiy ruhiy holatlarini davolash mumkin, deb ishonadi va ularni yaxshi maslahat berish, so'z bilan, jazo va mehnat qildirish yo'llari bilan tarbiyalasa bo'ladi, deb hisoblaydi.

Davoniy insoniy hislatlar: mehnatsevarlik, to'g'rilik, insoniylik, yaxshilik, xushmuomalalik, odillik, donolik va boshqa hislatlarni ijobiy baholaydi. U insondagi barcha hislatlarni aqliy faoliyat bilan bog'laydi.

Shunday qilib, Davoniyning ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya va axloq to'g'risidagi fikrlari ta'lim-tarbiya tarixida muhim ahamiyatga ega. Chunki u yuksak axloqiy fazilatlarini tarannum etadi, kishilarning

baxt-saodatli bo'lishi uchun tavsiyalari hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Tayanch iboralar: Movarounnahr, ta'lim-tarbiya, ijtimoiy hayot, Mirzo Ulug'bek, «Markazlashgan davlat», «Madrasa va maktab», «ilm-fan», «madaniyat, san'at», «Amir Temur tuzuklari», «Ziji Ko'ragoniy», «Ulug'bekning ta'lim isloxtlari», «Boburnoma», «Axloqiy Jaloliy».

Bilimingizni sinab ko'ring

1. Nima uchun XIV asrning ikkinchi yarmi va XVII asrlar SHarq uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi deyiladi?

2. So'fiylik ta'limotining ma'naviy hayotga ta'siri.

3. Movaraunnahrda Amir Temur tomonidan markazlashgan davlat barpo etilishi va uning fan, madaniyat va ma'rifat rivojiga qo'shgan hissasi.

4. Mirzo Ulug'bek haqida qanday asar o'qigansiz yoki kitob o'qigansiz? U sizda qanday taassurot qoldirgan?

5. Ulug'bek akademiyasi («Dorul-ilm») va undagi ta'lim tizimini izoxlang?

4. Boburning «Boburnoma» asari va uning didaktik mohiyatini yoritib bering?

5. Alisher Navoiyning asarlarida tarbiya va insonparvarlik masalalari. Maktab va madrasalar rivojiga qo'shgan hissasi.

6. Abdurahmon Jomiyning pedagogik qarashlari.

7. Jaloliddin Muhammad Ibn Asad as-Siddiqiy al-Davoniyning axloqiy qarashlari.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amir Temur va temuriylar haqida. Misr kutubxonalarida saqlanayotgan manbaa va qo'llanmalar FIXRISTI (Muqaddima muallifi- Sh. Boboxonov, tayyorlovchi- N.M. at-Termiziy). Qohira. 1996 y.

2. A. Navoniy. Махбуб ул-кулуб. Асрлар 15 томлик, 13-том, Т., «Адабаёт ва санъат» нашриёти 1990.

3. Умарова. М. Теория и история педагогики. Учебное пособие.

Т.: «Издательско полиграфический дом имени Чулпана» 2018.г.

4. Yo'ldoshev O'. J. Umumiy pedagogika. Darslik. Toshkent. Fan va texnologiyalar. 2019.

5. Xasanboeva O va boshqalar. Pedagogika tarixi. T., Fan 1998.
6. Xasanboev J. XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrlarda Movarounnaxrda maktab-madrasa va pedagogik fikrlar (o'quv qo'llanma). T., Fan 1997.
7. Xasanova B. XIV-XVI asrlarda Movarounnaxrda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar. T., 2000.
8. Xoshimov K, Nishonova S, Inomova M, Xasanov R. Pedagogika tarixi. T., O'qituvchi., 1996.
9. O'zbek pedagogikasi tarixi (A.Zunnunov taxr.ost.). T., Fan 1997.

5-Mavzu: XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar

Reja:

1. Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklarida ta'lim-tarbiya. Maktab va madrasalarda ta'lim mazmuni.
2. Qizlar maktabi va unda ta'lim mazmuni.
3. Munis Xorazmiyning "Savodi ta'lim" asari – husnihatga doir dastlabki qo'llanma sifatida.
4. Muhammad Rizo Ogahiyning ma'rifiy-tarbiyaviy qarashlari.
5. Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning "Odob as-solihin" asari – yuksak ma'naviy axloqiy sifatlarni yorituvchi manba haqida

XVII-XVIII asrlarda Turkistonda hukmronlik qilgan xonlar o'rtasida o'zaro nizo kuchaydi, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotda tushkunlik davom etdi. Bu holat XIV-XV asrlarda rivoj topgan ma'naviyat, madaniyat, ma'rifatga ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

XIX asrda Buxoro, Xorazm, Qo'qon xonlari iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy sohalarda mustaqil faoliyat ko'rsatib, tashqi mamlakatlar bilan aloqa qila boshladilar, adabiyot va san'at rivojiga e'tibor berdilar. Ammo XIX asrning ikkinchi yarmida chor hukumati Turkistonni egalladi, mustamlakachilik siyosatini kuchaytirdi, madaniyat, ilm-fan, san'at, ta'lim-tarbiya sohasida ham o'z hukmronlik siyosatini amalga oshirdi: asosiy e'tiborni Turkiston xalqining milliy tarixi, madaniyati, urf-odati va an'analaridan mahrum etishga qaratdi; chor mustamlakachilari shu siyosat asosida o'lkada o'z mavqelarini mustahkamlashga harakat qildilar.

O'lkada yuz bergan bu ko'ngilsiz voqealar Said Nasafiy, Turdiy, Komil Xorazmiy, Munis Xorazmiy, Ogahiy, Gulxaniy, Mahmur, Zavqiy, Ahmad Donish, Furqat, Muqumiy, Avaz O'tar kabi ma'rifatparvarlarning dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Ular chor amaldorlarining zulmi, qarshiligiga qaramay, madaniyatimizni saqlab qolishga harakat qildilar, o'zlaridan oldin yashagan buyuk mutafakkirlarning ta'lim, tarbiya, insonparvarlik g'oyalarini davom ettirishni o'z oldilariga asosiy maqsad qilib qo'ydilar.

Movarounnahrda bir yuz ellik yil hukmronlik qilgan temuriylar sulolasi inqirozga yuz tutib, uning o'rniga Shayboniylar hukmronligi o'rnatildi. Lekin Shayboniyxon ham (1451-1510) kuchli

markazlashgan davlat barpo qilishga qay darajada harakat qilgan bo'lsa ham, uning o'limidan so'ng o'zaro urushlar avj olib ketib, bu hududda uch xonlik, avvalo, Buxoro va Xorazm, XVIII asr oxiriga kelib, Qo'qon xonligi paydo bo'ldi.

Xonliklar davrida boshqa davlatlar bilan aloqalar o'rnatildi. Jumladan, Hindiston Shoh Akbar, Sharqiy Ovrupodan Ivan Grozniylar bilan do'stona aloqa o'rnatildi.

Buxoro xoni Abdullaxon 1001 ta rabot va sardobalar qurdirdi, madrasa, masjidlar, xonaqoh va ko'priklar, suv omborlar va boshqa inshootlar qurildi. Bu davrda «Abdullanoma» nomli tarixiy kitob yozildi. Tibbiyot sohasida Sultonali Samarqandiyning «Dastur al-iloj», Muhammad Yusuf Mahholning «Tahqiq al-humayyot», «Zubdat ul-qahholin» asarlari, Shayboniyxonning «Tavorixi guzidayi nusratnoma», Boburning «Boburnoma», Vosifiyning «Badoe' ul-vaqoe», Fazliddin Ibn Ro'zbeixonning «Mehmonnomayi Buxoro» kabi asarlarida o'sha davrning ijtimoiy, siyosiy, tarixiy, adabiy, ma'rifiy hayoti o'z aksini topgan.

XVII-XVIII asrlarda me'morchilik sohasida ham katta inshootlar qurildi. Masalan, Buxoroda Imomqulixonning nufuzli amaldorlaridan Nodir devonbegi masjid, hovuz, madrasalardan iborat katta me'moriy ansambl qurdirdi. Shuningdek, Samarqanddan 4 chaqirim Janubda Xo'ja Ahror qabri oldiga madrasa va Nomozgoh barpo etdi.

Bu davrda Muhammad Balhiyning 5000 baytdan iborat «Subhonqulixonoma», Mirmuhammad amir Buxoriyning «Ubaydullanoma», Muhammad Vali Samarqandiyning 200 nafar adabiyot arboblarning tarjimai holiga oid ma'lumotlar berilgan «Muzakkirul asxob» nomli asari, shuningdek, Sayido Nasafi, So'fi Olloyor, Boborahim Mashrablarning asarlari yuzaga keldi. Bu davrda ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida: turmushda ham, oilada ham har bir kishi alohida diniy talablarga rioya etar edi. Madrasalarda deyarlik ilohiy bilimlar berilishiga qaramay, madrasani bitirganlardan mudarris, mufti, qozi, imomlar bilan bir qatorda mashhur shoir, olimlar ham yetishib chiqdi. Boborahim Mashrab, Muhammad Amin Kosoniy-Namangoniy, Fazliy Namangoniy, Sayido Nasafiy, So'fi Olloyor, Muhammad Mir Olim Buxoriy, Abdulg'oziy Bahodirxon ana shunday ilm sohiblaridandir. Bu davrda ko'proq adabiyot tarix, me'morchilik, tasviriy san'at rivojlandi. Lekin tabiiy fanlarga ham oid

ajratilgan «Hisoblash usullari haqida risola» nomli matematikaga doir muhim asar ham yuzaga keldi.

Abdulg'oziniyning «Shajarai turk» asari ham Sharq, ham Ovrupo olimlarning diqqatini o'ziga tortdi. Bundan tashqari, qator tarixiy asarlar ham maydonga keldi.

XVII asrda yashagan ma'rifatparvar olim So'fi Olloyorning «*Sabot ul-ujizin*» asari «*So'fi Olloyor*» nomi bilan mashhur bo'lib, maktablarda savod chiqarilishi bilan o'qitilar edi. Unda islom dinining asosiy qoidalari, aqidalari bayon etilgan. Qo'qonda ham ko'plab ilmiy, ma'rifiy maskanlar paydo bo'lib, yirik adabiy muhit yaratilgan. Fazliy va Mushrif tomonidan tuzilgan «*Majmuat ush-shuaro*» to'plami buning misolidir.

Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Xivada bino bo'lgan «Shayx Jalol» madrasasi, Samarqandda «Registon» maydoni, «Sherdor» va «Tillaqori», «Devonbegi», Xivada «Arabmuhammad» madrasalari ilm-ma'rifatning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Bu davrda maktab va madrasalarda grammatika, handasa, mantiq, qiroat, tavsif, shariat, hikmat, islom tarixi va aqidalarga oid ilmiy-nazariy bilimlar, ish yuritish, huquqshunoslik, savdo-sotiq ishlariga oid, meros va boylik taqsimoti kabi dunyoviy hamda ilmiy bilimlar o'rgatilar edi. Shuningdek, barcha madrasalarda albatta fan sifatida «Qur'on», «Tafsir», «Odob-os-solihin», «Maslik ul-Mutakkin», «Sabo dul-ujizin», «Kimyoi saodat», «Hadislar» o'qitilar edi.

O'qish muddati 15-20 yilni tashkil etib, masjid yonidagi maktabda esa bolalar 7 yil alifbo, abjad, Qur'on, farzi ayn, Chor kitob, Xoja Hofiz, «Maslik ul-Mutakkin», Mirzo Bedildan savod o'rgatilar edi. O'zbek bolalari o'qiydigan maktablarda «Kitobi Fuzuliy», «Lison ut-tayr», «Devoni Alisher Navoiy», «Qissai devona Mashrab», So'fi Olloyorning «*Sabot ul-ujizin*» kitobi o'qitilgan.

Qizlar maktabi va unda ta'lim mazmuni

Ta'lim-tarbiya jarayonida ayollar ta'limi ham rivojlana boshladi. O'qimishli, ma'rifatli, ziyoli ayollar tomonidan maktablar tashkil etiladi va bu maktablar otinlar maktabi deb nomlandi. O'zbek diyorida otinlar maktabining yirik namoyondalaridan biri - Jahon otin Uvaysiy edi.

Jahon otin Uvaysiy (1789-90 Marg'ilon - 1850 y. Marg'ilon) - XIX asr Qo'qon madaniy muhitning ko'zga ko'ringan vakillaridan biri, yetuk shoira va maktabdor muallimalardandir. Jahon otin Uvaysiyning she'rlar va maktabdorlik xizmatlari xalq ommasi orasida keng yoyilgan.

U Marg'ilonning Childuxtaron mahallasida she'riyatga ixlosmand Siddiq bobo (Qaynar devona ham deb atashadi) va Chini bibilar oilasida dunyoga keladi. Otasi kosibchilik qilgan, onasi esa savodli ayol bo'lib, maktabdorlik qilgan va mahalla ahli qizlarini o'qitgan.

Jahon otin juda yoshligidan boshlab onasidan savod o'rgangan, kichikligidayoq akasi ikkalasi Oxunjon hofizdan dutor, tanbur chalish, musiqa ilmining amaliy tomonlarini ham egallaydi. Otasidan esa arab, fors tillari va adabiyot sirlarini o'rganishga harakat qiladi.

Otasi tez orada vafot etib, onasi bilan qolgan Jahon otin o'zi mustaqil ravishda Hofiz, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bedil kabi sharq she'riyatining buyuk namoyondalari ijodini o'rganadi. Onasi va akasi Oxunjon Jahon otinni 17 yoshida Marg'ilonga Hojixon ismli kishiga uzatadilar. Hojixon savodli, adabiyotga do'st va ma'rifatli inson edi. Jahon otin undan ikki farzand ko'radi.

Jahon otin Uvaysiy endi mustaqil ravishda Marg'ilon va uning atrofidagi qizlarni o'qita boshladi. Qizlarga xat-savod o'rgatadi. Ilmiy musiqadan dars beradi. Uvaysiy qizlarga she'r yozishning uslublarini ham o'rgatadi. Muallimlik kasbiga Uvaysiy ixlos bilan qaraydi. Ilmga tashna qizlarga sidqidil bilan dars beradi. Bu hol uning g'azallarida ham o'z ifodasini topgandir:

*Uchradi qaydin menga, chun Oy ila Kun ikkisi,
Ko'rdam ahvolini alar Farhodu Majnun ikkisi.
Zehni g'avvosimni soldim fazal bahrin qa'riga,
Chun sadaf batnida onlar duru maknun ikkisi.*

*Shahri dilda aql shohin lashkardur beshmor,
Yuz tuman lashkarga keltirdi shabihun ikkisi.
Keldikim ikki pari gul talab aylab qanot,
Ilm koni ichra Vaysiy, bo'ldi mamnun ikkisi.*

Shunisi diqqatga sazovorki, shoira o'z toliblari va shogirdlarining yutuqlaridan quvonib, ularga muvashshahlar ham bag'ishlagan.

Masalan:

*Jahon gulzorida xoki qudumingdan yetar ziynat,
Hiromingdan topar jon gulshanu oroyshu nazhot.*

Bu Jahon bibi ismli shogirdiga yozilgan muvashshah bo'lib, Jahon bibi, Hayot, Baqo, Dilorom ismli qizlar Uvaysiydan ilm o'rganganlar. Ular ham Jahon otin yordamida fors-tojik, turkiy tillarda yuksak saviyadagi she'rilar yozishga qodir shoiralar bo'lganlar.

Qizlar maktabida ta'lim-tarbiya mazmuni, metod va usullari

Marg'ilon tumanining hokimi Umarbek bo'lganidan keyin, bu paytda maktabdor va shoira sifatida shuhrat qozongan Uvaysiy Nodira bilan yaqinlashadi. Bu yaqinlik keyincha Qo'qonda Nodirabegimning fojiali qatl etilguncha davom etadi. Uvaysiy qizi Quyoshxonga homilador ekanligida eri Hojixon vafot etadi. Shunda, Uvaysiy erining yilini o'tkazib ikki bolasi bilan Nodira taklifiga binoan, Qo'qonga keladi. Endi Uvaysiy Nodirabegim himoyasida bo'ladi.

Qo'qonda Uvaysiy xon saroyida yashaydi. U haramdagi qizlarga, kanizaklarga ham xat-savod o'rgatadi. Kanizaklarga boshlang'ich ta'lim, ya'ni alifboni o'qitishdan, yozishdan tortib, to ilm musiqiyning amaliy jihatdan ta'lim berish bilan shug'ullanadi.

Uvaysiy xos saroyida 3-4 yildan ortiq yashay olmaydi va boshqa yerga ko'chib o'tadi. Shoira bu yangi joyda yana o'zi sevgan mashg'ulotini davom ettiradi. Shu bilan birga Nodira iltimosi bilan uning himoyasidagi tutqunlarni ham o'qitadi. Uvaysiy qizlarga xat-savod o'rgatish bilan birga, sozanda-xonanda qizlar guruhini ixlosi bor qizlar ichidan yig'ib, ularga san'atning ayrim sirlarini o'rgatadi. Yangi hovlida dars berayotgan bir paytda Uvaysiy Nodira huzuriga borib qaytsa, eshigining qulfi singan, xona ichidagi tanburlar yo'q

ekan. Uvaysiy surushtirib bilsa, bu ig'vogarlarining ishi bo'lib chiqadi. Bu xususida Nodira Umarxon orqali tanburlarni o'rniga qaytarishda yordam beradi.

Ma'lumki, qizlar maktabida talabalar zehnini tarbiyalash, bilimlarni mustahkamlash, uzoq esda saqlab qolish, tafakkur qobiliyatini mustahkamlash ham katta e'tibor beriladi. Shu maqsadda chiston (topishmoq)larni yechish, muvashshahlar yozish, adabiy asarni sharhlash va izohlash kabilardan foydalanilgan. Bu usullar talabani rag'batlantirgan, uning o'qishga bo'lgan qiziqishini va qobiliyatini oshirgan.

Chunonchi, Jahon otin (Uvaysiy) mashhur shoira bo'lishi bilan birga mohir muallima ham bo'lgan. U o'z darslarida qizlarning zehnini tarbiyalashda quyidagi chiston, muammo, muvashshahlardan foydalangan (chiston-topishmoq, muammo-she'rda kishi noma, sana va shu kabilar yashiringan janr, misralar boshidagi harflarni to'plaganda kishi nomi chiqadigan she'r-muvashshah):

Ul na qush ko'rinmaskim, shafaq bolu pari,

Misli ul raf-raf suvoru bilsangiz, yo'qtur tani.

Voqif erur kecha-kunduz xizmatida to'rt tani,

Qon bilan ermish murassa bul chiyiston maskani.

(qalb, to'rt g'ulom-ko'z, og'iz, quloq, burun)

Ul nadurkim sabz to'nliq, yoz yovochning boshida,

Qish yalang'och aylanga aylagay barcha xaloyiq qoshida.

Barcha qushlarning so'ngoki ichida,

Ul na qushdirkim so'ngoki toshida.

(yong'oq)

Ikki mehbubni ko'rdim, bir-birisin ko'rmagan,

Ikkisining o'rtasiga, do'stlar qil sig'magan.

(kun va tun)

Ul nadurkim poyi yo'q, yursa boshi birla yurar,

Yurganida xok surmay, ancha ustolik qilar.

(suv)

Demak, Jahon otin Uvaysiy o'zbek pedagogikasi maktablari tarixida o'z o'rniga ega bo'lgan buyuk shaxs. U o'zining maktabdorlik va ijodiy faoliyati bilan yoshlar ta'limida yuksak o'ringa ega. Uning ma'rifiy faoliyatida uning ayollar savodxonligini oshirish, aqliy tarbiya, musiqa san'ati, qobiliyatli qizlar bilan ish usullari alohida o'ringa ega. U o'z davrining yosh tolibalariga hayotga muhabbat

tuyg'ularini singdirib borgan, tez fikrlash, chiroyli so'zlash va boshqa tarbiya vositalari bilan bog'liq bo'lgan chiston-topishmoq usullarini yaratishni o'rgatgan. Shuning uchun ham Uvaysiy ijodiy merosini o'rganish va uni hozirgi davr milliy ta'lim-tarbiya tizimi mazmuniga kiritish muhim ahamiyatga ega.

Shermuhammad Avazbiy o'g'li Munis
Xorazmiyning "Savodi ta'lim" asari – husnihatga doir
dastlabki qo'llanma sifatida (1778-1829)

XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida Xorazmda yashab ijod etgan yirik o'zbek shoiri, mohir tarjimon, iste'dodli tarixnavis va husnixat maktabini yaratgan olimdir. U "Munisul-ushshoq" devoni, ma'rifiy-tarbiyaviy "Savodi-ta'lim" risolasi, "Firdavs-ul-iqbol" solnomasi hamda o'zbek tiliga o'g'irgan "Ravzat-us-safo" (Mirxond) asari bilan o'zbek xalqi madaniyati tarixi xazinasiga munosib hissa qo'shdi.

Shermuhammad Munis 1778 -yili Xeva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida mirob oilasida tug'ildi. Munis uning adabiy taxallusi bo'lib, "ulfat", "hamdam", "do'st" demakdir. Munisning otasi Avazbiy mirob o'z zamonasining fozil va ma'rifatga mayl bildirgan ilg'or fikrli kishilaridan edi.

Munis boshlang'ich ta'limni o'z qishlog'ida olganidan so'ng Xevadagi madrasalardan birida tahsil ko'rdi. "Firdavs-ul-iqbol"da ta'kidlanishicha, madrasada "ilmu fazl"ga chanqoq Munis tengdoshlari bilan "bazmi kitob" qilardi. Chunonchi, Muhammad Xoksor tomonidan yozilgan (1798-y) "Muntahaballug'at"dan foydalanilgan o'nlaracha dunyoviy ruhdagi asarlar ana shu "bazmi kitob"larda munozara va mushohadalarning asosiy mavzusi va manbasi bo'lganligi to'g'risida Munis o'zining "Firdavs-ul-iqbol" asarida "... she'rshunoslar va latifago'ylikdan o'zga so'z joriy bo'lmas edi", deb yozadi.

Shuningdek, Munis "Firdavs-ul-iqbol"da o'z ustozlari, madrasa mudarrisi Saideshonxo'janing yetuk shoir, dunyoviy fanlarni chuqur bilimdoni bo'lganligi to'g'risida ham to'xtalib, murabbiy huzuridagi fozil kishilar suhbatlari, she'riyat kechalari uning zehnidagi ta'sirchan iz qoldirganligini ta'kidlaydi. Munis madrasa dasturi bo'yicha ta'lim

olibgina qolmasdan, balki bo'sh vaqtlarida ilm va ma'rifat ahllari bilan bo'lgan aloqalari va dunyoviy kitoblarni mustaqil mutolaa qilishga berilganligi to'g'risida "Munisul-ushshoq" devoniga yozgan so'z boshisida bunday deb yozadi:

*Madrasa sari aylab xirom,
Qayu yerda ahbob bazm aylasa.
Tarab irtikobig'a azm aylasa,
O'zimni alar ichra solur erdim,
Ko'ngul qonguncha bahra olur erdim.*

Tabiati jibilliy va kayfiyat iqtizosi bilan ahyonon fuzolo xizmatig'a moyil va kitobxonlig' suhbatig'a dohil bo'lar erdim. Sharafi xizmat natoyiji va asari suhbat mayomini bila tab'imga kayfiyatlar yuzlanib va holatlar dast berib, nazm musiqida mubayyan va vazn zevari bilan muzayyan bo'lur erdi" ("*Munisul-ushshoq*", 6-bet).

Munis Xorazmiy o'z ijodining dastlabki davrlarida zamona ahllaridan adolat, xalq haqida g'amxo'rlik kutadi, ularni insof va diyonatga, rahm-shafqatga chaqiradi, hatto ularga bag'ishlab qasidalar yozadi. Saroy hayoti bilan yaqindan tanishish uning umidlarini puchga chiqaradi. Lekin shunga qaramasdan Munis adolatparvarlik, xalqparvarlik va haqgo'ylik g'oyalarini o'z zamonasi hukmdorlari ongiga singdirishga harakat qiladi. Mutafakkirning fikricha, odamlarni rahm va shafqatga, ehson va sadoqatga, himmat va javonmardlikka da'vat etishni insonparvarlikning ko'rinishlari deb qaraydigan bo'lsak, unda adolat insonparvarlikni yuzaga chiqaruvchi vositalardan biridir.

Adolat insonparvarlikka nisbatan torroq tushuncha bo'lib, zero insonparvarlikda umuman shaxslarning manfaatlari va insoniyat haq-huquqlari himoya qilinadi. Adolat qilish oqni-oq, qorani-qora deyishdan iborat. Adolatning nihoyasida har kim qilmishiga yarasha yo taqdirlanishi kerak, yo jazolanishi lozim. Mana shu jihatdan adolatparvarlik va insonparvarlik qisman farqlanadilar.

Munisning fikricha, mamlakat osoyishtaligi va erkinligini ta'min etishning muhim vositalaridan biri adolatdir. Adolat xalq manfaatini nohaqlik, adolatsizlik, zo'ravonlikdan himoya qiluvchi vosita sifatida xizmat qilishi kerak. Adolat podshoh bilan uning fuqarolari o'rtasidagi munosabatni belgilovchi mezondir. Adolat va

odil sudlov ishlari yo'lga qo'yilgan mamlakatning podshohigina xalq hurmatiga sazovordir. Ana shunday davlat boshlig'igagina fuqarolar chin ko'ngildan xizmat qiladi. Fikrimizning isboti uchun quyidagi baytni keltiramiz:

Sabot istasang, mulk bunyodig'a,
Adolat bila yet ulus dodig'a.

Mutafakkir aytmoqchi, agar podshoh o'z mamlakatining gullab-yashnashi, o'zining uzoq umr ko'rishini va umrining oxiriga qadar toj kiyib, taxtda o'tirishini istasa, huzuriga arz bilan kelganlarning arzini tinglab, ularni mamnun qilishi lozim. Chunki o'sha mamnun odam umrining oxirigacha bu hukmdorning duosida bo'ladi, boz ustiga hammaga uning ta'rifini qiladi, o'zi sadoqat bilan xizmat qiladi, boshqalarni ham sidqidildan xizmat qilishga undaydi.

Adolat qilinsa, mamlakat xalqlari tinch va osuda, farovon hayot kechiradilar. Ularning yaratgan boyliklari o'zlariga nasib qiladi, tinch mehnat qilish bilan ertaning tashvishida bo'lmaydilar, ya'ni erta-indinlik yeguliklarini g'amlab qo'yadilar, birovning moliga boshqa odam ko'z olaytirmaydi. Bordiyu biron nobakor chiqib qolib zo'ravonlik bilan biror kishining molini o'zlashtirmoqchi bo'lsa, u adolatli hukmdor tomonidan o'z jazosini oladi. Mana shunday siyosiy-huquqiy g'oyani Munis quyidagi bayt orqali ifodalaydi:

*Adolatdin o'ldi el osoyishi,
El osoyishi – mulk oroyishi.*

Munisning fikricha, qaysi mamlakatning hukmdori odil bo'lsa, o'sha mamlakatda odamlar to'q va farovon yashaydilar. Chunki hamma ham tabiatan adolat va farovonlikni istaydi:

*Qayu mulkkim shohi odildurur,
Anga barcha el ko'ngli moyildurur.*

Zotan, Munisning bu baytidagi siyosiy g'oya mazmuni Aristotelning Iskandarga qilgan nasihatini eslatadi: «*Bilgilki. adolat buyuk va qudratli xudoning yer yuzidagi o'lchovidir. Uning yordamida zaif bo'lgan haq odam, kuchli bo'lgan nohaqdan o'z haqini oladi.*».

Munis shohlarni ikkiga-odil va zolim shohlarga ajratadi. U «adolat mulkini tuzatib» o'z qo'li ostidagi fuqaroning och va

to'qligidan xabardor hukmdorni odil va dono podshoh deb ta'riflaydi:

Shoh uldurki, adolat ila mulkin tuzatib,

Bo'lsa g'amgin fuqaro ochig'a, xurram to'qig'a.

Munisning fikricha, adolat qilgan shoh shon-shuhratlarga burkanadi. U adolat qilganida butun xalq xushnud bo'ladi. O'z bandalarining mana shunday mamnuniyat bilan yashayotganlariga sababchi bo'lgan adolatli hukmdordan parvardigorning o'zi ham mamnun bo'ladi. Zero, xudo ham bunday xalqparvar va adolatparvar hukmdorning baxtini, saodatini, taxtu ravnini mustahkamlaydi:

Sharaf ko'rki shahdin adolat chog'i,

Erur xalq xushnud, xoliq dog'i.

Ham ozodavashlar bo'lib bandasi,

Ham a'doyi sarkash sarofkandasi.

Ko'rinadiki, Munis avvaliga elning duosi, so'ng parvardigorning ko'ngliga yoqadigan gaplar bilan podshoh va uning hukmdorlarini adolatga chorlaydi. Zotan, adolatli hukmdorning ovozi yetti iqlimga ketadi, nomi shuhratga burkanadi. Podshoning asosiy vazifasi va burchi mamlakatda adolat bilan hukm yurgizish, xalqqa zulm qiluvchi amaldorlarni o'z vazifalaridan chetlatish yo'li bilan adolatni uzil-kesil o'rnatishdan iboratdir.

Jamiyatda adolatsizlik, zo'ravonlik, jabr-zulm, o'zaro nizolarning guvohi bo'lgan Munis, ba'zan podshoh va uning amaldorlariga o'ziga xos yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi va pand-nasihatlar qiladi. Masalan, bir o'rinda Munis podshoh saroy amaldorlarini tanlashda ham adolat bilan ish tutmog'i kerak, ya'ni jabr-zulmga moyil odamlarni amaldorlikka yaqinlashtirmaslik kerakki, buning natijasida bir kun dushmanlar bu ishdan foydalanadilar va davlat siyosatiga shikast yetkazadilar:

Desang, a'lo shikasti davlatimga topmasunlar dast,

Yig' atrofingga, ey shoh, adl birla pasha pas ahhob.

Insonga nisbatan rahm-shafqatsiz, mehr-muruvvatsiz kishilar qanday mansab yoki mavqe'da bo'lishlariga qaramasdan, jazo olishlari kerak bo'lgan kishilardir. Shuning uchun Munis podshoh, ya'ni mamlakatning oliy qozisini adolat bilan ish yuritishga, zolimlarni jazolashga chaqiradi. Agar bosh hakam-podshoh adolat

qilar ekan, insonparvarlikni o'ziga shior qilib olar ekan, unda butun mamlakat unga ergashadi, ergashmaganlar esa o'z jazosini oladi. Shunday ekan, mutafakkir birinchi galda shoh ehtiyot bo'lishi va bilib-bilmasdan jabr zulm qilib qo'ymasligi kerak, degan g'oyani ilgari suradi:

Davlat qushi, ey shoh, qo'nmish boshingga,

Hurkutma ani, zulm birla rom deb.

Lekin ayrim hollarda o'z urinishlari, podshoh va zamona ahliga pand-nasihatlarini o'rinsiz ketayotganini ko'rgan Munis podshoh va uning amaldorlarini qattiq tanqid ostiga olishgacha borib yetadi. U jamiyatdagi adolatsizlikka, nohaqlikka, zo'ravonlikka, jabr-zulmga, talonchilikka, tengsizlikka qarshi «Xos o'lub oh ahlig'a» she'rida o'z noroziligini izhor etadi:

Xos o'lub ahlig'a in'omi sohib tojlar zulmi,

Zulmi omidin berib jon, non uchun muhtojlar.

Har kim ul zolimlar oldida tazallum ko'rguzub,

Eb olardin bosh uzra mushtu yuz uzra kojlar.

Kinavarlar zulmidin bechoralar har yon qochib,

O'ylakim, bo'lg'ay gurezon bozdin durrojlar.

Munisning fikricha, hukmdor va uning amaldorlari tomonidan fuqarolarga yetkazilgan jabr-zulm javobsiz qolmaydi. Bunday davlat boshlig'i, ya'ni podshoh xalqning g'azabiga uchraydi, uning hokimiyati xavf ostida qoladi. Bu haqda podshohga qarata Munis shunday deb ogohlantiradi: «Ey shoh, shunday bir adolat qonuni tuzilsinki, zulm rasmi jahonda qolmasin, yo'qsa xalqqa qaratib yoqilgan zulm o'ti shu'lasining tutuni bilan sening ro'zg'oring ham qop-qora bo'lishi turgan gap; g'ariblarga vafo qilish, beva-bechoralarni shodlantirish bilan davlating boqiy bo'ladi. Podshohlik ne'matini topgan kishi ayni zamonda cho'ponlik hunarini ham kasb qilsin, agar u raiyatga tishini qayraydigan bo'lsa, qo'yg'a qurt yopishganday bo'ladi... Agar shoh zulm qilaversa, xuddi suv toshqini mustahkam binolarni ham qulatganidek, mazlumlarning ko'z yoshi davlating binosini qulatadi; quyoshga o'xshab falak otiga minganing bilan mag'rurlanma, chunki bu bo'z ot juda asov – yiqitib ketishi mumkin».

Mehnat ahliga qayg'udosh bo'lgan xalqparvar va insonparvar Munis ular boshiga tushgan g'am-kulfatlarni va jabru jafolar haqida shunday deb yozadi:

*Har kim eshitur behud o'lur navhalar aylab,
Bisyor asar nolau afg'onim arodur.
Mehnat toshi zarbidin usholg'on so'ngakimdur,
Gardiki buzuq kulbai ahzonim arodur.
Bir shu'ladurur ohim o'tidin olam urg'on,
Har misrai jonso'zki, devonim arodur.*

Haqiqatan ham, Munis yashagan davrda insoniy fazilatlar, ya'ni insonning kasb-hunari va aql-zakovati qadrlanmasdan, balki molu dunyosi, nasl-nasabi, oltin zarlari bilan o'lchanardi, halol mehnat qilmaydigan johil va nodonlar rohatda yashar ediki, shoir jamiyatdagi bundaylarni la'natlaydi:

*Bu davron ichradur baskim hunar-ayb,
Hunar ahli kibi yo'q elda ma'yub.
...Nola bulbullar chekib ko'rmay hunardin na'flar,
Behunarlikdin topib toji zumurrad sojlar.
Zamona ahlig'a izhori fazl qilma abas,
Alarg'a aybi hunar borho hunar bo'ldi.*

Munis butun ongli hayoti va barakali ijodi davomida adolat va mehnatkash xalqqa xos bo'lgan samimiylik, poklik, mehnatsevarlik fazilatlarini qadrlagan holda mehnat ahlining peshona teri bilan topgan bir burda arpo nonini, ya'ni «yovg'on umochi»ni shohni «oltin tavog'idagi palovidin» halol va shirinroq, deydi:

*Noni javini faqr eliga xushturur base,
Shah sufrai nazolida qandil kulojidin.
Xush turur xoni qanoat aro yovg'on o'moch,
Bo'lmasa bo'lmasun tabaku anda palov.*

Bundan ko'rinadiki, Munis mehnat orqali tirikchilik qiluvchi kishilarni o'zi yaratgan noz-ne'matlardan bahramand bo'lishga da'vat etib, harom-harish yo'llar bilan boylik orttirayotgan kishilardan yiroq turishga chaqiradi va xudbin boy-amaldorlarning muhtoj kishiga biror narsani in'om etib, ketidan maqtanib, minnat qilishini nokaslikdir, deb keskin qoralaydi:

*Falonbek kim birovga qildi in'om,
Valekin ayladi izhori minnat.*

*Agar ul yona bekkik etsa da'vo,
Qilur o'ziga bo'lmas ishni tuhmat.
Vagar bu nokas ul in'omin olsa,
Muningdek, nokasi dunga la'nat.*

Munis "Munisul-ushshoq" devoniga kirgan she'rlarida axloq-dob masalalari, ma'rifiy-tarbiyaviy g'oyalar muhim o'rin tutadi. Murabbiy shoir axloqning ilg'or, xalqparvar insoniy qoidalarini kuyladi. Uning axloqiy-didaktik g'oyasi shaxs kamoloti uchun kurashdan iboratdir. Xalqparvarlik, odamshavandalik, yaxshilik va olijanoblik, mehnatsevarlik, hurmat va muruvvat, sahovat va mehribonlik, samimiyat va sidqidillik, umid va andisha, sabr va qanoat, mehmondo'stlik va xushmuomalalik, kamtarlik va ochiq yuzlilik, halollik va juvonmardlik kabi fazilatlar uning axloqiy qarashlaridagi asosiy tushunchalardir.

Shuningdek, Munis kamtarlik, sahovat, himmat, sadoqat, marhamat, to'g'rilik kabi insoniy fazilatlarini ulug'lab, xudbinlik, maqtanchoqlik, kibrlanish, nodonlik, qo'pollik, beparvolik, berahmlik, ta'magirlilik, baxillik, poraxo'rlik va molparastlik, ig'vogarlik va hasadgo'ylik kabi salbiy illatlarni esa qoralaydi.

Munisning axloqiy qarashlari uning ma'rifiy-tarbiyaviy qarashlariga bog'lanib ketadi. U ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surdi, xalqni ongli, bilimli bo'lishga da'vat etdi va xalqni jaholatdan yiroq turishga chaqirdi:

*Ahli donish birla har dam aylangiz bazmi kitob,
Jam'i nodonlar bila izhori ulfat qilmangiz.*

Munis ma'rifatparvar shoir sifatida yoshlarni ilm-ma'rifatga chaqirar ekan, bu ishga yoshlikdan boshlab kirishishning ahamiyatini alohida qayd qiladi:

*Munis talab et kamol erursan chu yigit,
Kim yaxshidur etsa fazl uchun qayg'u yigit.
O'q qilgan ishni yo qilo bilmas hargiz,
Qarilar ila barobar o'lgaymu yigit.*

Ilm-hunarda kamol topishning eng muhim fursati "fasli shabob" – yoshlik davridirkim, shoir ilm o'rganishda bu g'animat fursatni qo'ldan boy bermaslikni uqtirib o'tadi:

*Kamol kasbida Munis shitob qilki erur,
Hayot fursatikim bedarang fasli shabbob.*

Munis zodagonlik nasl-nasab, mansab va boylik bilan g'ururlanishni nodonlik belgisi deb hisoblaydi va yoshlarni bunday yaramas illatlardan saqlanishga chaqirib, el-yurtga foyda keltiradigan ilm va "kasbi fazl"ni egallashga undaydi:

*Fyryr etma aslingga, qil kasbi fazl,
Erur mo' tabarroq nasabdin hasab.*

Munis o'z davrining yetuk murabbiy shoiri sifatida bolalarni savodxonligini va husnixatini yaxshilash yo'lida ko'p izlanadi va yoshlarga husnixatdan ta'lim berib, "bilgancha cyryb qalamni har yon, ta'lim ishin aylar erdi oson" deydi. "Bilimning beshigi alifbe" deganlaridek Munis ham ta'limdagi muvaffaqiyatlarning garovi savod ekanligini tushungan va shuning uchun "umumi arqom" yozuv ilmini yaratishga bel bog'lagan.

Munisning "Savodi ta'lim" asari ana shu tarzda 1804 yil 6 dekabrda vujudga keladi. Bu asar asos e'tibori bilan husnixatga oid bo'lsa-da, unda Munisning o'z muallimi ibn Xojib haqida, yozuvning madaniyat taraqqiyotidagi roli, xususan, husnixat ta'limi va umuman, didaktik ta'lim to'g'risida qimmatli fikrlar mavjud. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, bu mavzuga bag'ishlangan forscha risola Xo'ja Mirali Tabriziy tomonidan ham yozilgan edi.

Xo'ja Mirali Tabriziyning xat ta'limi haqidagi nazmiy risolasi juda kichik hajmda bo'lib, unda faqat harflarning o'lchovigina bayon qilingan va u Toshkent, Qozon va boshqa shaharlarda tez-tez nashr qilinib turgan "Mufradot"larda berib borilgan. Munis "Savodi ta'lim" risolasini yozishidan maqsadini shunday izohlaydi:

*To ilgima tushti bir risola,
Xat qoidasi oyiga xoda.
Himmat kamarin belimga bog'lab,
Nazm aylag'ali o'zumni chog'lab.
Berdim qalamim otiga mahmiz,
Maydoni varaq uza surub tez.*

Ehtimol, Munis bunda Xo'ja Mirali Tabriziyning risolasini ko'zda tutgan bo'lsa kerak. Hech shubhasiz, shoir Mirali Tabriziy, Mirali Xirotiy va boshqa ustod kotiblarning husnixat ta'limiga oid ishi bilan yaxshi tanish bo'lgan.

Munis "Savodi ta'lim"ning muqaddimasida husnixat o'rgatgan muallimining fazilatleri haqida mehr bilan so'zlaydi. O'z ustozini ibn Xojibni yetuk olim va murabbiy sifatida tavsiflaydi:

*Har ilmda jomiul-fazoyil,
Har hukmda voqiful-masoyil.
Ilm ichra adili ibn Xojib,
Ilm ahliga ehtiromi vojib.
Xattidin o'lub hujasta ta'lim,
Ta'lim fani xatiga taslim.*

Munisning "Savodi ta'lim" risolasi nazariy ma'lumotlar va mashqlarni o'z ichiga olgan. Risola ikki qismdan tarkib topgandir. U "Savodi ta'lim"ning nazariy qismida o'zigacha, mavjud bo'lgan bolalarga xat-savod o'rgatuvchi risolalarning barcha kamchilik-nuqsonlarini ochib tashlaydi va eski risola bilan o'zi yaratayotgan risolani bir-biriga taqqoslab, eski risolaning o'sha kungi talablariga javob berolmasligini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beradi. Munis harflar o'lchovini belgilar ekan, avvalgi savod ta'limidagi harflar yasalishini rad etdi. Masalan, u "to", "ro", "re", "bo", "sod" harflarining yasalishi haqida gapirib kelib, bu to'g'rida turli-tuman fikrlar mavjudligini va ustozlarning bu to'g'rida alohida fikri borligini qayd qiladi, ular bilan muhohasaga kirishib, o'z mulohazalarini bayon etadi:

*"To" zikrida dedi ba'zi ustod,
Zebo alifi-yu, avvali "cod"
Bu nuqtaga men qilurman inkor,
«Sod» osti erur satbar bisyor.
Ta'lim budur, qilurman imo,
"Ro" favhida tutsa yer nigun "ro"
Tutsa "alif" ustida nishiman.
Mingan kishidek samandi tavsan.
Bir nuqta "alif"ning ittisoli,
To "re" so'ngikim bor erdi holi.*

Munis "Savodi ta'lim"ning ikkinchi qismida arab alifbosidagi har bir harfning yozilish uslubini ma'rifiy-didaktik nuqtai nazardan sodda qilib tushuntirishga harakat qiladi:

*"Ro" qomati ikki nuqta, ammo
Boshi biyik ermas uylakim "zo",
"Zo" – uch nuqtau lek sarkash,
Qilsa bo'lur oni qushga o'xshash.
"Kof" avvali "fo" boshig'a monand,
"Nun" halqasiga valek payvand.*

*“Vov” avvali “fo” boshig’a monand,
Bir nuqtani “ho”ga ayl afsar.
“Lo” avvali bir “alif” tahi “ro”,
So’ngra yana bir “alif” qil insho.
“Lo” uch “alif” qatoru mulsah,
“yo” boshidur uch nuqta muayyan.
Har harfkim munda bo’lmadi zikr,
Ta’limini qil naziridin fikr.*

Munis “Savodi ta’lim” asaridan ilm toliblari va muallimlar bahramand bo’lishlarini orzu qilgan edi. Uning bu risolasi o’z davrida qanday nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo’lgan bo’lsa, bugungi kunda ham o’zining ilmiy- nazariy va amaliy qimmatini saqlab qolgan.

Xullas, Munis o’z asarlarida ilm-ma’rifat g’oyalarini targ’ib qilib, ilm-hunar ahlini zo’r samimiyat bilan e’zozladi. U o’zining ma’rifiy-didaktik ta’limotida kishilarni, shu jumladan, yoshlarni ham rostgo’ylik, mardlik, xalqqa vijdonan xizmat qilmoq, do’stlik, vafo va sadoqat ruhida tarbiyalash g’oyasini ilgari surdi.¹⁶

Muhammad Rizo Ogahiyning ma’rifiy-tarbiyaviy qarashlari (1809-1874)

O’zining yuksak iste’dodi, sermahsul ijodi bilan zabardast olim, hassos shoir, mohir tarjimon sifatida mashhurdir. U “Ta’vizul oshiqin” (“Oshiqlar tumori”) devonini, beshta tarixiy asar: “Firdavs ul-iqbol”, “Riyoz ud-davla” (“Davlat ishlari”), “Zubdat ut-tavorix” (“Tarixlar qaymog’i”), “Jome’ ul-voqeoti sultoniy” (“Sultonlar voqealariga doir”), “Gulshani davlat”, “Shohidi iqbol”ni tartib etdi. Bundan tashqari Ogahiy falsafiy, axloqiy-ta’limiy mazmundagi “Qobusnoma”, Sharqda mashhur olimlardan Muhammad Vorisning “Zubdat ul-hikoyat”, Mahmud binni Shayx Ali binni Imomiddin G’ijduvoniyning “Miftoh ut tolibin” asarlarini fors tilidan o’zbek tiliga tarjima qilgan. Ko’ramizki, Ogahiy o’zi yaratgan va tarjima qilgan asarlari bilan xalqimizning ilm-ma’rifatini oshirishga va ijtimoiy-pedagogik fikr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo’shgan.

¹⁶ F.Rasulova, T.Do’stjonov, S.Hasanov. Xorazm Ma’mun Akademiyasining olis-yaqin yulduzlari. «Iqtisod-moliya» nashriyoti, T.: 2005, 226-232-betlar.

Ogahiy ijodining asosini tashkil etuvchi chuqur falsafiylik va xalqchillik, dunyosevarlik va insonparvarlik, odamiylik, ma'rifatparvarlik va yuksak odob-axloq tashviqi, har jihatdan kamolotga erishgan inson va uning jamiyatda tutgan o'rni o'ziga xos falsafiy-axloqiy tarzda talqin etiladi:

Bu gulshan sayrini etsang, bosma gustohona tufroqni,

Ki, gar gom ostida bor paykari ozoda madfundur.

Ogahiy adabiy-ilmiiy merosining "*shoh misralari*" bo'lgan bu bayt Alisher Navoiyning turmush falsafasini ifoda etgan "Shoh va gado" hikoyasini, V. Shekspirning Gamlet tilidan mozoriston sahnasida inson taqdiri haqida bayon qilgan fikrlarini, Umar Xayyom va Pahlavon Mahmudning "*ko'za, kulol va uning loyi*" to'g'risidagi falsafiy mushohadalarini esga tushiradigan chuqur falsafiy va insonparvarlik g'oyalari bilan uyg'un ekanligini alohida qayd etmog'imiz lozim.

Ogahiy zamonasining yetuk kishisi sifatida insonda asliy-ilohiy jihat borligi va u o'z haqiqatini bilib olishga qodir ekanligini ta'kidlaydi. Demak, shoirning fikricha inson murodiga, ya'ni asliga yetish uchun harakat qilmog'i, hayotini behuda o'tkazmasligi, nafsini jilovlashi, ilm olishi, axloqni sof tutib, poklanishi zarur:

Kishi topg'ay murodini kelib har ishni qilsa o'ng.

Fanovu faqr yo'lida balovu dardu g'amdin so'ng.

Inson boshqa ongli mavjudotlardan o'zining aqli, tafakkuri va boshqa insoniy hislatlari bilan ajralib turadi. Umr, hayot insonga berilgan ulug' in'omdir. Shoir insonlarni ana shu ulug' ne'matdan samarali foydalanish, mazmunli yashash, sobitqadamlik bilan sa'y-harakat qilish, umrni xayrli ishlarga bahsh etish, hayotdan, yashash zavqidan bahra olishga da'vat qiladi. U o'zini ishq mulkining shohi, sultoni deya faxr etadi:

Ishq mulki shohimen, ishq ahlidur'lar chokarim,

Toki yor ehsonidin sha'nu muazzamdur mango.

Ogahiy holini gar ishq ichra bilmak istasang,

Chashmi ibrat birla dardangez devonimga boq.

Ogahiyning she'riyati shaklan va mazmunan rang-barang. U insonlarni bir-biriga mehr-muruvvat ko'rsatish, oqibatli bo'lish, qo'ldan kelguncha yaxshilik etib, imkon boricha birovning mushkulini oson qilishga da'vat qiladi:

Sitam aylab shikast ahli vafo ko'ngliga yetkurma,

Ki, baytulloh bo'lsa mundahim olam bo'lur vayron, -

degan orifona g'oya Alisher Navoiyning:

Kimki bir ko'ngli buzuqning xotirin shod aylagay,

Oncha borki, Ka'ba vayron bo'lsa obod aylagay, –

bayti bilan hamohang. Zero, Navoiydek teran fikr, o'tkir mushohada yuritgan Ogahiy inson qalbini ka'baga tenglashtiradi. Jabr-sitam qilib, insonning qalbiga ozor berish, ko'nglini shikastlash Ka'bani vayron qilish, buzish bilan barobar, deya hukm chiqaradi.

Zero, ilmu hikmat natijasida qilingan ezgu ishlargina inson nomini abadiylikka daxldor qiladi. Ogahiy ishq muhabbat g'oyalarining ufqi keng, qamrovi, mohiyati ummondek teran. Umr juda qisqa, ana shu shudring singari oniy lahzalardan oqilona foydalanish, abadiylikka daxldorlik, komil insonlikka intilib yashash zarurligini uqtiradi.

Ogahiy insoniylik sharafiga dog' tushiradigan ma'naviy kamolotga halal beruvchi barcha yomon xususiyatlarni, illatlarni ayovsiz fosh etadi. Xususan, u quyidagi qit'ada inson kamoloti yo'lidagi ba'zi axloqiy hislatlar haqida shunday mulohazalarni bayon etadi:

Qanoat go'shasida xoksor o'lmoqni odat qil,

Agar yetmak tilarsan mehr yanglig' avji izzatga.

Ta'ma tark aylabon eldin etak xurshiddek chekkil,

Ki, to o'ltirmag'aysan soyadek mazallatg'a.

Qanoat davlati boqiy durur, qonig'akim hargiz,

Muyassar bo'lmag'ay tomig'a yetmak ushbu davlatg'a.

Ta'ma idbori tomig'a tugunmas mehnatidurkim,

Etushmak mumkin ermas o'lg'uncha bir lahza rohatg'a.

Mazkur qit'a orqali Ogahiy insonni qanoatli bo'lishga da'vat etadi. Qanoatli inson ham shaklan, ham mazmunan hoksor bo'ladi, u ta'ma kabi g'ayri axloqiy xususiyatlardan xoli.

Ogahiyning nazdida qanoatni kasb etgan faqir o'tkinchi dunyo ne'matlari, boylıklariga ruju qo'ymaydi. Inson ta'madan qancha uzoq bo'lsa, uning osoyishtaligi shuncha yaxshi bo'ladi. Shoirming mana shunday mazmundagi dono o'g'itlari ruhimizni tozalashga, ma'naviyatimizni yuksaltirishga, ogohlik sari yuz tutishga da'vat qiladi.

Nafs yo'lida bosar-tusarini bilmay qolgan ma'naviy qashshoqlarga ma'naviyat manbai sifatida xizmat qiladi.

Ogahiy o'z adabiy-ilmiiy faoliyati markaziga xalq uchun, yurt uchun halol xizmat qilish vazifasini qo'ygan. Ustoz-murabbiy shoir she'riyatining lirik qahramonlari odamiylik g'oyalari bilan voyaga yetgan rahm-shafqatli va muruvvatli, odil va haqso'z, axloqiy pok va halol, ko'pchilik manfaatlarini shaxsiy g'araz-intilishlardan ustun qo'ya oluvchi olijanob kishilardir. Shu narsa juda muhimki, Ogahiy mohiyatan xalqparvar, elu yurt tinchligi va ravnaqi uchun barcha qiyinchiliklarni tortishga, xalq dardiga hamdard, qayg'u alamlariga sherik bo'lishga tayyor qahramon siymodir:

*Yuz va'da bila xizmat har kunda buyurgaylar,
Er tutmas agar qilsang har va'daga yuz xizmat,
Bu turfaki, yuz xizmat butkargali jon cheksang,
Bir xizmat uchun ko'rung har lahzada ming tuhmat.*

Ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik, ijod va ilm ahlining qadrsizligidan shikoyat ohangidagi bunday fikrlar Ogahiyning ijtimoiy vijdoni bo'lib, asrlar osha bong uradi va hukmron tabaqalardan ijod va ilm ahlining qadr-qimmatini yuksaklikka ko'tarishini so'raydi.

Ogahiyning tasavvufiy g'oyalariga qaraganda, xudo odamni yaratganda qo'llarini arshi a'loga iltijo qilib yaratibdi, unga jon bahsh etayotganda bir kuy chalibdi. Xudoga iltijo bilan qotib qolgan odamlarning bu kuy og'ushida dastlab barmoq bo'g'inlari, keyin esa barmoq, tirsak, qo'l, gavda va butun tanasi harakatga kelibdi, kuy oxirlaganda odamga jon kiribdi. Shundan buyon bu ilohiy kuy chertilganda qonimiz jo'sh urib, yuraklarning bir hapqirib ketishi bor.

Ma'lumki, Ogahiy yashagan davrda cholg'u asboblari an'anaviy ansambllari mavjud bo'lgan. Ogahiy Xorazm an'anaviy ansambl ijrochiligi turli sozlar birikmasi, o'z tasviriy ifoda imkoniyatlari, tembr-akustik xususiyatlari bilan uyg'unlashganligi to'g'risida san'atshunoslik uchun ilmiy-nazariy ahamiyatga ega bo'lgan hikmatli fikrlarni bildiradi.

Shunday qilib, Ogahiyning san'at tarbiya vositasi ekanligi to'g'risidagi qimmatli fikrlari san'at tarixi va tarbiyashunoslik fanlari bilan shug'ullanuvchilar uchun "ochilmagan qo'riq" dir.

Ogahiy faqat badiiy ijod bilan shug'ullanib qolmay, tarixnavis olim sifatida ham katta shuhrat qozondi. Ogahiy yashagan va ijod etgan davrda Xiva xonligi taxtida Muhammad Rahimxon I (1806-1825), Olloqulixon (1825-1843), Rahimqulixon (1843-1846), Muhammad

Aminxon (1846-1855), Said Muhammadxon (1856-1865) va Muxammad Rahimxon II (1865-1910) lar hukmronlik qildilar.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Ogahiy ana shu davr tarixini mufassal ravishda bayon qiluvchi beshta tarixiy asarlarni yaratdi: "Riyoz-ud-davlat", "Zubdat ut-tavorix", "Jome'ul-voqeoti", "Gulshani davlat", "Shohida iqbol". Shuningdek, Shermuhammad Munis tomonidan boshlangan va oxirigacha yetkazilmay qolgan "Firdavs-ul-iqbol" asarini yozib tamomlaydi.

Ogahiyning tarixiy asarlarini har tomonlama o'rganib chiqqan sharqshunos olim P.P.Ivanov "O'rta Osiyoda yozilgan tarixiy asarlar ichida berilgan ma'lumotlarning ko'pligi jihatidan XVII asr boshidan 1873 yilgacha bo'lgan voqealarni bayon etuvchi Xiva tarixi juda katta ahamiyatga egadir"- degan edi. Akademik V.V.Bartold o'zining Markaziy Osiyo tarixiga oid asarlarini yozar ekan, xususan, Ogahiy tomonidan yaratilgan tarixiy asarlardan keng foydalanganligini alohida ta'kidlab o'tgan edi: "Munis va Ogahiy tomonidan yaratilgan adabiy va tarixiy asarlar qanchalik kamchilikka ega bo'lmasinlar, tarixiy voqealarni bayon etish va ularda keltirilgan faktik materiallarning ko'pligi jihatidan bizgacha yetib kelgan Qo'qon va Buxoro xonliklari tarixi bo'yicha yozilgan hamma asarlarni o'zidan ancha orqada qoldiradi".

Xullas, yosh o'lkashunoslar Ogahiydek yirik tarixchining qimmatli asarlarini qunt bilan mutolaa qilishi orqali katta ma'naviy-ilmiiy xazina egasi bo'ladi. Negaki, Xivadagi yer egaligi shakli Buxoro va Qo'qon xonligidagi yerga egalik qilish munosabatlari bilan taqqoslab va qiyoslab o'rganilganda, o'quvchilarning Markaziy Osiyodagi mulkiy huquqqa doir tushunchalari yanada kengayadi. Xiva xonligi hayotida asosiy masalalardan biri soliq edi. Bu masalani yoritish va o'rganishda Ogahiy asarlarida Xiva xonligida savdogar, hunarmand, dehqon hamda shunga o'xshash kasb egalaridan soliq qanday yig'ib olingani, yig'ishtirish tartiblari, soliq yig'ish uchun qaysi shahar va qishloqlarga kimni tayin qilinishi bilan tanishamiz, hatto ba'zida soliq yig'uvchilar xalq tomonidan o'ldirilganligi hollarini ko'ramiz. Ogahiy asarlarini o'lkashunoslar uchun o'rganishga loyiq tomoni shundaki, ularda Xiva xonligining Buxoro, Qo'qon xonliklari va ularga qo'shni davlatlar bilan diplomatik munosabatlari o'z ifodasini topgan.

Ogahiy Muhammad Yusuf Munshi ibn Xo'ja Bahodirning Balx hokimi Muhammad Muhammadxonga bag'ishlangan «Tazkirai Muqimxoniy», Nizomiddin Ahmad binni Muhammad Muqim Hirotiyning «Tabaqoti Akbarshohiy», Muhammad Madhiy Astrobody binni Muhammad Nosirning «Tarixi-Nodiri», Mirxondning «Ravzat us-safo», «Zafarnoma», Abdurahmon Jomiyning «Haft avrang», «Bahoriston», «Yusuf va Zulayho», Shayx Sa'diyning bebaho asari "Guliston" asarlarini mohirlik bilan o'zbek tiliga o'girdi.

Ogahiy tarjima qilgan "Badoe'ul vaqoe'", "Anvori suxayliy", "Haft kishvar", "Axloqi Muhsiniy", "Zubaydat-ul hikoyot", "Qobusnoma" asarlarida adolat, shoh va fuqaro, shoh va a'yonlar, shoh va lashkar, jabr-zulm qilganlarni jazolash, zulm va bedodlikni mahv etish haqida gap boradi. Mutarjim qiziqarli hikoyatlar bilan o'quvchilarni tanishtiradi, bo'ladigan hikmat va nasihatlar orqali ko'ngillarga yaxshilik urug'ini ekadi. Bu jihatdan "Qobusnoma" bilan "Ahloqi Muhsiniy" asarlari ajralib turadi.

Ma'rifiy-axloqiy mazmundagi asarlar Muhammad Rahim II Feruzga ayniqsa yoqqan. Ogahiy "Qobusnoma"ni tarjima qilar ekan, so'zboshida ta'kidlab deydi: "Xususan, har bir kitob mazmunikim, mavoiz va nasihatga mushtamal bo'lsa, oni bag'oyat sevar erdi va o'zga kutubdin ilgari tutar edi". Bu tushunarli, chunki Sharq kishilari qadimdan beri hikmat-nasihatni, turmushga yaroqli ma'nodor gaplar, inson hislatlarini ko'rsatadigan va uni yomon yo'llardan qaytarishga da'vat etadigan teran, ta'sirchan fikrlarni xushlab, uni tarbiya vositasi, yaxshi fazilatlarni shakllantirish quroli deb hisoblaganlar.

Buning natijasi o'laroq Sharqda Kaykovus, Sa'diy, Koshifiy, Attor, Nizomiy, Jomiy, Hofiz, Lutfiy, Navoiy kabi ko'p qirrali ijodkorlar ijodidan pand-nasihat keng o'rin olgan edi.

Ogahiy ota-onaning bola tarbiyasidagi, uning dunyoqarashini tarkib toptirishdagi rolini alohida ta'kidlaydi. Mutafakkir fikricha, bola tarbiyasida ota ham, ona ham teng ishtirok etishi, ikkovi ham baravar mas'uliyat sezishi lozim. Ota bolaning go'zal fazilatlarni egallashiga, sevgan kasbini puxta o'rganib olishiga yordam ko'rsatishi, kamolotga yetishini, ilm-fan, kasb-hunar egallashi uchun moddiy zaminni hozirlashi darkor. Ogahiy otaning bola tarbiyasidagi roliga katta baho bersa ham, baribir, tarbiya masalasida asosiy qiyinchilik onaning zimmasiga tushadi, deb hisoblaydi. Chunki ona

homiladorlik mashaqqatini, tug'ish azobini boshdan o'tkazadi. Ona bolaning yashashiga sabab bo'ladigan birinchi quvvatni o'z badanidan beradi, uzoq vaqt ehtiyotlik bilan asraydi, bola tarbiyasi bilan shug'ullanadi va o'zining cheksiz mehr-muhabbatini va shafqatini bolaga fido qiladi:

Gar bu gulshanda ano bo'lsa gulu sarv ato,

San kibi turmag'usi carv gulandom o'g'ul.

Demak, ota-ona bolaga birinchi o'rinda an'anaviy tarbiya qoidalarini singdirishga, salomlashish, yurish-turish, yeyish-ichish qoidalariga, o'z qilmishi uchun mas'uliyat sezish, yomon qiliqlari uchun uyalishga o'rgatishi lozim.

Shunday qilib, Ogahiyning ta'lim-tarbiya va axloq to'g'risidagi mulohazalari yuksak qimmatga ega bo'lib, uning beqiyos aql-zakovatidan, o'z davrining ilg'or fikrli mutafakkiri ekanligidan dalolat beradi.¹⁷

Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning (1740-1843)

“Odob as-solihin” asari – yuksak ma'naviy axloqiy sifatlarni yorituvchi manba haqida

«Odob as-solixin» (Yaxshi kishilar odobi) asari muallifning o'zi ta'kidlaganidek, muqaddima va 7 bobdan hamda har bir bob 4 fasldan iborat.

Muqaddimada asarning maqsadi ifoda etiladi, ya'ni insonga yaxshi xulq egallash zarurligi ta'kidlanadi va u odob qoidalarini egallab olmasa, nafaqat o'ziga, balki butun dunyoga yomonlik tarqatadi, deydi.

Shunday ekan, xar inson odobi zaxriy hamda odobi botiniyni bilib, unga amal qilishi zarurligi va bu odob qoidalarini ta'kidlaganimizdek, insonning barkamol bo'lib yetishishida kundalik turmushda zarur botiniy va zoxiriy odob qoidalari: salomlashish va ruxsat so'rash, muloqot odobi, uxlash va yo'l yurish; suhbat ahlining o'zini tutishi, er-xotin odobi, tozalik va ozodalik qoidalari, mexmon kutish, ziyofat va ovqatlanish odobi, safar qoidalari bayon etiladi.

Birinchi bob ruxsat so'rash va salomlashish, ko'rishish, qo'l olishish haqida bo'lib, u to'rt fasldan iborat.

¹⁷ Hasanov S. Xorazm ma'naviyati darg'alari. – T.: “Adolat”, 2001, 157-159-betlar.

Ma'lumki, sharq xalqlarda biror kimsa birorta uyga kirganda u yerga ruxsatsiz kirib boravermay, ma'lum urf-odat qoidalariga rioya qitladi. Ana shu qoidalarning eng muhimlari deb, Muxammad Sodiq qoshg'ariy xar bir odam kelganligini bildirish (eshikni qoqish yoki yo'talish), ovoz berilgandan so'ng kirishga ruxsat so'rash va so'ng kirish kerakligi bayon etiladi.

Ikkinchi faslda esa salomlashishning o'n ikki odob qoidasi haqida fikr yuritiladi. Shunda savol berish va javob masalasida hozirgi paytda ham yuz berayotgan munozarali fikrlarga nuqta qo'ygandek bo'ladi. Muallif aytishicha, adabi avval-ikki mo'min kishi kelsalar, xox oshno va xox nooshno, salom berishgaydirki, salom bermak sunnatdir, javob farz ayndir, deydi.

Shuningdek, olim «Ulug' kichikka, otliq piyodaga, yuruvchi o'ltirguvchi va oz ko'pga salom bergay», deb ta'kidlar ekan, bir kishi ko'pchilik oldiga kirib kelganda, birinchi bo'lib salom berishi, ko'pchilik esa baravar ovoz chiqarmasdan salomga alik olish yoki auditoriyaga kirganida. «Kim oldin salom berishi kerak?» degan muammoni yechgan bo'ladi.

Mazkur bobda yana salomlashishdagi xatti-harakatlar, jismonan zaif kishilar va salomlashish qoidalari, erkak va xotin-qizlarning salomlashish qoidalari. Salom bermaslik va javob qaytarmaslik haqida ham hozirgi davr uchun muhim tavsiyalar mavjud. Birinchi bobning uchinchi faslida berilgan muloqot (uchrashuv) odobiga oid tavsiyalar ham diqqatga sazovor. Bunda uchrashganda qo'l berib ko'rishish. Lekin qo'l uchi bilan emas, astoydil, lekin qo'lni silamay, ochiq yuz bilan ko'rishish odobi bayon etiladi. quchoqlashib ko'rishish safardan qaytgan kishi bilan ko'rishish va yosh bolalar bilan ko'rishish, o'pib ko'rishish odoblari bayon etiladi.

Ikkinchi bobda uxlamoq, kiyim kiyish, yo'l yurish odoblari haqida fikr yuritiladi. Masalan, uxlash oldidan eshiklarni mahkamlash, idishlarni og'zini yopish, o'rnidagi ko'rpani qoqib yotish, o't, chiroqni o'chirish, uxlaydigan o'rnini yumshoq qilmaslik, o'ng qo'lga bir oz suyanib yotish tavsiya etiladiki, bu qoidalarga rioya qilmaslik natijasida ko'plab noxush voqealar ro'y berganligi aytiladi.

Libos kiyish qoidalari ham xulq-odob qoidalarning tarkibiy qismi sanaladi. Bunda eng muhimlaridan kishi imkon darajasida kiyinishi lozimligi, qulayligi va yoshi, jinsiga, joyiga, fasliga mos bo'lishi, uni toza tutish, yaxshi libos kiyganda manmanlik qilmaslik,

kiymaydigan ortiqcha liboslaridan muxtojlariga in'om qilish kabi tavsiyalar hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Yo'l yurish qoidalari ham har bir inson uchun bilishi zarur bo'lgan qoidalar bo'lib, bu haqda quyidagilar: yo'l yurganda me'yorida qadam tashlash, atrofga alanglamaslik, jamoat joylarida boshqalarga ozor bermaslik, keksalardan keyin yurish, ustozlar bilan birga ketayotganda ularning xurmatini saqlash, yo'lida xaroxlarga bo'lsa ular bilan birga ketishlik, yo'lida esa biror kishi uchrashib qolsa, salomlashib birga ketishlik, yo'lida og'iz suvi yoki balg'amini tupursa yuzini berkitish, uni o'ng tomonga yoki oldiga emas, chap tomonga yoki orqasiga tashlash, yo'lida yordamga muxtojlariga yordam berish, yaxshi ishni ma'qullab, yomon ishdan qaytarish kabilar bayon etiladiki, bularni bilish katta-yu kichikka birdek zarurdir.

Uchinchi bobda suhbatlashish odobi bayon etiladiki, bu odob qoidalarini inson xar bir daqiqada rioya etishi zarur. Suhbatning yaxshi niyat va beg'araz bo'lishi, unga pokiza libos bilan borish, tanning tozaligiga erishish, og'iz va tishlarni tozalab borish, suhbat ahlining bir-birlariga xurmat va iltifot ko'rsatishi, ulug'larga e'tiborini qaratish, o'tirish qoidalariga rioya etish, ahli suhbat kirganda va chiqqanda o'midan turish va ulug'larni yuqoriga o'tkazish, beadab so'zlar, yomon xatti-harakatlar, noo'rin jimlikdan saqlanish, barchaga yaxshi muomalada bo'lish, izzat qilish, aksa kelsa og'zini to'sib, past ovozda, yengli aksa urish, suhbat ahliga ish buyurmaslik, suhbat ahliga beminnat xizmat ko'rsatish, do'st va notanishlarga bir xil ochiq chexra bilan muomalada shirinso'z bo'lish, go'zal xulq va chiroyli odob bilan muomalada bo'lsa, aka-ukalar, opa-singillarning xatosini kechirish hamda ular aybini yuziga solmaslik, boshqalardan chetda nasixat qilish, suhbat ahliidan biror kishining yomon qiligi, qabix fe'li haqida gapirmaslik, uni chetlatishga harakat qilish kabi odob qoidalariga rioya etish haqida fikr yuritiladi.

Ahli suhbatga noloyiq xatti-harakatlardan qochish maqsadida ahli jamoaning xotirjamligini buzganlarni chetlatish, buni imo-ishora bilan tushuntirish, suhbatda pinakka ketmaslik, o'zgalardan o'zini yuqori tutish, suhbatdoshning so'zini bo'lmaslik, sukut saqlashni ham me'yoriga yetkazish, deb ortiqcha takallufga zo'r bermaslik, hamsuhbati bilan bahs qilmaslik, ammo tortishishi mumkinligi, g'azab kelganda uni to'xtata olish, ortiqcha qiziqchilik, xazil-mutoyiba,

xushomadgo'ylik qilmaslik, bunda me'yordan oshirmaslik, kamsituvchi laqablar qo'ymaslik, ahli suhbat orasida bir-biri bilan pinxona so'zlashganda boshqa hamroxning quloq solmasligi, bu qoidalar xar bir kishining kundalik turmushida zarur bo'ladigan talablari xisoblanadi. Asarda er va xotin odobiga oid ilgari surilgan fikrlar ham diqqatga sazovordir.

Uylanadigan yigit nikohdan oldin uylanmoqchi bo'lgan qizini ko'rmog'i, uylanadigan qizning bokira bo'lishi hamda to'rt narsada: umrda, qomatda, xulqda, adabda va iffatda erdan yuqori bo'lishi zarurligi ta'kidlanadi. Bu fikr turmushda tinch-totuv oila qurish masalalarida isbotlangandir.

Muhammad Sodiq qoshg'ariy «*Odob as-solixin*» asarida, kasal xolini so'rash, ta'ziya va musibat odoblari haqida ham fikr yuritadi. Bu narsalarni xar bir kishining bilishi muhimdir.

Kasal xolini so'rash do'stlarga zarurligi, kasalning millati, dinidan qat'i nazar, kasal yoniga ochiq yuz bilan kirish. ko'nglini ko'taruvchi so'zlar bilan murojaat qilish, kasal oldiga bashang kiyinib yoki kir libosda kirib bo'lmasligi, kulib kirib, bosh tomoniga yaqin o'tirish, ko'p xol so'rashi, kasalni kunda kelib toliqtirib qo'ymaslik, bemor ko'ngli tilaydigan narsalarni so'rab-surishtirib topib kelish, ammo uning muolajasiga xarom narsalardan saqlash, bemor oldida ko'p o'tirmaslik, agar bemor oldida bo'lish zarur bo'lsa, unga xush keladigan so'zlardan, hikoyatlardan so'zlab o'tirish tavsiya qiladi.

Bemor ham navbatida kasalidan nolishi mumkinligi, og'ir darga chalinganda o'ziga o'lim tilayvermasdan umr tilashi, og'irlashgani sezila boshlaganda gunohlardan tavba qilib, qarzlarni ado etib, farzandlari, qarindosh va do'stlaridan rozilik so'rashi va vasiyat qilishi hamda ularga sabr-qanoat tilashi eng muhim qoidalar ekanligi ta'kidlanadi.

Asarda musibat odoblari haqida bayon etilganki, bularni bilish, ayniqsa, yoshlarga zarurdir.

Biron mo'minning vafoti haqidagi xabarni eshitganda ahli musibatga ta'ziya ado etiladi. Bu dafndan oldin yoki keyin ham bo'lishi mumkin. Ta'ziya uch kungacha joiz, undan so'ng makrux deyiladi. Tobutni olib chiqib ketayotganda sukunatda bo'lishi lozimligi ayollar tobutga hamroh bo'lib eshikka chiqa olmasligi, ahli musibat yig'ilganda ovoz ko'tarmasligi, mayitni ko'mgandan so'ng har kim o'z ishiga ketishi, bir yerda yig'ilib o'tirmaslik kerakligi,

yig'ilish uchun turli tadbirlarni izlab topish va o'tkazish bid'at ekanligi, ammo taom tayyorlab ahli musibat uyiga yuborishi mustahabligi ta'kidlanadi.

So'ng qabr ustiga g'isht va tosh hamda boshqa narsalarni qo'yish, qubba va imorat qilishni bid'at sanalishi ta'kidlab o'tiladi. Shu o'rinda olimlar qabrlar odobiga ham to'xtalib o'tadi. Yana qabristonni tongi ziyofat qilish ko'proq erkaklarga mansubligi, otana qabrlarini xotinlar ham ziyorat qilsa, man etilmasligi ta'kidlanadi. So'ng qabristonlarni oyoq osti qilmaslik kabi odob to'g'risida gapirib o'tiladi:

Asarda ziyorat, mehmondorchilik odobi haqida ham ko'pgina ibratli gaplar yozib qoldirilgan.

Mazkur bobda yemak-ichmak odoblariga to'xtalib o'tilgan. Unda taomlarni oz yeyish, shubhali taomlarni yemaslik, faqirona ovqatlarga qanoat qilish, go'shtli taomlarni kamroq iste'mol qilish, ovqatlarni tanavvul qilishda aralashtirib yubormaslik, ya'ni baliq bilan sutni, sut bilan nordon narsani, sut bilan tuxumni, qovurilgan go'sht bilan qaynatilmaganini, qotgan go'sht bilan yangisini, issiq narsa bilan sovuq narsani, ichni qotiruvchi bilan ichni suruvchi, xidli taomni yeyishni ham man etiladi. Taomni o'tirib yeyish zarur, deydi olim hamda yeyish odoblariga to'xtaladi. Bulardan eng muhimlari, ulug'lar taomga qo'l urmaguncha qo'l uzatmaslik, taom yeyishda ozodalik qoidalariga rioya etish, taom yeyishga oid ishlardan foydalanish, ya'ni mevalarni ko'zga surib, keyin yeyish, taomdan avval va so'ng qo'l yuvish, yuvilgan qo'lni suvini silkitmaslik, qo'lni ishlatilgan narsaga artmay, toza sochiqqa artish, taomdan so'ng soxibi xonadon sharafiga duo qilish, agar yoshi kattalar ham mehmondorchilikda bo'lsa, ularning duo qilishlarini kutish kabi odob qoidalari tavsiya etiladi.

Mazkur bobda suv ichish odobi haqida ham fikr yuritiladi. Bu ham odob qoidalari gigienik jihatdan ham zarurdir.

Suvni birdan simirmay, balki bo'lib-bo'lib ichiladi va unga nafas urilmaydi, suvni o'ta extiyotkorlik bilan, biror narsa tushmaganiga ishonch hosil qilgach ichish, kechasi esa idish og'ziga latta tutib ichishni tavsiya etiladi. Agar og'iz yoki qo'l yog'lik bo'lsa, suvli idishning dastasini ushlamaslik, jimjiloq va nomsiz barmoq yordamida ushlab yoki qo'lni yuvib, keyin ushlab, kosaning yoki suv idishning singan yeri bo'lsa, u yeridan suv ichmaslik, chunki u yerida kir to'planib qolishi mumkinligi, ariq va xovuzdan boshni yuvib, og'iz

bilan suv ichmaslik, chunki undan zararli xasharot ichga ketishi mumkinligi qat'i ta'kidlanadi. Shu bilan birga suvni avval o'zi ichmay yonidagilarga uzatish, avval o'ng tomonga uzatish, suv uzatganni duo etish eng zaruriy odob qoidalaridan ekanligi eslatib o'tiladi.

Yettinchi bobda eng zaruriy safar qoidalariga to'xtalib o'tiladi. Safar qilishni olim uch qismga bo'ladi: farz, fazilat, mubox (ruxsat etiladigan). Bundan safar farzining o'zini besh bo'g'inga bo'ladi: jixod, xaji farz, ota va ona chaqirig'iga binoan, radi mazolim (zulmni qaytarish uchun) va beshinchisi ilm olish uchun safar qilish.

Safar muboxni ham ikki bo'g'inga bo'ladi: birinchisi, o'z manfaati yo'lida birovdan ta'ma qilmaydigan tijorat safari, agar kim tijoratda faqat mol-dunyo orttirish maqsadida bo'lsa, unda bu tijorat safari ham unga ziyon yetkazadi, deydi olim. Ikkinchi, ma'naviy tafarruj (ko'ngil ochish) uchun safar qilish. Ba'zida bunday safarlarning ham joizligi ta'kidlanadi. Ammo safarlarning barchasida ham ayollarga albatta maxrumi xaromlik qilishi zarur, deb xisoblaydi.

So'ng olim safarlarning foydalari haqida og'iz ochadi, unda safar qilgan kishi birinchidan, g'am-anduxdan forig' bo'lishi, ikkinchidan tirikchilik uchun sarmoya yig'ish, uchinchidan ilm olish, to'rtinchidan, to'liq odob va axloq o'rganish, beshinchidan, ulug' kishilarning suhbatlaridan baxramand bo'lish mumkin deyiladi. Olim safarning ba'zan mashaqqatlari ham bo'lishi mumkin degan savolga yoshlarga chaqimchi va xasadchilar orasida tirik yurgandan ko'ra, safar mashaqqatlari afzalroqdir, deb to'g'ri xulosa chiqaradi. Mazkur bobda safar odobi haqida fikr yuritiladiki, bu quyidagilardan iboratdir:

Safarga xech qachon tanxo chiqmaslik, eng kami uch kishi safar qilishi, ko'pchilik bo'lsa, bir-ibiriga yaqin manzilga tushish, bir gurux bo'lib safarga chiqqanda o'rtalaridan biror kishini boshliq etib, uning maslaxati bilan ish tutish va boshliqning ham o'z xizmatini boshqalardan ayamasligi, zaifu notavonlar hamrox bo'lsa, ularga madadkor bo'lish ham eng muhim safar odoblari sifatida bayon etiladi.

Safarga eng zarur ashyolarni, ya'ni libos, oyoq kiyimi, soqoltarosh, misvoq (tish tozalagich), qaychi va boshqalarni unutmaslik, borayotgan shaxrida biror yuqumli kasallik tarqalgan bo'lsa, u shaxarga kirmaslik, agar shaxarga kirgandan so'ng kasallik tarqalsa, u yerdan chiqib ketmaslik kerakki, aks xolda kasallik tarqatuvchi o'zi bo'lib qolishi mumkin.

Safardan qaytganda to'satdan uyga kirib bormay, avval uydagilarni xabardor etish, kechasi kirib borish ham noloyiq xisoblanadi. Safardan qaytganda xonadondagilar va qarindosh, yor-do'stlarga sovg'alar ulashish, uni ko'rgani kelganlarni taom bilan siylash ham muhimdir.

Agar xabar kelsa, musofirni kutib olishga peshvoz chiqish, uni xurmat bilan kutib olish, uni so'roqqa tutmaslik, musofir xoxishini farosat bilan bilib olish, uning manzili, yotish-turishi, yeyish-ichishidan xabardor bo'lib turish, agar sayoxat qilish xoxishi bo'lsa, diqqatga sazovor joylarni ko'rsatish, uning kelishidan maqsadini bilish, yordam qilish kabi eng oddiy odob qoidalari ham bayon etiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Muhammad Sodiq qoshg'ariyning «Odob as-solixin» asari yoshlarning barkamol, ma'naviy yuksak, yetuk axloqli bo'lishlarida katta ahamiyatga ega. Mazkur asar kundalik turmushimizda xar kuni, xar daqiqada bilish zarur bo'lgan turmush odobiga oid xulq-odob qoidalarining majmu'idir. Shuning uchun Sharq pedagogika tarixida «qobusnoma» kabi bu asar ham, o'z o'rimi, o'z mavqeiga ega. Bu asarni bobma-bob o'rganish yosh avlodning kamol topishida foydalaniladigan bebaho xazinadir, deyish joiz.

Tayanch so'zlar: ilm fan, ma'rifat xomiysi, siyosiy tarbiya, tibbiyot, tarix, geografiya, ilmi aruz, ilmi qofiya, Buxoro, Xorazm, Qo'qon xonliklari, Munis Xorazmiy, Ogahiy, Gulxaniy, Mahmur, Zavqiy, Ahmad Donish, Furqat, Muqumiy, Avaz O'tar.

Bilimingizni sinab ko'ring

1. Buxoro, Qo'qon va Xiva xonliklarida Movarounnahrda fan, madaniyat, ta'lim qanday rivojlandi?
2. Madrasalarda o'rganilgan asosiy manbalar;
3. Kaykovusning "Qobusnoma", Sa'diyning "Guliston" kabi ma'rifiy asarlarning turkiy tilga tarjima qilinishi ma'rifiy-axloqiy tarbiyada tutgan o'rni haqida so'zlab bering?
4. Komil Xorazmiy hayoti, ilmiy-ma'rifiy faoliyati
5. Furqat pedagogik qarashlarining nazariy asosi nimalardan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev V “O‘zbek adabiyoti tarixi”, Toshkent, “O‘qituvchi”, 1992.
2. Jalolov T “O‘zbek shoiralari”, Toshkent, “Badiiy adabiyot”, 1980.
3. M.Qoshg‘ariy “Odob as-solihin”, Toshkent, “Sharq yulduzi”, 1981.
4. Xadjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. T.: Sano-standart. 2017.
5. Юзликаева Э., Мадуарова С., Янбарисова Э., Морхова И. Теория и практика опщей педагогика. Учебник –Т.: ТДПУ. 2014.
6. Умарова.М. Теория и история педагогики. Учебное пособие.
Т.: «Издательско полиграфический дом имени Чулпана» 2018.г.
7. Ўзбек педагогикаси тарихи (проф Аскар Зуннуновнинг умумий тахрири остида). Т., «Ўқитувчи».1997.
8. Hasanboeva J., To‘raqulov Q., Alqarov I., Usmonov D. Pedagogika. – Toshkent, Noshir, 2016.

6-Mavzu: XIX asrning 2-yarmi – XX asrning birinchi choragida Turkiston o'lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar

Reja:

1. XIX asrning 2-yarmida Turkistonda maktablar tizimi. Chor Rossiyasining ta'lim siyosati.

2. Turkistonda maktablar tizimi. V.P.Nalivkinning ta'lim rivojida xizmati.

3. Turkistonda rus maktablarining ochilishi. Yerlik aholi uchun rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi.

4. Turkistonda jadidchilik harakati.

5. Yangi usul maktablarining ochilishi.

Markaziy Osiyoda XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoni Rossiyaga qaram qilish g'oyasi Pyotr I dan boshlanib, uning vafotidan so'ng Yekaterina hukumati tomonidan davom ettirildi. Nikolay II taxtga o'tirgach, XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoni o'ziga bo'ysundirishga intildi. Bu davrda Turkistonda 3 ta xonlik – Buxoro amirligi, Xiva hamda Qo'qon xonliklari bo'lib, bular o'rtasida nizo kuchaygan edi. Bundan foydalangan chor hukumati dastlab Qozog'istonni o'zlariga tobe qildilar. So'ngra 1864 -yilda Turkmaniston, Chimkent, Avliyo otani, 1865 -yilda Toshkentni zabt etdilar. 1867 -yilda Yettisuv viloyati, 1868 -yilda Samarqand, 1876 -yilda Farg'ona viloyati Rossiya qo'liga o'tdi.

1876-yil 19 fevralda podsho Aleksandr II Qo'qon xonligi tugatilganligi to'g'risida buyruqqa imzo chekdi. 1885-yilga kelib Markaziy Osiyoning hamma yerlari Rossiya tasarrufiga o'tdi va o'lkada Turkiston general gubernatorligi tashkil etiladi. Markaziy Osiyo mustamlaka davlatiga aylantirilgach, chor hukumati mustamlakachilik siyosatini yurgizdi, bu siyosatga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'olonlarini esa ayovsiz bostirdi.

O'lkada yuz bergan bu voqealar ilg'or ziyolilarning faoliyatida ham o'z ifodasini topdi. Ular o'zlaridan oldin o'tgan mutafakkirlarning insonparvarlik, g'oyalarini davom ettirdilar. Buni Anbar otin, Ahmad donish, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Furqat, Muqimiy, Avaz O'tar, Zavqiy, Saidahmad Siddiqiylarning ijodida ko'rish mumkin.

**XX asr boshlarida (1901-1919-yillarda)
Turkistonda eski usuldagi maktab.
Turkiston o'lkasida islom diniy-tarbiyaviy
muassasalarining an'anaviy tizimi**

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida rus chorizmi O'rtasiyoni zabt etdi va u yerda mustamlaka tartibini o'rnatdi. Chor hukumati mustamlakachilik siyosatini amalga oshirish bilan birga maorif, matbuot, adabiyotni yuksaltirishga qarshi qaratilgan tadbirlar ko'rdi, ozodlik, erkinlik, shuningdek, dunyoviy bilim g'oyalari bilan sug'orilgan taraqqiyparvarlik oqimiga qarshi kurashdi.

Mazkur davrda O'zbekiston hududida, umuman, 400 dan ortiq, ya'ni Turkiston o'lkasida 313, Buxoro amirligida 103, Xivada 8 ta madrasa ishlagan.

Har bir qishloqda esa masjid bo'lib, har bir masjid qoshida. albatta, maktab bo'lgan. Shaharning har bir mahallasida, har bir qishloqda maktab bo'lib, masjid domlasi bolalarni o'qitgan. Maktabda avval "haftiyak", keyin "Quron" yodlanardi, so'ng "Chor kitob"ga tushilardi.

"Chor kitob" 4 bo'limdan iborat bo'lib, 1-bo'lim – haq-xudoning nomlari tushuntirilardi, din qoidalari, tahorat, namoz bayon etiladi, ikkinchisi vijdon-e'tiqodni anglash, uchinchi bo'limda kalomi nabi – rivoyatlar bahs etilgan. Bu kitob nazm va nasrda fors tilida yozilgan. Maktablarda Hofiz, Alisher Navoiy, Bedil, So'fi Olloyor o'rganilar edi. Maktabni bitirgandan so'ng bir qism talabalar madrasaga kira olardilar. Madrasa uch bo'limdan iborat bo'lgan:

1-bo'limda musulmon diniy aqidalari bayon qilingan kitob – arab tili va qonunchilik o'rgatilar edi. Bu bo'lim talabasi 9-10 yil o'qigan.

2-bo'limda qonunchilik, ilohiyot, mushkilot-mantiq, arab tili grammatikasi, notiqlik mahorati o'rgatilgan. Unda 7-8 yil o'qishgan.

3-bo'limda ilohiyot, qonunchilik, kalom o'qitilgan. Qonunchilik kursida geografiya va arifmetikadan ba'zi ma'lumotlar berilgan.

Madrasada mudarrislar, mutavallilar, qozilar, imomlar yetishib chiqqan.

1900-yilda Turkiston o'lkasida 313 madrasada 7052 kishi o'qigan (Buxoro (103) va (8) madrasadan tashqari).

Quron bilan birga shariat ham keng o'rganiladi.

Shariat – diniy yuridik qonun bo'lib, shaxsiy oilaviy, huquqiy, jinoiy va davlat huquqi o'rganilgan. O'sha davrda har bir hunar uchun 40 dan ortiq risola-nizom ishlab chiqilgan. Bu hunar o'rganuvchilar uchun qonun edi.

Turkistonda maktablar tizimi. V.P.Nalivkinning ta'lim rivojidagi xizmati

XIX asrning 80-yillarida Turkistonda mahalliy aholi uchun rus maktablari ochila boshladi. Asta-sekin rus-tub joy maktablari ham tashkil etila boshlandi. V.P.Nalivkin mazkur maktablarning ilk tashkilotchisi va birinchi o'qituvchilardan edi. Nalivkin Vladimir Petrovich (1852.15.7, Kaluga - 1918.20.1, Toshkent) - tarixchi, sharqshunos, lingvist-pedagog. 1873-yil artilleriya bilim yurtini tugatgach, Turkistonda xizmat qilgan, Xiva va Qo'qon yurishlarida qatnashgan. Qisqa muddat Namanganda harbiy boshliqning yordamchisi bo'lib ishlagan. Yerli aholining tili, turmushi va urf-odatlarini yaqindan o'rganish uchun Namanganning Nanay qishlog'idan yer sotib olib, oilasi bilan shu yerda bir necha yil yashagan. O'zbek, tojik, arab tillarini puxta o'rgangan. Nalivkin Turkiston o'lkasida ochilgan birinchi rus-tuzem maktabining dastlabki o'qituvchilaridan bo'lgan, Toshkent o'qituvchilar seminariyasida mahalliy tillardan dars bergan (1890 yilgacha). 1890-1995-yillarda Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand gubernatorining yordamchisi bo'lgan. Davlat dumasining deputatligiga saylangan. 1917-yilda Muvaqqat hukumatning Turkiston qo'mitasiga raislik qilgan, mensheviklarni yoqlagan. U Turkiston o'lkasining tarixi, etnografiyasi, islom madaniyatiga doir ko'plab asarlar yozgan, o'zbek, fors tillari bo'yicha qo'llanmalar yaratgan, o'zbekcha-ruscha, ruscha o'zbekcha, ruscha-forscha lug'atlar tuzgan. Akademik. V.V. Bartoldning ta'rificha, Nalivkin «ruslar orasida o'zbek tili va turmushini eng yaxshi bilgan» olim edi. Uning xotini M.V.Nalivkina bilan birga yozilgan «Farg'onadagi o'troq aholi ayollarining turmushiga doir ocherklar» hamda «Qo'qon xonligining qisqacha tarixi» asarlari sharqshunos olimlar tomonidan yuqori baholangan. Keyingi asar 1899 -yilda Parijda fransuz tilida A.Dozon tarjimasida

bosilgan. Bolsheviklar Ta'sis majlisini tarqatib yuborib, zo'ravonlik bilan hokimiyatni bosib olgandan keyin Nalivkin bo'lajak qatag'onlar va vahshiyliklarni oldindan ko'ra olgan. U 1918-yil 20-yanvarda Toshkentda bolsheviklar tuzumiga norozilik sifatida xotining qabri ustustida o'zini otib o'ldirgan.

Turkistonda rus maktablarining ochilishi. Yerlik aholi uchun rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi

Rus ziyolilaridan tashqari mahalliy aholidan ham o'qituvchilar yetishib chiqib, maktab va madrasalarda o'quv rejalari isloh qilina boshlandi. Aliasqar Kalinin o'quv xrestomatiyasi tuzadi. 1900-yilda Jo'ravoy qori Buxoroning Po'stin do'zon qishlog'ida maktab ochdi. Lekin yaxshi natija bermadi.

Rus – tub joy maktablari o'quvchilari uchun o'zbek tilida chiqarilgan birinchi darslik "Ustozi avval" Rasulhoji Said Azizov tomonidan yozildi. Bu ko'p yillar davomida darslik sifatida o'qitilib kelib, O'zbekistonda yangi voqea bo'lgan.

Bundan tashqari, mahalliy millat bolalari gimnaziyalarga jalb etildi. Lekin gimnaziyalardagi mahalliy o'g'il-qizlar 2-3 % ni tashkil etar edi.

Turkistonda jadidchilik harakati

O'zbekiston tarixi sahifalaridan o'ziga munosib o'rin olgan ma'rifatchilik harakati tasodifiy ravishda yuzaga kelgan emas. Uning paydo bo'lishini taqazo etgan, ob'ektiv zaruriyatga aylantirgan bir qancha sabablar, ehtiyojlar bo'lgan.

Ma'rifatchilik, jadidchilik harakati qadimiy Turonu Turkistonning XIX asming ikkinchi yarmilaridan boshlab chor Rossiyasi tomonidan zo'ravonlik yo'li bilan bosib olinib, mustamlaka, qilinishiga qarshi norozilik belgisi sifatida hamda xalqimizning ozodlik, mustaqillik yo'lida olib borayotgan kurashlarini qo'llab-quvvatlash, ularga g'oyaviy rahnamolik qilish maqsadida yuzaga keldi.

Yangi usul maktablarining ochilishi

Xalqni Yevropa mamlakatlari madaniyati, fan-texnika yutuqlari, ilg'or tajribalari bilan tanishishga tinimsiz ravishda da'vat etganlar. Bilimli, madaniyatli, ma'naviyatli millat va xalq juda katta ijtimoiy kuchga aylanishini ma'rifatparvarlar birinchilardan bo'lib tushunib yetganlar. "Asta-sekin ma'rifatchilikdan jadidchilik o'sib chiqdi va u ma'lum darajada siyosiy masalalarni olg'a sura boshladi. Yangi talim-tarbiya, yangi maktab, yangi maorif, uni boshqarish, madaniy targ'ibot, tashkilotchilik, masalalari asosiy o'ringa ko'tarildi. Yangiliklarga asoslangan holda rus va eski maorifdan farq qiluvchi fikr-g'oyalar oldinga surildi, ular mahalliy matbuot, turli kitoblar orqali keng targ'ib qilindi. Bu madaniyatdagi mustamlakachilikka qarshi mustaqillikka xalq ongini oshirish, o'z ahvolini yaxshilashga intilishning ko'rinishlaridan edi".¹⁸ Jadidchilikning asosiy mohiyati millatni koloqlik, xurofot botqog'idan chiqarishga qaratilgan.

Jadidlar o'z hisoblaridan maktablar ochib, yosh avlodni istiqloqla tayyorladilar, she'r va maqolalar, sahna asarlari orqali milliy ongni shakllantirishga, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini singdirishga urindilar.

XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidlik harakatlarining tepasida Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, So'fizoda, Xamza, Sadridin Ayniy, Tavallo singari xalqimizning o'nlab fidoiy farzandlari, shoiru adiblari, davlat va siyosat arboblari turgan edilar.

Turkiston jadidlarining otasi **Mahmudxo'ja Behbudiy** (1878-1919) Turkiston yoshlarini ilm ma'rifatli qilish to'g'risidagi g'oyalarni targ'ib qilganda, u ikki toifadagi ma'lumotli kishilarni tayyorlashni nazarda tutadi: bir toifadagilar – diniy ma'lumotli kishilar bo'lib, ular millatning diniy murabbiylari sifatida islomning sofligini muhofaza qilishlari zarurligini, ikkinchi toifadagilar esa dunyovny bilim egalari bo'lib, ular ijtimoiy hayotda musulmonlar manfaatlarini himoya qilishlari kerakligi to'g'risida shunday deb yozadi: «Bularning (ya'ni o'sha joylarda o'qib kelganlarning – mualliflar ta'kidi), – Misrdan kelgani olimi dunyovi zamona bo'lib, din va millatimizni dunyo va oxiratda obod bo'lishimizga sabab bo'ladilar. Peterburgdagi

¹⁸ Qarang: Ma'naviyat yulduzlari. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. –T.: 1999, 321-bet

tibbiyot, huquqiya, hikmiya, olimiya va adliya maktablarida o'qiganlarimiz tabib, muallim, ahli huquq va hokim bo'lib, davlat ishlariga va hukumat mansablariga aralashib, sizga naf yetkurar. Bu ilmlardan o'qib, yuqorida bayon bo'lgan podsholik mansablariga kirib, din va millat, vatan va davlatga xizmat qilmoqni shariat aslo man qilmaydi». ¹⁹ Behbudiyning bu qarashlari, ayniqsa «Padarkush» "Otasini o'ldiruvchi" pesasidagi ziyolining savodsiz boyga o'g'lini diniy va dunyoviy ilmlardan xabardor qilish borasidagi quyidagi nasihatlarida ochiq-oydin ko'rinadi:

«Biz musulmonlarg'a, alalxusus, bu zamonda ikki sinf ulamo kerakdir: biri ilmi diniy, digari olimi zamoniyy, olimi diniy; imon, xatib, mudarris, muallim, qozi, mufti bo'lib, (ular) xaloyiqni diniy va axloqiy va ruhoniyy ishlarini boshqarar.

Olimi zamoniyy bo'lmoq uchun bolalarni avvaldan musulmoncha xat va savodini chiqarib, zarurati diniya va millatimiz tilini bildirgan so'ngra, hukumatimizni nizomli maktablariga bermoq kerakdir, ya'ni gimnaziya va shahar maktablarini o'qib tamom qilganlaridan so'ng Peterburg, Moskva dorilfununlariga yuborib, doktorlik, zakonchilik, injenerlik, sudyalik, ilmi sanoat, ilmi iqtisod, ilmi hikmat, muallimlik va boshqa ilmlarni o'qitmoq lozimdir.

Rusiya vataniga va davlatini bilfe'l (amalda) sherik bo'lmoq kerakdir va davlat mansablariga kirmoq lozim. Toki maishat va ehtiyoj zamoniyasi to'g'risida vatan va millati islomga xizmat qilinsa va ham davlati Rusiyaga sherik bo'linsa, hattoki shu tariqa Farangiston (Fransiya), Amerika va Istanbul dorilfununlariga tajriba uchun yubormoq kerakdir. Hazrat payg'ambarimiz: ilm Xitoyga ham bo'lsa talab qilingiz, demadularmu? (Boy uyquda) Bu ishlar bo'lmas, magar pul ila va sizdek katta boylarni himoyatisiz. Chunonchi Kavkaz, Orenburg va Qozon musulmonlarini boy va ahli g'ayrati ilm yo'liga ko'p pul sarf etarlar va kambag'al bolalarini o'qitdirarlar. (Boyga qarab:) Albatta, so'zlarimga tushungansiz, janobi boy! Boy bobo!» ²⁰

Umuman, Behbudiyning "Padarkush" dramatik asarining asosini ma'rifatparfarlik g'oyasi tashkil etadi. Chunki Behbudiyy xalq ta'limi, yoshlar va kattalar o'rtasidagi munosabatlarni o'ziga xos yo'l bilan badiiyy ifoda etgan. Mazkur asarda ota-onalar bilan bolalar o'rtasidagi

¹⁹ Qosimov B. Mahmudxo'ja Behbudiyy. Tanlangan asarlar. -T.: "Ma'naviyat". 1997, 5-6-betlar.

²⁰ Mahmudxo'ja Behbudiyy. Padarkush «Sharq yulduzi» jurnali, 1989, 7-soni, 112-bet.

g'oyat jiddiy, nozik, qaltis munosabatlar ta'lim-tarbiyadagi bosh masala tarzida talqin etiladi.

Behbudiyning "Padarkush" asari Turkiston xalqlarining qalbini muttasil hayajonlantirib kelayotgan muammolarga bag'ishlanganligi va milliy o'ziga xos eng muhim xususiyatlarini o'z ichiga olganligi bilan jamoatchilik e'tiborini tortadi. Bunda oila tarbiyasida ota-onalarning o'rni haqida gap boradi. Behbudiyning pedagogik qarashlarida, maktab tarbiyasi bilan oila tarbiyasi uzviy birgalikda olib borilishi lozim, aks holda fojialar ruy beradi, degan g'oyani oldinga suradi. Maktab har qancha to'g'ri yo'l qo'rsatsa-yu, ota-onalar bolasini boshqa tomonga tortadigan bo'lsa, bola tarbiyasi tamoman izdan chiqadi, degan fikr-mulohazalar asardagi obrazlar faoliyatida ifoda etiladi.

"Padarkush" asaridagi voqea Boy bilan uning o'g'li Toshmurod (ota-bola) o'rtasidagi oddiy bir muloqotdan boshlanadi. Toshmurod: "Tomoshaga boraman, pul bering!" – deb otasi huzuriga kiradi. Boy o'g'liga pul beraturib, barvaqtroq kelishini aytib, kimlar bilan borayotganini so'raydi va "yomon joylarga" bormasligini ham ta'kidlab qo'yadi. Toshmurod otasidan va oldida o'tirgan "yangi fikrli domladan ham uyalmay – netmay: - "Xayr, xov ko'p gapurasiz-da" – deb otasini siltab chiqib ketadi. Toshmurodning otaga qilgan bunday odobsizligi Domla ta'bini xira qilib yuboradi. Domla Toshmurodning bu noo'rin xatti-harakatini ilmsizlik, ma'rifatsizlik oqibati deb biladi.

Behbudiy o'z davridagi bolalarning ta'lim-tarbiyasi masalasi o'ylantiradi. U yomon tarbiyali bola butun oilani halokatga olib kelishini, bunga, avvalo, ota-onalarning o'zlari sabab bo'layotganini aytadi. Toshmurodning odobsiz bo'lib o'sishiga Boyning o'zi sababchi: uning odobsizligi, maqtanchoqligi, o'jarligi, mol-dunyoga o'chligi o'g'lini ham shu ko'ygga soladi. Toshmurod o'n olti yoshga kirgan bo'lsa ham eski maktabga ham, yangi maktabga ham bormaydi, takasaltanglik, buzuqilik va maishat bilan kun kechiradi. Asarning ichiga chuqurroq kira borgan sari, bolaning otaga, otaning bolaga o'zaro juda mos, bir-biriga juda mutanosib, bir olamning ikki pallasiday o'xshash ekanini idrok etamiz.

"Padarkush" asarida biz ta'lim-tarbiyaning bosh maskani oila, ota-ona ekani haqida g'oyat muhim fikr borlig'ini sezamiz. Behbudiy bu asarda o'z g'oyalarini, ya'nita'lim-tarbiyaning buzilib ketishiga oilaning o'zi sabab bo'layotganini tomoshabin qalbiga chuqur

singdirishga intiladi. Behbudiy aslida Turkiston halqining hammasini boy va badavlat qilish yo'llarini o'ylaydi. Ammo ommaviy farovonlikka erishmoq uchun ilm-ma'rifat va ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish zarurligini tushunadi, fuqarolarning ma'naviy dunyosini boyitmay turib, moddiy boyligini oshirib bo'lmasligini tushunadi.

Buni biz Domla obrazida ko'ramiz Domla kuyib-pishib o'g'lini o'qishga berishga da'vat etsa-da, Boyga uning so'zlari ta'sir etmaydi, aksincha, Domlaning so'zini kesib, haqorat qilib, uyidan chiqarib yuboradi. Boy o'z davlatiga mahliyo bo'lib, odob-ahloq, ta'lim-tarbiya, jamiyat, fuqaro taqdiri, vatan, millat kelajagi to'g'risidagi tushunchalardan yiroq yuradi. "Ey Domla – deydi nihoyat g'azablanib Boy – Siz menga tahqiqchimi? O'g'il meniki, sizga nima? O'qiganni biri siz, yemoqqa noningiz yo'q, bu holingiz ila menga nasihat qilursiz. Xayrullah mehmonxonani qulfla, uyqum keldi...". Bu satrlarda Boyning maktab-ma'rifat, ta'lim-tarbiya ishlariga tamoman yot bir unsur ekanligi ifodalangan. O'zida tarbiya bo'lmagan kimsa, birovga tarbiya berolmaydi, shuning uchun bolalar bilan birga, ularning ota-onalarini ham tarbiyalash zamonaning eng katta muammosi sifatida kun tartibiga qo'yiladi. Bu jihatdan asardagi Domla obrazi ham muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Domla Boydan nihoyatda ranjib, oxiri uning huzuridan ketayotganida yoshlar tarbiyasiga oid fikrlarini shunday izhor etadi: "O'qimoq va mullo bo'lmoq uchun pul kerak, badavlatlarimiz xoli bul, bas, bu ketish ila navzambilloh dunyo va oxiratda rasvo bo'lurmiz, o'qimoq barcha musulmonga, erkak va xotin bo'lsin farz edi. U qayda qoldi? Oh, voy, bizni holimizga.... Boy, men sizga amri ma'ruf etdim va menga shariat bo'yicha lozim bo'lgan ishni bo'ynimdan soqit qildim. Insholloh, mo'ylab chiqarib alifni tayoq demay turgan o'g'lingiz xoyo holatini ko'rarmiz va ham o'qitmaganingiz uchun gunohkor bo'lursiz".²¹ Domlaning qanchalik haq ekanligi asar xotimasida Toshmurod va Boy hayotining fojiali yakunida ko'rsatilgan.

Behbudiy Turkiston aholisi orasidagi kaltabin, o'jar. o'zbilarmonlarni g'aflat uyqusidan uyg'otishga, ularni yangi zamon taqozosi bilan yetuk shaxslar darajasiga ko'tarishga butun qobiliyatini sarflaydi. Zotan u millatni halokatdan saqlab qolish, qaramlikdan qutqarishning yagona yo'li shu deb biladi. Boy singari kattalarda

²¹ Mahmudxo'ja Behbudiy. Padarkush "Sharq yulduzi" jurnali, 1989 yil 7-son. 113-115-bet.

ko'ringan nuqsonlar ularning bolalariga ham yuqub borayotgani Behbudiy va butun jadidlarni tashvishga soladi. Bu jihatdan "Padarkush" dramasi Ziyoli obrazi va uning faoliyati, ayniqsa, katta ahamiyat kasb etadi. Ziyoli Domlaga nisbatan ilg'or mulohazalarni bayon qiladi. Ziyoli yevropacha ta'lim olgan, uning tashqi qiyofasi, kiyim-kechaklari, gap-so'zlari ham yangicha, zamonaviy ruhni ko'rsatib turadi. U Domlani fikr-mulohazalarini yanada kengroq ko'lamda davom ettiradi. Shariatda ta'kidlangan ilm-ma'rifatga oid aqidalarni ham hozirgi dunyo miqyosida rivojlanib borayotgan aniq fanlar, madaniy taraqqiyot haqidagi ma'lumotlarni ham ancha chuqur bayon qilishga intiladi. U bildirgan mulohazalar ham Boyga ta'sir ko'rsatmaydi. Ziyoli o'z mulohazalarida Turkistonda milliy maktablarni rivojlantirish, shunga yarasha o'qimishli fuqarolarni ko'paytirish uchun, avvalo, bolalarni ilm-ma'rifatli qilib tarbiyalash lozimligini tushuntiradi.

Ziyoli mulohazalarida Behbudiy va butun jadidchilik oqimining yoshlar tarbiyasiga oid, ilm-ma'rifat, ta'lim maktab-maorif haqidagi qarashlari to'liq ifodalangan. Binobarin, unda fuqaroni g'aflat uyqusidan uyg'onishga da'vat o'z ifodasini topgan. Uning so'zlaridagi yoshlarni dastlab milliy maktabda xat-savodini chiqarish, ularga diniy ilmlarni o'rgatish, o'z milliy urf-odatlarimizni singdirish, undan keyin Fransiya, Amerika, Istanbul singari rivojlangan mamlakatlarining oliy o'quv yurtlariga yuborib o'qitish, fan-texnika, iqtisod, huquqshunoslik singari muhim siyosiy ilmlarni egallashga erishish masalalariga oid fikrlar hamon e'tiborni jalb etadi.

"Padarkush" asarida mustamlakachilik siyosati tufayli mahalliy aholi va ayniqsa, yoshlar o'rtasida ichkilikbozlik, maishiy buzg'unchalik tarqala boshlagani ham ko'rsatiladi. Liza singari rus ayollari mahalliy millatga mansub yoshlarni ko'plab ergashtira boshlagan, bunday buzilishlar yoshlar tarbiyasini izdan chiqarib, ularni halokatga surgab borayotgani Behbudiy singari tarbiyachilarni tashvishga soladi. Bir to'lda yoshlar – Tangriqul, Davlat, Nor va shular bilan birga Boyning o'g'li Toshmurod pivoxonada ichkilikbozlik qilib o'tirishadi. Qadah ko'tarib, og'izlaridan "bodi kirib – shodi chiqib" turadi. Mast-alast holda hech kimdan tortinmay, ko'ngillariga kelgan bema'ni, beparda gaplarni aytishadi, "oh, Lizaxon qaydasan!" deb baqirishadi.... Toshmurodni maqtashib, uning salomatligiga ketma-ket ichishadi. Unga yasama muomala qilib, yolg'ondan "Boyvuchcha,

Boyvuchcha!” deyishib, Toshmurodni battar gerdaytirib yuborishadi. Yoshlar tarbiyasining buzilayotgani Lizani qiziqirmaydi. Bolalar Liza talab qilgan pulni topish uchun o‘g‘rilik qilishadi: bezori, ichkilikboz Nor, Davlat, Tangriqullar maslahatlashib, Boyning boyligini o‘g‘irlashga boshchilik qilishni Toshmurodga uqtirishadi. Bu yerda gap shundaki, Behbudiy har bir bola o‘z ota-onasi, oilasiga dushman demoqchi emas, ota-ona bilan bola o‘rtasiga rahna solish maqsadi ham yo‘q. Uning asosiy maqsadi, odamlarda ilmsizlik, o‘qimaslik, savodsizlik orasida kelib chiqadigan johillik va ongsizlik tufayli ro‘y beradigan jinoiy ishlarga qarshi nafrat uyg‘otish, ularni bundan ogohlantirishdir. Boy, agar Ziyoli va Domla so‘zlariga amal qilib, o‘z bolasini qunt bilan o‘qitgan-da, Toshmurod, avvalo, yomon doiraga – Nor, Davlat va Tangriqullarga qo‘shilmas, Lizaga ham duch kelmasdi.

Toshmurod Tangriqulni kechasi o‘z uyiga boshlab keladi. Davlat bilan Nor ko‘chada poyloqchilik qilishadi. Uylarning eshigini ochib, otasi yotgan xonaga kirib, uning boyliklari, pullari solingan sandiqni ochib, hammasini olishadi. Otasi uyg‘onib qolganini ko‘rgan Toshmurod to‘pponchadan tepaga qarab o‘q uzadiki, uy egalari qiy-chuv bo‘lib qolishadi, qo‘ni-qo‘shnilar ham yugurishadi... shu orada Tangriqul Boyga pichoq urib o‘ldiradi, Toshmurod bilan birga uyan qochib chiqishadi, yana Davlat, Nor hammasi birgalashib, maishatni davom ettirishadi. Liza ham bularga qo‘shilib o‘tiradi. Toshmurod ham go‘yo hech narsa bo‘lmaganday, yana kayf-safoda... Ulfatlar yanada ko‘proq ichishadi, endi Lizaning salomatligiga – “ura-ura” deb qadah ko‘tarishadi. Ayni shu paytda tashqaridan shov-shuv eshitilib, mirshablar bostirib kelishadi. Liza qochib qoladi. Toshmurod, Davlat, Tangriqul va Nor qo‘lga olinib, qamaladilar”. (“Padarkush”, 153-154-betlar).

Asarda Ziyoli bunday fojiadan qutilish yo‘llari haqida o‘z mulohazalarini shunday bayon etadi: “Ilm va tarbiyasiz bolalarni oqibati shuldir. Agarda bularni otasi o‘qitsa edi, bu jinoyat va padarkushliklardan sodir bo‘lmas va bular ichkilikni bo‘yla ichmasdi, xun begayri haqqin qilmas edi. Umri boricha Sibirga va qiyomatga jahannamga qolmas edi”. (“Padarkush”, 153-154-betlar).

Behbudiy ta‘lim-tarbiyasi buzilgan bolalar tufayli hayotda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan fojialar dahshatini iloji boricha kishilar qalbiga chuqurroq ta‘sir ettirish niyatida Boy boyligining talon-taroj bo‘lishiga, o‘ldirilishiga o‘z bolasi boshchilik qilganligini tasvirlaydi.

Sodir bo'lgan jinoyatning ikki dunyodagi oqibotlarini ham izohlab o'tadi. Hayoti Sibirda chirisa, oxirati do'zaxga mahkumligini ochiq aytadi.

Ziyolining keyingi so'zlarida Behbudiy mustamlakachilar keltirgan va keltirayotgan salbiy ta'sirlardan qutilish uchun ham aholi saviyasini ko'tarish, o'zligini anglashga o'rgatish lozimligini uqtiradi: "Bizlarni – deydi u, – xonavayron, bachagiryon va bewatan va bandi qilg'on tarbiyasizlik va jaholatdir; bewatanlik, darbadarlik, asorat, faqir va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir... Modomiki, bizlar tarbiyasiz bolalarimizni o'qitmaymiz, bu tariqa yomon hodisalar va badbaxtliklar oramizda doimo hukmron bo'lsa kerak. Bu ishlarni yo'q bo'lmog'iga o'qimoq va o'qitmoqdan boshqa iloj yo'qdur. Alloh tao-lo boshqalarga hajmi ibrat va sizlarga sabr bergay" ("Padarkush", 155-bet).

Oxirgi jumalardagi "o'qimoq" va "o'qitmoq" so'zlariga e'tibor berilsa, ta'lim-tarbiya ishlari faqat yoshlar o'rtasida emas, shu bilan birga, kattalar (ota-onalar) o'rtasida ham olib borilishi lozimligi ta'kidlanadi.

Behbudiy yoshlar ta'lim-tarbiyasi haqida nima ish qilgan, qanday faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, hammasini, asosan, turkiy xalqlarning kelajagini porloq, o'zlarini mustaqil, vatanni obod, el-yurtni qaramlikdan ozod etish uchun qilgan. Turkistondagi barcha ota-onalarni ham, ularning farzandlarini ham shu ruhda tarbiyalashni ko'zda tutgan.

Behbudiy chor Rossiyasiga qaramlikdan qutulmoq, mustaqillikka erishmoq uchun savodxon bo'lmoq darkorligini alohida ta'kidlar, buning uchun ma'rifat o'choqlari bo'lmish yangi usul maktablarini ko'paytirish, maktab va madrasalarda esa diniy bilimlar bilan birga tabiiy fanlarni ham xuddi Ovro'pa mamlakatlaridagi saviyada o'qitish g'oyasini targ'ib qiladi: «...Yahudiy, armani va boshqa ajnabiylarga poymol bo'lishimiz yillarning o'tishi bilan lozim keluvchi bir amri tabiiydir. Zamonamizning ilm va fanidan, ilmi dinimiz ila birga o'qib o'zimizni din va millatimizni hifz etmak kerak va illo Ovro'pa ashyoniy nafisasi kasabalarimizni va Ovro'pa siyosiylari vujudimizni bo'lib yuboradilar...

...Ilmi diniy ila barcha ilmi zamoniyy - ilmiy dunyoviy tahsil qilmaslik munkariz bo'larmiz...»²².

²² "Taraqqiy" gazetasi, 1906, 7-son.

Behbudiy o'zining mana shu fikrlarini amalga oshirish borasidagi ko'p qirrali va sermahsul faoliyati davomida ma'rifatparvarlik va taraqqiyparvarlik: g'oyalarini keng tashviq etibgina qolmasdan, balki Jomboy qishlog'ida o'qituvchilik qilib yurgan Abduqodir Shakuriyni yollab, maktab uchun o'z hovlisining tashqarisini beradi, bolalar esa tekinga o'qitiladi. U katta o'g'li Ma'sud bilan qizi Parvinni ham Shakuriy maktabiga o'qishga beradi. Behbudiy o'z uyida ochilgan "*usuli jadid*" maktabining butun moddiy xarajatlarini o'z gardaniga oladi «Padarkush»ning sahnaga qo'ilishidan kelgan asosiy daromadni Samarqand, Qo'qon, Namangan, Toshkent, Kattaqo'rg'on va boshqa shaharlardagi "*usuli jadid*" maktablariga hadya qildi, bu maktablar uchun o'zi «Muntaxabi jo'g'rofiya umumiy» («Qisqacha umumiy jo'g'rofiya»), «Madxali jo'xrofiya umro-qiy» («Ahli jo'g'rofiyasiga kirish»), «Muxtasari jo'g'rofiyai Rusiy» («Rusiyaning qisqacha jo'g'rofiyasi»), «Kitobul aftol» («Bolalar maktubi»), «Muxtasari tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), «Amaliyati islom» va «Yangi hisob» darsliklarini yaratdi va o'z mablag'iga matbaa ochib, maktab uchun darslik va qo'llanmalarini tekinga bosib tarqatadi. Samarqanddagi birinchi musulmon kutubxonasi va qiroatxonaning asosiy mablag'i ham uning hisobidan chiqqan edi.

Xullas, Mahmudxo'ja Behbudiy butun ongli faoliyati davomida faqat xalq manfaatlarini himoya qildi, xalqni baxtiyor etish, farzandlarini esa savodxon qilish uchun kurashdi. 1914 -yilda yozilgan «Yoshlarga murojaat» maqolasida: "...islomiyat shunday bir dini metin va qobili taraqqiydurki, naqadar ilmi zamoniy ko'p o'qulsa, insonning dini islomg'a shuncha aqidasi mahkam bo'lur... hatto lozim bo'lganda mulkingizni sotsangizda, o'g'lingizning zamoncha o'qumog'a sa'y qilingiz²³ deb ta'kidlaydi.

Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li (1878-1931) ham «usuli savtiya» maktabiga ixlos bilan qarab, chor hukumati Turkiston o'lkasidagi aholini qanday ma'naviy-madaniy uzlatda saqlayotganini va undan qutulish choralari faqat maktab ta'lim-tarbiyasidagi keskin islohotga bog'liqligini to'g'ri tushungan holda chor hukumatining mustamlakachilik boshqaruv usuliga qarshi kurashda faollik ko'rsatdi: mana shu maqsad yo'lida Toshkentda ilg'or fikrli ziyolilar va turli guruhlardan iborat «Turon» jadidlar jamiyatini tashkil etdi. Uzi

²³ Salih Qosimov. Behbudiy va jadidchilik «Uzbskiston adabietini va san'atini», 1990 yil, 19 yanvar.

ta'kidlaganidek: «Chor hukumatini yo'qotish jadidlarning tilagida bor edi. Siyosiy vazifamiz va maqsadimiz ham shundan iborat bo'lishi yashirin emas»²⁴.

Munavvar qori Turkiston o'lkasining iqtisodiy va madaniy taraqqiyot yo'liga kirishida, musulmon bolalariga dunyoviy bilimlar berishning birdan-bir yo'li eng avvalo mavjud eski maktab va madrasalarni isloh qilish, yangi maorif tarmoqlarini yaratishda deb tushungan holda, rus-tuzem maktablariga qarshi yangi usuldagi maktablarni ochishga ahd qiladi. U xalq orasidagi buyumparast, savdoni taraqqiy ettirmay, hunarmandchilikni rivojlantirish to'g'risida jiddiy qayg'urmay, sudxo'rlik orqali boyigan kishilarning loqaydligi, murosasozligi oqibatida yuzaga kelgan milliy porakandalikni tagtomiri bilan qo'porib tashlash uchun maorifni mutlaqo yangidan tashkil etish zarurligini anglagan holda ishga qat'iy kirishadi. Shu bois, u 1901-1904 yillarda qrimlik do'sti Rasim Kishod yordamida Toshkentda «usuli savtiya» yoki yangi usuldagi jadid maktabini ochadi. U maktabni avval o'z hovlisida, keyin boshqa joylarda ochishga harakat qiladi. Bu ishda unga tog'asining o'g'illari Hasanxo'ja va Eshonxo'ja Xoniy yaqindan yordam berishadi. Bu haqda yozuvchi Mo'minjon Muhammadjonov «Turmush urinishlari» kitobida quyidagicha hikoya qiladi: «...shayx Xovand Tahur dahalik Mirdadaxo'jaboyning mehmonxonasida maktab ochib, bir-ikki yildan berib Abdusami qori degan bir kishi bilan bola o'qitib turmoqda bo'lg'onin aytdilar... Bolalarning o'qishlarini sinf-sinflarida yurib ko'rib chiqdim. Hozirda to'rt sinf boshlang'ich (ibtidoiy) maktab bo'lib, yaxshigina tartiblik: parta qora taxtalar, yer yuzi bo'laklarining (qit'alarining) qisqacha ham butun xaritalari bor ekan.

...Bu yangi tartiblik maktablarning Toshkent shahrida joriy bo'lib ketishiga birinchi sabab Munavvar qori bo'lib, barchasining prog'romini shul tuzib bergan»²⁵.

Munavvar qori... qadimchilar tomonidan «*kufur uyasi*» deb atalgan yangi usul maktabiga ilm-ma'rifag o'chog'i, yangi ma'naviyat, ma'naviyat maskani chor mustamlakachilari zulmi ostida milliy g'ururi, qadr-qimmatini yerga urilgan xalqni milliy mustaqillik uchun kurashga hozirlaydigan targ'ibotxona sifatida qaradi. U maktabni islohot qilmay turib, odamlarning ongida o'zgarish yasab bo'lmasligini yaxshi tushunib yetgan edi. Munavvar qori ochgan

²⁴ «Qizil O'zbekiston» gazetasi. 1927 yil, 7 iyun.

²⁵ Sirojiddin Ahmad Munavvar qori «Sharq yulduzi», 1992 yil, 5-soni.

yangi usul «Namuna» maktabida bir necha yuz bola o'qigan. Bu maktabda tayyorgarligi ancha jiddiy bo'lgan iste'dodli yoshlar o'qituvchilik qilishgan. Munavvar qorining o'zi esa jadid maktablari uchun yangi tovush («usuli savtiya») usulida darsliklar – «Adibi avval» «Birinci adib» (1907) alifbosi va «Adibi soniy» «Ikkinchi adib», 1907), «Er yuzi» («Jug'rofiya»), «Havoyijon diniya» (1907) kitoblarini yozib chop ettirgan. Bular o'lkadagi jadid maktablari uchun asosiy darslik sifatida bir necha bor qayta nashr etildi.

Munavvar qori o'z fikrdoshlari Ubaydulla Xo'jaev, Abdulla Avloniy, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Karim Norbekov va boshqalar bilan hamkorlikda 1909 -yilda toshkentlik bir boyning raisligida «Jamiyati hayriya» tashkil etadi. Bu haqda u «Toshkentdagi musulmon jamiyati» maqolasida quyidagicha yozadi: «Yoshlarning sovuqqonlik va sabrliklari bu sana yaxshi natijalar berdi. Boylarning o'zlari ittifoq bo'lib, o'z oralaridan faqat bir kishini rais va bir mashvarat a'zosi verib, boshqa a'zolarning barchasin yoshlardan saylatdilar...

Bu ittifoqning natijasi o'lsa kerak. Toshkent jamiyati bu yil butunlay boshqa tushga kirdi. Uyqudan u uyg'onib, ko'zlarini uqalab, atrofga nazar sola boshladi. Qonunda zikr etilgan moddalardan birin-кетин foydalanmoqqa shuru' qildi, boshlab bir necha yildan beri qaror berilubda ochiltov yotgan «Dorul ojizin»ni rasman ochib, bir necha miskin va ojizlarni tarbiyaga oldi. Bir necha maktab va madrasalarga yuz so'm va ikki yuz so'mlar ionalar berdi. Bir iecha beva va bechoralarga oylik ionalar bermoqda va oltmish qadar faqir va qashshoq bolalarni turli maktablarda o'qitib, tarbiya qilib turmoqdalar.

Jamiyatning yangi a'zolari... pul topmoqqa ham yangi yo'llar izladi, boshlab «Gramofon obshestvo» sila so'ylashib, har bir plastinkadan o'n tiyin olmoq shartila bir necha hofizlarni o'z tarbiyasidagi maktab shogirdlarining tovushini sotdi, bundan faqat shu yil ichidagina loaqal ikki ming so'm kirs kerakdir»²⁶.

Xullas, Munavvar qori va safdoshlari bu jamiyat orqali qashshoq va kasalmand kishilar, o'quvchilarga yordam ko'rsatish bilan cheklanmaydi, Rusiya va Turkiyadagi oliy o'quv yurtlariga talabalar yuborish bilan ham shug'ullanganlar. U millat bolalarini savodxon qilishdek bunday savob ishga faqat «Turon» jamiyati a'zolarini jalb etibgina qolmasdan, balki mahalliy boylarning ham boshini

26 Sirojiddin Ahmad. Munavvar qori. «Sharq yulduzi», 1992 yil, 5- soni.

qovushtirib, ularning e'tiborini bu xayrli ishga tortadi. Bu haqda jamiyatning faol a'zosi, keksa san'atkor Abdurahmon Akbarov shunday deb yozadi: «Jamiyatimizdagi jadidlarning bosh rahbari bo'lgan Munavvar qori bir kuni jamiyatimizning majlisiga kelib: «Ziyoli yoshlardan bir nechtasini Germaniyaga yuborib o'qitish kerak», deb uzoq nutq so'zladı. SHundan keyin jamiyatning rahbarlaridan 7-8 kishi Orifxo'jaboyning yangi shahardagi hovlisida shu haqda birinchi marta majlis o'tkazadilar. Ammo «Toshkent bayonlarining ko'pchiligi bo'lishi maslahatliroq bo'ldi» deb ikkinchi kattaroq yig'in majlisini shayx Xovand Tahurlik Kattaxo'ja Xo'jaevning uyida o'tkazishga qaror qildilar.

...1916 -yil oxirlari edi. Oradan chamasi 15 kunlar keyin Kattaxo'ja Xo'jaevning uyida ikkinchi marta katta yig'in bo'ldi. Bu majlisga Toshkentning eng mashhur boyonlari yig'ildilar. Jumladan, Orifxo'jaboy, Saidkarimboy, Komiljonboy choyfurush, Asil oqsoqol, Boqijonboy va boshqalar.

Bu yerga to'planganlarning soni 50-60 ga yetardi. Buni tashkil qilishda ko'proq tashabbus ko'rsatgan Munavvar qori bilan Ilhom samovarchi va Murodxo'ja Solixo'ja o'g'illari edi. Hamma yig'ilib bo'lgandan keyin majlis ochilib, birinchi bo'lib Munavvar qori so'zga chiqdi.

O'zbek xalqini ma'rifatli qilishga intilgan Munavvar qori 1918 -yil may oyida Toshkent shahrida «Turk o'chog'i» ilmiy-madaniy jamiyatini tuzadi. Ushbu jamiyat Turkiston turklarini milliy tug'ostiga to'plab, ularga milliy ruh, milliy g'oya va milliy tarbiya berish, milliy urf-odatlar asosida ilm-ma'rifatli, tijorat, adabiyot va san'atni rivojlantirib, chin bir turk madaniyatini vujudga keltirishni va shu tariqa millatimizning ruhiy va jismoniy quvvatini orttirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Munavvar qori ana shu g'oya asosida astoydil ish olib boradi.

Ma'lumki, 1918 -yil boshida Toshkentda ovro'palik aholi uchun so'l eser, Turkiston xalq maorif komissari K.Uspenskiy tashabbusi bilan xalq dorilfununi tashkil etiladi. O'lka Sovetlarining IV qurultoyida (1918 -yil yanvar) janob Uspenskiy: «O'rtoq musulmonlar! Shuni bilingizki, biz sizlarning katta og'angizimiz. Siz kichiksiz. Tushunarlikmi, bizga bo'ysunishingiz kerak», deya shovinistik mahoratini namoyish qiladi²⁷. Ammo bu janob tatar va

²⁷ Sirojiddin Ahmad Munavvar qori, «Sharq, yulduzi», 1992 yil, 5- soni

o'zbeklar uchun milliy dorilfunun ochishga jon kuydirmaydi. Bunga javoban 1918 -yil 9- aprelda Munavvar qori uyida to'plangan jadidlar Turkiston Xalq dorilfununining musulmon bo'limini tashkil etish maqsadida 9 kishidan iborat tashkilot komissiyasini tuzadi. Komissiyaga Munavvar qori (rais), Burxon Habib, Iso To'xtaboev, Sodiq Abdusattorov, Murodbek, Murodxo'ja, Muxtor Bakir, Ablusami qori Ziyoboev va boshqalar kirgan edi. Ular 22 kun ichida musulmon bo'limi dasturlarini tuzadilar. Dorilfununning musulmon bo'limi hamda o'rus bo'limi kabi uch bosqichdan iborat bo'lishi belgilanadi.

Shu yilning 3 -mayida dorilfununning Musulmon bo'limi rahbariyatiga saylov bo'lib, unda Munavvar qori rais (rektor), Iso Tuxtaboyev birinchi muovin, Burxon Habib ikkinchi muovin, Abdusami qori Ziyoboev xazinador, Muxtor Bakir sarkotib bo'lib saylandi. 13-may (yakshanba) kuni Toshkentniig eski shahar qismida Vikula Morozovning sobiq do'koni binosi (hozirgi A.Qodiriy nomidagi madaniyat va istirohat bog'i o'rnida joylashgan sobiq o'zbek "Yosh tomoshabinlar" teatri (binosi)da musulmon aholi uchun «xalq dorilfununi» ochiladi. Bu bo'lim tez orada o'ziga xos yirik bilim maskaniga aylanadi. Dastlab 9 ta boshlang'ich maktab ochish mo'ljallangan bo'lsa-da, aholi ehtiyojiga ko'ra, ularning soni 24 taga yetadi. Dorilfununning musulmon bo'limi 15 demokratik tashkilot vakillari uyushgan 45 kishilik kengash tomonidan boshqariladi. Undagi muallimlar soni 180 nafarga yetadi.

Munavvar qori ovro'pacha usuldagi bunday xalq dorilfununi tashkil etish bilan bir qatorda, mavjud madrasalarni isloh qilish va ularda asosan dunyoviy fanlar o'qitib, milliy ziyolilar tayyorlash g'oyasini ham ilgari suradi. Bu qarashlarini – u 1923-yil iyunda Toshkentda bo'lib o'tgan xalq maorifi mudirlari qurultoyidagi ma'ruzasida bayon etgan, 1923-yilda bu yangi usulda 30 dan ortiq madrasa va eski maktablarda talabalar o'qitilganligi ma'lum.

Zero, Munavvar qori o'z asarlarida targ'ib qilgan tarbiyashunoslikning bunday dolzarb masalalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, albatta.

Abdulla Avloniy (1878-1934)

Taniqli o'zbek pedagogi va olimi Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlari ichida uning 1913 -yilda yozgan va 1917 -yilda ikkinchi bor nashr qilingan "Turkiy guliston yohud axloq" nomli asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'rganish sohasida katta ahamiyatga molikdir. Bu asar mazmun tomonidan muallifning boshqa ijtimoiy va pedagogik asarlari bilan uzviy bog'liqdir.

"Turkiy guliston yohud axloq" asari axloqiy va ta'limiy tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni "yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi" ilm-axloq haqida fikr yuritiladi. Shu jihatdan qaraganda, bu asar Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilik", Kaykovusning "Qobusnoma", Nosir Xusravning "Saodatnoma", Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston", Jomiyning "Bahoriston", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", Ahmad Donishning "Farzandlarga vasiyat", Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai sultoniyy yohud javonmardlik tariqati" asarlari shaklidagi o'ziga xos tarbiyaviy asardir. Shuni ta'kidlash lozimki, XX asr boshlarida bundan milliy g'oya, milliy ruh singdirilgan ta'lim-tarbiyaviy asarni yaratish, ishlarning tatbiq etilishi pedagogika olamidagi yirik kashfiyotdir.

Abdulla Avloniy pedagog sifatida bola tarbiyasining roli haqida fikr yuritib, "Agar bir kishi yoshligidan nafs buzilib, tarbiyasiz, axloqsiz bo'lib o'sdimi, ollohu akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq, yerdan turib yulduzlarga qo'l uzatmoq kabidur", - deydi. Uning fikricha, bolalarda axloqiy hislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofdagi kishilar katta ahamiyatga ega.

"O'zbek pedagogikasi tarixida A.Avloniyning birinchi marta pedagogikaga "Pedagogika", ya'ni bola tarbiyasining fani demakdir", deb ta'rif berdi. Tabiiy, bunday ta'rif Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilganligidan dalolat beradi.

Abdulla Avloniyning ko'plab xorijiy tillarni bilishi, arab, fors, rus, ozarboyjon tillarini mukammal egallashi, Sharq xalqlari ilmiy merosini chuqur o'rganganligi "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobini yaratishda, o'zbek va tojik adabiyoti klassiklarining asarlaridan ijodiy foydalanish imkonini berdi. U mazkur asarni yozishda xalq pedagogikasidan o'rinni foydalanib, asarni 64 bobdan iborat tarzda

bayon etdi. Har bir bob o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ta'lim-tarbiya masalalarini yoritishda biri ikkinchisini uzviy to'ldiradi va takomillashtiradi. Buni biz asarning asosiy g'oyasi, yo'nalishlari, tarbiya turlari haqida bayon etgan fikr-mulohazalarida ko'ramiz.

Asardagi asosiy g'oya. Darhaqiqat, Abdulla Avloniy tarbiyadagi asosiy g'oya, bu bizlar uchun: "Yo hayot, yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" deya mushohada qilishi, uning tarbiya sohasida juda katta va keng bilimga ega ekanligi, komil insonni tarbiyalashda ta'lim-tarbiyaning har bir yo'nalishiga e'tibor shakllantirishda tarbiya katta rol o'ynashini, mohirona ifodalay bilishi, tahsinga loyiqdir.

Bu g'oya o'z navbatida, yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat, insonparvarlik, odamiylik, olijanoblik, mehnatsevarlik, iffatli, mehr-oqibatli, intizomli, adolatparvar, millat g'ururini e'zozlovchi, ulug' ajdodlarimiz an'analari va ilmiy meroslarini ko'z-qorachig'iday asrash, axloqiy pok inson bo'lib yetishish borasidagi asosiy mezon hisoblanadi.

Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari o'tgan asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir.

Chunki ta'lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi.

"Ko'rib turganimizdek, bularning barchasi bir-biri bilan zanjir kabi chambarchas bog'liq masalalardir" – deya ilgari surgan fikr va mulohazalari Abdulla Avloniy ijodiga berilgan katta bahodir. (Barkamol avlod orzusi. T. "Sharq", 1999 y.39-40 betlar).


Tarbiya xususiy ish emas, milliy ijtimoiy ishdur. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq, shu bois A.Avloniy bola tarbiyasiga katta e'tibor bilan qarab, o'zbek ziyolilar orasida birinchi bo'lib, ta'lim-tarbiya haqidagi ta'limotni, tarbiya yo'nalishlarini ishlab chiqib, hayotga tatbiq etdi. Biz buni quyidagi chizmada ham ko'rishimiz mumkin.

Asosiy g'oya: "Tarbiya bizlar uchun yo hayot yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir".

Demak, Abdulla Avloniy, yuqorida ta'kidlaganimizdek bola tarbiyasini nisbiy ravishda to'rt bo'limga ajratadi:

1. "Tarbiyaning zamoni". 2. "Badan tarbiyasi". 3. "Fikr tarbiyasi". 4. "Axloq tarbiyasi" hamda uning ahamiyati to'g'risida fikr yuritiladi.

U "Tarbiyaning zamoni" bo'limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani: ota-ona, muallim, hukumat, jamoatchilik va boshqalarning kiritishi kerakligini ta'kidlaydi.



2-rasm. Tarbiya yo'nalishlari

Muallif tarbiya zurriyot dunyoga kelgandan boshlanib, umrning oxiriga qadar davom etadi, - deydi. U bir qancha bosqichdan – uy, bog'cha, maktab va jamoatchilik tarbiyasidan tashkil topgan deb, tarbiyaning doirasini keng ma'noda tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo'ymaydi. U birinchi navbatda bolaning sog'lig'i haqida g'amxo'rlik qilish lozimligini uqtiradi.

Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma'rifatga ega bo'lish uchun badanni tarbiya qilish zarur. "Badanning salomat va

quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qumoq, o'qutmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir".

Avloniy badan tarbiyasi masalasida bolani sog'lom qilib o'stirishda ota-onalarga murojaat qilsa, bolani fikr tomonidan tarbiyalashda o'qituvchilarning faoliyatlariga alohida e'tibor beradi.

Bolalarda fikrlash qobiliyatini o'stirish va bu tarbiya bilan muntazam shug'ullanishi benihoya zarur va muqaddas bir vazifa. Binobarin, u muallimlarning "diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur... Negaki fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'liqdur". (A.Avloniy. Ikkinchi kitob, 14-bet).

Ayni zamonda muallif ta'lim va tarbiya uzviy bog'liq ekanini ham ta'kidlaydi: "Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kapidur" -deydi. (o'sha kitob, 15-bet)

Avloniy fikricha, inson butun borliqning ko'rki va sharafidir. Inson o'z go'zalligi va murakkabligi bilan koinotdagi barcha mahluqotlardan afzaldir. Butun mavjudot insonga xizmat qilishi kerak, chunki inson uni sohibidir.

Chunki insonning aqli bor. U shu aql yordamida ilm egallaydi, ilm tufayli dunyoni boshqaradi:

"Aql, - deydi Avloniy, - insonlarning piri komili, murshidi yagonasidur, ruh ishlovchi, aql boshlovchidur. ...insonni hayvonlardan so'z va aql ila ayirmishdur. Lekin inson aql va idroki soyasida o'ziga keladigan zarar va zulmlardan saqlanur. Yer yuzidagi hayvonlarni asir qilib, bo'ynidan bog'lab, iplarining uchini qo'llarga bergan insonlarning aqlidur".

Avloniy insonga va uning aqliga ana shunday yuksak baho beradi. "Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari najotidur. Agar aqlingning qo'li nafsingning jilovini ushlasa, seni yomon yo'llarga kirmoqdan saqlanar, har narsa ko'p bo'lsa, bahosi arzon bo'lur, ammo aql esa ilm va tajriba soyasida qancha ko'paysa, shuncha qimmatbaho bo'lur".

Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobida ilm haqida yana shunday deydi: "Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun g'oyat oliy muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkur qilur... Ilmsiz inson mevasiz daraxt

kabidur". Avloniy ilmni umuman emas, balki uning amaliy va hayotiy foydalarini aytib, "Bizlarni zaholat, qorong'ulikdan qutqarur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkur qilur... Alhosil butun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog'liqdur".

Mutafakkirning obrazli ifodasiga ko'ra, ilm bamisoli bodomning ichidagi mag'iz. Uni qo'lga kiritish uchun mehnat qilish, ya'ni chaqib uni po'chog'idan ajratib olish kerak.

U ilmning jamiyat taraqqiyotidagi rolini yaxshi tushunadi. Shuning uchun ham u, yoshlarni ilm sirlarini bilishga, hodisalar mohiyatini yechishga kitob mutolaa qilishga chaqiradi. Uning fikricha, ilm agar jamiyat manfaatiga xizmat qilmasa, xalq farovonligi yo'lida qo'llanmasa, u o'likdir. Avloniy o'z ilmini amalda qo'llay oladigan kishilarga yuksak baho beradi, ularni dono insonlar, deb ataydi.

Abdulla Avloniy o'z davrida yosh avlodda chin insoniy axloqiy hislatlar tarbiyalashni istadi. U ta'lim va tarbiya, ilm va ma'rifat olish yo'li bilan vatandoshlarining baxtli va saodatli bo'lishini orzu qildi.

Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yohud axloq" kitobining ikkinchi bobi insonning ijobiy xulqlariga bag'ishlanadi. Buni "Yaxshi xulqlar" sarlavhasi ostida bayon etadiki, unda biz insonning kamol topishida muhim rol o'ynaydigan 30 dan ortiq ulardan foydalanish uslublarini mohirona ta'riflaganini bilib olamiz. Avloniyning mahorati shundaki, insonning kamol topishida yaxshi xulq bilan yomon xulqni bir-biriga taqqoslab, yoshlarga ta'lim-tarbiya berish, bolalarda axloqiy fazilatlarining shakllanishida muhim vosita ekanligini hayotiy misollar, hikoyalar asosida ilmiy jihatdan asoslab bera olganligidir.

Darhaqiqat, asarda keltirilgan yigirmadan ziyod sarlavha ostida bayon etilgan, ya'ni g'azab, shahvat, adovat, haqorat, hasad, ta'ma, zulm kabi hislatlardan tiyilish, ularning zararli oqibatlari haqida mushohada yuritish, kishini yomon yo'ldan asrashga, ongli, diyonatli, sahovatli, ma'rifatli inson bo'lib shakllanishiga zamin degan ilgari suriladi.

Zero, Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari hozirgi kunda ham yangi insonni kamol toptirish yo'lida, kishilarni chinakam umuminsoniy tuyg'ular, ezgu-g'oyalar ruhida, vijdoniylik ruhida tarbiyalash borasida qimmatli tarixiy manba sifatida e'tiborni o'ziga jalb qiladi.

Abduqodir Shakuriyning (1875-1943) yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma'rifatparvarlik xizmatlari haqida

Abduqodir Shakuriy Samarqand shahri yaqinidagi Rajabamin qishlog'ida 1901 -yilda yangi usuldagi maktabni tashkil qiladi. Yangi usuldagi bu maktabda arifmetika, tabiatshunoslik kabi dunyoviy fanlar o'qitilardi. Shakuriy o'zi ochgan yangi usuldagi maktabida arab tilining qoidalari va harflarni o'qitishga jiddiy e'tibor bergan holda, o'quvchilarni so'z bo'g'inlari bilan tanishtirar va shu bo'g'inlar asosida bolalar uchun tushunarli sodda so'zlarni tuzardi.

O'qishning birinchi kunidanoq so'z bo'g'inlarini Shakuriy daftarga yozdirar va ularni o'qish, yozishga o'rgatar edi. Keyin esa muallim bo'g'inlarni harflarga ajratar va bu harflardan yangi bo'g'inlar tuzar edi. Shu, tarzda bola besh-olti oy davomida o'qish va yozishga o'rgatildi. Keyin esa Shakuriyning o'zi tuzgan «Rahnamoi savod» («Savod chiqarish rahbari») va uning shogirdi Ismatulla Rahmatullaev tomonidan tovush-harf uslubi asosida tuzilgan «Alifbe ta'limi» darsligi o'qitilardi.

Shakuriy 1907 -yilda bolalarning yosh xususiyatiga muvofiq tarzda axloq, odob va turmush qoidalaridan dastlabki ma'lumot berish maqsadida «Jameul-hikoyat» («Hikoyalar to'plami») nomli ikkinchi kitobini tuzadi. Bu kitob boshlang'ich maktabning II, III sinflari uchun terma kitobdir. Kitobdan 48 ta kichik-kichik odob-axloq mavzusidagi hikoyalar va 15 ta she'riy asarlar o'rin olgan. Uning uchinchi o'qish kitobi «Zub-dat ul ash'or» deb ataladi. Muallifning bu o'qish kitobini tuzishdan asosiy maqsadi o'quvchilarning olgan bilimlarini takomillashtirish va mustahkamlash bilan birga ularda she'riyatni o'rganishga havas uyg'otishga va ularni (o'zbek, tojik, ozarbayjon) klassik adabiyoti namunalari bilan tanishtirishdan iborat edi.

Muallim Shakuriy o'z o'quvchilari uchun yilda bir marta umumiy imtihon uyushtirar edi. Imtihonda u ota-onalar, yangi usul maktabining tarafdorlari hamda dushmanlari – mullalar va boylar oldida olti oy davomida o'z o'quvchilari egallagan bilimning natijalarini namoyish qildirar edi. Maktabda tashkil qilingan bu ommaviy imtihonlar «Umumiy sud» shaklini olar edi. Imtihonga odamlar to'da-to'da bo'lib kelar, qisqa muddat ichida bolalarning xat-savodli bo'lishi, hisob, jo'g'rofiya va tabiiyot fanidan ma'lumotga ega

bo'lganliklarini ko'rib, hamma hayratlanar edi. Natijada, bu maktab tarafdorlari borgan sari ko'paya bordi. Shakuriyning o'zi bu haqda shunday yozadi:

«Bir kuni shaharning ko'zga ko'ringan ulamo, ag'niyo va a'yonlari hamda o'quvchilarning otalarini bolalarning olti oylik o'qishi bo'yicha o'tkazilgan imtihonga da'vat etdim. Bular oldida o'quvchilar maktabda olgan olti oylik bilimlaridan imtihon berdilar. Odamlar bu o'qitish usulining afzalliklarini ko'rib, mendan mamnun bo'ldilar. Imtihondan so'ng odamlarning qalbida maktabga nisbatan muhabbat paydo bo'lib, chehralari ochildi»²⁸.

1909-yilda Hamza Shakuriyning maktabini ko'rish va uning imtihonlarida qatnashish uchun Samarqandga keladi. Bu maktabdagi o'qish-o'qitish uslublari va imtihon natijalari Hamza Hakimzoda Niyoziyda katta taassurot qoldirdi.

Shakuriyning o'qish-o'qitish uslubidagi yangilikning ahamiyati shundaki, birinchidan, u o'sha davrda mavjud bo'lgan eski o'qitish usullari va o'qish kitoblarining hammasini rad qilib, savod chiqarishni yengillatish maqsadida dastlab bo'g'in usuli, keyinchalik tovush-harf uslublarini qo'llaydi. Bu o'qitish uslubining qulayligi natijasida o'quvchilar ko'pi bilan 6 oy ichida savodli bo'lardi. Ikkinchidan, maktabda kichik yoshdagi o'g'il va qiz bolalarni birga o'qitish uslubini joriy qildi. Uchinchidan, bolalarni avvalo o'z ona tilida o'qitishga qat'iy rioya qildi va shu bilan birga bolalarni o'zbek, tojik, arab va rus tillarini ham mukammal o'rganishga da'vat qildi. To'rtinchidan, yangi usul maktablari uchun juda sodda, tushunarli tilda darsliklar tuzib, ularni nashr etdi. Beshinchidan, Shakuriy tomonidan joriy qilingan dastlabki yangilik – Samarqand maktablariga mehnat va musiqa darslarining kiritilishi bo'ldi. U o'z o'quvchilarini qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikka oid ishlar bilan tanishtirishdan tashqari, muqovachilik, duradgorlik va boshqa hunarlarni ham o'rgatar, bu mashg'ulotlar uchun maktab dasturidan alohida soatlar ham ajratgan edi.

Tayanch so'zlar: Chor hukumati, "Chor kitob" madrasa, ma'rifat homiysi, Turkiston, aruz, ilmi qofiya, Buxoro, Xorazm, Qo'qon xonliklari, Quron, shariat.

Komil – kamolotga erishgan. So'fiy – tasavvuf yo'lini tutmoq demakdir. Dorulaytom – yetimlar o'yini. Ibrat – Ishoqxonning o'ziga

²⁸ Qarang: M.Fattaev. Atoqli pedagoglarimiz. T.: «O'qituvchi», 1988, 12- bet.

“Ibrat” tahallusini olishning boisi shundaki, u ijodining dastlabki yillaridan boshlab ma’rifatparvar shoir, olim sifatida nom chiqardi va kishilarni zamon ilmidan, ilg’or madaniyatdan, ta’lim-tarbiya tizimidan o’rnak olishga chaqirdi.

Jadid – arabcha so’z bo’lib, “yangi”, “jadidizm” esa “yangilik tarafdorlari” degan ma’noni bildiradi.

Fitrat – Abduraufning adabiy tahallusi bo’lib, bu so’z “tug’ma tabiat, tug’ma iste’dod” degan ma’noni anglatadi.

Bilimingizni sinab ko’ring:

1. XIX asrning 2-yarmida Turkistonda maktablar tizimi. Chor Rossiyasining ta’lim siyosatining asosiy mazmunini aytib bering.

2. Turkistonda maktablar tizimi. V.P.Nalivkinning ta’lim rivojiga qanday hissa qo’shgan?

3. Turkistonda jadidchilik harakati mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari nimalardan iborat edi?

4. Turkistonda chorizm maktab siyosatining asosiy maqsadi nimalardan iborat edi?

5. A. Shakuriy, Is’hoqxon To’ra Ibrat hayoti va ma’rifatparvarlik g’oyalarning mohiyati nimada edi?

6. Mahmudxo’ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov hayoti va ma’rifatparvarlik faoliyati;

7. Dilshod otinning asarlaridagi olg’a surgan g’oyalari nimalardan iborat edi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbek pedagogikasi tarixi” A.Zunnunovning tahriri ostida. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1997-yil;

2. A.Zunnunov va boshqalar ”Pedagogika tarixi” Toshkent, “Sharq”, 2000-yil;

3. Akademik. M.M.Xayrullayev “Buyuk iste’dod sohiblari” Toshkent, “Adolat” 2002-yil;

4. Xoji Ismatulloh Abdulloh “Markaziy Osiyoda Islom madaniyati” Toshkent, “Sharq”, 2005-yil.

5. Axmedova M.E “Pedagogika nazariyasi va tarixi” Toshkent, “Tafakkur bo’stoni” nashriyoti 2011-yil.

6. Yo’ldoshev O’J. Umumiy pedagogika. Darslik. Toshkent. Fan va texnologiyalar. 2019.

7-Mavzu: 1924-1991 yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogik fikrlar rivoji

Reja:

1. 1924-1945 yillarda O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-mafkuraviy sohalaridagi o'zgarishlar;
2. Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi yillarda O'zbekistonda xalq maorifi va pedagogika
3. XX asrning 70-80-yillarida O'zbekistonda xalq ta'limi
4. Mustaqil O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar.

1924-yilda amalga oshirilgan milliy davlat chegaralanishi natijasida mintaq xaritasi qaytadan tuzildi.

Sobiq Sovet hokimiyati yillarida kommunistik partiya rahbarligida respublikada adolatsiz milliy siyosat amalga oshirildi.

Maktablarda o'quv-tarbiya ishlari mazmuni tuzumning maqsadi asosida o'zgardi. Din va «Qur'oni Karim»ga e'tibor umuman taqiqlandi. Tarix darslarida voqealar buzib talqin etildi. Adabiyot darslariga esa ko'proq rus yozuchilarining asarlari bilan tanishtirishga katta ahamiyat berildi.

Sho'rolar tuzumi davrida kommunistik firqa qarorlari asosida pedagogika fanini shakllantirishda rus pedagoglari asarlaridan umumli foydalanib asarlar yozishga zo'r berildi. Aksariyat hollarda esa rus pedagog olimlari yozgan darsliklardan foydalanildi. Natijada o'zbek pedagogikasi markscha-lenincha nazariya doirasida shakllangan soxta fanga aylanib ketdi. Bu davrda, nafaqat, pedagogika, balki boshqa fanlarning ham rivojlanishi sust kechdi. Masalan, «O'zbekiston tarixi» aslida «SSSR tarixi» darsligining ilovasi edi. «SSSR tarixi» esa Rossiya tarixidan iborat bo'lganligi ma'lum. Xuddi shu kabi o'zbek pedagogikasi ham sovet pedagogikasining tarkibiy qismiga aylandi.

Bolalar va o'smirlarga umumiy ta'lim berishni tezlashtirish hamda kattalar o'rtasida savodsizlikni tugatish harakati boshlandi. 1930 -yil 14 -avgustda sobiq SSR Ittifoqi Markaziy Ijroiya Komiteti va Xalq Komissarlari Soveti tomonidan qaror qabul qilindi. Bu qaror umumiy boshlang'ich ta'limni joriy etish va savodsizlikni qisqartirishga yordam berdi.

30-yillarning oxirlariga kelib, umumiy yetti yillik ta'limni amalga oshirishga kirishildi

Biroq bu borada jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yildi. Jumladan, maktab yoshidagi bolalarning bir qismi o'qishga tortilmadi. Mahalliy millat bolalari orasida o'qishni tashlab ketish ortib bordi. Ko'pgina maktablarda muallimlarning bilim darajasi yetarli bo'lmaganligi tufayli o'qish saviyasi talabga javob bermas edi. Shuningdek, maktablar soni muttasil ortib borayotgan bo'lsada, ularning o'quv moddiy bazasi nochor ahvolda qolayotgan edi.

Ta'lim sohasini «sinfiy dushman»dan tozalash maqsadida hatto maxsus qarorlar ham qabul qilindi. Masalan, VKP (b) MQ O'rta Osiyo byurosi 1933 -yil 27 -martda o'qituvchi kadrlar safini tozalash haqida qaror qabul qiladi va uning natijalari shu yilning 25 -aprelida bo'lib o'tgan O'rta Osiyo bo'yicha partiyaning madaniy sohaga bag'ishlangan kengashida muhokama qilinadi. Bunda mavjud 700 o'qituvchidan faqat 120 tasi maktablarda ishlashga loyiq deb topildi.

Bunday «tozalash»dan maqsad saviyasi past bo'lsada mehnatkash tabaqalaridan chiqqan kishilarni tanlab olib, eng zakovatli omilkor kishilarni siqib chiqarib, «Tozalash»da kishining qobiliyati, madaniy saviyasi va ma'lumot darajasi emas, balki ijtimoiy kelib chiqishi asosiy mezon qilib olindi.

1940 -yilning may oyida O'zbekistonda «O'zbek yozuvini lotinlashtirilgan alfavtiidan rus grafikasi asosidagi yangi o'zbek alfavtiga ko'chirish to'g'risida»gi qonun qabul qilindi.

Mazkur siyosatlar tufayli o'zbek xalqi o'z tarixi, milliy urf-odatu an'ana, umuminsoniy qadriyatlarini bilish va o'rganish imkoniyatlaridan mahrum bo'ldi. Millat taqdiri, maorif ravnaqi uchun jon fido qilgan, erkin, hur fikrli alloma ma'rifatparvarlar – Abdurauf Fitrat, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Elbek, Otajon Hoshimov, Shokir Sulaymon, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy qatl etildi. Usmon Nosir, Botu va boshqalar Sibirga surgun qilindi.

Yuqorida aytilgan fikrlardan xulosa shuki, go'yo to'ntarish Turkiston o'lkasida ma'rifatning, ijtimoiy tuzumning, ishlab chiqarishning sezilarli darajada rivojlanishida muhim rol o'ynagan. O'lkada juda ko'plab ziyolilar yetishib chiqdi, zavod va fabrikalar qurildi, lotincha savodsizlikka barham berildi.

Bu albatta, shu bugungi o'zbek maktabini, uning ta'lim-tarbiyasini sharqona uslubda, jahon pedagogikasining ilg'or tamoyillari asosida qayta qurishimizda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi jahon urushi yillari davrida mamlakatimiz yoshlarini, yuqori axloq ruhida, ayniqsa, vatanparvarlik, do'stlik, mehnatsevarlik, ongli intizom, fidokorlik, birdamlik ruhida tarbiyalash avj olib ketdi. Bu tarixiy sharoit taqozosi edi.

1941 -yil 22 -iyunda fashistlar Germaniyasi hujum qilmaslik haqidagi bitimni buzib, urush e'lon qilmay turib sobiq Sovet Ittifoqiga bostirib kirdi.

Sobiq Sovet Ittifoqi hamma xalqlarni Vatanni yakdillik bilan mudofaa qilish uchun otlantirdi. O'zbekiston ham himoyaga o'zining munosib hissasini qo'shdi.

Kishilar fabrika va zavodlarda, shaxta va temir yo'llarda, kolxoz, sovxozlarda – hamma joyda “Hamma narsa front uchun, hamma narsa g'alaba uchun” degan shior ostida fidokorona ishladilar. Butun kuch, vosita va imkoniyatlar Vatan mudofaasiga, dushman ustidan g'alaba qilishga safarbar etildi. Mudofaa fondi tuzish, tanklar, samolyotlar hamda boshqa jangovar texnikalar qurish uchun mablag' yig'ishda umumxalq harakatining avj olishi xalqlarning vatanparvarligini yana bir bor isbot etdi.

Mamlakatlar mudofaa fondiga pul, qimmatbaho narsalar, davlat obligatsiyalari, xullas kimda nima bo'lsa, hammasini topshirdilar. Urushning dastlabki kunlaridayoq birgina Toshkent shahrining o'zida mudofaa fondiga 5,5 million so'mdan ortiq pul yig'ildi. Vatan uchun belgilangan shanbaliklar vatanparvalik ruhi ostida o'tdi.

1942 -yil 13 -fevralda chiqargan “Urush yillarida mehnatga qobiliyatli bo'lgan barcha kishilarni ishlab chiqarish sohasiga va qurilishga jalb qilish to'g'risida”gi farmoni mamlakat ichkarisidagi ishlarni birmuncha izga soldi.

Ikkinchi jahon urushi davrida maktablarning o'quv dasturlari sharoitga moslashtirildi.

Sobiq SSSR Xalq Komissarlari Soveti 1943 -yil iyul oyida bir qator yirik shaharlarda o'g'il bolalar bilan qiz bolalarni alohida o'qitishni joriy etdi. Masalan: O'zbekistonda alohida o'qitish 1943 -yil sentabrda boshlab Toshkent shahrida amalga oshirildi. 1 -dekabrdan boshlab yana 4 ta yirik shaharlarda – Buxoro, Urganch, Farg'ona va Marg'ilonda amalga oshirildi.

Urush yillarida harbiy-fizkultura darslari soati ko'paydi. Harbiy o'qish 1-sinf dan boshlab o'tila boshlandi, harbiy ta'lim faqat o'g'il bolalarga emas, qiz bolalarga ham o'rgatila boshlandi.

Urush ketayotgan joylardan O'zbekistonga ko'plab bolalar evakuatsiya qilingan edi. 1942 -yilda evakuatsiya qilinganlar soni 716 mingga yetdi.

1943-yilda O'zbekiston hududida 154 ta bolalar uyi bor edi. Bolalar uyining soni 1945-yilga kelib 242 taga, undagi tarbiyalanuvchilar soni esa 31.500 ga yetdi.

Urush davrida o'qituvchilar sonini ko'paytirishga alohida e'tibor berildi. Chunki ko'pchilik pedagoglar frontga safarbar qilinganligi uchun Respublika bo'yicha 1940-1941 o'quv yilida 36267 nafar o'qituvchidan 30616 kishi qoldi. Frontga ketgan o'qituvchilar o'rmini to'ldirish uchun qisqa muddatli o'qituvchilar tayyorlash kurslari ochildi. 1941-yildan 1943-yilgacha bu kurslarni 16 ming o'qituvchi bitirib chiqdi. Boshqa sohada ishlayotgan o'qituvchilar ham maktabga qaytarildi.

Mahalliy maktablar uchun o'qituvchilar tayyorlash ishiga, ayniqsa, o'zbek xotin-qizlaridan ko'proq jalb etish zarurligi alohida qayd etildi.

Shaharlardagi maktablarda o'qish uch smenada olib borilar edi. Bu hol esa tabiiy holatda ta'lim-tarbiya jarayonini qiyinlashtirishga olib kelgan edi. Darslar 40 minutga qisqargan. Ashula va rasm darslari umuman o'tilmagan.

Kitoblarning yetishmasligi tufayli o'qituvchilar og'zaki tushuntirishga katta e'tibor berdilar. Yangi o'tiladigan dars o'qituvchi tomonidan doskaga yozilar, o'quvchilar uni daftarga ko'chirib olishar edi.

Sharoit taqozosi bilan ko'pchilik o'quvchilar ham maktabda o'qib, ham qishloq xo'jalik ishlarida faol qatnashdilar. Barcha ishlab chiqarish muassasalarida, zavod va fabrikalar qoshida kurslar ochilib, o'quvchilar o'qishdan ajralmagan holda mehnat qildilar.

1942-yilning boshida sobiq SSSR Xalq Komissarlari Soveti qishloq xo'jalik asoslarini maktabda o'qitiladigan fanlardan biri sifatida kiritish haqida buyruq chiqardi.

O'zbekiston mahalliy Sovetlari, sobiq SSSR XKS ko'rsatmasiga binoan, 1943 -yilning 1 -yanvaridan boshlab 8-10-sinf o'quvchilarini hamda katta yoshdagi o'zbek o'qituvchilarini o'qish haqi to'lashdan

ozod etdi. Qozoq, qirg'iz, tojik, qoraqalpoq, turkman va boshqa mahalliy xalqlar bolalarining ham o'qish haqi to'lashlaridan ozod qilindi.

Davlatning maxsus ko'rsatmasiga binoan 1943 -yildan boshlab ba'zi maktablarda o'quv ishlab chiqarish ustaxonalari ochila boshlandi.

Ikkinchi jahon urushi g'alaba bilan tamom bo'lgach respublika xalq ta'limi urushdan keyingi yillarda bir qator jiddiy qiyinchiliklarni yengib o'tishga to'g'ri keldi.

Urush davrida maktablar tarmog'i birmuncha qisqargan, o'quvchilar soni ham shunga yarasha kamaygan edi. Ko'pchilik o'quvchilar turli sinflardan o'qishni tashlab, frontga, front uchun qurol-aslaha ishlab chiqaradigan zavod va fabrikalarga ishga ketib qolishdi.

O'sha yillarda yangi maktab binolari qurilmaganligi va eski maktablarni o'z vaqtida ta'mirlanmaganligi sababli ko'p maktab binolari o'quv jarayonini maromida tashkil etish va gigiena talablariga javob bermas edi.

Xalq xo'jaligini tiklash hamda rivojlantirish sohasida urushdan keyingi birinchi besh yillikda o'ziga xos jiddiy kamchiliklarga duch kelindi. Birinchidan, aholi o'zi tug'ilib o'sgan shaharlariga qaytib ko'chib o'tayotganligi sababli aholi sonida keskin o'zgarishlar ro'y berdi. Ikkinchidan, majburiy ta'lim maktablarida o'qitiladigan bolalarni hisobga olishning aniq va tezkor tizimi belgilanmagan edi.

Shuning uchun ham maorif xodimlari tezlik bilan maktab shohobchalarini tiklash va kengaytirish hamda ota-onalari bilan birga evakuatsiyadan qaytib kelayotgan bolalarni yo urush vaqtida maktabni tashlab ketgan bolalarni maktablarga tortish sohasida juda katta ishlar qilish kerak edi. Shunday mas'uliyatni bajarishda ular dastlab boshlang'ich maktablarni tamomlagan bolalarning hammasini to'la ravishda o'qishga tortishga ayniqsa katta e'tibor berishlari lozim edi. Va bu ish ancha muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Bu esa bolalarni va o'smirlarni umumiy-majburiy o'qitishni kengaytirish uchun zarur shart-sharoit yaratib berdi.

Bu davrga kelib o'rta maktabni bitirib chiqayotganlarning soni oliy o'quv yurtlariga qabul qilinayotganlarning soniga qaraganda ancha ortib ketdi. O'rta maktablarni tamomlab chiqqanlarning ko'plari sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ishlashlariga to'g'ri

keldi. Biroq ular bu amaliy faoliyatga yetarli sur'atda tayyorlanmagan edilar: maktablarda o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash ishlari yaxshi yo'lga qo'yilmagan edi.

O'rta maktablarni tamomlaganlarni maxsus kasbiy tayyorlarligini oshirish maqsadida texnikumlar soni ko'paytirildi va shu texnikumlar qoshida to'liq o'rta ma'lumotli kishilarni qabul qiladigan bo'limlar ochildi. Bu bo'limlarga o'qish muddati 2, 3 yil qilib belgilandi. Mehnat zahiralari tizimida o'rta maktab negizidagi texnika bilim yurtlari ochila boshladi. Bu texnika bilim yurtlari 1, 2 yillik o'qish muddati bilan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlab berishi kerak edi.

Urushdan keyingi yillarda 1943-yilda ochilgan ishchi va dehqon yoshlari maktablari (kechki va smenali) tarmog'i birmuncha kengaytirildi.

1951-55-yillarga mo'ljallangan beshinchi besh yillik rejada politexnika ta'limiga katta o'rin berildi. Shu munosabat bilan ittifoqdosh respublikalarning Ta'lim vazirliklari o'quv rejaları va dasturlarini qayta qurib, politexnika ta'limini oshirish to'g'risida maktablarga ko'rsatmalar berdilar.

1957-58 o'quv yilidan boshlab, ba'zi pedagogika oliy o'quv yurtlarida boshlang'ich maktab uchun oliy pedagogika ma'lumotiga ega bo'lgan o'qituvchilar tayyorlashga kirishildi va buning uchun maxsus fakultetlar tashkil etildi. Boshlang'ich maktabda to'rt yillik boshlang'ich ta'limdan uch yillik boshlang'ich ta'limga o'tish amalga oshirildi.

To'liqsiz yetti yillik o'rta maktab tashkil etilib, umumiy majburiy sakkiz yillik ta'lim maktabiga aylantirildi.

Sakkiz yillik maktabni tamomlagan o'quvchilar quyidagi o'quv yurtlarida o'qishlari mumkin edi. Ular:

- 1) to'liq umumiy ta'lim o'rta maktablarida (IX-X sinflarda);
- 2) o'qish muddati uch-to'rt yillik bo'lgan texnikumlarda;
- 3) hunar va umumiy ta'lim bilimlarini birgalikda beradigan hunar-texnika bilim yurtlarida;
- 4) ishchi va qishloq yoshlari maktablarida.

Rasmiy Hokimiyat sohta proletar baynalmilalligini amalda kuchaytirish maqsadida maktablarda rus tili va adabiyotini kengroq o'qitishga urg'u berdi. Natijada 60-yillarda O'zbekiston tarixi, o'zbek tili va adabiyoti, chet tili, musiqa va ashula darslari hajmi keskin

qisqardi va ular o'quv rejasida belgilanganidan haftasiga 16,5 soat kamayib ketdi. Ulardan bo'shagan soatlarda esa rus tili va adabiyoti fani o'qitildi. Masalan, o'qituvchilar «XIX asrni ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida o'zbek adabiy muhiti», «Milliy madaniy jarayonlar» to'g'risidagi mavzularda dars o'tishi lozim bo'lgan soatlarda rus madaniyatining «progressiv» ahamiyatini ko'rsatib berishga majbur bo'ldilar. Natijada boy va ko'hna o'zbek xalqi tarixini o'rganishga 52 soat ajratilgan holda boshlang'ich maktablarda rus tili va adabiyoti fanlari uchun 1600 soat ajratilgan¹.

1959-1975-yillarda respublikada internat-maktablar va kuni uzaytirilgan guruhlar tarmog'i rivojlandi va ularda tarbiyalanuvchilarning soni o'sdi; jismonan nuqsonli bolalar uchun maxsus maktablar(Difektologiya) tashkil qilindi; pedagog xodimlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmog'i kengaytirildi.

70-80-yillarda O'zbekiston maktablarida ahvol sifat jihatidan o'zgarmay qolaverdi. Ularning moddiy-texnik bazasi yaxshilanmadi. Ammo maktablar, o'quvchilar soni yildan-yilga ortib boraverdi. Masalan, O'zbekistonda 1945-46-o'quv yilida jami 4525 maktab bo'lib, ularda qariyb 998 ming o'quvchi o'qigan bo'lsa, 1970-71-o'quv yilida respublikaning umumiy ta'lim maktablari soni 7072 taga, o'quvchilar soni esa 3 mln.164 ming kishiga yetdi... 1970-1980-yillarda xalq ta'limi uchun davlat tomonidan ajratilgan mablag' 11% dan 8% ga kamayib ketdi... 5% dan ortiq maktablarda issiq ovqat bufetlari tashkil etilmadi¹.

¹ Н. Асқров Р. Социальное развитие сел Узбекистана. (1965-1983)-Т., 1994, с.27-28.

¹ Эргашев К. Развитие общеобразовательной школы в Узбекистане. 70-е-90-е г и проблемы и тенденции. - Т., 1996. С.20.

XX asrning 70-80-yillarida O'zbekistonda xalq ta'limi

Xalq ta'limi tizimida muhim o'rinni egallagan umumiy ta'lim maktablari respublikamiz hayoti bilan chambarchas bog'langan bo'lib, davlatning mafkuraviy, madaniy vazifalariga xizmat qiladi. Shuning uchun ham respublikamizda hukumati, xalq ta'limi vazirligi joylardagi hokimiyatlar va jamoatchilik xalq ta'limi tizimini, jumladan, umumiy ta'lim maktablarini rivojlantirish, ularning tarmoqlarini kengaytirish va yangi binolar bilan ta'minlash, o'quv moddiy va texnika bazasini mustahkamlash hamda ularni yuqori bilimga ega bo'lgan o'qituvchilar bilan ta'minlash borasida bir qator tadbirlar amalga oshirildi.

Islahotda umumiy o'rta ta'lim o'n bir yillik bo'lib, I-IV sinflar - boshlang'ich maktab, V-IX sinflar esa to'liqsiz o'rta va X-XI sinflar - barchasi umumta'lim maktabini tashkil qiladi. Shuningdek, o'rta hunar-texnika bilim yurtlari, o'rta maxsus o'quv yurtlari kabi nomlangan. Mazkur tuzilishga binoan o'rta umumiy ta'lim maktablarida 1986-yildan bolalarni olti yoshdan boshlab o'qitish nazarda tutiladi.

Hunar-texnika ta'limi esa qayta tubdan o'zgartirilib, "O'rta hunar-texnika bilim yurtlari"ga aylantirildi.

O'rta ma'lumotga ega bo'lmagan, ishlab chiqarishdagi faol yoshlar uchun kechki (smenali) maktablar saqlanib qolindi.

O'quv fanlarining amaliy yo'nalishini kuchaytirish, mehnat tarbiyasi va kasb tanlashga o'rgatishni yo'lga qo'yish, ta'lim mazmunining politexnik yo'nalishini ta'minlash masalasi asosan amalga oshiriladi.

Shuni qayd etish zarurki, o'zbek maktablari sobiq ittifoq davrida milliy zamandan batamom uzilib qolgan edi. O'qish-o'qitishda Ovro'po, xususan o'rus tizimi qabul qilindi. Yangi davrdagi zamonaviylashtirishning "bilimdon" va "zukko" tashkilotchilari ming yillik yozuvimizni ham qayta-qayta almashtirib, natijada maktablarimiz o'quv-tarbiyaviy ishlar va xalq ruhiyatidan deyarli ajralib qoldi, avlod-ajdodlarimizning dunyoviy, ma'naviy-axloqiy, ma'rifiy merosi esa umuman o'rgatilmadi.

O'zbek ziyolilarining pedagogik fikrlarni rivojlantirishga qo'shgan hissasi

Mustabid tuzum siyosatidagi har qanday monelikka qaramay, mavjud imkoniyatlar doirasida Markaziy Osiyo, jumladan o'zbek ziyolilari ulug' mutafakkir shoir va olimlarimizning pedagogik fikrlarini tadqiq etish to'xtamadi. Masalan, 60-70-yillarda o'zbek ma'rifatparvar shoir va adiblaridan Furqat, Sadridin Ayniy, Alisher Navoiy, Jomiy va Davoniy, Abdulla Avloniy kabi shoir va pedagoglarning ta'lim tarbiya haqidagi fikrlari tadqiq etildi. "Kalila va Dimna", "Qobusnoma" nashr qilindi. Taniqli pedagog olim Z.Mirtursunov (*NamDuning birinchi rektori*) (tomonidan "O'zbek xalq pedagogikasi va uning xalq og'zaki ijodida aks ettirishi" (1967) asarida xalq pedagogikasini respublikada birinchi bor tahlil qilindi.

Xalq Maorifi vazirligini boshqargan Eminjon Qodirov, Said Shermuhamedov Respublikada o'quv-tarbiya ishlarini davr talabi darajasiga ko'tarish, kechki ishchi-yoshlar va qishloq yoshlari maktablari tarmog'ini kengaytirish, pedagog kadrlar tayyorlash kabi ishlarga rahbarlik qildilar.

Taniqli olim Sidiq Rajabov pedagogik muammolarni xal qilishda faollik ko'rsatdi, pedagogika tarixini o'rganish va uning rivojini tahlil qilish sohalarida ish olib bordi. O'zbekiston maktablari tarixiga, pedagogika fani taraqqiyotiga doir asarlar yaratdi.

60-80-yillar davomida pedagogika fanining tarkibiy qismi bo'lgan fanlarni o'qitish, jumladan adabiyot va ona tilini o'qitish usullarida ham muayyan izlanishlar amalga oshirildi. Bu sohada Subutoy Dolimov, Asqar Zunnunov, Qudrat Ahmedov, Hasan Zunnunov, Karim Jo'raev, Karima Qosimova, Mazluma Asqarova, N.M.Mallayev, Vohid Abdullayev, G'ulom Karimov va boshqalar jonbozlik ko'rsatdilar, pedagogik fikr ravnaqi, milliy pedagogik fikr rivoji davom etdi.

Umuman, 1980-yillarda 1917-yildan boshlangan va 1991-yilga qadar davom ettirilgan kommunistik siyosatning ijtimoiy gumanitar ilmlar, jumladan milliy pedagogik fikr rivojiga to'siq bo'lishiga qaramay, xalqimizning tafakkuri, ma'naviy darajasi pedagogik ongi yuksala bordi.

1989-yilda O'zbek tiliga davlat maqomi berilishi bilan milliy qadriyatlarimizning tiklanishiga, ona tilini chuqur o'rganish umumiy

o'rtta maktab va boshqa o'quv yurtlari ta'limining asosi qilib qo'yildi. Ona tilida beriladigan bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini o'stirish, ularda ona tilidan ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularni o'zbek adabiy tilining yozma va og'zaki shaklini puxta o'zlashtirgan madaniyatli va savodli qilib yetishtirish nazarda tutildi.

O'tmishda yashab ijod etgan, butun jahonga mashhur bo'lgan allomalar ilmiy merosini o'rganila boshlandi: "Qur'oni Karim"ning o'zbekcha izohli tarjimasini, Muhammad Payg'ambarimizning "Hadis"lari, Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil al-Buxoriyning to'rt jildlik "Hadis"lari, Ahmad Yassaviyning "Hikmat"lari, bir guruh olimlar tuzgan "Buyuk siymolar, allomalar" kitoblari kabi asarlar chop etildi.

Ta'lim O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchanlik faoliyatini bahsh eta boshlashi bilan respublikada "O'zbek pedagogikasi antologiyasi", "O'rtta Osiyo pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar", "O'zbek pedagogikasi tarixi", "Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi", "Maktab ma'naviyati va milliy tarbiya", "O'quvchining axloqiy ma'naviyatini shakllantirish muammolari", "Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari", "Donolardan saboqlar", "Hikmatlar hazinasi" kabi pedagogik qo'llanmalar nashr etildi.

Tayanch so'zlar: mafkura, ma'rifat homiysi, Turkiston, Turkiston davlat universiteti, Komil – kamolotga erishgan. Dorulaytom – yetimlar o'yini, o'zbek ziyolilari, Hunar-texnika ta'limi. Ikkinchi jahon urushi, ishchi va dehqon yoshlari maktablari, front, O'rtta Osiyo byurosi.

Bilimingizni sinab ko'ring

1. 1924-yil Markaziy Osiyo xalqlarining hayotida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-mafkuraviy sohalarida qanday o'zgarishlar yuz berdi?

2. Ikkinchi jahon urushi va yillarda O'zbekistonda ta'lim-tarbiya muammolari.

3. 60-80-yillar davomida pedagogika fanining tarkibiy qismi bo'lgan fanlarni o'qitish, jumladan adabiyot va ona tilini o'qitish usullarini aytib bering.

4. O'zbek ziyolilarining pedagogik fikrlarni rivojlantirishga qo'shgan hissasi.

6. 60-yillarda O'zbekiston tarixi, o'zbek tili va adabiyoti, chet tili, musiqa va ashula darslari nima uchun qisqardi?

7. Siddiq Rajabov asarlari va unda ta'lim-tarbiya masalalari.

8. Siddiq Rajabovning pedagogika fanining rivoji va pedagogik kadrlar tayyorlashdagi faoliyatiga doir qanday islohatlarini bilib oldingiz?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'zbek pedagogikasi tarixi" Prof. A.Zunnunovning umumiy tahriri ostida. T Toshkent, "O'qituvchi", 1997-yil;

2. O'zbekistonning yangi tarixi N.Jo'raev va boshqalar 2-kitob, Toshkent Sharq nashriyoti 2000 yil. 148 -bet

3. Akademik. M.M.Xayrullayev "Buyuk iste'dod sohiblari" Toshkent, "Adolat" 2002-yil;

4. Xoji Ismatulloh Abdulloh "Markaziy Osiyoda Islom madaniyati" Toshkent, "Sharq", 2005-yil.

5. Axmedova M.E "Pedagogika nazariyasi va tarixi" Toshkent, "Tafakkur bo'stoni" nashriyoti 2011-yil.

6. Юзликаева Э., Мадярова С., Янбарисова Э.,И.Морхова. Теория и практика общей педагогики. – Т.: ТГПУ, 2014.

7. Yo'ldoshev O'.J. Umumiy pedagogika. Darslik. Toshkent. Fan va texnologiyalar. 2019.

8-Mavzu: Mustaqil O'zbekiston ta'lim tizimi. Pedagogik fikrlar rivoji

Reja:

1. Mustaqil O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar.

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" – Respublikamizda ta'lim-tarbiyani tashkil etish va kadrlar tayyorlashning huquqiy asosi sifatida.

3. I.A.Karimov asarlarida jamiyat rivojining ma'naviy-axloqiy negizlari va yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishga doir kontseptual fikrlarning ifoda etilishi.

4. O'zbekiston respublikasi rivojining yangi bosqichida ta'lim-tarbiya islohotlari. Sh.Mirziyoyevning ta'lim-tarbiyaga oid islohotlari.

1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi mustaqil deb e'lon qilingan kundan boshlab mustaqilikni, mamlakat farovonligini, xalqning tinchlik va osoyishtaligini saqlash asosiy maqsad etib belgilandi hamda o'sib kelayotgan avlodga e'tibor ustuvor vazifa qilib qo'yildi.

1992-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun asosida ishlab chiqilgan ta'lim tizimiga ko'ra:

– ta'limning uzluksiz bo'lishi, o'zaro mutanosiblikda tashkil etilishi;

– ta'lim va tarbiyani kompleks ravishda uyushtirish;

– ta'limni demokratlashtirish va insonparvarlashtirish;

– ta'lim tizimini fan hamda ishlab chiqarish sohalari bilan integratsiyalashtirish;

– umumiy o'rta ta'lim negizida yoshlarni maxsus ta'lim muassasalarida o'qishga, mutaxassislikka, kasb-hunarga tayyorlash, deb belgilandi.

Respublikada amalga oshirilgan uzluksiz ta'lim barcha ta'lim bosqichlari: maktabgacha tarbiya, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim hamda oliy ta'limdan keyingi ta'lim turlari o'rtasida uzviylik o'zaro mutanosiblik bo'lishida, ta'limni ilm-fan, ishlab chiqarish yutuqlari bilan bog'liq holda tashkil etishda muhim omil bo'ldi.

Tarbiyaga keng qamrovli yondashilganligi natijasida aqliy mehnat, axloqiy, nafasat va jismoniy tarbiya o'rtasida uzviylik mustahkamlana boshladi, o'quvchilar faoliyatining mazmunli bo'lishini, ta'limiy vazifalarning ham qamrovli tarzda amalga oshirilishini ta'minladi. Tarbiyaga keng qamrovli yondashish oila, maktab, jamoatchilik o'rtasida aloqani kuchaytirishda, bu aloqaning pedagogik xususiyat kasb etishida ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi.

Respublikada yaratilgan davlat standartlarida ularning ijtimoiy maqsadni ifoda etuvchi bo'lishiga e'tibor berildi, ularda mustaqillik davri talab etayotgan ta'lim mazmuni, usul va shakllari belgilandi.

Ta'limda qo'llangan test usuli iqtidorli bolalarni aniqlashga, ularning ilm-fan asoslarini egallashlarida muhim usul sifatida xizmat qildi.

Ma'lumki, pedagogika tarixi ham boshqa xalqlar, mamlakatlar pedagogika tarixi bilan aloqada rivojlandi va rivojlanmoqda. Shu sababdan hozir Markaziy Osiyo pedagogika tarixini tadqiq etishda Xorijiy Sharq va Yevropa mamlakatlari ta'lim tizimi ham o'rganilmoqda. Bu sohada respublika fan va texnika qo'mitasining "Milliy ruh", "Qadriyat" nomidagi va O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlari uchun ilg'or pedagogik qo'llanmalar va o'quv darsliklarini ishlab chiqish bo'yicha uyushtirgan tanlovlari bu sohada muhim ahamiyat kasb etdi.

T.N.Qori Niyoziy nomidagi pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti olimlarining ana shu tanlov asosida respublikada taniqli faylasuf, tarixchi va shu soha tadqiqotchilari bilan hamkorlikda "O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar" nomli qo'llanma va "Pedagogika tarixi" darsligini yaratdilar. Endilikda o'quvchi va talabalar Rusiya va G'arbiy Yevropa pedagogika tarixidan iborat bo'lgan "Pedagogika tarixi"ni emas, balki Markaziy Osiyo ulug' mutafakkirlarining pedagogik qarashlari va nazariyalari tadqiq etilgan yangi darslik bo'yicha yangicha pedagogik bilimni egallaydilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasining tashkil etilishi mustaqillikning muhim timsolidir. Bu Oliy attestatsiya komissiyasi o'z zimmasiga yuklangan ulkan vazifalarni, ya'ni "Yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik xodimlar tayyorlash yangi tizimini shakllantirish, ularni respublika ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy taraqqiyotining ustivor muammolarini hal qilishga yo'naltirish, ilmiy tadqiqotlar va

ishlanmalarni davlat yo'li bilan ekspertiza qilishni ta'minlash bilan yetuk ilmiy-pedagogik kadrlar yetishtirishga samarali ta'sir ko'rsatmoqda.

Oliy pedagogika o'quv yurtlarida ilmiy daraja beruvchi ixtisoslashtirilgan kengash tashkil etilishi bilan respublikamizda pedagogika tarixi va nazariyasi, fanlarini o'qitish usullari bo'yicha doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarini o'zbek tilida, turli millat vakillarining o'z ona tillarida himoya qilishga keng imkoniyat yaratildi. Bu kengashlar milliy pedagog olimlar safining o'sishida muhim omil bo'lmoqda. Bunday tadbir respublikada sifatli, ilmiy-pedagogik asarlar, o'quv-metodik qo'llanmalarning yaratilishiga, maktabgacha tarbiya muassasalarida, umumiy o'rta maktablarda, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiyaning yuksak saviyada bo'lishiga, ta'lim tizimi mazmunining takomillashuviga samarali ta'sir ko'rsatmoqda.

Umuman, mustaqillik tufayli biz umumbashariy qadriyatlarning eng birinchi asosi bo'lgan xalq insonparvarligi chashmalaridan qadamma-qadam bahramand bo'lmoqdamiz" (I.Karimov). Shu bahramandlik tufayli yosh avlodda mehnatsevarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, iymon-e'tiqodlik, halollik, axloqiy poklik, odillik, bilimlilik, onglilik, do'stlik, baynalminallik kabi insoniy fazilatlar shakllanib, rivoj topmoqda, o'z ona tili, milliy urf-odatlarini, diyorumizning tabiat boyliklari bilan faxrlanish tuyg'usi kamol topmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" buyuk istiqbol omili.

1996-yilga kelib, Respublikamizda iste'dodli bolalarni tanlashga e'tibor kuchaytirildi. Joylarda maxsus hunarmandchilik litseylari, umumiy ta'lim yo'nalishidagi litseylar, gimnaziyalar tarmog'i kengaytirildi. Buning uchun yangi dasturlar ishlab chiqildi.

Ta'lim sohasida xalqaro aloqalar (YUNISEF, YUNESKO) mustahkamlandi. Xorijiy davlatlarning kadrlar tayyorlash sohasidagi ilg'or tajribalari o'rganildi va Respublikamizda kadrlar tayyorlash tizimining yangi modeli yaratildi.

1997-yil 29-30-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi birinchi chaqiriq IX sessiyasida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi.

Bu qonun va dastur yosh avlodni Vatanimizga sadoqatli, uning mustaqilligini asrab-avaylashga tayyor, keng tafakkurli, jismonan sog'lom, ma'naviy va ma'rifiy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashda, umuman, ta'lim mazmunining takomillashuvi, uning sifati va samarali bo'lishida muhim omildir.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida respublikada amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiyada tubdan, keskin o'zgarish bo'la boshladi. Bu qonun va dastur yosh avlodni Vatanga sadoqatli, keng tafakkurli, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega, jismonan sog'lom, ma'naviy va madaniy, ma'rifiy jihatdan barkamol qilib yetishtirishda muhim omil bo'ldi.

Qonunda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari aniq ko'rsatildi, ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustivor ekanligi qayd qilingan holda, ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iboratligi aytiladi.

1. Ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyotidagi ustivor soha ekanligini;
2. Ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
3. Ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
4. Umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
5. Ta'limining III-bosqichda 3 yillik akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlarda o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
6. Ta'lim tizimini dunyoviy xarakterda ekanligi;
7. Davlat ta'lim standartlari doirasida bilim olishning hamma uchun ochiqligi;
8. Ta'lim dasturlarini tanlashda yagona va tabaqalashtirilgan yondoshuvning joriy etilganligi;
9. Iqtidorli o'quvchilarni rag'batlantirish, ularni ochib berish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish;
10. Ta'lim tizimida davlat va jamoani uyg'unlashtirish.

“Agar o'quvchi erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Aqliy bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir”. I.Karimov

2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan Ta'lim To'g'risida Qonun bo'yicha

Ta'lim sohasidagi asosiy printsiplar

Ta'lim sohasidagi asosiy printsiplar
Ta'lim sohasidagi asosiy printsiplar quyidagilardan iborat:
ta'lim ustuvorligining tan olinishi;
ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi;
ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi;
ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi;
ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarining
singdirilganligi;
ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;
ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha
bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga
tayyorlashning majburiyligi;
davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida
ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va
tabaqalashtirilganligi;
insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi;
jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning
kafolatlanganligi;
ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;
bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;
ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;
ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'lim turlari: maktabgacha
ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy, oliy o'quv
yurtidan keyingi, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta
tayyorlash, maktabdan tashqari ta'limdan iborat qilib belgalandi.

Maktabgacha ta'limda bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda
o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish asosiy maqsad qilib
qo'yildi. Bu ta'lim olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va
mulk shaklidan qat'iy nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olib
boriladi.

Umumiy o'rta ta'lim: boshlang'ich ta'lim (1-IV sinflar);
umumiy o'rta ta'lim (1-IX sinflar)dan iborat bo'ldi;

Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur
bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga
qaratildi. Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-yetti yoshdan qabul

qiladi. Umumiy o'rtta ta'limda o'quvchilarga bilimlarning zarur hajmi berildi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalari rivojlantirildi, kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam berdi.

O'rtta maxsus, kasb-hunar ta'limi olish maqsadida har kim umumiy o'rtta ta'lim asosida akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishning yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega bo'ldi.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga egallagan kasb-hunari bo'yicha ishlash huquqi berildi, ular o'z bilimlarini navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo'ladigan o'rtta maxsus, kasb-hunar ta'limini ham egallamoqdalar. Akademik litseyda o'quvchilar intellektual qobiliyatlarini jadal ravishda o'stirish uchun uch yil davomida chuqurlashtirilgan bilim oladilar.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlagan kasblari bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'rtta maxsus kasb-hunar o'quv yurti bo'ldi.

O'rtta maxsus kasb-hunar ta'lim turini tamomlagan bitiruvchilarga o'rtta maxsus ma'lumoti haqida diplom topshirilishi belgilandi.

Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislar: bakalavr va magistrlar tayyorlashni ta'minlamoqda.

Umuman, ta'limning yangi tizimini tashkil qilgan barcha o'quv maskanlarida asosiy e'tibor o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmasini hosil qilishga, egallagan ko'nikmalarini tajribada namoyon etishlariga, o'z vatanining fidoiysi sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda ishtirok etishga, mamlakat taqdiri uchun o'z zimmasiga mas'uliyat olishga qaratildi, shaxsni kamol toptirish uchun shart-sharoit yaratildi.

Respublikada tarbiya mazmuni, shakli tubdan o'zgardi, tarbiyaviy ishlar aniq maqsad tomon yo'naltirildi, bu jarayonda sub'yektlarning o'zaro samarali hamkorlikda bo'lishlari uchun uzviylikda bo'lgan tarbiya shakli, vosita va usullari ishlab chiqildi, amaliyotga tatbiq etildi. O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol shaxs qilib yetishtirishda milliy madaniyat, ma'naviyat,

ilg'or milliy an'ana, urf-odat milliy va umumbashariy qadriyatlar asos bo'ldi.

Respublikada amalga oshirilgan uzluksiz ta'lim tizimi barcha ta'lim bosqichlari – maktabgacha tarbiya va boshlang'ich, tayanch bosqichlari, o'rta va hunar maktablari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari, maktabgacha tarbiya muassasalari, malaka oshirish institutlari o'rtasida uzviylik bo'lishida, ta'limni ilm-fan yutuqlari bilan bog'liq holda tashkil etishda muhim omil bo'ldi. Bolalarni oilada bog'chaga, bog'chadan maktabga o'qishga tayyorlash, umumiy o'rta ta'lim negizida o'quvchilarni maxsus bilim yurtlarida mutaxassislikka tayyorlashda jiddiy yutuqlarga erishildi. Uzluksiz ta'lim tizimi barcha ta'lim bosqichlarining istiqbolli bo'lishiga, ta'limni demokratiyalashtirish va insonparvarlashtirishga, ta'limni mehnat tarbiyasi bilan bog'liq holda olib borishga, o'quv fanlarni integratsiyalashtirishga yordam berdi.

Tarbiyaga kompleks yondashish bilan aqliy, mehnat, axloqiy, nafosat va jismoniy tarbiyalar o'rtasidagi uzviylik mustahkamlandi, o'quvchilar hayotni kengroq tasavvur eta boshladilar. Kompleks prinsipi tarbiyaning, o'quvchilar faoliyatining mazmunli bo'lishini, ta'lim vazifalarini ham kompleks ravishda amalga oshirishni ta'minladi. Bu prinsip maktab, oila, jamoatchilik o'rtasidagi aloqani mustahkamlash, bu aloqaning pedagogik jihatini kasb etishida, yoshlarni anglash, mustaqil fikrlash faoliyati va axloq-odoblil bo'lib o'sishida ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi.

Tarbiyada kompleks prinsipni qo'llash o'quv yurtlari, ta'lim muassasalaridagi barcha tarbiyaviy ishlar hamda, tarbiya jarayonida vazifa, maqsad, mazmun, usul, shakl, vosita, natijalarning o'zaro aloqada bo'lishini ta'minladi.

Ta'lim va tarbiya mazmuni, shakl va usullari bu sohada erishilgan ilg'or tajribalar asosida ishlab chiqildi, bunda ta'limning jahon standarti darajasida bo'lishi nazarda tutildi.

Yaratilgan ta'lim davlat standartlarida ularning ijtimoiy maqsadni ifoda etuvchi bo'lishiga e'tibor berildi, ularda mustaqillik davri talab etayotgan ta'lim mazmuni, darajasi, usul va shakllari belgilandi.

Davlat standarti va konsepsiyalar asosida yaratilgan dastur va darsliklarda, ayniqsa, ijtimoiy fanlarga doir barcha dastur va darsliklarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'z aksini topdi.

Ma'lumki, istiqloq mafkurasining asoslarini yaratish, avvalo, ta'lim-tarbiya zamini bo'lgan oila va maktabgacha tarbiya muassasalaridan boshlanadi. Ularda tarbiyalanayotgan va maktabda o'qiyotgan bolalar Vatan, jamiyat, xalq haqida muayyan tasavvurga ega bo'lishlari, ularning qalbida Vatan tuyg'usi, ulug' allomalarimiz va ular qoldirgan ma'naviy meroslar bilan faxrlanish hissi shakllanishi, rivoj topishi kerak. Ana shu talablardan kelib chiqqan holda, tibbiy kasbga, muallimlik va murabbiylik kasbiga va shu sohada muayyan malakaga ega bo'lgan ayollar istiqomat qilayotgan oilalarda, uy bog'chalarida aniq dasturlar asosida 5-6 yoshli bolalar bilan jiddiy shug'ullanilmoqdalar.

Maktabgacha tarbiya muassasalari uchun tuzilgan tasviriy san'at dasturida bolalarni tevarak-atrofdagi, tashqi muhitda sodir bo'layotgan voqea va hodisalar bilan oshno qilish, turli tasvirlar vositasida bu voqealar haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Jismoniy tarbiya dasturida bolalarni jismonan kuchli, chaqqon, tetik qilib tarbiyalash asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

O'yin dasturida an'ana sifatida davom etib kelayotgan milliy o'yinlar va xalq og'zaki ijodi asosida bolalarga quvonch baxsh etish, ularning did hamda tafakkurini o'stirish, ularni Vatan tabiati go'zalligidan bahramand qilib ularning go'zalligini saqlash, himoya qilishga intilish, qiziqish hissini tarbiyalash talab etildi.

Musiqqa dasturida o'zbek xalqining turmush tarzi, milliy an'analari, urf-odatlarini, mumtoz va hozirgi davr badiiy asarlari asosida yaratilgan musiqqa orqali bolalarda musiqqa san'atiga havas, go'zal Vatanimizga havas tuyg'usini shakllantirish va rivoj toptirish asosiy maqsad qilib qo'yildi.

Mehnat dasturida bolalarga o'z-o'ziga xizmat qilish, tabiat bag'rida ishlash, qo'l mehnati va uning mohiyati, qilingan mehnat go'zalligi, yasalgan buyum, narsalarning chiroyli va puxta bo'lishidan faxrlanish tuyg'usini tarbiyalash, tejamkorlik qobiliyatini o'stirish nazarda tutildi.

Umuman, maktabgacha tarbiya davlat standartlarida yosh avlodni jismonan sog'lom, ruhan tetik, odob-axloqli, iymon-e'tiqodli shaxsni tarbiyalash bo'yicha belgilangan yo'llanma maktabgacha tarbiya dastur va yo'llanmalarida o'z ifodasini topdi. Bog'chalarda bolalarning qobiliyati, iste'dodi, qiziqishi aniqlanib, chet tillarini chuqur o'rgatish amalga oshirildi.

Maktab davlat uzluksiz ta'lim tizimining markaziy bo'g'inidir. Huddi ana shu bosqichda o'quvchilar bilimlar asosini egallaydilar, ularda ijodiy qobiliyat, mustaqil fikrlash, Vatan, jamiyat, shaxs, axloq-odob haqidagi tushunchalar shakllanadi va takomillashadi.

Boshlang'ich bosqich (1-4-sinf)da asosiy e'tibor o'quvchilar savodini chiqarishga, ularda mustaqil fikrlash, o'z fikrini ifodali bayon etish malakasini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirildi.

Bu bosqich ta'lim jarayonida o'quvchilarda mantiqiy tafakkur qila olish va o'zaro fikr almashuv savodxonligini oshirish, o'z-o'zini anglash salohiyatlarini, moddiy borliq, go'zallikni his qilish, undan zavqlanish va uni yanada go'zallashtirish ishtiyoqini o'stirishga, milliy urf-odatlarini sevish va o'z hayotlarida ulardan foydalanish malakalarini tarkib toptirishga e'tibor berildi.

V-IX-sinflarda ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishga samarali ta'sir ko'rsatuvchi san'at turi bo'lgan adabiyotni o'qitishda sog'lom e'tiqodli, milliy va umumbashariy qadriyatlarini angelaydigan, axloqan barkamol shaxsni shakllantirish asosiy maqsad qilib qo'yildi. O'quvchilarda badiiy adabiyotga havas, mehr uyg'otish, badiiy asarlarini o'qib tushunadigan va tahlil qila oladigan, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda to'g'ri, erkin ifodalay oladigan qilib tarbiyalash orqali amalga oshirilmoqda.

O'zbek tiliga davlat maqomi berilishi bilan ona tilini chuqur o'rganish umumiy o'rta maktab va boshqa o'quv yurtlari ta'limining asosi qilib qo'yildi. Ona tilida beriladigan bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini o'stirish; ularda ona tilidan ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularni o'zbek adabiy tilining yozma va og'zaki shaklini puxta o'zlashtirgan madaniyatli va savodli qilib yetishtirish nazarda tutildi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da qanday qoidalar ifodalangan?

- Muammolar va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish omillari;

- Milliy dasturning maqsadi, vazifalari va uni ro'yobga chiqarish bosqichlari;

- Kadrlar tayyorlashning milliy modeli;

- Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari;

- Dasturni ro'yobga chiqarishning tashkiliy asoslari.

Nihoyat, ushbu har ikkala hujjat mustaqil O'zbekistonimizni raqobatbardosh kadrlar bilan ta'minlash, ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, har tomonlarni yetuk pedagog kadrlar tayyorlash, milliy pedagogikaning yangicha rivojlanishida, istiqbolli kelajak sari intilishimiz va keng qamrovli yutuqlarni qo'lga kiritishimizda asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

2020-yil 23 sentabrda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonuni e'lon qilindi.

Ushbu Qonunning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonun hujjatlari "Ta'lim to'g'risida"gi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi: davlat akkreditatsiyasi - davlat ta'lim muassasalari va tashkilotlari, shuningdek nodavlat ta'lim tashkilotlari (bundan buyon matnda ta'lim tashkilotlari deb yuritiladi) faoliyatining davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablariga hamda o'quv dasturlariga muvofiqligining davlat tomonidan e'tirof etilishi hamda ularning bitiruvchilariga ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni topshirish huquqining taqdim etilishidan iborat jarayon:

- **davlat ta'lim muassasasi** - davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim beradigan muassasa;

- **davlat ta'lim standartlari** - davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

- **davlat ta'lim talablari** - ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar;

- **malaka** - shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma'lumot to'g'risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko'nikmalar darajasi;

– **mutaxassislik** - malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi;

– **nodavlat ta'lim tashkiloti** - davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

– **tarbiya** - aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

– **ta'lim** - ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

– **ta'lim kompusi** - yagona hududda birlashtirilgan o'quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarni), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish ob'yektlarini o'z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo'lgan, o'quv jarayoni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan ta'lim-tarbiya muhiti;

– **ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari** - ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari;

– **ta'lim tashkilotlari attestatsiyasi** - ta'lim tashkilotlarining faoliyatini baholash, davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari hamda o'quv dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo'yicha davlat nazoratining asosiy shakli.

Ta'lim sohasidagi asosiy printsiplar

Ta'lim sohasidagi asosiy printsiplar quyidagilardan iborat:

- ta'lim ustuvorligining tan olinishi;
- ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi;
- ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi;
- ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi;
- ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarining singdirilganligi;
- ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi;
- davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;
- insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi;
- jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;
- bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;
- ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivojining asosiy yo'nalishlari

Jamiyat taraqqiyotida har bir fanning o'z o'rni bo'lganidek, pedagogika fanining ham o'ziga xos ustuvor yo'nalishlari va istiqbolli dolzarb vazifalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta'lim taraqqiyotida paydo bo'layotgan **“Innovatsion yondoshuv”**, **“Innovatsion faoliyat”**, **“Innovatsion pedagogika”** tarzidagi tushunchalar yuqoridagi ehtiyojlar asosida kelib chiqqan bo'lib, ularning pirovard maqsadi ta'lim sohasida o'quv-

tarbiya jarayoni natijasini kafolatlaydigan o'zgarish, yangilanishlar kiritishdan iborat.

O'zbekiston sharoitida esa, innovatsiyalarni o'rganish, uni ta'lim jarayoniga tatbiq etish ta'lim tizimini isloh qilish masalalari bilan bog'liq ravishda tayyor axborotlarni berishga asoslangan an'anaviy o'qitish turidan, o'quvchi-talabalarning o'zlarini izlanishga, ma'lumotlarni o'zlari izlab topishga o'rgatadigan ta'lim tizimiga o'tish yo'lidagi harakatlar bilan asoslanadi.

"Yangilik kiritish" (Innovatsiya) tushunchasi yangiliklarda ham, ushbu yangilikni amaliyotga tatbiq etish jarayoni sifatida ham tushuniladi.

"Innovatsion pedagogika" termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar G'arbiy Yevropa va AQShda XX asrning 60-yillarida paydo bo'ldi. Innovatsion faoliyat F.N.Gonbolin, S.M.Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina, V.A.Slastenin va boshqalarning ishlarida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlar innovatsion faoliyat amaliyoti va ilg'or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazaridan yoritilgan.

Ta'lim innovatsiyalari "innovatsion ta'lim" deb ham nomlanadi. "Innovatsion ta'lim" tushunchasi birinchi bor 1979 -yilda "Rim klubi"da qo'llanilgan.

Innovatsiya – (ingliz tilidan olingan "Innovation" yangilik kiritish) - tizim ichki tuzilishni o'zgartirish amaliyot va nazariyaning yaxshi qismi. Innovatsion jarayonning mazmuniy tamoni o'z ichiga oladi (ilmiy g'oyalar va ularning texnologiyalarni amaliyotga kiritish).

Innovatika – Yangilikni yaratish qonuniyatlarini o'zlashtirish va targ'ibotini o'rganadigan fan.

Innovatsion jarayon – Yangilikning kiritilishi va shart-sharoitlari, tizimini yangi sharoitlarga ko'rsatkichlarga muvaffaqiyatli o'tishni ta'minlovchi o'zgarishlar. Innovatsion o'zgarishlarga tayyorgarlik ko'rish va uni amaliyotga kiritish jarayoni.

Innovatsion faoliyat – Yangi ijtimoiy talablar bilan a'nanaviy me'yorlarning mos kelmasligi. Amaliyotning yangilanayotgan me'yorlarning mavjud me'yorlar bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmual muommalarni yechishiga qaratilgan faoliyat. (V.I.Slobotikov).

Innovatsion muhit – Bu pedagogik jamoda, umuman ta'lim muassasida shunday ijodiy, samimiy do'stona sharoit tug'diriladiki,

unda o'qituvchi o'zini erkin xis qiladi. Jamoda ichki intilish moddiy ma'naviy qiziqish yuqori darajada bo'ladi. U muhitda o'qituvchi ijodiy fikr yuritishga, intilishga tayyor bo'ladi.

Innovatsiya – ma'lum bir faoliyatda shakl, metodlar, muammolarni yechishdagi yangicha yondashuv, yangi texnologiyalarni ta'lim jarayoniga qo'llash orqali yuqori natijalarni ta'minlash. Bir so'z bilan aytganda, jarayonga konseptual yondashuv.

Zamonaviy ta'lim taraqqiyotida paydo bo'layotgan **"Innovatsion yondoshuv"**, **"Innovatsion faoliyat"**, **"Innovatsion pedagogika"** tarzidagi tushunchalar yuqoridagi ehtiyojlar asosida kelib chiqqan bo'lib, ularning pirovard maqsadi ta'lim sohasida o'quv-tarbiya jarayoni natijasini **kafolatlaydigan** o'zgarish, yangilanishlar kiritishdan iborat.

Hozirgi kunda ta'lim muassasasida ta'lim sifatini, ta'lim mazmunini modernizatsiyalashda kompetentli yondoshuvni tuushunchasi pedagogika sohasidagi tadqiqotlarning asosi bo'lib kelmoqda.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda

tutadi. Shuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi

Keyingi yillarda pedagogika sohasida "kompetentli", "kompetensiya", "kompetentlilik" tushunchalaridan tez-tez foydalanilmoqda. Bu ta'lim mazmunini isloh qilish zarurati bilan uzviy bog'liq. S.I.Ojegov bu tushunchalarni quyidagicha ifodalaydi:

Kompetentli – biror sohani chuqur bilish, ko'p narsalardan xabardorlik, o'z mutaxassisligi bo'yicha katta e'tiborga moliklik".

Kompetensiya – 1. Biror kishi juda yaxshi bilgan yoki xabardor bo'lgan masalalar doirasi. 2. Biror kishining vazifalari, huquqlari doirasi".

Kompetensiya – biror soha bo'yicha har tomonlama chuqur bilimga ega bo'lgan va shuning uchun ham fikri salmoqli, ishonchli hisoblangan kishining sifati".

Kompetentlik – muayan sohaga oid chuqur bilimlarga ega bo‘lish va ularni amalda samarali qo‘llay olishdir

Ma'lumki, har bir kasb o'z mazmuniga maxsus yondashuvni va kasbiy faoliyatning u yoki bu funktsional vazifasiga ko'ra maxsus shakllanishini talab qiladi. Pedagogik faoliyatda mutaxassisning pedagogik kompetentlik sifatlariga ega bo'lishi zarur. Mutaxassisning kasbiy kompetentligi kasbiy yetuklikligini baholovchi me'yoridir.

Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishidan iborat

Kasbiy kompetentlikning asosiy darajalariga kasbiy tayyorgarlik va tajriba, o'zini o'zi anglash, o'z kuchiga ishonish, o'zga insonlar tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklarni to'g'ri qabul qilish va shu kabi boshqa kasbiy kamolotni belgilab beruvchi shaxs xususiyatlarini kiradi. Yuqorida qayd etilgan fikrlarni tahlili pedagogning kasbiy kompetentligini shaxsiy, ijtimoiy, kreativ, metodik kompetentlik kabi qator o'ziga xos xususiyatlar majmuasi sifatida to'liq izohlanishiga imkon beradi. Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyatini keltiramiz.

Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub'ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyat natijalarini real baholash, bilim ko'nikma malakani izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi. Ular o'zida quyidagi mazmuni ifodalaydi:

Psixologik kompetentlik – pedagogik jaraënda sog'lom psixologik muhitni yaratish, talabalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglash va bartaraf eta olish;

Metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, o'quv-tarbiya va boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etishning shakl, metod va vositalarini bilish, o'zlashtirish, amalda

qo'llash, kasbiy faoliyat natijalarini kvalimetrik tahlil eta olish, ilg'or pedagogik va xalqaro tajribalarni o'rganish, loyihalashtirish ko'nikmalari bilan tavsiflanadi.

Informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida shaxsiy va kasbiy faoliyati bilan bog'liq ma'lumot, axborotlarni mustaqil izlash, tahlil qilish, tanlash, qayta ishlash va zaruriy axborotlarni uzatish ko'nikmalarining shakllanganlik darajasidir.

Kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish, yangilik yaratish, ijodkorlik, tashkilotchilik kabi ko'nikmalarga ega bo'lishdir. Kreativ kompetentlik faqat yangi g'oyalarni yaratish uchungina emas, balki shaxsning hayot tarzi yoki ichki dunyosining rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish ta'limdagi innovatsion jarayonlar mohiyatidan xabardorlik, kasbiy faoliyat sohasi va tegishli ta'lim yo'nalishidagi innovatsiyalarni o'zlashtirish, amaliyotga faol tatbiq etish, zamonaviy pedagogik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi savodxonlik, chet tillarni o'zlashtirish, novatorlik faoliyatida ko'rinadi.

Ta'lim tizimida yoki o'quv faoliyatida innovatsiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko'zlanadi.

Pedagogik innovatsiyalar tegishli sohada ijobiy o'zgarishlarni sodir etish, sifat jihatdan yuqori natijalarga erishish

Kommunikativ kompetentlik – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish.

Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish. shaxsning ijtimoiy dunyoqarashi, ilmiy va intellektual salohiyati, kreativligi, shaxslararo muloqot-munosabatlariga faol kirisha olishi, konfliktlarni hal etishga taktik

yondashuvi, kasbiy faoliyat talablariga muvofiq shaxsiy va kasbiy sifatlarining shakllanganlik darajasi, faol hayotiy va fuqarolik pozitsiyasining qaror topganligi kabi mezonlar bilan belgilanadi.

Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik bilim ko'nikma va malakalarni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish, texnika-inson, inson-texnika madaniyatini anglash.

Ekstremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar dars va undan tashqari tarbiviy ishlar jarayonida, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.

Media kompetentlik – mediasavodxonlik insonlar uchun eng zarur bo'lgan o'qish, yozish kabi juda muhim ko'nikma bo'lib, ommaviy axborot vositalari (gazeta, jurnal, radio, televideniya, internet) orqali qabul qilinadigan barcha axborotlarni xolis baholash, masala mohiyatini to'g'ri tushunib, ma'lumotlarni tekshirish, o'zlashtirilgan ma'lumotlar asosida mustaqil fikr yuritish, axborotlarni saralashdan iborat. (M.M.Qambarov)

“Fikrlash madaniyati bo'yicha kompetentlik – shaxs aqliy faoliyatining mantiq qonunlari va talablariga mos holda yo'lga qo'yilishi, unda hozirjavoblik, nostandart vaziyatlardan chiqishga yo'l topa bilish, uzoqni ko'ra olish, maqsadga yo'naltirilgan, tizimli, izchil fikr bildirish va to'g'ri xulosa chiqarish ko'nikmalari majmuining borligidir” (M.M.Qambarov)

Fikrlash madaniyati yoki tarbiyalangan fikr fikrlar almashinuvi jarayonida o'zgaralar bilan kelushuvning bo'lmasliga sabablaridan birini shaxsning bevosita o'ziga taluqli bo'lgan hislati-psixologiya terminida aytilgan hissiyotlariga beriluvchanlik sub'yektivizim tashkil qiladi. Zero, halqimizda bu hususida maqol ham bor; “jahll kelganda aql ketadi. Agar bir odam o'zgaralar fikriga, qarashlariga salbiy munosabatda bo'laversa, u bora-bora besabr, toqatsiz, hissiyotlarning quli bo'lib boradi. Bu holat odamning tarbiyalanganligiga ham borib taqaladi. Hayotda tarbiya ko'rgan, tartibli, bama'ni va ularga aks bo'lgan shaxslar bo'lgani kabi, fikrning ham tarbiyalangan va tarbiyasiz turlari bo'ladi.

Demak, tarbiya jarayoni boshqariladigan bo'lganidek, fikrlash jarayoni ham boshqariladi, bunda, avvalo, insonning o'zi va qolaversa, fikr egasini o'rab turgan muhti, yaqinlari va muloqot sharoiti muhim rol o'ynaydi, shu muhit uni boshqarib turadi.

Zamonaviy o'qituvchi o'z sohasi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish, kasbiy mahorat sirlarini puxta o'zlashtirishdan tashqari, bir tomondan, o'quvchilarning bilimdonligi va intellektual rivojlanishini ta'minlashi kerak bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularda sog'lom dunyoqarash, mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirishi lozimdir. Shu tufayli o'qituvchi-mutaxassislarni tayyorlashda ularning kasbiy sifatlari bilan bir qatorda bo'lajak o'qituvchilarda media kompetentlikni qaror toptirish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Chunki o'qituvchining o'zi media kompetentlikga ega bo'lmasa, o'quvchilarida bunday xususiyatni shakllantira olmasligi tabiiydir.

I.A.Karimov asarlarida jamiyat rivojining ma'naviy-axloqiy negizlari va yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishga doir konseptual fikrlarning ifoda etilishi

I.A.Karimov o'zining "Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin" fundamental asarida g'oya, mafkura, milliy g'oya, milliy mafkura, ma'naviyat atamalarining etimologiyalarini ochib berdi. U milliy g'oya, milliy mafkura har kungi hayot sharoitlaridan kelib chiqishi bilan birga, har bir fuqaroning, davlatning, millatning istiqbolidan kelib chiqishini ko'rsatdi.

Bizning ezgu maqsadimiz esa ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish asosida g'oya va mafkuramizni e'tiqod qilinadigan muqaddas tuyg'uga aylantirishdir. Chunki e'tiqodga aylanmagan g'oyani g'oya, milliy mafkurani mafkura deb bo'lmaydi.

Milliy tarbiya masalalariga e'tibor berilishi yoshlarimizni kelajakda o'z yo'lini aniq tanlashi, mustaqil fikriga ega bo'lishni ta'minlaydi.

Ertangi kun yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan yuksak malakali mutaxassislarni talab etadi.

Barchamiz yaxshi bilamizki, kelajak avlod xaqida qayg'urish, sog'lom, barkamol insonni tarbiyalab yetishtirishga intilish, bizning milliy xususiyatimizdir.

O'zbek xalqi doimo farzandim deb yashaydi. Shu ma'noda uning sog'ligi, jismoniy, aqliy kamolotga alohida e'tibor bilan

qaraydi. Sog'lom avlodni tarbiyalash – buyuk davlat poydevorini, farovon hayot asosini qurish deganidir.

Ta'lim muassasalarida o'quvchi – talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatilishi, o'qituvchi va o'quvchi-talabalar munosabatidagi majburiy itoatkorlik o'rmini ongli intizom egallishi lozimligini uqtirdi.

Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan muhim hayotiy omil - bu ta'lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan.

Albatta, ta'lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni, xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi.

Shu bois bu sohada yuzaki, rasmiy yondashuvlarga, puxta o'ylanmagan ishlarga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Maktab, ta'lim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo'lishi asosiy qonunimizda belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo'llab-quvvatlashini talab qiladigan umummilliy masaladir.

Shuni unutmashimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq.

Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi.

Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi. Bu haqtsa fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir» degan chuqur ma'noli so'zlarini eslayman. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zla-ri asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar

muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Nega deganda, bizga sobiq tuzumdan meros bo'lib qolgan maorif tizimining eng noma'qul tomoni shundan iborat ediki, unda o'quv jarayonida o'quvchi va talabalarning mustaqil va erkin fikrlashiga yo'l qo'yilmas edi. Har qaysi o'quv yurtini bitiruvchilarning bilimiga qarab emas, aksincha, ularning sobiq sovet tizimiga va soxta g'oyalarga sadoqatini hisobga olib baholash va hayotga yo'llash tamoyili asosiy o'rinni egallar edi. Ko'p hollarda sifat o'rniga son ketidan quvish ustunlik qilardi. Aksariyat yoshlar haqiqiy bilim yoki malaka orttirish maqsadida emas, ko'proq amalda diplomli bo'lib olish ilinjida texnikum yoki institutlarga kirar edi.

Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqyosida ta'lim va tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rgatish tizimlarini tubdan isloh qilishga nihoyatda katta zarurat sezila boshladi.

Ta'lim-tarbiya tizimidagi islohotlar boshlangan dastlabki yillarda men jahon tajribasi va hayotda o'zini ko'p bor oqlagan haqiqatdan kelib chiqib, agar bu maqsadlarimizni muvaffaqiyatli ravishda amalga oshira olsak, tez orada hayotimizda ijobiy ma'nodagi «portlash effekti»ga, ya'ni, yangi ta'lim modelining kuchli samarasiga erishamiz, degan fikrni bildirgan.

Darhaqiqat, istiklol davrida barpo etilgan, barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan, zamonaviy kasb-hunar va ilm-ma'rifat sirlarini o'rganayotgan, hozirdanoq ikki-uch tidda bermalol gaplasha oladigan ming-minglab o'quvchilar, katta hayotga kirib kelayotgan, o'z iste'dodi va salohiyatini yorqin namoyon etayotgan yosh kadrlarimiz misolida ana shushay orzu-intilishlarimiz bugunning o'zida o'z hosilini berayotganining guvohi bo'lmoqdamiz. (*Yuksk mak'naviyat yengilmas kuch. I. Karimov Ma'naviyat 2008-y. Toshkent.*)

O'zbekiston respublikasi rivojining yangi bosqichida ta'lim-tarbiya islohotlari. Sh.Mirziyoyevning ta'lim-tarbiyaga oid islohotlari haqida

So'nggi yillarda mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog'cha tarbiyalanuvchilari, o'quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

1. Uzbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

– mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish;

– dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yulga qo'yish, darslik va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o'quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish;

– ta'lim-tarbiya muassasalarining rahbar xodimlari, pedagog va murabbiylari, professor-o'qituvchilari va ilm-fan sohalari vakillarining jamiyatimizdagi o'rni va maqomini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash va faoliyat samaradorligiga qarab moddiy rahbatlantirish;

– pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida takomillashtirib borish;

– ilmiy-tadqiqot va ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha xususiy sektorning salmog'ini kengaytirish, hududlarda nodavlat ta'lim tashkilotlarini tashkil etish orqali raqobat muhitini shakllantirish, ta'lim sohasida davlat xususiy-sheriklikni rivojlantirish;

– zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va har

tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish, ta'lim oluvchilar o'rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish;

– ilm-fanni iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish, ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, iqtidorli yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish, mavjud ilmiy tashkilotlar salohiyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish;

– ta'lim tizimiga yuqori samarali xalqaro amaliyotni joriy etish, respublika ta'lim tashkilotlarini nufuzli xalqaro reytinglarga kiritish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish.

O'zbekistonda ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag'lar yo'naltirilmoqda. Maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda.

– Hammamiz aziz farzandlarimiz hayoti va taqdirini o'qituvchi va murabbiylarga ishonib topshiramiz. Mana shunday beqiyos bo'lik posbonlari, kelajak bunyodkorlari bo'lgan bu mo'tabar zotlarga munosib hurmat-ehtirom ko'rsatishimiz kerak. Jumladan, jamiyatda muallimning obro'-e'tibori va maqomini ko'tarish, o'quv dasturlari va metodikasini to'liq qayta ko'rib chiqish, maktabni ta'limning keyingi bosqichlari bilan uzviy bog'lash, o'qituvchilarni ortiqcha qog'ozbozlikdan xalos etib, o'z ustida ko'proq ishlashi uchun sharoit yaratish va shuni rag'batlantirish, maktab infratuzilmasi va undagi ma'naviy muhitni yaxshilash kabi masalalarning yechimlari aniq belgilab berilmoqda.

Davlatimiz rahbari avvalo maktablarda o'quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko'rib chiqish, o'quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarurligini ta'kidladi.

Bu borada Finlyandiya tajribasi misol qilib keltirildi. Ushbu mamlakat umumiy savodxonlik, tabiiy fanlar va matematika bo'yicha dunyoda eng ilg'orlardan biri.

– Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Tayanch so'zlar: "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun", ta'limning uzluksiz, ta'lim va tarbiyani kompleks ravishda uyushtirish, ta'limni demoqratlashtirish va insonparvarlashtirish, ta'lim fan hamda ishlab

chiqarish bilan integratsiyalash, maxsus ta'lim, kasb-hunarga tayyorlash,

Bilimingizni sinab ko'ring.

1. Mustaqill O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida'gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"(1997y) – Respublikamizda ta'lim-tarbiyani tashkil etish va kadrlar tayyorlashning uzviyligi nimalarda ko'zga tashlanadi?
3. I.A.Karimov asarlarida jamiyat rivojining ma'naviy-axloqiy negizlari va yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishga doir kontseptual fikrlarning ifoda etilishi.
4. Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston respublikasi rivojining yangi bosqichida ta'lim-tarbiya islohotlari nimalarda o'z ifodasini topgan?
5. Mustaqil O'zbekistonda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari
6. Ta'limning uzluksizligi va izchilligi deganda nimani tushunasiz?
7. 2020-yil 23 sentyabrda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonuni e'lon qilinishishi va uning maqsadi nimalardan iborat?
8. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari mazmun-mohiyati.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi Qonuni" 2020 y. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2020 yil 24 sentyabr "Xalq so'zi", 2020 yil 24 sentyabr
2. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat 2008.
3. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. T.: O'qituvchi 2021
4. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. Yoshlar nashriyoti uyi. T.: O'qituvchi 2019
5. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent –"O'zbekiston" -2016.488 B.

6. Xadjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. T.: Sano-standart. 2017.
7. Ўзбек педагогикаси тарихи (проф Аскар Зуннуновнинг умумий таҳрири остида). Т., «Ўқитувчи». 1997
8. Xadjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. T.: Sano-standart. 2017.
9. Ro'zieva D.L., Tolipov, O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat 383 s. T.: Innovatsiya ziyo. 2019.
10. Yo'ldoshev O'.J. Umumiy pedagogika. Darslik. Toshkent. Fan va texnologiyalar. 2019.

9-Mavzu: Eng qadimgi davrlardan XIX asrning birinchi yarmida jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi.

Y.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi

Reja:

1. Qadimgi Sharq, Qadimgi Yunoniston, Qadimiy Sharq mamlakatlaridagi ixtirolarga Gretsiya (Yunoniston) xalqlarining ta'siri.
2. Qadimgi Rim davlatlarida maktab va tarbiya.
3. Qadimgi Yunoniston faylasuflari tarbiya to'g'risida.
4. Qadimgi Rimd pedagogik g'oyalar rivoji.
5. Iogann Genrix Pestalotsiyning didaktika va boshlang'ich ta'lim metodikasiga qo'shgan hissasi.
6. Adolf Distervergning rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi.
7. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi.

Tarixiy manbalardan bizga ma'lumki, qadimiy sharqda ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilib, uning o'lmiga yangi quldorlik tuzumining paydo bo'lishi moddiy-ma'naviy madaniyatga asos solinishiga zamin yaratdi. Ayniqsa, qadimiy Yunoniston (Gretsiya) xalqlari bu madaniyatni ma'lum darajada qabul qilib, uni qaytadan rivojlantirdi va va butun jahon madaniyatiga, maorifga ulkan hissa qo'shganlar. Masalan: Xitoyda birinchi marta qog'oz ixtiro qilingan. Hindistoda hisoblashning o'nlik tizimi kashf etilgan. Mesopotamiyada esa yer kurrasini graduslarga, sutkani soatlar, minutlar va daqiqalarga bo'lish o'ylab topilgan.

Bizga ma'lumki, quldorlik formatsiyasi davrida Qadimiy Sharq mamlakatlari orasida, ayniqsa, Yunonistonda madaniyat, tarbiya, maktab va dastlabki pedagogik fikrlar boshqa mamlakatlarga nisbatan juda erta rivojlangan.

Yunoniston unchalik katta bo'lmagan quldorlik davlatlaridan iborat bo'lgan. Uning katta shaharlaridan biri Lakoniya (poytaxti Sparta) va Attika (poytaxti Afina) bo'lib, bu shaharlar madaniyat markazi hisoblangan. Bu ikki shaharda tarbiyaning o'ziga hos tizimi vujudga keldiki, natijada bu tarbiya tizimi "Sparta" va "Afina" usulidagi tarbiya deb yuritiladigan bo'ldi. Ammo ikkala davlatda ham quldorlik tuzumi hukmronlik qilar edi. Shuning uchun ham bu davlatlarda ijtimoiy tarbiya tizimi quldorlarning bolalarini manfaatini ko'zlar edi. Yunonistonda qullarni "gapiradigan ish quroli" deb hisoblar edilar. Qullar oddiy insoniy huquqlardan ham mahrum edilar.

Sparta va Afina tarbiyasi qanday vujudga kelgan?

Qadimgi Gretsiya (Yunoniston) unchalik katta bo'lmagan bir qancha quldorlik davlatlaridan (polislardan) iborat mamlakat edi. Lakoniya (bosh shahri Sparta) va Attika (bosh shahri Afina) Gretsiyadagi davlatlarning eng mo'tabarlaridan edi. Bu davlatlarning har qaysisida tarbiyaning alohida tizimlari vujudga keldi va shunga yarasha Sparta usulidagi tarbiya va Afina usulidagi tarbiya deb ataladigan bo'ldi. Bu ikki davlatning iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotidagi ba'zi bir xususiyatlar va madaniyat darajasi turlicha bo'lganligi tufayli har ikki tizim bir-biridan farq qilar edi. Ammo ikkala davlat ham quldorlik davlati edi, binobarin, bu davlatlarda ijtimoiy tarbiya tizimi quldorlarning bolalariga xizmat qilar edi.

Sparta (Lakoniya) usulidagi tarbiya

Lakoniya (Sparta) Peloponnesning sharqi-janubiy qismidagi hududda joylashgan, davlat bo'lib, bu hudud sohilida kemalar to'xtaydigan qulay joylar yo'q edi. Mamlakatda qullar (ilotlar) mehnatiga asoslangan dehqonchilik hukmron edi. Soni unchalik ko'p bo'lmagan yarim ozod va to'la huquqli bo'lmagan aholisining ko'pchiligi hunarmandlar edi. To'qqiz ming oiladan iborat bo'lgan quldorlar 250 mingdan ko'proq aholiga hukmronlik qilardi. Spartada qullar hayoti juda og'ir edi, shuning uchun ular tez-tez qo'zg'alon ko'tarib turar edilar. Buning uchun ham spartaliklar juda uyushqoq bo'lib yashashga, hamisha harbiy tayyor holda turishga majbur edilar.

Tarbiya ishlari davlatning qo'lida edi, u spartaliklarning bolalaridan baquvvat va chiniqqan jangchilar, bo'lajak quldorlarni tayyorlashni o'z oldiga bevosita vazifa qilib qo'ygan edi. Spartadagi tarbiya ham shu vazifaga bo'ysundirilgan edi.

Spartaliklarning bolalari 7 yoshgacha ota-onalarining uyida yashar, 7 yoshga yetgandan keyin agella deb ataluvchi alohida davlat tarbiya muassasiga joylashtirililar va 18 yoshga yetguncha ana shu muassasalarda tarbiyalanib, o'qitilar edi. Hukumatga tanig'lik kishi (pedonom) butun tarbiyaviy ishlarga rahbar qilib tayinlanar edi. O'smirlarni jismoniy jihatdan tarbiyalashga alohida e'tibor berilar edi: ularni chiniqtirar, sovuqqa, ochlikka va chanqoqlikka chidashga,

og'riqqa bardosh berishga o'rgatar edilar. Harbiy gimnastika mashqlariga ko'p e'tibor berilar edi. Yosh spartaliklar yugurishni, sakrashni, disk va nayza ota bilishni, kurashish, qo'l bilan jang qilish usullarini, harbiy ashulalar aytishni o'rganar edilar. Harbiy tusdagi maxsus o'yinlar ham o'ynatilar edi. Bolalarga jismoniy tarbiya berish bilan birga muzika, ashula va diniy raqslar ham o'rgatilar edi.

“O'qish va yozishga kelganda, -deb yozgan edi grek tarixchisi Plutarx, bolalarga faqat ularning eng zaruri o'rgatilar edi, tarbiyaning qolgan qismi esa bitta maqsad: hech so'zsiz itoat qildirishni, chidamli bo'lishni va yengish ilmini o'rgatishni ko'zda tutar edi.” Yoshlarni qullarga nisbatan shafqatsiz qilib, ularni mensimaydigan qilib tarbiyalash alohida vazifa qilib qo'yilar edi. Shu maqsad bilan yoshlar “kriptiyalar”da, ya'ni kechalari qullarni tutish mashqlarida qatnashtirilar edi, bunday mashqlarda yosh spartaliklar otryadlari shaharning biror mahallasini yoki shahar tashqarisidagi hududni qurshab olib, shubhali bo'lib ko'ringan har qanday jonotni (qulni) o'ldira berar edilar.

18-20 yoshga yetgan yigitlar alohida efeblar guruhiga o'tkazilar va harbiy xizmat o'tar edilar. Qizlarga harbiy va jismoniy tarbiya berishga katta e'tibor berilar edi. Buning sababi shudaki, erkaklar qullar qo'zg'olonini bostirmoq uchun yoki urushlarga ketgan vaqtlarida shaharni va uy-joylarni himoyasiz qoldirib ketishga majbur bo'lar edilar, bunday paytlarda qurollangan xotin-qizlar qo'riqchilik vazifasini o'tashar, qullarni itoatda tutar edilar.

Qadimiy Gretsiyaning ikkinchi shaharlaridan biri **Afinada** esa hayot, tartib, intizom, maktab tizimi, undagi ta'lim-tarbiya Spartanikidan butunlay farq qilar edi. Afinadagi iqtisodiy hayot Spartadagi singari cheklanib qo'yilgan emas edi. Qullar xususiy mulk hisoblanar edi. Bu yerda tibbiyot ilmi, matematika, tarix, san'at, me'morchilik, haykaltaroshlik taraqqiy etgan edi.

Tarbiya jarayonida aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy tarbiya birga qo'shib olib borilgan. Lekin bu tarbiyalarni mukammal egallash faqat feodallarning farzandlariga nasib etgan holos.

Afinada tarbiya va maorif masalasi Sparta nisbatan tubdan farq qilar edi. Bu yerda grammatist, polestra, gimnasiy, efeb, demos kabi maktab turlari mavjud edi.

Afinada eramizdan ilgari V-IV asrlarda madaniyat barq urib o'sdi. Dunyoqarashning keyingi hamma tiplari grek falsafasining

xilma-xil shakllarida ko'rtak hoida rivojlana boshladi. O'sha zamonda falsafa, tabiiyot ilmi, matematika, tarix, binokorlik san'ati, ajoyib grek haykaltaroshligi taraqqiy etdi.

Afinada eng barkamol odam deb ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan ko'rkli kishilarni hisoblar va buni ideal qilib olgan edilar. Bunday ko'rkli odam tarbiyalab yetkazish uchun aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy tarbiyani birga qo'shib olib berish talab qilinadi. Lekin bu ideal (bunday murakkab tarbiya) faqat ijtimoiy tabaqa bo'lgan quldorlargagina xos edi. Jismoniy mehnat faqat qullarning qismati deb hisoblanar edi. Ammo tabaqalanish natijasida quldorlik jamiyatining o'zida ancha kambag'al, ya'ni erkin oiladan tug'ilgan va qullikdan ozod etilgan kishilarning kattagina guruhi ajralib chiqdi, bo'lar hunarmandchilik va boshqa ba'zi ishlar bilan, shu jumladan, o'qituvchilik bilan shug'ullanar edilar. Boy quldorlar bo'larga ham nafrat bilan qarar edilar.

Afinada bolalar 7 yoshga yetgunicha uyda tarbiyalanib, faqat o'g'il bolalar 7 yoshdan boshlab maktabga qatnar edilar. Qiz bolalar esa oilada tarbiyalanar, ro'zg'or ishlarini o'rganar edilar. Afinada xotin-qizlarning hayoti, umuman, uy doirasidan chiqmas va ichkarida o'tar edi.

Dastlab bolalar (7 yoshdan 13-14 yoshgacha) grammatist va kifarist maktablarida (yoki shu maktablarning har ikkoviida ham, yoki bo'lmasa avval grammatist maktabida, so'ngra esa kifarist maktabida) o'qitilar edilar. Bo'lar haq olib o'qitadigan xususiy maktablar edi, shuning uchun ham erkin, lekin puli bo'lmagan (demos deb atalgan) fuqorolarning bolalaridan anchagina qismi bunday maktablarda ta'lim ololmas edi. Maktablarda "didaskal" deb atalgan o'qituvchilar mashg'ulot olib borar edilar (men o'qitaman, degan ma'nodagi "didaeko" so'zidan keyin "didaktika" – ta'lim nazariyasi kelib chiqqan). O'g'il bolalarni maktabga qullardan biri boshlab borar edi. Bunday qul "pedagog" deb atalar edi ("pays" – bola, "agogeyn" – yetaklab borish degan so'zlardan olingan).

Grammatistning maktabida o'qish, yozish va hisoblash o'rgatilar edi. Bunday maktabda harflarni hijjalab o'qitish metodi qo'llanilar edi. Bolalar harflarning nomlarini (al'fa, beta, gamma va hokazo) yodlab olar, so'ngra shu harflarni qo'shib bo'g'inlar yasar edilar, ammo harflarning nomi bilan tovushning bir-biriga mos kelmasligi sababli bu usulda o'qish juda qiyin edi. Yozuv o'rgatmoq uchun mum

surilgan yaltiroq taxtachalardan foydalanilar edi, bunday taxtachalarga ingichka cho'p bilan harflar yozilar edi. Barmoqlar, yapaloq toshlar va sanoq taxtasi (hozirgi cho'tga o'xshash asbob) yordami bilan hisoblashni o'rgatilar edi. Kifarist maktabida o'g'il bolalarga adabiy bilim va estetik tarbiya berilar edi. Unda musiqa, ashula, she'r yodlash mashqlari o'rgatilar ("Illida" va "Odisseyadan" olingan parchalar o'qitilar) edi. Yagona talab qo'yilgan o'quv dasturi yo'q edi. Har bir o'qituvchi o'z mashg'ulotlarini odat bo'lib qolgan an'analarga muvofiq olib borar edi.

O'g'il bolalar o'n uch-o'n to'rt yoshga yetganlaridan keyin palestra ("kurash maktabi") deb atalgan o'quv yurtiga o'tar edilar. Bu o'quv yurtida ular ikki-uch yil davomida jismoniy mashqlar bilan shug'ullanar edilar, "Besh kurash" deb nom berilgan bu jismoniy mashqlar yugurish, sakrash, kurash tushish, disk va nayza irg'itishdan iborat bo'lar edi, suvda so'zish ham o'rgatilar edi. Shu bilan bir vaqtda yoshlar bilan siyosiy va axloqiy masalalarga doir suhbatlar o'tkazilar edi. Palestrada jismoniy tarbiya va axloqiy masalalarga doir suhbatlarga eng taniqli fuqorolar hech bir haq olmay rahbarlik qilar edilar. Palestrada o'qish tekin edi, shuning uchun ham yoshlarning ko'pchilik qismi palestrada o'qish bilan cheklanib qo'ya qolar edi.

Yoshlarning badavlatroq oiladan bo'lgan qismi palestrani tamomlaganidan keyin gimnaziya kirar edi. Bunday yoshlarni davlatni boshqarishda qatnashishga tayyorlaroq uchun gimnaziya ularga falsafa, siyosat, adabiyot fanlari o'rgatilar edi, lekin shu bilan birga, ular gimnastika bilan shug'ullanishni ham davom ettirar edilar.

Nihoyat, Spartada bo'lgani kabi, Afinada ham 18 dan 20 yoshgacha bo'lgan yoshlar efeblar qatoriga o'tib, harbiy xizmatga tayyorlanar edilar. Ular istehkomlar qurishni, harbiy mashinalarni ishlata bilishni o'rganar, shahar garnizonlarida xizmat qilar, dengizchilik ishini o'rganar, ijtimoiy bayramlarda va teatr tomoshalarida qatnashar edilar.

Afina respublikasida quldorlik jamiyati ichidagi tabaqalanishning tarbiya sohasiga o'tkazgan ta'siri shundan iborat bo'ldiki, mukammal tarbiya olish faqat badavlat quldorlarning bolalarigagina xos bo'lib qoldi. Aholining erkin qismining asosiy ko'pchiligi o'z bolalariga kasb-hunar o'rgatar, bu tabaqaning bolalaridan ba'zilari o'z otalaridan savod o'rganar edilar. Bu tartib qonunlashtirilib qo'yildi. Qonunga ko'ra, bechorahol tabaqaga

mansub ota-onalar o'z bolalariga biror kasbni o'rgatishga majbur edilar, aks holda ularning bolalari kelgusida keksayib qolgan ota-onalari to'g'risida moddiy g'amxo'rlik qilishdan ozod etilar edi. Quldor zodagonlar mehnat bilan shug'ullanuvchi erkin aholiga nafrat bilan qarar edilar.

Hozirgi maorif, ilm-fan, adabiyot va san'at

Maorifi. Maorif tizimi 4 bosqichga bo'linadi: 6 yillik umumiy, 3 yillik o'rta va 3 yillik o'rta maxsus. Umumiy va o'rta maxsus ta'lim majburiydir.

Gretsiyada 17-ta universitet va bir qancha texnika institutlari bor. Yiriklari: Afina, Saloniki universitetlari, Afina politexnika instituti.

Ilmiy muassasalari: Afina akademiyasi (1986); 20 ga yaqin ilmiy-tadqiqot instituti; milliy rasadxona (1842-yil Afina); Milliy kutubxona (1828-y.); Milliy arxeologiya muzeyi (1874-y); Milliy tarix muzeyi (1888-y), san'at asarlari galeriyasi (1900-y) – hammasi Afina shahrida joylashgan. Demak, asosiy ilmiy va madaniy-ma'rifiy muassasalari markazlashgan.

Adabiyot: Yangi adabiyoti Vizantiya yemirilganidan keyin dastlabki antik va Vizantiya madaniyati an'anlari, uyg'onish davri g'oyalari, xalq og'zaki ijodiyoti zaminida yuzaga kelgan.

Ijtimoiy tengsizlik asoslarini fosh etuvchi "Qiz va yigitlapari", "Erifoli", "Erotokritos" kabi to'g'ri janrlarda yaratilgan baquvvat asarlari bor.

Qadimgi Grek dramaturgi Sofokelning "Shoh Edip" asari O'zbekiston milliy akademik drama teatrida zo'r muvaffaqiyat bilan sahnalashtirilgan.

Gretsiyada me'morchilik XV asrning oxiri XIX asrning boshlarida, tasviriy san'at, musiqa va teatr san'ati ham ana shu davrlardan rivojlangan. Kino san'atiga 1906- yilda asos solingan bo'lib, hozirda yiliga 100-120 film ekranlashtiriladi.

Greks madaniyatining (V-VI asr) gullagan davridan boshlab, hozirgacha tahminan 2400 yil o'tdi. Biroq u butun dunyo madaniyatining rivojlanishi uchun shunchalik katta ta'sir qildiki, uning ahamiyatini biz shu kunlarda ham sezamiz.

Grek madaniyatining yutuqlari:

1. Grek yozuvi ko'pgina alfavitlar uchun shu jumladan, kril va lotin alfaviti uchun ham asos bo'lgan.
2. Qadimgi greklar ilm-fan taraqqiyoti yo'lida olg'a qarab katta qadam qo'yganlar.
3. Gretsiya teatr vatani bo'lgan.
4. Mashhur Grek yo'zuvchilari Gomer, Esxil, Gerodotning asarlari hozirgi zamonda ham barcha tillarga tarjima qilingan.
5. Qadimgi greklar qurgan binolar va haykallar keyingi zamonlardagi arxitektorlar va haykaltaroshlar uchun ta'lim oladigan namuna bo'lgan.
6. Grekcha ko'pgina so'zlar hozirgi zamon tillariga kirgan. Masalan: "maktab", "Arifmetika", "Teatr", "Xor", "Tragediya", "Tarix", "Pedagogika" ("Poys"-bola, "agogeyn"-yetaklab borish), "Kosmos", "Atom", "Olimpiada", "Marafoncha yugurish", "Gimnastika", "Apteka" va hokazo.
7. Har 4 yilda bir marta Olimpiyada o'yinlari o'tkazilgan, o'yinlar paytida katta mash'ala yonib turagan.
8. Qadimgi Yunonistonda pedagogika falsafa fanining uzviy bir qismi sifatida rivojlandi.

Maorif sohasida "O'zbekiston – Gretsiya"

Maorif sohasida O'zbekiston va Gretsiya davlatlari o'rtasida qanday munosabatlari o'rnatilgan?

1992 -yil 16 -martda ikkala mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilgan paytdan boshlab o'zaro iqtisodiy, madaniy aloqalar va savdo-sotiq rivojlana boshladi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimovning 1997 yil 31 mart – 2 aprel kunlari Gretsiyaga qilgan rasmiy tashrifi chog'ida ikki davlat o'rtasida quyidagi bitim va hujjatlar imzolandi:

"Do'stlik va hamkorlik to'risidagi shartnoma", "Iqtisodiy va texnologik hamkorlik", "Maorif, fan va madaniyat sohasidagi hamkorlik" va hokazo.

1995-yil yanvardan boshlab “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasining samolyotlari oyiga 2 marta Afinaga borib kelmoqda.

2009-yil 2009-yil 28-yanvardagi 24-son Vazirlar Mahkamasining qarori Siyosiy diplomatik munosabatlar va parlamentlararo aloqalarni faollashtirish bo‘yicha.

Bundan tashqari, Gretsiya madaniyati va san‘ati vakillari Samarqand shahrida o‘tkaziladigan an‘anaviy «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivalida muntazam qatnashib kelmoqdalar.

Ikki davlat o‘rtasidagi aloqalar sport sohasida ham mustahkamlanib bormoqda. Jumladan, 2004 -yildan buyon Saloniki shahrida o‘zbek kurashi bo‘yicha xalqaro turnir o‘tkazib kelinmoqda.

Ta‘lim sohasidagi hamkorlikka O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti bilan Gretsiya pedagogik texnologiyalar instituti o‘rtasida qaror topgan yaqin hamkorlikni misol keltirish mumkin. Mazkur oliy o‘quv yurtlari Belgiyaning Gent universiteti bilan hamkorlikda TEMPUS dasturi doirasida «Grek tilini o‘rganish, grek tilini o‘qitishning zamonaviy markazini yaratish» loyihasini amalga oshirdi.

Qadimgi Rim davlatlarida maktab va tarbiya

Qadimgi Rimda feodalizm avvalgi III-II asrlarda ilm-fan, adabiyot, tarix fanlari, me‘morchilik va tasviriy san‘at rivojlana boshladi. Jumladan, badiiy adabiyot sohasida Ovidiyning “Muhabbat ilmi”, “Metomarfazalar”, tarix fani sohasida Tit Liviyning “Rim tarixi”, Karneliy Taqitning badiiy didaktik ruhdagi “Annalar” va “Tarix” asarlari yuzaga keldi. Tabiiy fanlar sohasida Ptolemeyning “Almagest” asari yozilib, unda olarning geotsentrik nazariyasi bayon etildi. Diofant “Arifmetika”, Pagg Aleksandriyskiy “Matematika to‘plarni”ni, Vitruviy “Arxitektura haqida 10 kitob”ini yaratdi.

Qadimgi Rimda aholining mol-mulkiga va aslzodaligiga qarab tabaqalinishi natijasida maktablar ham boshlang‘ich maktablar va undan yuqoriroq bosqichdagi grammatika maktablariga bo‘lindi.

Unchalik boy ham, aslzoda ham bo‘lmagan, lekin erkin oilada tug‘ilgan aholi (plebeylar) bolalarining ba‘zi bir qismi xususiy va pul to‘lab o‘qitiladigan boshlang‘ich maktablarda o‘qitiladigan bo‘ldi. Bunday maktablarda o‘qish, yozish va hisob o‘rgatilar edi. Boylar va

aslzodalar o'g'il bolalariga o'z uyda o'qitilib, boshlang'ich ma'lumotni uyida berar edilar. Grammatika maktablarida amaldor va imtiyozli kishilarning o'g'illari o'qitilar edi. Bu maktablar ham xususiy va pullik bo'lib, bunda lotin tili, yunon (grek) tili, ritorika (chiroyli nutq ba'zi ma'lumotlar) o'qitilar edi. Davlat tomonidan saylab qo'yiladigan rahbar mansablarni egallashga intiluvchilar notiqlik san'atining egallashlari zarur taraqqiy etib ketgan va zabardast notiqnlarni va davlat arboblarni tarbiyalab yetishtirgan.

Rimda (miloddan avvalgi II asrda) alohida ritorlar (notiqlar) maktabi vujudga keldi. Bunday maktablarda aslzodalarning bolalari katta pul to'lab ritorika, falsafa va huquqshunoslik, yunon (grek) tili, metamatika va musiqa o'rganar edilar. Chunki, davlatda oliy mansablarni egallashi uchun aslzoda yoshlarning shu fanlarni o'rganishi zarur bo'lib qolgan edi.

Rimda grammatika va ritorlar maktablari davlat tasarrufida bo'lib, bu maktablarning vazifasi hokimiyatiga sodiq amaldorlar tayyorlashdan iborat edi. Davlat bu maktabalarning muallimlarini o'z siyosatlarini o'tkazuvchi itoatli kishilarga aylantirishga intildilar, buning uchun ularga oylik maoshlar tayinlab, turli imtiyozlar berib qo'ydilar.

Qadimgi Rimda ilg'or pedagogik fikrlar va pedagogika nazariyasining taraqqiyotida **Mark Fabiy Kvintilianing** (eramizning 42-118 -yillari) xizmatlari katta. Uning "Notiq tarbiyalash to'g'risida" asari pedagogika tarixida birinchi marta pedagogika nazariyasi tajribasi bilan chambarchas bog'langandir.

Kvintilian bolalarining tabiiy qobiliyatlariga yuksak baho beradi. Uning fikricha, befahmlik va qobiliyatsiz kamdan-kam uchraydigan hodisadir. U maktabning tarbiyaviy ta'sirini qayd qilgan holda, uy muhitida bolada yomon xulq hosil bo'lishi mumkinligini ota-onalarga uqtiradi: bolalik chog'ida ota-onalar uni erkalaydilar, natijada bola aqliy va jismoniy tarbiyadan mahrum bo'ladi. U kattalardan noo'rin so'zlarni o'rganadi va bolalarga bu so'zlarni o'rganadi va bolalarga bu so'zlarni takrorlab, noo'rin harakatlar qilsa, kattalar hafa bo'lib, uni koyidilar. Kvintilian o'qituvchilarning o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishlarini qat'iy talab etadi. "Fanda dastlabki ma'lumotdan nariga siljimaydigan, qalbi qalbaki ishonch bilan to'lgan, faqat o'zlarini olim deb bilgan kishilardan yomoni yo'q".

Kvintilian har bir ilm ahlini, shu jumladan, o'qituvchilarni doimiy ravishda o'z bilimlarini va pedagogik mahoratini oshirib borishga da'vat etadi: "O'qituvchining o'zi o'qimishli bo'lishi, bolalarni sevishi, o'zini tuta bilishi, bolalarni bo'lar-bo'lmasligi rag'batlantira bermasligi yoki jazolay bermasligi, o'z shogirdlari uchun o'mak bo'lishi va ularni sinchiklab o'rganishi lozim. Kvintilian bolaning nutqini juda yoshligidan o'stira boshlash kerakligiga alohida e'tibor beradi. U bolalarning nutqi yoshlik chog'idanoq sof bo'lishi uchun bolani uyda tarbiyasi bilan shug'ullanadigan enagalar va murabbiylarning talaffuzi yaxshi bo'lishi kerak, deydi. Uning fikricha, musiqa va tilni o'rganish talaffuzning yaxshilanishiga yordam beradi, nutqning uslubini yaxshilaydi, uni yana ham yaxshi ifodali nutqqa aylantiradi. Bolani mantiqiy tafakkur qiladigan, muntazam va izchil fikr yuritadigan qilib tarbiyalash maqsadida matematika (arifmetika va geometriya) o'rgatish zarur, nazariy nasihatlar, taqlid va mashqlar o'qitish jarayonida katta rol o'ynashi kerak. Bolaga nazariy bilim asoslarini mustahkam qilib berishda hecham shoshilmaslik lozim. Umuman, Kvintilian Rimdagi ritorlar maktabining tajri-bali o'qituvchisi sifatida orttirgan tajribasini umumlashtirdi va amaliyotga tatbiq etdi.²⁹

Qadimgi Yunoniston faylasuflari tarbiya to'g'risida

Suqrot (eramizdan avvalgi 469-399 yillar) ijtimoiy chiqishiga qaramay (u kambag'al hunarmand o'g'li edi), konservativ zamindor aristokratlarning mafkuraviy namoyondasi sifatida o'zining falsafiy va pedagogik qarashlarida ularning manfaatini himoya qildi. Suqrotning fikricha, tarbiyadan kutilgan asosiy maqsad, buyumlar tabiatini o'rganish bo'lmay, balki kishining bilib olishi, axloqni kamol toptirish bo'lmog'i lozim edi. Ham faylasuf, ham notiq Suqrot keng maydonlarda, jamoat oldida nutq so'zlar, axloqqa doir masalalar yuzasidan suhbatlar o'tkazar, tinglovchilar savol-javob yo'li bilan haqiqatni o'zlari o'ylab topishlariga undar, shu yo'l bilan odamlarni haqiqatni izlashga o'rgatar edi. Suhbatning bu usuli o'sha paytda "*Suqrot usuli*" deb atalgan. "*Suqrot usuli*"dan keyingi davrlar uslubiyatida suhbatni "*fikr qo'zg'ovchi savollar usuli*" nomida o'tkazish paydo bo'ldi.

²⁹ Каранг: Константинов Н.А., Медицинский Е.Н. Шабаева М.Ф. История педагогики. Учеб.пособие. -Москва, изд-ва "Просвещение", 2004. с.25-26

Umuman, Suqrot yaratgan axloqiy tarbiya maktabi umumiy fazilat, bir qator xususiy fazilatlardan, ya'ni jasurlik, donolik, mo'tadillik, adolat va boshqalardan tashkil topgan har bir fazilat u yoki bu turdagi bilimlardan iborat edi. U har bir fazilatning u yoki bu turdagi bilimlardan iborat ekanligini asoslab berdi. Ya'ni, mardlik – qo'rquvni daf qilishini, donolik – qonunlarga rioya qilishni, mu'tadillik – o'z hissiyotlariga erk bermaslikni, adolat – yaxshilikni qanday qilib amalga oshirishni o'rgatadi, deb ta'lim berdi. Shu sababli u yoshlarni fazilatli hayotga o'rgatishdan oldin, inson eng avvalo umumiy axloq mezonlarini, inson uchun muqaddas bo'lgan barchaga xos umumiy fazilatlarni bilishi zarur, deydi. Shuningdek, u – kimgaki oliyjanob insoniy fazilatlarni bilish ravo ko'rilgan bo'lsa, ana shu odamgina yaxshi fazilatni ko'rsata olishi mumkin deyish bilan, fazilat va bilimni aynan bir narsa deb saboq beradi. Uning fikricha, insonlardagi fazilat, ya'ni axloqiy fazilatlar fan tufayli, ta'lim berish bilan qo'lga kiritilganligi sababli, axloqiy rivojlanish axloq asosini tashkil etar ekan.

Suqrotning axloqiy qarashlarida tabaqalanishga xos tengsizlikni yaqqol sezish mumkin. Uning fikricha, axloq faqat imtiyozli "mumtoz"larga xos, "mumtoz" kishilar haqiqiy axloqning yagona egalari bo'lganliklari uchun hokimiyat ham ularning qo'llarida bo'lmog'i kerak deydi. "Sara" bo'lmaganlar qora halqning, avomning xokimiyati axloqsizlik sifatida rad etilmog'i kerak, deb ko'rsatadi.

Qadimgi Yunoniston mashhur faylasuflaridan yana biri Platon (eramizdan avvalgi 424-347-yillar) – idealist faylasuf Suqrotning shogirdi, ob'ektiv idealizm nazariyasining asoschisi edi. U "g'oyalar dunyosi"ni birlamchi, his qiluvchi narsalar "tur" yoki "ideyalar" deb atadi.

Platon odamni hodisalar dunyosi deb ikkiga bo'lib o'rgandi. Uning nazarida, narsalar ideyalar olamining soyasidir, xolos.

Afina aristokratiyasining namoyandasi bo'lgan Platon, aristokratiyaning abadiy hukmronligi haqidagi nazariyani ilgari surdi. Uning fikricha, ideal aristokratik davlat uch xil ijtimoiy guruh: faylasuflar, jangchilar, hunarmandlar va dehqonlar guruhidan iborat bo'lishi lozim ekan. Faylasuflar davlatni boshqaradilar, jangchilar uni har qanday dushmandan himoya qiladilar, uchinchi guruh esa mehnat qilib, mo'l hosil yetishtirib, faylasuflar va jangchilarni boqadilar, degan firknini olg'a suradi. Shuningdek, u qullarni ham saqlanib

qolishini aytib, uning tasavvuridagi ideal davlatni qullar ham, hunarmandlar ham huquqsizdirlar, pastkashlik hamda qanoat va itoatkorlik fazilatlarigina hunarmand kosiblarga va dehqonlarga xos deb ta'kidlaydi.

Platonning fikricha, u olg'a surilgan g'oya, bu davlatning maqsadi oliy ezgulik g'oyasiga yaqinlashishdir: bu g'oya, asosan, tarbiya yo'li bilan ro'yobga chiqishini ta'kidlaydi.

“Tarbiya, – deydi Platon, – davlat tomonidan tashkil etilmog'i va xukmron guruhlarning – faylasuflar va jangchilarning manfaatlarini ko'zlamog'i lozim”. Platon o'zining pedagogika nazariyasida Sparta va Afina ta'lim-tarbiya tizimining ba'zi bir belgilarini birlashtirishga intiladi.

Platonning fikricha, bolalar 3 yoshdan boshlab 6 yoshgacha davlat tomonidan tayinlab qo'yilgan tarbiyachilar rahbarligida maydonchalarda turli o'yinlar o'ynash bilan shug'ullanishlari lozim. Platon o'yinlarni maktabgacha tarbiya vositasi deb hisoblab, ularga katta ahamiyat beradi, shuningdek, bolalarga hikoya qilib beriladigan materiallarni sinchiklab tanlash kerakligini ham uqtirib o'tadi. U bolalarga eng yoshlik chog'idanoq ijtimoiy tarbiya berish tarafdori edi.

Bolalar 7 yoshdan 12 yoshgacha davlat maktablariga qatnaydilar va bunday maktablarda ularga o'qish, yozish, hisob, musiqa va ashula o'rgatiladi.

Bolalar 12 yoshdan 16 yoshgacha odatdagi badantarbiya mashqlari o'rganiladigan *palestrada*, ya'ni jismoniy tarbiya maktabida o'qiydilar. Palestrani tamomlagan o'spirinlar 18 yoshgacha hisob, geometriya, va astronomiyani o'rganadilar, bunda ko'proq amaliy maqsadlar (ularni jangchilar qilib tayyorlash) ko'zda tutilgan. 18 yoshdan 20 yoshgacha yigitlar “*Efebiya*” da tarbiyalanadilar, ya'ni harbiy gimnastika tayyorgarligini o'taydilar. Aqliy mashg'ulotga mayli bo'lmagan yigitlar 20 yoshdan boshlab, jangchilar qatoriga o'tadilar. Abstrakt, ya'ni mavhum tafakkurga qobiliyati borligi ochiq ko'ringan yoshlar, ya'ni yigitlarning ozroq qismi 30 yoshga qadar falsafa, shuningdek, hisob, geometriya, astronomiya va musiqa nazariyasini o'rganish bilan shug'ullanib, shu tariqa ilm olishning uchinchi, oliy bosqichini o'taydilar, ammo bunda amaliy maqsad ko'zda tutilmasdan, balki falsafa – nazariyani mukammal o'rganish ko'zda tutiladi. Shu tariqa ular davlat mansablarida ishlashga

tayyorlanadilar. Iste'dodli g'oyat o'tkir ekanligi ma'lum bo'lgan va juda ozchilikni tashkil etgan yigitlar falsafa ilmimi o'rganishni yana 5 yil (35 yoshga qadar) davom ettiradilar, shundan so'ng 35 dan 50 yoshgacha davlatni boshqaruvida "yaxshilik g'oyasi" targ'ibotchilari bo'lib qoladilar.

Platon ham xotin-qizlar tarbiyasi xususida fikr yuritib, Spartadagi usulni ma'qullaydi.

Umuman, Platon tarbiya tizimining butun mazmuni va mohiyati jismoniy mehnatdan g'oyat nafratlanish ruhi bilan sug'orilgan. Platon g'oyasiga ko'ra, bo'lajak faylasuflar va jangchilarning "jismoniy mehnat to'g'risida xato o'ylashlari" ham taqiqlab qo'yilgan, shuningdek, qullarning bolalarini o'qitmagan ma'qul, degan g'oya ilgari surilgan.

Biroq, Platon maktabgacha tarbiya to'g'risida, davlat tomonidan izchillik bilan olib borilish lozim bo'lgan tarbiya tizimi to'g'risida bir qancha muhim fikrlarni aytdi, ijobiy o'mak namunasida tarbiyalash kabilarni talab qildi.

Platon o'zining axloqiy tarbiya nazariyasini yaratar ekan, ustozlari Suqrotga ergashib, ob'ektiv idealizm yo'lini tutadi. Platon axloqiy tarbiya nazariyasining asosiy nazariy tanyach nuqtasi – inson ongi chegaralaridan tashqarida bo'lgan va mangulik g'oyalari olamida xudoning doimiy nazorati ostida bo'ladigan yagona o'zgarmas "yaxshilik" g'oyasidir. Uning fikricha, yerdagi yaxshiliklarning hamma turi o'zida me'yor, go'zallik va haqiqatdan iborat uch tushunchani jamlagan oliy "yaxshilik g'oyasi" ning in'ikosigina bo'lishi mumkin.

Platon fikricha, odamning axloqiy hayoti shu oliy "yaxshilik g'oyasi"ga intilishga to'la bo'ysungan va xushbaxtlikni tashkil etadigan, faqat oliy "yaxshilik" g'oyasiga intilishidagina xulqning namunasini ko'rish mumkin. Shunday qilib, Platon insonning xulqini xudo hohishiga bo'ysundirishga xarakat qilgan.

Platon insonga xos axloqiy kategoriyalar va tushunchalarni sinchiklab ishlab chiqib, ularning barqarorligi va muayyanligini isbotlagani holda ularni kishilar joriy qilishini ham e'tirof etmadi. Shu bilan, u axloqiy qonunlar kishilar uchun majburiy yoki nomaqbul bo'lishi mumkinligi haqidagi fikrga o'rin qoldirmadi. U bu o'rinda aristokrat zodagonlarigina nazarda tutgan xolos. Xalq ommasiga kelganda unga axloqiy hayotda arziyas o'rin berilgan, uning fikricha,

xalqqa faqat bo'ysunish, itoatkorlik axloqigina xos. Qullar hech qanday fazilatga ega emaslar, deb hisoblagani sababli Platon axloqiy etikasiga ko'ra, ular umuman chinakam axloq egasi bo'lishi mumkin emas.

Platonning axloqiy tushunchalarni uzgarmas va barqaror deb qarashi hamda ularni mutlaqlashtirishi jamiyat siyosiy tuzilishining o'zgartmasligi g'oyalarini himoya qilishga va quldorlik davlatini ideallashtirishga xizmat qildi. Natijada Platona axloqiy tarbiya nazariyasi jozibador bo'lib ko'rinadi. Ular uning axloqiy tarbiya nazariyasida o'z hayotlari tarzining in'ikosi va himoyasini ko'rdilar.

Platonning shogirdi bo'lgan, makedoniyalik Iskandarni tarbiyalagan, qadimgi Yunonistonni eng yirik idealist-faylasufi va olimi Arastuning (eramizdan avval 384-322-yillar) pedagogika nazariyasini yaratish va uni rivojlantirishdagi xizmatlari juda ulkan.

Platon olamni g'oyalar dunyosi va hodisalar dunyosi deb ikkiga bo'lgan bo'lsa, uning shogirdi Arastu olamni yahlit deb bildi va narsalarni o'zidan ajratib bo'lmaydi, dedi. Arastuning ta'kidlashicha, g'oyani shaklga o'xshatish mumkin. Har qanday buyumda biz uning moddasini va shaklini ko'rishimiz mumkin. Moddada narsalar bo'lishi uchun imkoniyatlar bor, modda biron shakl olganidan so'nggina narsa bo'lib qoladi. Chunonchi, marmarning o'zi bir moddadir, ammo unga ma'lum shakl berilsa, xaykal tusini olishi mumkin.

Butun hayot taraqqiyot jarayonidir, bu jarayon, Arastuning fikricha, tashqi kuchlarning ta'siri ostida, sodir bo'lmaydi, balki ichki taraqqiyotning o'zidir. Arastu tashqi olamning mavjudligiga shubha qilmaydi va hissiy tajribani, sezgilarni bilishning asosi deb hisoblaydi. Arastuning ta'kidlashicha, bilishdagi xatolar noto'g'ri tafakkurdan, ya'ni hissiy tajribani noto'g'ri talqin qilishdan kelib chiqadi. Eng muhimi shundaki, Arastu shakl bilan mazmunning birligini ko'rsatib o'tdi, taraqqiyot g'oyasini olg'a surdi.

Arastu olamda tana va jon bor, tana bilan jon materiya bilan shakl tariqasida bir-biridan ajralmagan holda mavjuddir, deydi. Uningcha, uch xil jon bor: o'simlikdan tarkib topgan jon oziqlanishda va urchib ko'payishda namoyon bo'ladi; hayvonotdan tarkib topgan jon, o'simlik xossalariidan tashqari sezgilarda va istaklarda namoyon bo'ladi; aqlning ifodasi bo'lgan jon, o'simlik va hayvonot xossalariidan tashqari, u tafakkur yoki bilish hislatlariga ham egadir.

Insondagi jonning hayvoniy qismi aqlga tobe bo'lganligi sababli, uni iroda deb atash mumkin.

Arastuning fikricha, jonning mana shu uch xiliga muvofiq, uch xil tarbiya – jismoniy tarbiya, axloqiy tarbiya, aqliy tarbiya bo'lishi kerak. Tarbiyaning maqsadi, uning fikricha, jonning oliy tomonlarini – aql va irodani kamol toptirishdan iborat edi. Har bir moddada rivojlanish imkoniyati bor bo'lganidek, insonga ham tabiat faqat qobiliyatlarning boshlang'ichinigina beradi, insonda kamol topish imkoniyati tabiatda mavjuddir va bu imkoniyat tarbiya vositasi bilan ro'yobga chiqariladi. Tabiat jonning uch xilini bir-biri bilan chambarchas bog'lab qo'ygan, biz ham tarbiyada tabiat belgilab bergan yo'ldan borib, jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiyani bir-biri bilan chambarchas bog'lab olib borishimiz lozimligini uqtiradi.

Arastuning fikriga ko'ra, davlatning umumiy bitta oxirgi maqsadi bor, u ham bo'lsa, davlat hamma fuqarolarga bir xilda tarbiya berilishini ta'minlashi lozim, mana shunday tarbiya berish esa xususiy tashabbusning vazifasi bo'lmasdan, balki davlatning ishi bo'lishi lozim.

Oilaviy tarbiya bilan ijtimoiy tarbiya o'zaro bog'liq bo'lishi lozimligini uqtirib, u oilaviy tarbiyaga doir bir qancha tavsiyalar beradi. Ammo Arastu davlat hamma fuqarolar uchun «bir xilda» tarbiya berishi lozim, deb ta'kidlaganida qullarni nazarda tutmaydi.

Arastu pedagogika tarixida birinchi bo'lib, yoshni davrlarga bo'lishga urinib ko'radi. U insonning yoshlik yillarini uch davrga bo'lib o'rganadi: 7 yoshgacha bo'lgan davr; 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan davr (jismoniy balog'at davrining boshlanishi) va jinsiy balog'at davrining boshlanishidan 21 yoshgacha bo'lgan davr. Uning fikricha, bunday davrlarga bo'lish tabiatga mos bo'lib tushadi.

Arastu o'g'il bolalar 7 yoshdan boshlab davlat maktabida o'qishi lozim, deb uqtiradi. Bolalarga aqliy tarbiya berilishi kerakligini aytib, u o'g'il bolalar avvalo badantarbiya muallimlarining qo'liga topshirilsin, deb talab qiladi; bunda u bolalarning haddan tashqari charchatib qo'ymaslik kerakligini va ularni jismi mustahkamlanib olgunicha yengil mashqlar bilan shug'ullantirishni tavsiya etadi.

Arastu jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiyani bir-biri bilan bog'langan, deb qaraydi. Boshlang'ich ta'lim vaqtida, badantarbiyadan tashqari, yana o'qish, yozish, grammatika, rasm va musiqa o'rgatilishi kerakligini ham alohida uqtirib o'tadi. O'smirlar

maktabda jiddiy ma'lumot olishlari kerak, ular adabiyot, tarix, falsafa, hisob, falakiyot, musiqa o'rganishlari shart. Go'zallikni his qilishni o'stirish uchun musiqa o'rganmoq kerak, ammo rasm chizish singari musiqa o'rganish ham oddiy hunarga aylanib ketmasligini kuzatib turish muhim deydi. U xotin-qizlarning tarbiyasi xususida gapirib, bu erkaklarning tarbiyasiga o'xshab «ketmasligini, chunki ularning tabiati mutloq erkaklarnikidan farq qilishini aytadi.

Arastu o'z pedagogik qarashlarida iroda, faoliyatni asos qilib olgani holda, aqliy tarbiya sohasida axloqiy ko'nikmalarga katta ahamiyat beradi. Tabiiy iste'dod, shu bilan birga, ko'nikma orttirish (matlub harakatlarni o'rganish, tez-tez takrorlab turish) va aql - bular axloqiy tarbiyaning uch manbaidir, deydi.

Fazilatlar hosil bo'lishi uchun ezgu xulq-odatlarini va ko'nikmalarini tarkib toptiradigan, yaxshi o'ylab o'tkaziladigan mashqlar bo'lishi ham zarur, bunga odatlanish, buning uchun doimiy harakat qilish lozim, odatdan, ko'nikishdan esa axloqiy xatti-harakat hosil bo'ladi, deb ta'lim beradi

Arastuning qayd etishicha, har qanday istak va faoliyatda kamchilik, ortiqchalik va o'rtachilik bo'ladi. Shuning uchun ham hamma narsada faqat o'rtachilik, faqat muvozanat yaxshi va foydalidir. Demak, hamma narsada ortiqchalikka ham, kamchilikka ham yo'l qo'ymaydigan xatti-harakat yaxshilikning nishonasidir. Mana shunday xatti-harakatni hosil qilmoq uchun ko'proq mashq qilish kerak, degan fikrlarni olg'a surdi.

Arastu Platondan farqli o'laroq, oilani tarbiyadan chetlashtirmaydi, axloqiy tarbiya berish, asosan, oilaning zimmasida bo'lishi kerak, deydi.

Arastuning qarashlari antik pedagogikaning taraqqiyotiga katta ta'sir o'tkazdi. Ayniqsa, uning «Nikomah etikasi» va «Siyosat» asarlari axloq masalalarini nazariy ishlab chiqishga bag'ishlandi.

Arastu, axloqning jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab, «Tabiat inson qo'liga qurol – aqliy va axloqiy kuch bergan, ammo u shu qurolni teskari tomonga nisbatan ham ishlatishi mumkin: shu sababli axloqiy tayanchlari bo'lmagan odam eng insofsiz va yovvoyi, o'zining jinsiy va did mayllarida eng tuban mavjudot bo'lib qoladi», - deydi.

Arastu antik davrining boshqa faylasuflariga qaraganda axloqiy munosabatlarning tabiatini teran tadqiq qila oldi. Uning fikriga ko'ra,

axloqiy fazilat - faoliyat, xatti-harakat demakdir. Barcha axloqiy fazilatlar adolat, do'stlik, muhabbat, saxiylik, sulhparvarlik, xushfe'llik va hokazolar faqat inson faoliyatida namoyon bo'lishini asoslab beradi.

Odam jamiyatda yashagani sababli uning axloqiy fazilatlari hech qachon sof, xolis holda namoyon bo'lmaydi, balki faqat ijtimoiy faoliyatdagina amalga oshadi. Shuning uchun barcha axloqiy fazilatlar ijtimoiydir, deydi Arastu.

Arastu axloqiy fazilatlar bilan bir qatorda inson uchun muhim, bulgan aqliy fazilatlarga – bilim, donishmandlik, fahmlash va boshqalarga ham katta ahamiyat beradi Ammo axloqiy fazilatlarni aqliy fazilatlarga bo'ysundirgan holda ifodalanadi. Lekin, uning sinfiy ehtirolari kishilarning axloqiy tengligini e'tirof etishga imkoniyat bermaydi. U fazilatlar faqat ozod kishilar va zodagonlargagina, shunda ham ularning boyliklari darajasiga muvofiq holda xos, deb izoh berishga, pisanda qilishga majbur edi. Kambag'al odam esa uning nazarida na «ko'rkamlik» va na «himmat» egasi bo'la oladi, deyish bilan ayollarni ham o'ta kamsitib, na aqliy, na axloqiy hayotga qobiliyatsiz mavjudot deb qaraydi.

Arastu faqat aql faoliyatini tan oladi. Shu sababdan u baxt idealini, haqiqatni intellektual mushohada etishda deb biladi.

Umuman, antik davr faylasuflari Suqrot, Platon, Arastular o'zlarining nazariyalarida – baxtga erishish rohat, foyda, manfaat topish, deb qaragan va huzurlanishni asosiy muddao sifatida birinchi o'ringa qo'ygan bo'lsalar-da, lekin odam har bir narsada o'z huzurining quli bo'lib qolmasligi, balki har bir narsada me'yor bo'lmog'i lozimligini uqtirib o'tgan edilar. Ular axloqni insonning baxtga erishish vositasi deb qaraganlar.

Atomizm nazariyasini yaratgan faylasuf – materialist Demokritning qarashlari (eramizdan avvalgi 460-370 yillar) qadimgi yunon falsafasining chuqqisidir. Demokrit o'z asarlarida yuqorida nomlari qayd etilgan mutafakkir faylasuflar kabi tarbiya masalalariga ko'p e'tibor beradi. U o'z iazariyasida tabiat qonunlariga, xurofotni va qo'rqvni yemirib tashlaydigan chinakam bilimlarga murojaat qiladi.

Demokrit, «xudolarning irodasi» degan gaplar odamlar o'ylab chiqargan uydirmadan boshqa narsa emas, deb hisoblab, xudolarga ishonishni rad etadi.

Demokrit tarbiyani tabiatga muvofiqlashtirish masalasini birinchi bo'lib ilgari surdi. «*Tabiat bilan tarbiya bir-biriga o'xshaydi*» deb yozadi. U «*ta'lim mehnat asosidagina go'zal narsalarni hosil qiladi*», deb, tarbiya ishida mehnatning roli juda katta ekanligini ta'kidladi.

Demokrit doimo mehnat qilib turishni talab qildi, mehnatga odatlana borgan sari, mehnat yengil bo'lib boradi, deydi. U yomon o'rnakdan ehtiyot bo'lish kerak, deb ta'kidlaydi va yaxshi xulq hosil qilishda mashqning ahamiyati juda katta, deb hisoblaydi.

Demokrit barcha tabiiy jarayonlarga, jumladan, insonning axloqiy munosabatlariga ham xudolarning aralashuvini inkor etib, kishi xulqining real, bu dunyodagi asosini topishga urinadi. Demokrit axloqni odamning o'z tabiatidan kelib chiqib asoslashga xarakat qiladi. U axloqning ikki yuzlama: yasama va haqiqiyga bo'linishiga qarshi chiqadi, u shaxsning faqat mulohazakorlik va aql rahnamoligida mumkin bo'ladigan axloqiy kamoloti uchun jonbozlik ko'rsatdi. To'g'rirog'ini bilmaslik xatoga olib keladi, degan edi u.

Aql to'g'ri xatti-harakatlarga yo'naltirilmog'i lozim, bu esa bilimlarni doimo mukammallashtirib borish haqida g'amxo'rlik, tabiat qonunlari va odam xulqini o'rganish zarur demakdir, degan edi Demokrit.

Demokritning etik va pedagogik qarashlari diniy qobiqdan xoli edi. Shuning uchun ham o'zidan keyingi faylasuf olimlarga katta ta'sir etdi.

Ayniqsa, ularning inson kamolotidagi nazariy qarashlari, tarbiyaning roliga bergan katta ahamiyatlari pedagogika tarixi nazariyasini yaratishdan asosiy zamin bo'lib xizmat qiladi.³⁰

³⁰ Карант: Джуринский А.Н. История педагогики древнего и средневекового мира. – Москва: «Совершенство», 1999, с.66-96. История педагогики и образования. От зарождения воспитания в первобытном обществе до конца XIX века (под редакцией А.И.Пискунова). – Москва. «Сфера», 2001, с. 117-132. Константинов Н.А. Медизинский Е.Н., Шабаева М.Ф. История педагогики. Учеб.пособие., Москва: «Просвещение», 2004, с.3-24., Древнуауак Индиуа. При великих сказаниуах (под редакцией Н. Темкина). Центр Петербургское востоноведение. – Санкт-Петербург.: 1995, с. 76-86., Упанишады – Москва: «Наука», 1992, с. 86-97. Хошимов К., ва бошқалар. Педагогика тарихи. –Т.: «Уқитувчи», 1996. 386-398-бетлар.. Насанбоева О, Насанбоев Ж., Намидов Н. Педагогика тарихи. – Т.: «Уқитувчи», 1997. 10-14-бетлар.

Qadimgi Rimd pedagogik g'oyalar rivoji

Qadimgi Rimda feodalizm avvalgi III-II asrlarda ilm-fan, adabiyot, tarix fanlari, me'morchilik va tasviriy san'at rivojlanib boshladi. Jumladan, badiiy adabiyot sohasida Ovidiyning "Muhabbat ilmi", "Metomarfazalar", tarix fani sohasida Tit Liviyning "Rim tarixi", Karneliy Taqitning badiiy didaktik ruhdagi "Annalar" va "Tarix" asarlari yuzaga keldi. Tabiiy fanlar sohasida Ptolemeyning "Almaget" asari yozilib, unda olamning geotsentrik nazariyasi bayon etildi. Diofant "Arifmetika", Pagg Aleksandriyskiy "Matematika to'plami"ni, Vitruviy "Arxitektura haqida 10 kitobi"ni yaratdi.

Qadimgi Rimda aholining mol-mulkiga va aslzodaligiga qarab tabaqalinishi natijasida maktablar ham boshlang'ich maktablar va undan yuqoriroq bosqichdagi grammatika maktablariga bo'lindi.

Unchalik boy ham, aslzoda ham bo'lmagan, lekin erkin oilada tug'ilgan aholi (plebeylar) bolalarining ba'zi bir qismi xususiy va pul to'lab o'qitiladigan boshlang'ich maktablarda o'qitiladigan bo'ldi. Bunday maktablarda o'qish, yozish va hisob o'rgatilar edi. Boylar va aslzodalar o'g'il bolalariga o'z uyda o'qitilib, boshlang'ich ma'lumotni uyida berar edilar. Grammatika maktablarida amaldor va imtiyozli kishilarning o'g'illari o'qitilar edi. Bu maktablar ham xususiy va pullik bo'lib, bunda lotin tili, yunon (grek) tili, ritorika (chiroyli nutq ba'zi ma'lumotlar) o'qitilar edi. Davlat tomonidan saylab qo'yiladigan rahbar mansablarni egallashga intiluvchilar notiqlik san'atining egallashlari zarur taraqqiy etib ketgan va zabardast notiqnlarni va davlat arboblarni tarbiyalab yetishtirgan.

Rimda (miloddan avvalgi II asrda) alohida ritorlar (notiqlar) maktabi vujudga keldi. Bunday maktablarda aslzodalarning bolalari katta pul to'lab ritorika, falsafa va huquqshunoslik, yunon (grek) tili, metamatika va musiqa o'rganar edilar. Chunki davlatda oliy mansablarni egallashi uchun aslzoda yoshlarning shu fanlarni o'rganishi zarur bo'lib qolgan edi.

Rimda grammatika va ritorlar maktablari davlat tasarrufida bo'lib, bu maktablarning vazifasi hokimiyatiga sodiq amaldorlar tayyorlashdan iborat edi. Davlat bu maktabalarning muallimlarini o'z siyosatlarini o'tkazuvchi itoatli kishilarga aylantirishga intildilar, buning uchun ularga oylik maoshlar tayinlab, turli imtiyozlar berib qo'yidilar.

Rimda xristian dini hukmron deb e'lon qilingach, imperatorlar maktablarga xristian ruhoniylarining vakillaridan o'qituvchilik vazifasiga tayinlaydigan bo'ldilar va maktablardagi ta'lim-tarbiya tizimi ochiqdan-ochiq xristian dini qonun-qoidalariga bo'ysundirildi.

Kvintilian o'qituvchilarning o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishlarini qat'iy talab etadi. "Fanda dastlabki ma'lumotdan nariga siljimaydigan, qalbi qalbaki ishonch bilan to'lgan, faqat o'zlarini olim deb bilgan kishilardan yomoni yo'q".

Kvintilian har bir ilm ahlini, shu jumladan, o'qituvchilarni doimiy ravishda o'z bilimlarini va pedagogik mahoratini oshirib borishga da'vat etadi: "O'qituvchining o'zi o'qimishli bo'lishi, bolalarni sevishi, o'zini tuta bilishi, bolalarni bo'lar-bo'lmasligi rag'batlantira bermasligi yoki jazolay bermasligi, o'z shogirdlari uchun o'rnak bo'lishi va ularni sinchiklab o'rganishi lozim. Har bir o'qituvchi o'qitishning hamma bosqichlarini bosib o'tishi, ya'ni yuqori tipdagi maktab o'qituvchisi, avvalo boshlang'ich maktabda o'qituvchilik qilishi lozim".

Kvintilian bolaning nutqini juda yoshligidan o'stira boshlash kerakligiga alohida e'tibor beradi. U bolalarning nutqi yoshlik chog'idanoq sof bo'lishi uchun bolani uyda tarbiyasi bilan shug'ullanadigan enagalar va murabbiylarning talaffuzi yaxshi bo'lishi kerak, deydi. Uning fikricha, musiqa va tilni o'rganish talaffuzning yaxshilanishiga yordam beradi, nutqning uslubini yaxshilaydi, uni yana ham yaxshi ifodali nutqqa aylantiradi. Bolani mantiqiy tafakkur qiladigan, muntazam va izchil fikr yuritadigan qilib tarbiyalash maqsadida matematika (arifmetika va geometriya) o'rgatish zarur, nazariy nasihatlar, taqlid va mashqlar o'qitish jarayonida katta rol o'ynashi kerak. Bolaga nazariy bilim asoslarini mustahkam qilib berishda hecham shoshilmaslik lozim. Bundan tashqari, u ibratning tarbiyaviy rolini hisobga olib, bolalarning tevarak - atrofdagi kishilarning xatti - harakatlarini diqqat bilan kuzatib turishi va bolani yomon o'rtoqlaridan chetlatish kerakligini, bolaning birga o'ynaydigan o'rtoqlarini ham tanlashni tavsiya qiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, tarixiy taraqqiyot davomida Qadimgi Yunoniston va Rim mamlakatlari xalqlari qatorida qadimgi Xitoy va Hindiston mamlakatlari xalqlari ham jahon ilm-fani va madaniyati, pedagogik fikrlar taraqqiyotiga o'zlariniing ulkan hissasini qo'shganlar.

G'arbiy Yevropada maktab va pedagogik fikrlar. Iogann Genrix Pestalotsiyning didaktika va boshlang'ich ta'lim metodikasiga qo'shgan hissasi

Iogann Genrix Pestalotstsi (1746-1827) pedagoglik faoliyatini 1774 -yilda «Neygof»da, «Kambag'allar muassasasi» ochib, yetim va boqimsiz bolalardan 50 nafarini shu muassasada o'qitishdan boshladi. Uning fikricha, bolalarning o'zlari ishlab topgan pullar shu yetimxonaning xarajatini qoplashi kerak edi. Yetimxonada tarbiyalanayotgan bolalar dalada ishlar, shuningdek, to'quv va yigiruv dastgohlarida ip yigirib, mata to'qir edilar. Uning o'zi bolalarga o'qish, yozish va hisob o'rgatar, ularni tarbiyalash bilan shug'ullanar edi. Hunarmand ustalar esa bolalarga ip yigirish va to'qishni o'rgatardilar. Shu tariqa, Pestalotstsi o'z muassasasida bolalarni o'qitishni ularni unumli mehnatga o'rgatish bilan qo'shib olib borishga urindi.

Pestalotstsi o'sha davrning eng muhim masalasini: dehqon xo'jaliklarini qanday qilib tiklash, ularning turmushini qanday qilib yolchitish, mehnatkashlarning axloqiy va aqliy holatini qanday qilib yaxshilash masalasini hal qilishga jamoatchilik e'tiborini tortishga intilib adabiy faoliyat bilan shug'ullandi. U «**Lingard va Gertruda**» (1781-1787) degan ijtimoiy-pedagogik roman yozib, bu romanda xo'jalikni oqilona usulda olib borish va bolalarni to'g'ri tarbiyalash vositasi bilan dehqonlarning turmushini yaxshilash to'g'risidagi o'z g'oyalarini olg'a surdi.

Burgdorfdan o'rta internat maktab ochildi; bu maktab huzurida o'qituvchilar tayyorlaydigan alohida bo'lim ham tashkil etildi, bu maktabga Pestalotstsi boshliq qilib tayinlandi. XIX asrning boshlaridayoq Pestalotstsining «Gertruda o'z bolalarini qanday qilib o'qitadi». «Onalar kitobi yoki onalar uchun o'z bolalariga kuzatish va gapirishni qanday o'rgatish haqida qo'llanma», «Quzatish alifbesi yoki o'lchash haqida ko'rsatmali qo'llanma», «Son to'g'risida ko'rsatmali ta'lim» degan kitoblari bosilib chiqdi, bu kitoblarda boshlang'ich ta'limining yangi usullari bayon qilindi.

Pestalotstsi hammani tarbiya va ilm olish huquqiga ega bo'lishi lozim, deb da'vo qilib, maktablar jamiyatni ijtimoiy jihatdan o'zgartirishning muhim vositalaridan biri bo'lishi kerakligini ta'kidladi. Uning fikricha, har bir kishining haqiqiy insoniy kuchlari

harakatga kelib, mustahkamlanganidagina eng muhim ijtimoiy masalalar hal qilinadi, tubdan ijtimoiy o'zgarishlar ro'y beradi. Bunga tarbiya yo'lli bilangina erishish mumkin.

Pestalotstsining fikricha, mehnat shaxsni tarbiyalash va o'stirishning eng muhim vositasidir, mehnat shaxsning jismoniy kuchlarinigina emas, shu bilan birga, aqlini ham o'stiradi, shuningdek, unda axloq ham tarkib toptiradi. Mehnat bilan shug'ullanastgan shaxsda mehnatning jamiyat hayotida juda katta ahamiyati bor degan ishonch tug'iladi, bunday ishonch esa shaxslarni ahil va mustahkam ijtimoiy ittifoq qilib, bir-biriga bog'lovchi eng muhim kuchdir.

Pestalotstsining fikricha, bilish sezgi organlari orqali idrok qilishdan boshlanadi va tasavvurlarni qayta ishlash yo'li bilan g'oyalar darajasiga ko'tariladi, g'oyalar esa, garchi ravshan bo'lmasa ham shaxsning ongida tarkib toptiruvchi kuch; tariqasida mavjud, lekin o'zining namoyon bo'lishi va jonlanishi uchun sezgilar yetkazib beruvchi materialga muhtojdir

Pestalotstsining fikricha, tarbiyaning maqsadi shaxsning barcha tabiiy kuchlarini va qobiliyatlarini o'stirish, o'stirganda ham har tomonlama va bir-biriga uyg'un ravishda o'stirishdir. Tarbiyaning tarbiyalanuvchiga ko'rsatayotgan ta'siri uning tabiatiga uyg'un bo'lishi lozim.

Pestalotsti tarbiyaning mohiyati to'g'risidagi tasavvuriga asoslanib, tarbiyaning yangi metodlarini shaxsning kuchini inson tabiati bilan muvofiqlashtirib o'stirishga yordam beradigan metodlarni yaratishga intiladi. Bolani tarbiyalashni deydi u, uning tug'ilgan kunidanoq boshlash lozim: *«Bola tug'ilgan soat – unga ta'lim berishning birinchi soatidir»*. Shu sababli chinakam pedagogika onani to'g'ri tarbiyalash metodlari bilan qurollantirishi kerak. Pedagogika san'ati esa shu metodikani har bir ona, jumladan, oddiy dehqon ayol ham egallab oladigan qilib soddalashtirib berishi lozim. Oilada tabiatga muvofiq qilib boshlangan tarbiya maktabda ham davom ettirilishi lozim.

Barcha insoniy kuchlar va imkoniyatlar eng oddiy narsalardan rivojlana boshlaydi va sekin-asta murakkabroq darajaga jo'tarila beradi. Tarbiya ham ana shu yo'ldan borishi lozim.

Har bir bolaga xos bo'lgan tug'ma kuch va qobiliyatlar kurtaklarini tabiiy tartibga muvofiq, inson kamolotining abadiy va

o'zgarmas qonunlariga muvofiq holda muntazamlik bilan mashq qildirib, o'stirish kerak.

Pestalotstsi ta'lim nazariyasiga ko'ra tarbiyalash eng oddiy elementlardan boshlanib, asta-sekin tobora murakkabroq darajaga ko'tarilib borishi lozim.

Pestalotstsining elementar ta'lim nazariyasi jismoniy tarbiyani, mehnat tarbiyasini, axloqiy va estetik tarbiyani hamda aqliy tarbiya va o'qitishni o'z ichiga oladi. Tarbiyaning mana shu hamma jihatlarini Pestalotstsi bir-biriga bog'lab olib borishni taklif qildi, mana shunday tarbiyalash natijasidagina insonning hamma jihatlari bir-biriga uyg'un bo'lib kamol topishini ta'minlash mumkin, dedi.

Pestalotstsi shaxsning barcha jismoniy kuchlari va imkoniyatlarini o'stirishni ularni jismoniy jihatdan tarbiyalashning maqsadi deb, bolaning harakatga, o'ynashga, bir joyda o'tirib qolmaslikka, hamisha harakatda bo'lishga majbur qiluvchi tabiiy intilishini jismoniy tarbiyalashning asosi, deb hisobladi.

Pestalotstsi inson shaxsini kamolotga yetkazishda jismoniy tarbiyaga juda katta ahamiyat beradi va uni shaxsning o'sishiga oqilona ta'sir ko'rsatishning birinchi turi, deb hisobladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, o'qitishni unumli mehnat bilan qo'shib olib borish Pestalotstsining pedagogik tajribasi va nazariyasidagi asosiy qoidalardan biri bo'ldi. Pestalotstsining «**Lingard va Gertruda**» romanida yozilishicha, (maktabda bolalar kun bo'yi yigirish va to'qish dastgohlarida ishlash bilan vaqt o'tkazadilar; maktab huzurida yer uchastkasi bo'lib, bu uchastkada har bir bola o'ziga ajratib qo'yilgan paykaldagi ekinlarni parvarish qiladi, chorva mollarini parvarish qiladi. Bolalar zig'irpoya tolasini va junni ishlashni o'rganadilar, qishloqning eng yaxshi xo'jaliklari bilan, shuningdek, hunarmandchilik ustaxonalari bilan ham tanishadilar. O'qituvchi ish vaqtida, shuningdek, ishdan bo'sh vaqtlarida bolalar bilan mashg'ulotlar o'tkazadi, ularga savod, hisob va turmush uchun zarur bo'lgan boshqa bilimlarni o'rgatadi. Pestalotstsi shaxsning kamolotga yetishi uchun mehnat tarbiyasining ahamiyati katta ekanini uqtirib o'tdi. U ish vaqtida «*bolalarning ko'nglini xushvaqt qilish va aqlini o'stirishga*» intildi.

Pestalotstsi axloqiy tarbiyaning asosiy vazifasi kelgusida ijtimoiy hayotda qatnashib foyda yetkaza oladigan va hamma jihatlari uyg'un bo'lib kamol topgan inson yetishtirishdir, deb biladi. Bolani

boshqalarga foyda keltiradigan ishlarda muttasil mashq qildirish yo'li bilan uning axloqi voyaga yetkaziladi. Pestalotstsining fikricha, bola organizmining kundalik ehtiyojlarini qondirish asosida bolada onaga nisbatan tug'ilyotgan mehr-muhabbat axloqiy tarbiyaning eng oddiy elementidir. Bolaning axloqi uchun oilada zamin solinadi. Bolaning onaga bo'lgan muhabbati asta-sekin oilaning boshqa a'zolariga ham o'tadi.

Pestalotstsi axloqiy tarbiya diniy tarbiya bilan chambarchas bog'langandir, deydi. Pestalotstsi rasmiy dinni tanqid qiladi va tabiiy din to'g'risida gapirib, odamlarning yuksak ma'naviy hislatlarini o'stirishni tabiiy din deb tushunadi. Pestalotstsi «... xudoni odamlar bir-biriga mehr-muhabbat ko'rsatayotgan joydan qidirganligini» ochiq aytadi. Agar odam xudoni sevsa, u hamma odamlarni ham sevadigan bo'lib qoladi, chunki hamma odam bir otaning bolasi kabi aka-uka va opa-singildir, deydi.

Pestalotstsining aqliy ta'lim to'g'risidagi ta'limoti boy va mazmunli ta'limotdir. U o'zining shaxsning hamma jihatlarining bir-biriga uyg'unlashib kamolga yetishi to'g'risidagi asosiy g'oyasiga tayanib, aqliy ta'limni axloqiy tarbiya bilan bog'lab olib borish kerakligini ko'rsatadi.

Har qanday ta'lim kuzatishga va tajribaga asoslanishi hamda xulosalar va umumlashmalar darajasiga ko'tarilishi lozim, deydi. Uning fikricha, kuzatishlar natijasida bolada ko'rish, eshitish sezgilari va boshqa sezgilar hosil bo'ladi, bu sezgilar bolada fikrlash va so'zlash ehtiyojini tug'diradi.

Odamning sezgi a'zolari yordamida tashqi dunyo to'g'risida hosil qilgan tasavvurlari dastlab ravshan va aniq bo'lmaydi. Ta'limning vazifasi shundan iboratki, u mana shu tasavvurlarni tartibga solishi va aniqlashi, ravshan tushunchalar darajasiga yetkazishi, «tartibsiz tasavvurlarni muayyan tasavvurlarga, muayyan tasavvurlarni ravshan tasavvurlarga va ravshan tasavvurlarni ochiq ko'rinib turgan tasavvurlarga» aylantirishi kerak. Ta'lim, birinchidan, o'quvchida o'zining sezgi a'zolari vositasi bilan hosil qilgan tajribalar asosida bilimlar zaxirasini to'plashga yordam beradi, ikkinchidan, bolaning aqliy qobiliyatlarini o'stiradi.

Pestalotstsi ta'limning har boskichi uchun maxsus ravishda tanlab olingav, har bir bolaning o'ziga xos aqliy kuchlarini hamda

qobiliyatlarini tinimsiz va muntazam ravishda o'istirib boradigan tizim vositasi bilan bolalarga aqliy ta'lim berishga intildi.

Pestalotstsi ta'limni soddalashtirishga va psixologiya negiziga qurishga intilib, narsalar va buyumlar to'g'risidagi har qanday bilimning eng oddiy elementlari bor, odam shu elementlarni o'zlashtira borib, o'z atrofidagi olamni bilib oladi, degan fikrga keldi. U son, shakl va so'zni mana shunday elementlar deb hisobladi. O'qitish jarayonida bola o'lchash yo'li bilan shaklni, hisoblash yo'li bilan sonni, nutqni o'stirish yo'li bilan so'zlashni bilib oladi. Shunday qilib, elementar ta'lim avvalo o'lchash, hisoblash va nutqni o'stirishdan iborat bo'ladi. U o'z zamonidagi boshlang'ich maktabda o'qitishning mazmunini tubdan o'zgartiradi, o'qitiladigan darslar qatoriga o'qish, yozish, arifmetikani va geometriyaning boshlang'ich qismlarini, o'lchash, rasm chizish, ashula, gimnastika, shuningdek, geografiya, tarix va tibbiyotga doir eng zarur bilimlarni kiritdi.

Shunday qilib, Pestalotstsi boshlang'ich maktabning o'quv rejasinn ancha kengaytirdi va bu maktabda o'qitishning yangi metodikasini vujudga keltirdi. O'qitish metodikasi bolalarni bilimlar bilan boyitishga hamda ularning aqliy kuchlarini va qobiliyatlarini o'stirishga yordam beradi.

Pestalotstsi ko'rsatmalilik printsipini ta'limning eng muhim zamini deb hisoblaydi. Bu printsipni keng ravishda qo'llamasdan turib, tevarak-atrof to'g'risida aniq tasavvur hosil qilishga, tafakkurni va nutqni o'stirishga erishib bo'lmaydi.

Pestalotstsi maktab bolalarning qobiliyatlarini o'stirishi, ularga bilim berishi bilan bir qatorda, ularda ko'nikma va malakalar tarbiyalashi ham lozim, deb hisobladi. Shaxsning kamolga yetgan aqli va oliyhimmat qalbi talab qilgan narsalarni ro'yobga chiqarish imkoniyati, – deydi Pestalotstsi, – shaxsning shu narsani ro'yobga chiqarishi uchun harakat qila bilishiga bog'liqdir.

Pestalotstsi o'zining umumiy didaktik qoidalariga tayanib turib, boshlang'ich ta'limning xususiy metodikasi asosini yaratib berdi.

Pestalotstsi ona tili o'qitishning asosiy vazifasi bolaning nutqini o'stirish va uning so'z boyligini orttirishdan iborat bo'lishi lozim, deb hisobladi. U savod o'rgatishda tovush metodini birinchi o'ringa qo'ydi, bunday qilish harflarni qo'shib o'qitish metodi hukmronlik qilib turgan o'sha vaqt uchun g'oyat muhim edi.

Pestalotstsi ona tili o'qitishni ko'rsatmali printsip asosida olib borish va bolalarga tabiiyot, geografiya va tarixga doir elementar ma'lumotlar berib, shu tariqa bolalarning so'z boyligini orttirish to'g'risida qimmatli ko'rsatmalar berdi. Pestalotstsi zeriktirarli va bir xildagi mashqlar qildirish bilan bolalarda kuzatish, narsa yoki hodisaning belgilarini aniqlay olish malakasini o'stirishga, biror narsani aniq va to'la tasvirlab bera olish malakasini hosil qilishga intildi.

Bolalarda yozuv malakasini hosil qilmoq uchun Pestalotstsi dastlab to'g'ri va egri chiziqlarni – xatlarning elementarlarini chizdirib, mashq qildirishni tavsiya etdi. U yozuv o'rgatishni narsalarni o'lchash va suratini chizish bilan shuningdek, nutqni o'stirish bilan bog'lab olib borishni taklif qildi.

O'lchashni o'rgatmoq uchun Pestalotstsi dastlab to'g'ri chiziq chizishni, so'ngra burchak, kvadrat chizishni va bu kvadratni bo'laklarga (yarimta, chorakta qilib va hokazo) bo'lishni o'rgatishni taklif qildi. Tarbiyachi bolalarga turli geometrik jismlarni ko'rsatishi va ularning nomlarini aytib berishi lozim. Bolalar bu geometrik jismlarni kuzatib, ularning xossalari va nomlarini o'zlashtirib oladilar, ularni o'lchashni o'rganadilar.

Bola o'lchov natijalarini chizib va yozib olishi lozim; bunday mashqlar bolaga yozuv o'rgatishning asosidir.

Shunday qilib, Pestalotstsi jahon pedagogikasining ko'zga ko'ringan nazariyachisi va amaliyotchisi sifatida kambag'allarning bolalarini tarbiyalash ishiga o'zining butun kuchini va bilimini sarfladi. U odamning barcha tabiiy kuchlarini va qobiliyatlarini bir-biriga uyg'un qilib o'stirishdek vazifani tarbiyaning asosiy vazifasi deb bildi va elementar ta'lim nazariyasini yaratdi, bu nazariya. XIX asrda xalq maktabini rivojlantirishga yordam berdi.

Adolf Distervergning rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi

Adolf Distervergn (1790-1866) pedagoglik sohasida samarali ish olib borish bilan bir vaqtda, matematika, nemis tili, geografiya, matematik geografiya, astronomiyaga doir yigirmadan ortiq darslik va o'quv qo'llanmalari nashr qildi; bu darsliklar va o'quv qo'llanmalari Germaniyada va boshqa ko'pgina mamlakatlarda katta shuhrat qozondi. U «Nemis muallimlarining muallimi» degan faxrli unvonga sazovor bo'ldi.

Disterveg ham xuddi Pestalotsti singari tarbiyaning eng muhim printsiplari - uning tabiatga uyg'un bo'lishidir, deb hisobladi. U tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishini quyidagi mazmunda talqin qildi, ya'ni tarbiya odamning tabiiy kamol topishiga qarab olib borilishi, o'quvchining yoshi va o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinishi kerak, dedi. O'qituvchilar o'quvchi-talabalar diqqati, xotirasi, tafakkurining o'ziga xos belgilarini sinchiklab o'rganishlari kerak, deb psixologiyani «**tarbiya to'g'risidagi fanning asosi**» deb bildi. Uning katta xizmati shundaki, pedagoglik tajribasini pedagogikani taraqqiy ettirishning manbai deb hisobladi. U mohir pedagoglarning yoshlarni tarbiyalash va bu sohadagi ish tajribalarini o'rganish zarurligini ta'kidlab o'tdi.

Disterveg tabiatga uyg'un bo'lish printsipligiga qo'shimcha ravishda tarbiya madaniy uyg'un xarakterda bo'lishi ham kerak, deb talab qildi. U ta'limning asosiy vazifasi ta'lim oluvchilarning aqliy kuchlarini va qobiliyatlarini o'stirishdan iboratdir, deb hisoblaydi. Lekin u formal ta'lim moddiy ta'lim bilan chambarchas bog'langanligini ko'rsatib, Pestalotstiga nisbatan olg'a tomon katta qadam qo'ydi. Disterveg, ta'lim oluvchining sof formal ta'lim bo'lmaydi, lekin ta'lim oluvchining o'zi mustaqil olgan bilimlari va malakalarigina qimmatga egadir, deb uqtirdi.

Ta'lim yosh avlodning har tomonlama kamolotga yetishiga va uning axloqiy tarbiyasiga yordam berishi lozim. O'qitilayotgan har bir narsa ta'lim jihatdan qimmatga zga bo'lish bilan bir qatorda, axloqiy ahamiyatga ham egadir.

Disterveg takomillashib boruvchi ta'lim didaktikasini yaratdi, bu didaktikaning asosiy talablarini ta'limning 33 qonuni va qoidasi tariqasida bayon qilib berdi. Disterveg avvalo tabiatga uyg'un qilib, bola idrokining xususiyatlariga muvofiq qilib, o'qitishni talab qildi. U

misollardan qoidalarga: buyumlar va bu buyumlar to'g'risidagi aniq tasavvurlardan shu buyumlarni ifodalovchi so'zlarga o'tishni taklif qildi. Disterveg o'quvchi-talabalarni ularning sezgi organlari bevosita his qila oladigan buyumlar bilan tanishtirishga juda katta ahamiyat berish bilan bir vaqtda, shaxsning o'z sezgi a'zolari bilan idrok qilayotgan butun materialni o'ylab ko'rishi va anglab olishi zarurligini uqtirib o'tadi. Disterveg taklif qilgan ko'rsatmali ta'lim «*yaqindan uzoqqa*», «*oddiy narsalardan murakkab narsalarga*», «*osonroq narsalardan qiyinroq narsa-larga*», «*ma'lum narsadan noma'lum narsaga*» o'tish kerak, degan qoidalar bilan bog'langan ta'limdir.

Disterveg o'rganilayotgan materialni ongli o'zlashtirishga katta ahamiyat beradi. O'quvchi-talabalarning o'rganilgan material mohiyatini ravshan va aniq bayon qilib bera oladigan bo'lishi shu materialning o'zlashtirilganligini ko'rsatuvchi belgilarning biridir. U o'qitilayotgan materialning mustahkam o'zlashtirilishiga ko'p e'tibor beradi va o'tilgan material esdan chiqib qolmasligi uchun uni tez-tez takrorlab turishni maslahat beradi.

Distervegning haqqoniy ravishda ta'kidlashicha, muvaffaqiyatli ta'lim hamisha tarbiyalovchi xarakterda bo'ladi. Bunday ta'lim o'quvchi-talabalarning aqliy kuchlarinigina o'stirib qolmay, balki uning shaxsini, irodasini, sezgilarini, xulq-atvorini ham kamol toptiradi.

Distervegning fikricha, o'qitish chog'ida o'quvchi-talabalarning tashabbuskorligini o'stirish, ularni bilimlar bilan qurollantirish o'qituvchi rahbarlik rolini o'ynaganidagina mumkin bo'ladigan ishdir. U ta'limning muvaffaqiyatli bo'lishi oqibat natijada darslik yoki metodga emas, balki o'kituvchiga bog'liq deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, yaxshi o'qituvchi o'z fanini mukammal egallab olgan bo'lishi hamda o'z kasbini va bolalarni sevishi kerak. Dars chog'ida hamma ta'lim oluvchilar tetik bo'lib turishi, o'qituvchi g'ayrat bplan dars berib, o'quvchi-talabalarning aqliy kuchini uyg'otishi, ularning irodasini mustahkamlashi, ularning xarakterini tarkib toptirishi kerak. O'quvchi-talabalar o'zlarining olg'a borayotganliklarinni hamisha sezib turishlari lozim. Yaxshi o'qituvchi, – deydi Disterveg, – o'zining tarbiya printsiplarini qat'iyat bilan og'ishmay o'tkazib boradi, bu printsiplardan hech qaytmaydi. O'qituvchi muttasil o'z ustida ishlashi lozim. Shundagina u o'quvchi-talabalarni bilimlarni egallashda matonatli bo'lishga o'rgatadi va ularni o'z yo'llarida uchraydigan

qiyinchiliklarni yenga oladigan qilib tarbiyalaydi. Disterveg o'qituvchining mustahkam xarakteri va o'tkir iroda kuchi ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. O'qituvchi qattiqqo'l va talabchan bo'lish bilan birga, adolatli bo'lishi ham kerak, faqat shundagina u o'z o'quvchi-talabalari orasida obro' qozonishi mumkin. O'qituvchi haqiqiy inson, mustahkam e'tiqodli bo'lishi lozim, deydi.

Distervegning fikricha, «yomon o'qituvchi haqiqatni aytib berib qo'ya qoladi, yaxshi o'qituvchi esa haqiqatni topishga o'rgatadi». U o'qituvchilarga o'z bilimlarini qanday qilib oshirishlari to'g'risida bir qancha qimmatli maslahatlar beradi, o'qituvchilarga o'zlari o'qitayotgan fanga taalluqli asarlarni birinchi navbatda o'qishni tavsiya qiladi, shunipgdek, o'qituvchi tarix va adabiyotni bilishi, shuningdek, pedagogika, psixologiya va metodikaga doir chiqayotgan yangn asarlarni kuzatib borishi kerak, deb ta'kidlaydi. Disterveg o'qituvchilarni amaliy pedagoglik mahorati va malakalari bilan qurollantirishga katta ahamiyat berdi.

Y.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi (1592-1670)

Buyuk slavyan pedagogi Yan Amos Komenskiy 1592-yilda Chex diniy jamoasida tegirmonchi oilasida tug'ildi, jamoadagi maktabda o'qidi.

Komenskiy ota-onasidan erta judo bo'ladi, jamoa a'zolarining yordami bilan universitetga kirib, o'qishni tamomlagandan keyin, Fulkenns shahridagi qardoshlik maktabida o'qituvchi bo'lib xizmat qiladi. So'ngra mahalliy jamoada rahbarlik vazifasida ishladi, ilmiy ishlar bilan shuqullanib, chex tilining xususiyatlarini, xalq og'zaki ijodini o'rganadi, qardoshlik maktablaridagi o'qitish mazmuni va usullarini takomillashtirish ustida ish olib boradi. 1628-yilda chex xalqi bilan birga Polshaning Leshno shahriga ko'chib keladi, bu shaharda ham qardoshlik maktabini ochib, o'qituvchi bo'lib ishladi, o'ziga olarnshumul shuhrat keltirgan "Buyuk didaktika" va "Onalar maktabi" asarlarini nashr qildiradi. Bu davrda u tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar ensiklopediyasi – "Pansofiya"ni yaratish ustida ish olib boradi.

Komenskiy 1641-yilda ingliz olimlarining taklifiga binoan Londonga boradi, katta tantana bilan kutib olinadi. U Shvetsiya va Vengriyada bo'lganda ham maktablarni isloh qilish bilan shug'ullanadi, "Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari" darsligini, "Insoniy ishlarni tuzatish haqida umumiy maslahatlar" asarlarini yozadi. Komenskiy 1670-yilda vafot etadi.

Y.A.Komenskiy pedagogik qarashlarining nazariy asosi

Y.A.Komenskiy o'zining "Buyuk didaktika", "Umumjamiyat donoligi haqida bashorat", "Insoniy ishlarni tuzatish haqida umumiy maslahat", "Tabiiy ne'matlarning madaniyligi haqida" va boshqa asarlarida o'z pedagogik nazariyasining asosini tashkil etuvchi atrof-muhit, inson, tabiat, insoniy fazilat va jamiyatga bo'lgan munosabatlarini ifodaladi.

Komenskiyning uqtirishicha, insonning bilishga intilishi tug'ma xususiyatdir. Qalb insoniy ruhning bir qismi sifatida olarni bilish qobiliyatiga egadir. Olimning fikricha, insonda bilish jarayoni his qilishdan boshlanadi. His qilish natijasida qabul qilib olgan narsalarini ongida qayta ishlab, tahlil qiladi, umumlashtiradi va mavhumlashtiradi. So'ngra ularni o'zining shaxsiy va boshqalar sinovidan o'tkazadi. Bilganlari amaliyotda tasdiqlansa, u haqiqiy va foydali bo'ladi.

Komenskiy tabiatni anglashni pedagogikaning asosi hisobladi. Uning fikricha, tabiat yagona borliq, unda barcha narsa maqsadga muvofiq tarzda amalga oshadi, uvda tuyg'unlik va o'zaro uzviylik mavjud, barcha narsa asta-sekin yuzaga keladi.

Komenskiy - demokrat olim. Uning nazdida, inson boy yoki kambag'al bo'lishidan qat'iy nazar, tabiiy qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishi, shaxs darajasiga ko'tarilimog'i lozim.

Komenskiyning ta'kidlashicha, xalqning ehtiyoji ta'lim va tarbiyaga doir ishlarni belgilaydi. Demokratizm, insonparvarlik, xalqchillik Komenskiy pedagogik nazariyasining eng asosiy qirrasidir.

Komenskiy ta'lim, tarbiya haqida

Komenskiy o'zining "Buyuk didaktika" asarida ta'lim bir butun pedagogika ekanini, ta'lim va tarbiyadan tashkil topganini aytib, pedagogik bilim ota-onalarga ham, o'qituvchilarga ham, o'quvchilarga ham, maktab, davlat, cherkov uchun kerakligini ta'kidlaydi.

Komenskiy asarda ta'lim oldiga quyidagi 4 ta talabni qo'yadi:

1. O'qitishning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun, o'quvchilarni so'zdan oldin buyumni bilishga o'rgatish; o'qitishda oddiydan murakkabga o'tish; muayyan yoshdagi o'quvchilarga mo'ljallangan darslik asosida bilim berish kerak.

2. O'qitish yengil (oson) bo'lishi uchun bola yoshligidan o'qitilishi; o'qitishda yengildan murakkabga o'tish; umumiydan xususiyya o'tish; o'quvchini bilim bilan haddan tashqari band qilib qo'ymaslik, shoshmasdan asta-sekin ilgari borish; maktabda o'rganilganni hayot bilan bog'lash kerak.

3. O'qitish asosli bo'lishi uchun o'quvchi foydali narsa bilan shug'ullanishi, keyingi mashg'ulot oldingi mashg'ulotga asoslanishi; o'rganilgan barcha materiallar o'zaro uzviy, o'zaro bog'langan bo'lishi, mashqdar bilan mustahkamlanishi lozim.

4. O'qitish tezlikda bo'lishi uchun o'qitilganlar asosli, qisqa va aniq bo'lishi; mashg'ulotlar uzluksizlikda, bugun berilgan bilim kelgusi mashg'ulotda mustahkamlanishi, o'qituvchi sinf mashg'ulotini barcha o'qituvchilar bilan o'tkazishi kerak.

Komenskiyning uqtirishicha, bilim o'quvchilarga tushunarli bo'lgandagina mashqlar foydali bo'ladi. Xotirada mustahkamlangan va puxta tushunilgan narsalargina ongga kuchli ta'sir etadi. Bilimni tushunish uchun, avvalo, uni his qilish kerak. hissiyot aqlni ilm tomon yo'lga boshlaydi. His qilish o'zlashtirish mustahkam bo'lishini ta'minlaydi.

Demak, bilimni mustahkam o'zlashtirilishiga erishish uchun, avvalo, o'quvchilarning hissiy idrok etishini ta'minlash kerak.

Komenskiy bilimni o'zlashtirishning mustahkam bo'lishi uchun mustaqillik va faollik asosiy omil ekanligini ta'kidlaydi. Komenskiyning ta'kidlashicha, o'qitish, bu o'quvchilar ongiga bilimlarni tiqishtirish emas, balki ularda bilimlarni tushunish layoqatini shakllantirishdir. O'qitish matnlarni o'qitib, ularni yodlatish

emas, balki sinov-tajribalar orqali, fan qonun-qoidalari, asosida chiqarilgan xulosalarni o'quvchilar ongiga singdirishdir.

A.Y.Komenskiy ta'lim tarbiya haqida bildirgan nazariy fikrlari bilan pedagogik nazariyaning rivojiga ulkan hissa qo'shdi.

O'qituvchining roli va unga qo'yiladigan talablar. Komenskiy o'z davridagi iste'dodsiz, ma'lumotsiz o'qituvchilarni qattiq tanqid etdi. O'qituvchilikni «er yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb» deb hisobladi. Bu o'qituvchiga nisbatan yangi ilg'or qarash edi, chunki o'sha davrda o'qituvchilik kasbiga hurmat bilan qaralmas edi. Komenskiy aholining o'qituvchiga hurmat bilan qarashini talab etishi bilan o'qituvchining o'zi jamiyatda muhim vazifani bajarayotganini tushunib olishi va o'z qadr-qimmatini yaxshi bilib olishi lozimligini uqtiradi. O'quvchi sof vijdonli ishchan, sabotli, axloqli bo'lishi, o'z ishini sevishni, o'quvchilarga otalardek muomala qilishi, ularda bilimga havas tug'dirishi lozim. «O'zi» namuna ko'rsatib, o'quvchilarni o'ziga qapatishi o'qituvchining birinchi vazifasidir, degan edi. Dindorlikni o'qituvchining yaxshi hislati deb biladi.

Shunday qilib, Yan Amos Komenskiy butun dunyoda pedagogika ilmiga asos solib maktabning taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Tayanch tushunchalar:

Qadimgi Yunoniston, Qadimiy Sharq, qadimgi Rim, faylasuflar, tarbiya, Iogann Genrix Pestalotsi, didaktika, boshlang'ich ta'lim, Adolf Disterverg, rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi, Komenskiy, K.D.Ushinskiy, pedagogik asarlar.

Bilimingizni sinab ko'ring

1. Qadimgi Yunoniston, Qadimiy Sharq mamlakatlaridagi ixtirolarga Gretsiya (Yunoniston) xalqlari qanday ta'sir ko'rsatgan?
2. Qadimgi Rim davlatlarida maktab va tarbiya jarayonlarining tuzilishi.
3. Qadimgi Yunoniston faylasuflari tarbiya to'g'risidagi qarashlarining mazmun-mohiyati.
4. Iogann Genrix Pestalotsiyning didaktika va boshlang'ich ta'lim metodikasiga qo'shgan hissasini nimalardan iborat?

5. Adolf Distervergning rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi mazmunini aytib bering.

6. Komenskiyning o'qituvchilik kasbi haqidagi fikrlari mohiyatini izohlang.

7. K.D.Ushinskiyning qanday pedagogik asarlari mavjud?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Слостенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н., Педагогика. Москва, Академиуа, 2015.

2. Мигранова Е.А., Позилова Ш.Х. Касбий педагогик фаолиятга кириш. – Тошкент, Тафаккур бўстони, 2018. – 200

3. Hasanboeva J., To'raqulov Q., Alqarov I., Usmonov D. Pedagogika. – Toshkent, Noshir, 2016-yil

4. Умарова.М. Теория и история педагогики. Учебное пособие. Т.: «Издательско полиграфический дом имени Чулпана» 2018.г.

5. Xadjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. T.: Sano-standart. 2017.

6. Юзликаева Э., Мадьярова С., Янбарисова Э., И.Морхова. Теория и практика общей педагогики. – Т.: ТГПУ, 2014.

7. Yo'ldoshev O'.J. Umumiy pedagogika. Darslik. Toshkent. Fan va texnologiyalar. 2019

10-Mavzu: XIX asrning 2-yarmi – XX asrda jahon pedagogika fanining rivoji. K.D.Ushinskiyning pedagogik merosi

Reja

- 1.M.V.Lomonosov va uning rus pedagogikasi va maktablar rivojidadagi o'rnini
2. L.N.Tolstoyning pedagogik qarashlari
3. K.D.Ushinskiy pedagogika fani va tarbiyaning ahamiyati to'g'risida

Rus faylasufi Mixail Lomonosov (1711-1765)

Mixail Lomonosov o'ziga to'q xonadonda dunyoga keldi. Lomonosov kelib chiqishiga ko'ra mayda savdogarlardan bo'lgan.

U Moskva shahridagi slavyan-yunon-lotin akademiyasida, keyin Kievdagi diniy akademiyada tahsil oldi. Shundan so'ng Peterburg Fanlar akademiyasi qoshidagi universitetda o'qidi. 1736-1741 yillarda esa Germaniyada bilim oldi. Uch yil olmon faylasufi Xristian Volbf qo'lida falsafa ilmini o'rgandi.

Mixail Lomonosov tabiatan mag'rur, mustaqil fikrlovchi shaxs edi. U har doim vataniga biror foyda keltirishga intilib yashagan. Lomonosov modda va harakatning saqlanish qonunini kashf etgan.

Faylasufning quyidagi asarlari ma'lum: «Issiq va sovuqning sabablari haqida mulohazalar» (1749), «Jurnalistlarning falsafa erkinligini qo'llab-quvvatlovchi maqolalarni yozish chog'idagi vazifalari to'g'risida mulohaza» (1755), «Yerning qatlamlari haqida» (1763).

1753-yilning 1 martida Lomonosovga imperator Yelizavetaning farmoyishi bilan dvoryanlik martabasi beriladi. Shuningdek, Koporsk uezdidan 9 ming botmon yer va 212 nafar krepostnoy dehqon ajratildi.

Lomonosov 1765 -yilning 4 -aprelida vafot etdi. Oradan bir yil o'tgach, rafiqasi Yelizaveta Andreevna ham hayotdan ko'z yumdi. Faylasufning yolg'iz farzandi Yelena esa kievlik ruhoniy bilan turmush qurdi va 22 yoshida olamdan o'tdi.

1748-yilda u Rossiyada birinchi bo'lgan kimyoviy laboratoriya ochdi. U erda u son-sanoqsiz tajribalar, shu jumladan ko'zoynaklardan foydalangan.

Mixail Vasilevich Lomonosov – rus tabiatshunos olimi, rus adabiy tilining asoschisi, shoir, rassom, tarixchi. Moskvada, Kievda (1734), so'ngra Peterburg akademiya universitetida o'qigan (1735). 1736-yildan Germaniyaning Merburg va Frayburg universitetlarida kimyo va metallurgiya fanlaridan ta'lim olgan. Peterburg Fanlar Akademiyasining birinchi akademigi (1745). 1748-yilda Rossiya Fanlar Akademiyasi qoshida 1-kimyoviy laboratoriyaga asos solgan. 1755-yilda Lomonosovning tashabbusi bilan Moskva univeersiteti tashkil etilgan (keyinchalik unga Lomonosov nomi berilgan). Moddalarning atom-molekulyar tuzilishi haqidagi tushunchalarni rivoilantirgan, kimyoviy reaksiyalarda massaning saqlanish qonunini topgan (1756), korpuskulyar (atom-molekulyar) ta'limoti asoslarini taklif etgan (1741-1850). Venera sayyorasida atmosfera mavjudligini aniqlagan (1761). Falsafiy va grajdanlik ruhidagi rus odasining ijodkori. Dostonlar, she'riy nomalar, tragediyalar va hajviy asarlar, fundamental filologik tadqiqotlar hamda rus tilining ilmiy grammatikasi muallifi. Ranglar haqidagi nazariyani olg'a surgan. Bir qancha optik asboblarni yasagan.

Rus pedagogik tafakkurining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan M.V. Lomonosov. U rus xalqining ko'plab avlodlari tomonidan qo'llanilgan bir qator darsliklarni yaratdi ("Ritorika", "Rus grammatikasi").

L.N.Tolstoyning pedagogik qarashlari

Lev Nikolaevich Tolstoy (1828-1910) o'zining pedagogik faoliyatini pedagogika sohasida nodir asarlar yaratish bilan birga 1859-yilda Yasnaya Polyanada o'z hisobiga dehqonlarning bolalari uchun maktab ochdi va taklif etilgan o'qituvchilar bilan birgalikda unda mashg'ulotlar olib bordi. Shuningdek, u To'la guberniyasida maorif ishlarini qayta tashkil etishda jonbozlik ko'rsatdi. Bu davrda uning tashabbusi bilan 20 dan ortiq maktab ochildi.

O'zining maorif sohasidagi tajribalarini keng yoyish maqsadida L.N.Tolstoy 1862 -yildan boshlab «Yasnaya Polyana» nomli pedagogik jurnalini chiqara boshladi va uning sahifalarida «Xalq maorifi to'g'risida», «Savodga o'rgatish metodlari haqida», «Maktablarning erkin tarkib topishi va rivojlanishi»,

«O'quvchilarning eng yaxshi insholari» kabi bir qator maqolalarini e'lon qildi.

Tolstoy o'zining pedagogik asarlarida o'qitish nazariyasi masalalari yuzasidan bir qancha original didaktik g'oyalarni ilgari surdi.

60-yillarning boshida Tolstoy pedagoglik ishiga astoydil kirishib, bu sohada uzluksiz izlanish olib boradi va «*har bir maktab o'ziga xos bir ta'lim-tarbiya laboratoriyasi bo'lishi kerak*» degan talabni qo'yadi, uning Yasnaya Polyanadagi maktabi ham o'ziga xos tajriba laboratoriyasi edi. O'qituvchining o'quvchilar bilan erkin suhbatida asosida tashkil etilgan bu maktabda 7 yoshdan 13 yoshgacha bo'lgan 30-40 nafar dehqon bolalari o'qir edi. Bolalardan tashqari, har yili qishloqdagi 3-4 nafar katta yoshdagi kishilar ham ta'lim olar edilar. Tolstoy o'zi tashkil etgan maktab uchun unda beriladigan o'qitish mazmunini ham, o'quv rejasini ham mustaqil tarzda ishlab chiqdi. Chunonchi, uning maktabida, o'qish, yozish, husnixat, grammatika, din darsi, rus tarixidan hikoyalar, arifmetika, tabiyot va geografiyadan elementar bilimlar berilar, rasm va ashula o'rgatilar edi. Rus tili darslarida Tolstoy o'quvchilarga badiiy hikoyalar shaklida tabiiyot, geografiya va tarixdan ma'lumotlar berardi. U bunday hikoyalarning namunasi sifatida «Yasnaya Polyana maktabi» sarlavhali maqolasida 1812-yilgi Vatan urushiga oid hikoyani keltirar edi.

Tolstoy 1869-yilda «**Urush va tinchlik**» romanini yozib, tugatgach, bolalar bilan o'tkazadigan mashg'ulotini yana qayta tikladi.

70-yillarda Tolstoy xalq maorifi sohasiga har tomonlama katta qiziqish bilan yondoshdi. 1872-yilda uning «**Azbuka**» («**Alifbe**») kitobi bosilib chiqdi. 1875-yilda esa qayta ishlangan «**Novaya Azbuka**» («**Yangi Alifbe**») hamda to'rtta «**Kniga dlya chteniya**» («**O'qish kitobi**») nashr qilindi.

Tolstoy savod o'rgatish uchun grammatikani yaxshilash ustida ko'p ishladi, o'z qishlog'idagi maktablarda tovush metodining ta'sirini aniqlash, bu metodning afzallik tomonlarini bilib olish maqsadida maxsus tajriba ishlarini ham o'tkazib, ijobiy xulosaga keldi.

L.N.Tolstoy «Alifbo» va «O'qish kitobi» xrestomatiyalari bilan bir qatorda, o'z zamonasi uchun ko'pgina afzalliklarga ega bo'lgan arifmetika darsligini ham tuzdi. Ilg'or metodist-olim sifatida tayyorlab nashr etgan darslik va qo'llanmalar Tolstoyning o'z faoliyatida

boshlang'ich ta'lim metodikasi bilan barakali shug'ullanganidan dalolat beradi.

L.N.Tolstoy pedagogik faoliyatining so'nggi davri (1880-yildan to umrining oxirigacha) o'ziga xos bosqichdan iboratdir. Bu davr tolstoychilik diniy e'tiqodining shakllanishi bilan xarakterlanadi: odamlarga umumiy mehr-muhabbat, barcha gunohlarni kechirish, o'zaro kelishuvchilik, zulmga qarshi zo'rovonlik ko'rsatmaslik va hokazo. Tolstoy o'zining diniy-axloqiy ta'limotini dehqonlarning bolalari bilan o'tkazadigan mashg'ulotlarida, shuningdek, katta yoshdagi aholi orasida keng targ'ib qildi.

Tolstoy Lev Nikolaevich (1828.28.8), Tula gubernyasi Yasnaya Polyana qishlog'i – 1910.07 11), Lipetsk viloyati, hozirgi Lev Tolstoy bekati; Yasnaya Polyana adafnetilgan – rus yozuvchisi. Rossiyadagi qadimiy dvoryanlar sulolasidan, graf. Peterburg fanlar akademiyasi muxbir a'zosi (1873), faxriy akademik. (1900). 1844-1847 -yillarda Qozon universitetining arabturk va huquqshunoslik fakultetlarida o'qigan. 1851-1853 -yillarda Kavkazda bo'lib, janglarda ishtirok etgan. 1854 -yil Dunay armiyasiga yuborilgan; iltimosiga ko'ra, qamaldagi Sevastopolga o'tkazilgan. Qirim urushida qatnashgan. Tolstoy 1855 -yilda Peterburga borib, N.A.Nekrasovning «Sovremennik» («Zamon-dosh») jurnali va jurnal atrofidagi yozuvchilar (I.S.Turgenev, I.A.Goncharov, N.G.Cherno'shevskiy va b.) bilan hamkorlik qilgan. Bolalik kezlari rus va arab xalq ertaklari, A.S.Pushkin she'rlari, shuningdek, Yusuf haqidagi Injil rivoyati ta'sirida she'rlar yozgan. Birinchi yirik asari – «Inson kamolotining to'rt davri» avtobiografik asari («Bolalik», 1852; «O'smirlik», 1852-1854; «Yoshlik», 1855-1857; «Yigitlik», yozilmay qolgan). Urushlavhalari va askarlarning maishiy turmushi Tolstoyning «Sevastopol hikoyalari» (1855) to'plamiga kirgan hikoya va ocherklarida o'z ifodasintopgan. 50-yillar Tolstoy ruhiy hayot lavhalari va maishiy turmush tafsillarini tarixiy voqealarning keng manzarasi, qayotning axloqiyfalsafiy asoslari tasviri bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladi. Tolstoy ijodida shakllana boshlagan bu ijodiytamoyil «Kazaklar» qissasi (1863)da, ayniqsa, yaqqol ko'rinadi. Bu asarda o'z in'ikosini topgan xalq hayoti mavzui va voqelikning epik tasviri Tolstoyning 60-yillar ijodida yanada teranlashadi.

Rus va jahon adabiyoti xazinasidan mustahkam o'rin olgan «Urush va tinchlik» (1863-69) epopeyasi (badiiy tasvir qamroviga ko'ra, katta, o'rta va kichik kabi uchta janr guruhiga ajratiladi. Katta epik janrlarga roman, epopeya, epik doston; o'rta epik janrlarga qissa; kichik epik janr-larga afsona, badia, latifa, masal, novella, ocherk, rivoyat, ertak, esse, etyud, hikoya, hikoyat kabilar kiradi). Tolstoyning 60 -yillarda ijodiy kamolotga erishganidan shahodat beradi. Ayrim sovet adabiyotshunoslari garchand bu asarni Tolstoyning o'z davri muammolaridan qochishi, deb baholagan bo'lsalarda, yozuvchi «Urush va tinchlik» romani bilan o'z davrida ro'y bergan va o'zi shaxsan guvoh bo'lgan voqealarga faol munosabat bildirgan. Eng muhimi, u Napoleonning 1805-1807 va 1812-1814-yillardagi harbiy yurishlari mavzuiga murojaat etib, ko'plab qahramonlar ishtirok etgan epik voqealar bilan birga qahramonlarning ruhiy tasvirlari ilk bor katta mahorat bilan uyg'unlashgan tarixiy roman janrini yaratdi. Holbuki, XIX asr o'rtalarida epik asarlar davri o'tdi, degan fikrlar keng tarqalgan, 60-yillarda rus jamiyatida kuch ola boshlagan sinfiy ziddiyat va kurashlar esa «Urush va tinchlik»dek epopeyaning maydonga kelishi uchun unumli zamin bo'la olmas edi. 1812-yilda Rossiyaning Napoleon qo'shinlari tomonidan bosib olinishi mumkinligi bir-biri bilan kelisha olmagan turli tabaka va sinflarni dushmanga karshi kurash shiori ostida birlashtirdiki, Tolstoyning rus xalqi ongidagi ana shu uyg'unlashga murojaat etishi «Urush va tinchlik» romanining yuzaga kelishi uchun hayotbahsh zamin vazifasini o'tadi.

Tolstoyning 70-yillar ijodida «Anna Karenina» romani alohida mavqega ega. «Urush va tinchlik»dan bu romanni yozguniga qadar bo'lgan davrda Tolstoyning rus jamiyatidagi ijtimoiy tenglik va adolat to'g'risidagi orzu umidlari ro'yobga chiqmadi. 60-yillardagi islohot yozuvchi kutgan natijani bermadi. Mazkur romanda Tolstoyning jamiyat hayotida kechayotgan noxush jarayonlar haqidagi iztirobli o'ylari aks etdi. Romanda Kareninlar, Oblonskiylar va Levinlardan iborat 3 oilaning bir-biri bilan chatishgan, ammo mustaqil syujet chizig'iga ega bo'lgan tarixi tasvir etilgan. Tolstoy, aksar rus yozuvchilaridek, nasroniy diniga katta e'tiqod qo'ygan, hayotda ro'y berayotgan voqealarga va kishilarning xattiharakatlariga ham shu din nuqtai nazaridanyondashgan. Uning diniy qarashlari jamiyat va shu jamiyatda yashovchi kishilarga, binobarin, u yoki bu qahramoniga

bo'lgan munosabatiga, shakshubhasiz, ta'sir o'tkazgan. Tolstoyning oila masalasiga, chunonchi, Kareninlar oilasida sodir bo'layotgan voqealarga yondashuvda ham diniy qarashlari seziladi. U jamiyat a'zolarida qanday Chirkin hislatlar mavjud bo'lmasin, kishilar diniy qonunqoidalar doirasida harakat qilishlari lozim, aks holda jamiyat halokat sari boradi, degan fikrdan kelib chiqib, qaxramonlar obrazini yaratadi. 70-y.larda ruhiy iztirob iqdimida yashagan Tolstoy o'z hayot yo'lini qayta nazardan o'tkazdi va shu jarayonda ijtimoiy kelib chiqishi, tarbiyasi va hayot yo'li bilan bog'liq jamiyat qatlamining ma'naviy asoslari yolg'onga asoslangan, degan xulosaga keldi. Uning bunday qarashlari «Iqornoma» (1880) va «E'tiqodim nimada?» (1884) asarlarida o'z ifodasini topdi. Tolstoyning shu davrda yozgan asarlari orasida «Ivan Il'yichning ulimi» (1886), «Kreytser sonatasi» (1889) qissalari, ayniqea, e'tiborga loyiq. Tolstoy 80-y.larda dramaturgiya janrlarida ham ijod qilib, «Zulmat hokimiyati» (1886) dramasi va «Ma'rifat mevalari» (1890) komediyasi-ni yozadi. Bu asarlarda qishloq ahlidagi jaholat, shahar madaniyatining qishloqqa ko'rsatayotgan salbiy ta'siri katta badiiy kuch bilan tasvirlangan. Tolstoyning dunyoqarashida tobora kuchayib borayotgan ziddiyatlar uning so'nggi yirik asarlaridan biri – «Tirilish» romani (1889-99)da o'z aksini topdi. Hayotda bo'lib o'tgan oddiy voqea – bir sud jarayoni asosida yaratilgan bu asarda Tolstoy ijtimoiy adolatsizlikka asoslangan jamiyatning ichki, ma'naviy asoslarini ochib-tashlaydi. Mazkur asardagi kishilar taqdiri bilan voqealarning o'zaro chambarchas bog'likligi masalasi «Hojimurod» (1896-1904) qissasining ham asosini tashkil etgan. Tolstoy dindor yozuvchi sifatida kishilar ruhiyatidagi ziddiyatlarni tasvir etibgina qolmay, o'zi ham jamiyat va kishilar hayotidagi bunday ziddiyat va mayllardan jarohatlanib yashagan. Yozuvchidagi murakkab ruhiy holat uning so'nggi asarlari («Tirik murda», 1890; «Baldan so'ng», 1903 va b.) da ham aks etgan. Tolstoy hayotining Yasnaya Polyanadagi so'nggi kunlari ruhiy iztiroblar po'rtanasida kechdi. U yaqin kishilari to'qigan ig'vo va fasad to'ridan qochib, 1910 yil Yasnaya Polyanadan bosh olib chiqib ketadi va yo'lda shamollab, vafot etadi.

O'zbekistonda Tolstoy ijodiga qiziqish u hayot paytlardayoq boshlangan. Uning «Odamlar nima bilan tirik?», «Xudo haqiqatni ko'rsa ham tezda ayta olmaydi» asarlari 1887-1902-yillarda «Turkiston viloyatining gazetida» o'zbek tilida nashr etilgan. Tolstoy

haqidagi «Rossiya mamlakatining mashhur yozuvchisi» degan maqola esa 1889- yil shu gazetada taniqli ma'rifatparvar Sattorxon Abdug'afforov tarjimasida bosilgan. Tolstoyning bolalar uchun yozgan qator hikoyalari Saidrasul Aziziy («Ustodi avval», 1902), Aliasqar Kalinin («Muallimi soniy», 1903), Abdulla Avloniy («Birinchi muallim», 1909; «Ikkinchi muallim», 1912) singari jadid ma'rifatparvarlarining o'quv qo'llanmalari va darsliklarida e'lon qilingan hamda usuli savtiya maktablarida o'qitilgan. Tolstoy nafaqat buyuk yozuvchi, balki adolatparvar va xalqparvar inson sifatida ham o'zbek jadidlarining e'tiborini o'ziga jalb etgan. Birinchi o'zbek advokati Ubaydulla Xo'jayev 1909-yilda Tolstoyga uning yomonlikka yomonlik bilan javob bermaslik haqidagi ta'limoti yuzasidan xat yozib, o'sha yilning 5- iyunida undan javob olgan. Islom dinining taniqli arboblardan biri Abduvohid Qoriyev esa 1910-yil Yasnaya Polyanaga maxsus borib, Tolstoy bilan bir necha marta muloqotda bo'lgan. Ammo o'zbek xalqining Tolstoy ijodi bilan yaqindan tanishishi XX asrning 30-yillaridan boshlangan va uning barcha asosiy asarlari o'zbek tiliga tarjima qilingan.

O'zining maorif sohasidagi tajribalarini keng yoyish maqsadida L.N.Tolstoy 1862-yildan boshlab «Yasnaya Polyana» nomli pedagogik jurnalini chiqara boshladi va uning sahifalarida «Xalq maorifi to'g'risida», «Savodga o'rgatish metodlari haqida», «Maktablarning erkin tarkib topishi va rivojlanishi», «O'quvchilarning eng yaxshi insholari» kabi bir qator maqolalarini e'lon qildi.

Tolstoy o'zining pedagogik asarlarida o'qitish nazariyasi masalalari yuzasidan bir qancha original didaktik g'oyalarni ilgari surdi.

60-yillarning boshida Tolstoy pedagoglik ishiga astoydil kirishib, bu sohada uzluksiz izlanish olib boradi va «har bir maktab o'ziga xos bir ta'lim-tarbiya laboratoriyasi bo'lishi kerak» degan talabni qo'yadi, uning Yasnaya Polyanadagi maktabi ham o'ziga xos tajriba laboratoriyasi edi. O'qituvchining o'quvchilar bilan erkin suhbatida tashkil etilgan bu maktabda 7 yoshdan 13 yoshgacha bo'lgan 30-40 nafar dehqon bolalari o'qir edi. Bolalardan tashqari, har yili qishloqdagi 3-4 nafar katta yoshdagi kishilar ham ta'lim olar edilar. Tolstoy o'zi tashkil etgan maktab uchun unda beriladigan o'qitish mazmunini ham, o'quv rejasini ham mustaqil tarzda ishlab

chiqdi. Chunonchi, uning maktabida, o'qish, yozish, husnixat, grammatika, din darsi, rus tarixidan hikoyalar, arifmetika, tabiiyot va geografiyadan elementar bilimlar berilar, rasm va ashula o'rgatilar zdi. Rus tili darslarida Tolstoy o'quvchilarga badiiy hikoyalar shaklida tabiiyot, geografiya va tarixdan ma'lumotlar berardi. U bunday hikoyalarning namunasi sifatida «Yasnaya Polyana maktabi» sarlavhali maqolasida 1812-yilgi Vatan urushiga oid hikoyani keltirar edi.

Tolstoy 1869-yilda «Urush va tinchlik» romanini yozib, tugatgach, bolalar bilan o'tkazadigan mashg'ulotini yana qayta tikladi.

70-yillarda Tolstoy xalq maorifi sohasiga har tomonlama katta qiziqish bilan yondoshdi. 1872-yilda uning «Azbuk» («Alifbe») kitobi bosilib chiqdi. 1875-yilda esa qayta ishlangan «Novaya Azbuk» («Yangi Alifbe») hamda to'rtta «Kniga dlya chteniya» («O'qish kitobi») nashr qilindi.

Tolstoy savod o'rgatish uchun grammatikani yaxshilash ustida ko'p ishladi, o'z qishlog'idagi maktablarda tovush metodining ta'sirini aniqlash, bu mstodning afzallik tomonlarini bilib olish maqsadida maxsus tajriba ishlarini ham o'tkazib, ijobiy xulosaga keldi.

L.N.Tolstoy «Alifbo» va «O'qish kitobi» xrestomatiyalari bilan bir qatorda, o'z zamonasi uchun ko'pgina afzalliklarga ega bo'lgan arifmetika darsligini ham tuzdi. Ilg'or metodist-olim sifatida tayyorlab nashr etgan darslik va qo'llanmalar Tolstoyning o'z faoliyatida boshlang'ich ta'lim metodikasi bilan barakali shug'ullanganidan dalolat beradi.

L.N.Tolstoy pedagogik faoliyatining so'nggi davri (1880-yildan to umrining oxirigacha) o'ziga xos bosqichdan iboratdir. Bu davr tolstoychilik diniy e'tiqodining shakllanishi bilan xarakterlanadi: odamlarga umumiy mehr-muhabbat, barcha gunohlarni kechirish, o'zaro kelishuvchilik, zulmga qarshi zo'ravonlik ko'rsatmaslik va hokazo. Tolstoy o'zining diniy-axloqiy ta'limotini dehqonlarning bolalari bilan o'tkazadigan mashg'ulotlarida, shuningdek, katta yoshdagi aholi orasida keng targ'ib qildi.

Solishtirish uchun Tolstoy Aleksey Nikolaevich

(1882.29.12 (1883.10.1). hozirgi Rossiyaning Saratov viloyati, 1945.23.2, Moskva) - rus yozuvchisi, jamoat arbobi. SSSR Fanlar akademiyasining akademigi (1939). Peterburg Texnologiya intitutida o'qigan (1901-1907). 1918-1923-yillarda Parijda yashagan. Ilk to'plami - «Lirika» (1907). «G'alati odamlar» nasriy to'plami (1911) va «Oqsoq boy» (1912) romanida zodagonlar hayoti aks etgan. «Aelita» (1922-23) va «Injener Garinning mo'jizasi» (1925-27) ilmiy fantastik romanlari bor. «Sarsonlik-sargardonlikda» trilogiyasi («Opasingillar», 1922; «O'n sakkizinchi yil», 1927-1928; «Bulutli tong», 1924-1941) rus ziyolilari haqida. «Ulug' Pyotr» tarixiy romani (1-kitob, 1929-1930; 2-kitob, 1933-1934; 3-kitob tugallanmagan)da Pyotr I zamonining ijtimoiy tarixiy voqealari aks etgan. Tolstoy shu mavzuda p'esa (1934-1938 va kinosenariylar ham yozgan. Italian folklori motivlari asosida «**Oltin kalit yoki Buratinoning boshidan kechirganlari**» kitobi (1936) bolalarga bag'ishlangan. 2-jahon urushining boshlanishi bilan aksar rus, ukrain va belorus yozuvchilari qatori, Tolstoy ham 1941-yilning noyabrida Toshkentga kelgan. U shu yerda «Ivan Grozniy» asarining 1-qismini tugatib, ushbu dilogiyaning 2-qismi «Mashaqqatli yillar» (1942)ni va «Yovuz kuch» pesasini yozgan. «Buyuk Pyotr» romani va «Sarsonlik – sargardonlikda» trilogiyasiga esa sayqal bergan. Shuningdek, sovet axborot agentligining muxbiri sifatida markaziy va respublika gazetalari uchun, jumladan, o'zbek xalqining urush yillaridagi hayotiga bag'ishlangan publisistik maqolalar yozgan. Shu yillarda O'zbekistondagi adabiy hayotda faol ishtirok etgan. Oybek, Hamid Olimjon, Shayxzoda, Izzat Sulton, Komil Yashin va boshqalar bilan ijodiy aloqada bo'lgan.

As: Rus xalq ertaklari, Tolstoy, 1951; Hikoyalar, Tolstoy, 1954; Sarsonlik – sargardonlikda [trilogiya], T., 1949-53; Oltin kalit yoki Buratinoning boshidan kechirganlari, T., 1955; Injener Garinning mo'jizasi [roman], T., 1961; Aelita [ilmiy fantastik roman], Tolstoy, 1982, Ulug' Pyotr [roman], 12-kitob, Tolstoy, 1973-74. Ad.: Vekeler I. I., Aleksey Nikolaevich Tolstoy. Jiznenniy i tvorcheskiy put, 1948; Petelin V. V., Sudba xudojnika. Jizn, Lichnost, tvorchestvo A.N. Tolstogo, M., 1982.

K.D.Ushinskiy pedagogika fani va tarbiyaning ahamiyati to'grisida (1824-1870)

Mashhur rus pedagogi, rus pedagogikasi va xalq maktablarining asoschisi, «rus o'qituvchilarining o'qituvchisi» Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy 1824-yilning 19-fevralida Tula shahrida tug'ildi.

Ushinskiy 9 yoshga qadar oilada tarbiyalanib, savod chiqardi. So'ngra Novgorod-Seversk gimnaziyasiga o'qishga kirib, uni 1840-yilda muvaffaqiyatli tamomladi. O'sha yili Moskva dorilfununining yuridik fakultetiga o'qishga kirdi va o'sha davrning mashhur professori Redkinning bevosita rahbarligi ostida ta'lim oldi.

Ushinskiy 22 yoshida Yaroslav litseyiga kameral (yuridik) fanlar professori vazifasini bajaruvchi sifatida xizmatiga kirdi va ish boshladi. U uch yillik dastlabki pedagoglik faoliyatida katta iste'dod egasi ekanini namoyish eta oldi. shuningdek, Ushinskiy zo'r ishtiyoq bilan o'qituvchilik ishini olib borib, talabalarga havas bilan bilim berishga harakat qildi, ularda ilm-fanga nisbatan qiziqish uyg'otdi, eng muhimi, o'z xalqi va ona yurtini jondan sevish, ardoqlash hamda vijdonan halol mehnat qilishga da'vat etdi. Bu yosh va iste'dodli professorning mazmunli ma'ruzalarini litsey talabalari maroq bilan tinglab, chuqur va mustahkam saboq olar edilar.

K.D.Ushinskiy pedagoglik faoliyatini ilmiy-ijodiy ish bilan birga qo'shib olib bordi. 1848-yilda uning birinchi ilmiy ishi – «Kameral fanlarni o'qitish haqida» degan asari nashr qilindi. Bu asarda Ushinskiy oliy o'quv yurtlaridagi mavjud o'qitish tizimiga nisbatan tanqidiy ko'z bilan qaradi. Hukumat tomonidan erkinlik berilishini talab etdi. O'qitish tizimini yaxshilashga oid yirik uslubiy muammolarni o'rtaga qo'yib, ularni qanday hal etish yo'llarini ko'rsatib berdi.

Ushinskiyning ilm-fanni demokratik tarzda targ'ib etishi reaksion doiralarga ma'qul tushmadi. 1849-yil sentabrda Ushinskiy va uning do'stlari, demokratik ruhdagi o'qituvchilar, siyosatda shubhali, hukumatga ishonchsiz kishilar sifatida litseydan chetlatildi. K.D.Ushinskiy boshqa ish topish maqsadida 1849-yilda Peterburgga ko'chib borib, juda katta qiyinchiliklardan so'ng 1850-yilda ichki ishlar vazirligida kichik bir amaldor vazifasida ishlashga majbur bo'ldi va u yerda to'rt yil ishladi.

Ushinskiy faqat 1854-yildagina Yaroslavl litseyi sobiq direktorining tavsiyasi bilan Gatchino institutida til-adabiyot va qonunshunoslik o'qituvchisi bo'lib ishga kiradi va u yerda tez fursatda shu institutning sinflar inspektori vazifasiga ko'tariladi. Ushinskiyning pedagogik faoliyati tom ma'nosi bilan ana shu vaqtdan boshlandi. U 1859-yilda Smolniiy institutining sinflar inspektori vazifasiga tayinlanib, unga shu institutning juda achinarli holga tushib qolgan ilmiy bo'lim ishlarini qaytadan tartibga solishday muhim topshiriq yuklandi. Ushinskiy bu ishni epcchilik bilan puxta bajarib, pedagogik jarayonni uyushtirish sohasida katta qobiliyat sohibi ekanini ko'rsatdi. shu bilan birga uning pedagogika masalalariga bag'ishlangan va muntazam chop etilayotgan nazariy tadqiqotlari uning faqat amaliyotchi emas, balki o'z ixtisosi bo'yicha kuchli nazariyotchi ekanligini ko'rsatdi.

Ushinskiy 1857-yildan boshlab «Tarbiya jurnali» («Jurnal dlya vospitaniya»)da, so'ngra «Xalq maorifi jurnali»da juda ko'p sermazmun maqolalar e'lon qildi. 1860-yilda u «Xalq maorifi jurnali»ning muharriri qilib tayinlandi. Ushinskiy 1861-yilda o'zining «Bolalar dunyosi» («Detskiy mir») nomli o'qish kitobini nashr ettirdi. Bu kitob o'sha yilning o'zidayoq ikki marta chop etildi.

Ushinskiyning pedagogik faoliyatiga soya soluvchi (1862-yil) imzosiz xat uni o'z ishini to'xtatishga majbur qildi. Bu xatda u go'yo siyosiy jihatdan ishonchsiz kishi, deb ayblangan edi. Buning oqibatida u chet ellardagi xotin-qizlar maorifining yo'lga qo'yilishini o'rganish va pedagogikadan darslik yozish uchun o'z vatanidan ketishga majbur bo'ldi. U xorijiy mamlakatlarda yurgan davrida o'zining butun kuch-g'ayratini ta'lim-tarbiyaga doir asarlar yozish va ularni chop ettirishga yo'naltirdi. Natijada, 1861-yilda uning I va II o'quv yillari uchun «Ona tili» darsligi nashr etildi va unga «Muallimlar uchun qo'llanma» degan metodik asari ilova qilindi. 1870-yilda esa III o'quv yili uchun ham «Ona tili» darsligi bosilib chiqdi. Bundan tashqari, Ushinskiyning pedagogika sohasidagi asosiy nazariy asari hisoblangan «Inson – tarbiya predmeti sifatida» («Pedagogik antropologiyadan tajriba») nomli asari ayrim jildlarga bo'linib nashr qilina boshladi. 1867-yilda bu asarning I jildi, 1869-yil II jildi bosilib chiqdi. Ushinskiy bu kitobning hamma jildlarini qisqartirib ingliz tiliga tarjima qilish maqsadida uchinchi jild ustida zo'r g'ayrat bilan ishlay boshladi. Afsuski, bu ishni tamomlash unga nasib bo'lmadi. U Qrimda

davolanish paytida qattiq shamollab qoldi. Bu shamollash va zo'r berib ishlashi hamda xizmati bilan bog'liq bo'lgan ko'ngilsizliklar orqasida zaiflashib toliqqan edi. Natijada 1870-yil 21-dekabrda Odessada zotiljam kasalidan vafot etdi.

K.D.Ushinskiyning pedagogika nazariyasi xalqchilik g'oyasi asosida qurilgandir. «Har bir mamlakatda bolalarni tarbiyalash tizimi, - deb aytgan edi u, - xalqning rivojlanish sharoitlari, uning ehtiyoj va talablari bilan belgilangan». «Hamma uchun umumiy bo'lgan birgina tug'ma moyillik borki, tarbiya hamisha shunga tayanishi mumkin; bu biz xalqchilik deb atagan narsadir. Xalqning o'zi tomonidan yaratilgan va xalqchilik asosiga qurilgan tarbiya shunday tarbiyaviy kuchga egaki, bunday kuch abstrakt g'oyalarga asoslangan yoki boshqa xalqlardan olingan eng yaxshi tizimlarda ham yo'qdir»

Ushinskiy xalqchilik deb har bir xalqning o'ziga xosligini tushunar ediki, bu o'ziga xoslik o'sha xalq yashashi va mehnat qilishi lozim bo'lgan tarixiy taraqqiyot, geografik va tabiiy sharoitlar bilan ifodalanadi.

U «Ijtimoiy tarbiyada xalq ruhi» sarlavhali maqolasida tarbiyaning xalqchilik ruhida bo'lishi kerakligini aytib, boshqa xalq pedagogikasini mexanik suratda rus tuprog'iga ko'chirishni aqlga mutlaqo muvofiq emasligini ta'kidlaydi.

Ushinskiy tarbiyada xalq ruhining eng yaxshi ifodasi ona tili ekanligiga, rus bolalarini o'qitishda rus tili asos bo'lishligini; boshlang'ich maktablardagi ta'lim ham bolalarni rus tarixi, Rossiya geografiyasi va uning tabiati bilan tanishtirmog'i lozim deydi.

Ushinskiyning pedagogika tizimida ona tilining tarbiyaviy va ta'limiy ahamiyati tarbiyaning asosi bo'lgan xalqchilik bilan chambarchas bog'liqdir.

Ushinskiy o'zining «Ona tili» sarlavhali maqolasida «Xalq tili - uning qadim zamonlardan boshlanuvchi bugungi ma'naviy hayotining eng yaxshi, hech qachon so'lmaydigan, doimo yangidan ochilib yashnab turadigan gulidir. Butun xalq va uning vatani til bilan tirikdir» bo'larning hammasi xalq ijod etgan til orqali ifodalanadi» Xalq avlodlari birin-ketin yashab o'taveradi, ammo har bir avlod hayotining natijalari keyingi avlodlarga til orqali meros bo'lib o'tadi. Har bir avlod o'z his-tuyg'ularini, tarixiy voqealar, diniy e'tiqod, maslak natijalarini, boshidan kechirgan qayg'u va xursandchiliklarini ona tili xazinasiga qo'shadi. Til eng jonli, eng boy va mustahkam

aloqa vositasi bo'lib, xalqning yashab o'tgan, yashayotgan va kelajakda yashaydigan avlodlarini bir-birlari bilan chambarchas bog'laydi, ularning ulug', tarixiy, jonli bir butunga aylantiradi. Til bor ekan, xalq ham bor, xalqning hayot ekanligini til orqali bilish mumkin. Til xalqning hayotidir. Xalq tili yo'qolganida xalqning o'zi ham yo'q bo'ladi», – deb uqtiradi. Ona tili – Ushinskiyning fikricha – na kitob, na maktab bo'lmagan vaqtda ham xalqni o'qitgan eng yaxshi xalq ustozidir.

Axloqiy tarbiya maqsadlari va vositalari. K.D.Ushinskiy tarbiya ishidagi turli vositalar orasida axloqiy tarbiyaga katta e'tibor berib, «Tarbiyaning asosiy vazifasi axloqiy jihatdan ta'sir etishdan iboratdir, bu aqlni umuman o'stirish, boshni bilimlar bilan to'ldirishdan ko'ra ham muhimroqdir», - deb yozgan edi.

Axloqiy tarbiya bolalarda odamlarga hurmat va muhabbat bilan qarashni, ularga nisbatan samimiy, xayrixoh va adolatli munosabatda bo'lishni o'stirishi kerak.

Ushinskiy ko'r-ko'rona, tayoq intizomiga qarshi norozilik bildirib, «Eski maktabda intizom nihoyatda g'ayritabiiy asosga yoki mukofotlar va yoki jazolar ulashib beruvchi o'qituvchidan qo'rqish asosiga qurilgan edi. Bu qo'rquv bolalarni zararli holatlarga: sustkashlikka, sinf doirasidagi zerikishga va ikkiyuzlarnachilikka olib keldi» deb u bolalarga nisbatan insoniy munosabatda bo'lishni talab qildi.

Ushinskiy egoistiklik, mansabparastlik, bekorchilik, g'arazgo'ylik, munofiqlik singari nuqson va kamchiliklarni qattiq qoralaydi.

Ushinskiyning fikricha, axloqiy tarbiyaning vositalari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

1. Ta'lim (axloqiy tarbiyada kitob va darsliklarni o'rni);
2. O'qituvchining shaxsan namuna bo'lishi (Ushinskiyning obrazli ifodalashicha, «bu narsa yosh qalb uchun quyoshning barakali nuridirki, uni hech bir narsa bilan almashtirib bo'lmaydi»);
3. E'tiqod;
4. O'quvchilarga mohirlik bilan munosabatda bo'lish (pedagogik odob);
5. Ogohlantirish choralari;
6. Rag'batlantirish va jazolash.

Ushinskiy bolalar mehnati haqida gapirib, insonning to'g'ri rivojlanishidagi zarur shart mehnatdir, deb hisoblagan edi. Uning

fikricha «agar tarbiya kishini baxtli qilmoqchi bo'lsa, uni baxt uchun tarbiyalarnaslik kerak, balki hayotdagi mehnat uchun tayyorlashi lozim». Tarbiya kishida mehnatga muhabbat va odatni o'stirish kerak. Ushinskiy kishi o'z faoliyatida jismoniy mehnat bilan aqliy mehnatni birlashtirsa, juda foydali bo'lur edi, deb hisoblaydi. U o'quvchilar mehnati haqida gapirib, «O'qish mehnatdir va mehnat bo'lib qolishi, ammo to'la ma'noli mehnat bo'lishi lozim», - deydi.

K.D.Ushinskiyning aqliy mehnatni jismoniy mehnat bilan qo'shib olib borish to'g'risidagi, o'qish va dam olishni to'g'ri tashkil etish haqidagi pedagogik fikrlari hozirgi kunda ham qimmatlidir.

K.D.Ushinskiyning didaktika sohasidagi qarashlari pedagogika tarixida o'zining chuqurligi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ushinskiy ta'limni bolalarning psixologik jihatdan kamol topishlarining yosh bosqichlarini hisobga olishni va ular psixologiyasining xususiyatlarini e'tiborga olib tashkil etish kerakligini talab qildi.

Ushinskiy xotira bilan esda saqlab qolish to'g'risida gapirib, unutilishning oldini oladigan tez-tez takrorlash yo'li bilan tarbiya oluvchilarda o'z xotiralariga ishonchni mustahkamlash kerak, deb ko'rsatdi. U darsda ko'rsatmalilik tamoyiliga katta ahamiyat berib, psixologik nuqtai nazardan ko'rsatmali ta'limni mohiyatini yoritib berdi.

Ushinskiy ko'rsatmali ta'lim tamoyillarini nazariy jihatdan ishlab chiqishga va uni amalda tatbiq etishga doir juda ko'p qimmatli fikrlar kiritdi. Ushinskiy o'qitish jarayonida ko'rsatmali ta'limga munosib o'rin berdi: u ko'rsatmali ta'lim o'quvchilarning rivojlanishini ta'min etadigan shartlardan biridir, deb bildi.

Ushinskiy bolalarning o'quv materialini anglab, puxta va mustahkam o'zlashtirishi tamoyiliga katta e'tibor berdi. U bu tamoyillarni tushunish va tatbiq qilishda o'zidan ilgari o'tgan pedagoglarga nisbatan ko'pgina yangiliklar kiritdi. Masalan, o'quv materialini takrorlash to'g'risida batafsil metodika ishlab chiqdi.

Ushinskiy ta'lim yo'nalishida ikki yo'nalish borligini qayd etdi. Birinchi yo'nalish bolalar o'qituvchining rahbarligida buyum yoki hodisani kuzatadilar va shu buyum yoki hodisa to'g'risida umumiy tushuncha hosil qiladilar. Ikkinchi yo'nalishda olingan bilimlar umumlashtiriladi va mustahkamlanadi.

Ushinskiy maktabning ikki xodimi: murabbiy bilan o'qituvchi o'rtasida tarbiya va ta'lim (funktsiyasini) jarayonini bo'lib qo'yishga qarshi norozilik bildirdi. U ta'limni tarbiyaning eng muhim vositasi deb hisobladi.

Ushinskiy o'zining pedagogik tizimida dars hamda ta'lim metodiga katta ahamiyat berdi.

Darsda mashg'ulotlar turlicha bo'lishi mumkin: yangi bilim berish, o'quvchilarning mashqlar bajarishi, o'tilganlarni takrorlash, o'quvchilarning bilimini hisobga olish, o'quvchilarning yozma ishlarni bajarishlari. Har bir dars ma'lum maqsadga qaratilgan, tugallangan bo'lishi va yetarli darajada tarbiyaviy xarakterga ega bo'lishi lozim. Ushinskiy mashg'ulotlarni almashtirib va metodlarni xilma-xil qilib turishni tavsiya qildi.

Ushinskiy bolalarda mustaqil ishlash qobiliyatini o'stirishga e'tibor berib, o'qituvchi maktabga yangi kirgan bolalarga darsda mustaqil ishlashning to'g'ri usullarini o'rgatishi kerak, bolalar to mustaqil ishlash malakalarini mustahkam o'zlashtirib olmaguncha, ularga uyga vazifalar berish yaramaydi, deydi.

Ushinskiy «Rus tilini dastlabki o'qitish» (1864) sarlavhali maqolasida bir qancha qimmatli metodik ko'rsatmalar berdi. Uning fikricha, o'qitishning uchta vazifasi bor: 1) bolaning nutqini o'stirish; 2) bolalarni rus tilining boyligidan ongli suratda foydalanishga o'rgatish va 3) tilning mantiqini (grammatikasini) o'zlashtirish. Bu uch vazifa bir vaqtda birlikda bajariladi.

Rossiyada o'qishga o'rgatishda tovush metodini joriy qilish va keng tarqatishda Ushinskiyning xizmati katta bo'ldi.

Ushinskiy o'qituvchilarning roliga yuksak baho berib, «pedagogning o'quvchilarga ta'siri shunday tarbiyaviy kuchga egadirki buni hech qanday ustav va dastur bilan, o'quv yurtini har qancha qulay tashkil etish bilan almashtirib bo'lmaydi», deb hisoblar edi. U «¼ tarbiya ishida murabbiyning shaxsi eng asosiy narsa», deb yozgan edi.

Ushinskiy pedagogika o'qituvchilari va o'rta maktab o'qituvchilari tayyorlaydigan pedagogika fakultetlari to'g'risidagi fikrni olg'a surdi. U bunday deb yozgan edi: bizda meditsina fakultetlari bor-u, pedagogika fakultetlari yo'q ekan, bu shuni ko'rsatadiki, biz axloqiy va tarbiyaviy sog'lig'imizga qaraganda

tanamiz sog'lig'ini ko'proq qadrlar ekanmiz. Uning bu fikri so'nggi yillarda amalga oshdi.

K.D.Ushinskiyning xizmati shundaki, u o'z vataniga, o'z xalqiga xizmat qilishni pedagogik faoliyatining asosiy burchi deb hisobladi. K.D.Ushinskiy ilmiy-amaliy pedagogik faoliyatining asosiy g'oyasi va yo'nalishi ham yuqoridagi mehnatlari bilan bevosita bog'liqdir. K.D.Ushinskiy pedagogikaning o'ziga xosligini, milliy xususiyatlarini himoya qildi, shuningdek, tarbiya xalqchil bo'lishi lozim, deb hisobladi. K.D.Ushinskiy mehnatga inson baxt-saodatining asosiy sifatida qaradi, bolalarni mehnat orqali tarbiyalashga katta e'tibor berdi. Ushinskiy ta'limotining mazmuni, tamoyillari, shakl va metodlarini ishlab chiqishda ham ko'p ishlar qildi. U ta'limni va uning ko'rsatmaliligini, ongli va uzviy ta'lim-tarbiya masalalarini ishlab chiqdi. O'qitish shakl va metodlarining rang-barangligiga erishishni talab etdi.

K.D.Ushinskiy o'qituvchining mehnatini va uning tarbiyalanuvchi shaxsga ta'sirini yuqori baholadi. Ushinskiy o'qituvchilar tayyorlash tizimini birinchi marta ishlab chiqdi.

Ushinskiy boshqa xalqlarning ham pedagogikasi va xalq maktablari taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi.

1895-yilda Ushinskiyning vafotiga 25 yil to'lishi munosabati bilan bo'lgan yig'ilishda, uning ishini davom ettiruvchilardan biri, Modzalevskiy aytib o'tganidek, «Xuddi Lermontov – bizning xalq olimimiz, Suvorov – bizning xalq lashkarboshimiz, Pushkin – bizning xalq shoirimiz, Glinka – bizning xalq kompozitorimiz bo'lganidek, Ushinskiy ham – bizning haqiqiy xalq pedagogimizdir» deganda haq edi.

K.D.Ushinskiyning didaktik qarashlari va pedagogik merosi

1859-yilda K.D.Ushinskiy podsho saroyiga qarashli Smolniy aslzoda qizlar institutiga ishga taklif qilindi. U bu yerda ishlash bilan birga “Xalq maorifi vazirligi” jurnaliga muharrirlik qildi va jurnal sahifalarida uning pedagogikaga oid bir qator maqolalari muntazam e’lon qilindi. “Mehnatning psixologik ahamiyati”, “Ona tili”, “O’qituvchilar seminariyasining loyihasi” kabi maqolalarida olg’a surilgan ilg’or g’oyalar ayrim kishilarga yoqmasi va 1867-yilda Yevropa mamlakatlarida xotin-qizlar maorifini qanday yo’lga qo’yilganligini o’rganish uchun chet elga safarga jo’natildi. U bu davrdan unumli foydalandi. Biroq og’ir kasallik sababli 1867-yilda vataniga qaytdi va 1870-yilda 46-yoshida vafot etdi.

K.D.Ushinskiyning pedagogik asarlari

K.D.Ushinskiy quyidagi bir qator pedagogik asarlar muallifidir:

– “Ona tili” – 1861-yil;

– “Muallimlar uchun qo’llanma” – 1861-yil;

– “Kishi tarbiya asosi” (“Pedagogik antropologiyadan tajriba”) – 1867-1869 -yil;

– “Pedagogik adabiyotlarning foydasi to’g’risida” – 1857 -yil;

– “Maktabning uch elementi” – 1857 -yil;

– “Bolalar dunyosi” – 1861 -yil;

– “Inson tarbiya predmeti sifatida” – 1867 -yil.

K.D.Ushinskiy iqtidorli pedagog va psixolog edi. Uning fikricha, keng ma’nodagi olingan pedagogika ta’lim-tarbiya tajribalarini umumlashtirilgan xulosasi bo’lmog’i, falsafa, anatomiya, fiziologiya, psixologiya, siyosiy fanlarga asoslanmog’i kerak.

K.D.Ushinskiyning pedagogik g’oyalari

– tarbiyaning xalqchilik g’oyasi, ya’ni har bir xalq o’z tarbiya tizimini o’zi ishlab chiqqan;

– “hali na kitob, na maktab bo’lmagan vaqtlarda ona tili xalqqa ta’lim bergan”, “ona tili buyuk xalq murabbiysidir”, “til tafakkurning so’zdagi ifodasidir”, “Mustaqil tushunishning zaruriy sharti ko’rgazmalilikdir”.

K.D.Ushinskiyning tarbiya haqidagi fikrlari

– “Tarbiyaning asosiy vazifasi axloqiy jihatdan ta’sir etishdan iboratdir, bu umuman aqlni o’stirish, boshni bilimlar bilan to’ldirishdan muhimroqdir”;

– “Tarbiya bolada yaxshi fazilatlar bilan birgalikda qat’iy xarakter va iroda, chidamlilik, o’z burchini sezish tuyg’usini o’stirmog’i kerak”;

– “Vatanga muhabbat – bu insonning eng kuchli tuyg’usidir”;

– “Agar tarbiya kishini baxtli qilmoqchi bo’lsa, uni baxti uchun tarbiyalanmasligi kerak, balki hayotdagi mehnat uchun tayyorlashi lozim”;

– “O’qish mehnatdir va mehnat bo’lib qolishi kerak”.

K.D.Ushinskiyning boshlang’ich ta’lim didaktikasiga oid fikrlari

Ushinskiyning didaktika sohasidagi qarashlari pedagogika tarixida juda katta ahamiyatga ega, jumladan:

– o’qitish vaqtida bolaning diqqatidan foydalanish;

– esda olib qolish va takrorlanish;

– ko’rsatmalilik; “bolalar, shakllar, ranglar, tovushlar, umuman, sezgilar bilan fikrlaydi...”.

– mashg’ulotni almashtirib, usullarni xilma-xil qilib turish;

– darsda mustaqil ishlashning to’g’ri usullarini o’rgatish;

– izohli o’qishga o’rgatish;

– o’qishga o’rgatishda tovush metodidan foydalanish.

Xulosa shuki, Ushinskiy tarbiya va ta’lim sohasida ota-onalarga ham juda katta mas’uliyatlar yuklaydi va shunday yozadi: “Oila tarbiyasi ota-onaning xususiy ishi emas, balki ularning fuqarolik burchidir”.

K.D.Ushinskiyning tarixiy xizmati shundaki, u didaktika – o’qitish nazariyasining psixologik asoslarini o’sha vaqtdagi ilmiy muvaffaqiyatlarga muvofiq ravishda bayon qilib berdi.

Tarbiyalovchi ta’limning eng muhim didaktik tamoyillarini psixologik nuqtai nazardan asoslab berdi.

Xullas, K.D.Ushinskiy pedagogik ta’limotining mazmuni, tamoyillari, shakl va metodlarini ishlab chiqishda ham ko’p ishlar

qildi. U ta'limni va uning ko'rsatmaliligini, ongli va uzviy ta'lim-tarbiya masalalarini ishlab chiqdi, o'qitish shakl va metodlarining rang-barangligiga erishishni talab etdi.

Tayanch tushunchalar: axloqiy tarbiya vositalari. E'tiqod, mohirlik bilan munosabatda bo'lish, Rag'batlantirish va jazolash, «Ona tili», «Xalq tili», xalqchilik g'oyasi, qonunshunoslik o'qituvchisi, «rus o'qituvchilarining o'qituvchisi». L.N.Tolstoy, qarashlari, K.D.Ushinskiy g'oyalari.

Bilimingizni sinab ko'ring.

1.M.V.Lomonosov va uning rus pedagogikasi rivojiga qo'shgan xissalarini aytib bering

2. L.N.Tolstoyning pedagogik qarashlari

4.K.D.Ushinskiyning pedagogik g'oyalari

5.K.D.Ushinskiyning tarbiya haqidagi fikrlari

6.K.D.Ushinskiyning qanday pedagogik asarlari mavjud?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K.Hoshimov va b., "Pedagogika tarixi" Toshkent, O'qituvchi", 1996.

2. O.Hasanboyeva, va b., "Pedagogika tarixi", Toshkent, "O'qituvchi", 1997

3. O.Hasanboyeva "Pedagogika tarixidan xrestomatiya". Toshkent, "O'qituvchi", 1993

4. A.Zunnunov va boshqalar "Pedagogika tarixi", Toshkent, "Sharq", 2000.

5. K.D.Ushinskiy "Pedagogik asarlar"(6 tomlik), Moskva, "Pedagogika", 1988-1990.

6.Xadjaev B.X. Umumiy pedaggogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. T.: Sano-standart. 2017.

7.Yo'ldoshev O'.J. Umumiy pedagogika. Darslik. Toshkent. Fan va texnologiyalar. 2019.

11-Mavzu: Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji

O'zbekiston Respublikasi uchun bugun dunyodagi taraqqiy etgan xorijiy davlatlar ta'lim tajribasini o'rganish va bizga ma'qullaridan foydalanish imkoniyatlari g'oyat keng bo'lib, bu borada mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli ishlar diqqatga sazovordir.

Quyida rivojlangan xorijiy davlatlar ta'limi tizimi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari va o'ziga xos xususiyatlari, ular tajribalari to'g'risida batafsil ma'lumotlar berishga harakat qilamiz.

Mazkur mavzu bo'lajak o'qituvchiga pedagog yangiliklarini Qiyosiy tahlil qilishga, tushunishga, bizga yot bo'lgan g'oya va axloqqa qarshi kurashishga yordam beradi.

XX asr jahon ta'lim tizimidagi global tendentsiyalar.

Iqtisodiy rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi.

Mazkur mavzu bo'lajak o'qituvchiga pedagog yangiliklarini Qiyosiy tahlil qilishga, tushunishga, bizga yot bo'lgan g'oya va axloqqa qarshi kurashishga yordam beradi.

Yevropa mamlakatlarida ta'lim-tarbiya muammolarining umumiy tavsifi

Yevropada savodhonlik darajasi nihoyatda yuqoridir. 90% dan ortiq, kishilar yozishni va o'qishni biladilar. Faqatgina Yevropaning to'rt davlatida bu ko'rsatgich biroz pastroqdir. Bu davlatlar: Albaniya, Malta, Portugaliya va Turkiya.

Evropa davlatlari ta'lim tizimlariga xos xususiyatlar bir biridan ancha farqlanadi. Masalan, Portugaliyada bolalar maktabga 6 yil borishlari shart bo'lsa, Belgiyada majburiy ta'lim 12 yil davom etadi. Fransiyada ta'lim tizimi boshqaruvi juda markazlashgan bo'lsa, Shveysariyada ta'lim mahalliy hokimiyatlar tomonidan boshqariladi. G'arbiy Yevropadagi Shimoliy mamlakatlarning ko'pchiligida-Buyuk Britaniya, Norvegiya, Shvetsiyada ko'pchilik bolalar 15-16 yoshgacha bir xil ta'lim oladilar. Bu yoshga yetgach, ba'zi bolalar maktabni tamomlab, professional maktabga borishlari, boshqalari kollejga tayyorgarlik ko'rish uchun nazariy bilim olishni davom ettirish

mumkin. Ta'lim sifati Yevropa janubiga nisbatan yuqoridir. Gretsiya, Portugaliya, Bolgariya va Albaniya singari janub mamlakatlari Shimoliy davlatlarga nisbatan kambag'alroq. Shuniig uchun, ular o'z mamlakatlari ta'lim taraqqiyotining uzluksizligini ta'minlashga qodir emaslar. Bu mamlakatlarda bolalar o'zlarining shimoldagi tengdoshlariga nisbatan oz muddat davomida maktabga boradilar. Ilmiy - tehnik bilimlarni nisbatan oz egallaydilar. Janubiy Yevropa mamlakatlarida haligacha cherkovning ta'limga ta'siri sezilarli darajada yuqori.

XX asrning 80-yillari ohiriga qadar Sharqiy Yevropa mamlakatlarida kommunistik partiyalar ta'lim jarayoni ustidan mutloq, hukumronlik o'rnatgan edilar. Maktablarda kommunistik g'oyalar o'qitilardi, diniy ta'lim esa, umuman man etilgan edi. Hozir ham Sharqiy Yevropa mamlakatlarining aksariyatida hukumat ta'lim tizimlarini boshqdradi. Biroq, 80-yillar ohiridan boshlab yuborilgan demokratik islohatlar natijasi o'laroq, Sharqiy Yevropa maktablarida kommunistik g'oyalar o'qitilmayapti. Aksincha, o'z xalq ho'jaligi va ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish maqsadida fanni rivojlantirishga, maktablar va unga tegishli o'quv muassasalarida texnik fanlarni o'qitishga katta e'tibor berilmoqda.

Iqtisodiy rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi.

Mazkur mavzu bo'lajak o'qituvchiga pedagog yangiliklarini Qiyosiy tahlil qilishga, tushunishga, bizga yot bo'lgan g'oya va axloqqa qarshi kurashishga yordam beradi.

Yevropa mamlakatlarida ta'lim tizimining tuzilishi

Yevropa 45 ta katta-kichik davlatni o'z ichiga oladi.

Eng kattasi Rossiya, eng kichik davlat Vatikan

Yevropada savodxonlik darajasi nihoyatda yuqoridir.

Yevropadagi eng qadimgi va nufuzli universitetlar

1. Kembridj, Oksford (Buyuk Britaniya)
2. Geydelberg (Germaniya)
3. Moskva (Rossiya) MGU Lomonosov
4. Parij (Fransiya)
5. Boloniya (Italiya)

6. Krakov (Polsha)

Rivojlangan xorijiy mamlakatlardan biri Finlandiyadir.

Finlandiya

Poytaxti Xelsinki

Puli Yevro(fin markasi)

Davlat tili Fin shved

Dini Lyuterchilar 90%

Aholisi 5.6 mln (2021)

Maydoni 338,145 km²

Bo'linish tizimi 5 guberniya (lyani)

Milliy bayrami 6-dekabr Mustaqillik kuni (1917)

Qonun chiqaruvchi organ Parlament

O'z.R bilan diplomatik munosabatlar sanasi 1992-yil 26-fevral

Davlat boshqaruv va tuzilish shakli Parlamentli respublika

Finlandiya (fincha: Suomi, shvedcha: Finland), Finlandiya Respublikasi (fincha Suomen Tasavalta, shvedcha Republiken Finland) – Shimoliy Yevropada joylashgan davlat.

Helsinki shahri; Tampere ikkinchi yirik shahar. Ma'muriy jihatdan 5 lyani (guberniya) ga bo'linadi. 1991-yildan o'zini o'zi boshqarish maqomini olgan. Aland orollari bu hisobga kirmaydi. BMT a'zosi.

Davlatimiz rahbari tomonidan aynan Finlyandiya misol qilib ko'rsatilgani bejizga emas. Ushbu mamlakat ta'lim sifatini baholash bo'yicha o'tkazilgan xalqaro tadqiqotlardagi o'z muvaffaqiyatlari bilan ajralib turadi. Fin o'quvchilari ta'lim sifatini baholash bo'yicha tadqiqotidagi barcha yo'nalishlarda savodxonlik ko'rsatkichlari bo'yicha eng yaxshi natijalarga erishib kelmoqda.

Ma'lumot o'rnida, Finlyandiyaning asosiy ta'lim to'g'risidagi qonunida (1998-yil) Finlyandiya ta'limining uchta asosiy maqsadi belgilab berilgan: (1) o'quvchilarga hayotda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni berish,

(2) jamiyatda rivojlanish va tenglikni targ'ib qilish hamda

(3) butun mamlakat bo'ylab ta'lim sohasida tenglikni ta'minlash.

Maktablarda haftasiga 5 kunlik o'qish joriy etilgan. Barcha maktablar bir xil mavqega ega, bolalar qobiliyatiga ko'ra turli sinf yoki ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga ajratib o'qitilmaydi.

Fin maktablarida boshlang'ich ta'lim 6 yil davom etadi va 3-sinfgacha bolalarga baho qo'yilmaydi, o'qituvchilar tomonidan uyga vazifa deyarli berilmaydi, 2017-yildan aksariyat maktablar dars vaqtida «ruchkadan voz kechishgan» va dars jarayonida to'liq kompyuter va planshetlardan foydalaniladi.

Mazkur mamlakat ta'lim tizimidagi ilg'or jihatlarni o'rganish uchun Ta'lim inspeksiyasi va tegishli vazirliklar bilan hamkorlikda tizimli ishlar boshlab yuborildi. Xususan, Tashqi ishlar vazirligi bilan hamkorlikda «Yo'l xaritasi» loyihasi ishlab chiqilib, unda fin ta'lim tajribasini o'rganish va ularni mamlakatimizda samarali tatbiq qilishga qaratilgan vazifalar, hamkorlik yo'nalishlari, chora-tadbirlar o'z aksini topgan. Pandemiya munosabati bilan yuzaga kelgan sharoitga qaramay, finlyandiyalik mutaxassislar bilan muntazam ravishda onlayn tarzidagi uchrashuvlar va seminarlar o'tkazib kelinmoqda. Jumladan, Finlyandiya milliy ta'lim agentligi ekspertlari ishtirokida ta'lim tizimini o'rganish bo'yicha onlayn uchrashuv bo'lib o'tdi. Shuningdek, 2020 yil 18-20 noyabr kunlari Ta'lim inspeksiyasi tomonidan Xelsinki universiteti pedagogika fanlari fakulteti professori, Ta'lim sifatini baholash markazi direktori janob Risto Xotulaynen bilan uchrashuv o'tkazilgan edi.

Fin maktablarini dunyodagi eng yaxshi maktablarga aylantirgan 7 tamoyil

Mamlakatda ta'limdan boshqa yana quyidagilar bepul: tushliklar, ekskursiyalar, muzeylar va darsdan tashqari barcha tadbirlar; bolalarni uylariga tashuvchi transport; darsliklar, barcha o'quv qurollari, kalkulyatorlar va hatto noutbuk-planshetlar. Ota-onalardan pul yig'ish noqonuniy hisoblanadi.

Mamlakatda ta'limdan boshqa yana quyidagilar bepul: tushliklar, ekskursiyalar, muzeylar va darsdan tashqari barcha tadbirlar; bolalarni uylariga tashuvchi transport; darsliklar, barcha o'quv qurollari, kalkulyatorlar va hatto noutbuk-planshetlar. Ota-onalardan pul yig'ish noqonuniy hisoblanadi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ma'lumotlariga ko'ra, fin maktablari jahon ta'lim tizimi reytingida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Bu skandinav mamlakatining

maktab o'quvchilari eng yuqori bilim darajasini ko'rsatishgan, shuningdek ular sayyoraning eng ko'p kitob o'quvchi bolalari deb topilgan, bundan tashqari, tabiiy fanlar bo'yicha - ikkinchi o'rin va matematika bo'yicha beshinchi o'rinni band qilishgan. Biroq jurnalistlarning fin maktablariga qiziqishi bir necha boshqa sharoitlarga bog'liq - u yerlik o'quvchilar shunday yuqori natijalarni ko'rsatishiga qaramay, maktabda rekord darajada kam vaqt o'tkazishadi.

Finlyandiyadagi umumiy o'rta ta'lim ikki bosqichli maktab ta'limini ko'zda tutadi:

- quyi (alakoulu), 1-6 sinflar;
- yuqori (yläkoulu), 7-9 sinflar.

10-sinf qo'shimcha hisoblanadi. Maktab o'quvchilari bu bosqichda o'z baholarini yaxshilash va bo'lg'usi kasblari borasida bir qarorga kelish imkoniga ega bo'lishadi. Maktabni tugatgandan keyin o'smirlar ikki xil variantdan birini tanlash imkoniga ega bo'lishadi: professional kollejga o'qishga kirish yoki litseyda o'qishni davom ettirish (lukio).

Fin o'rta ta'limining 7 tamoyili

1. Tenglik

1.1 Maktablarda. Finlyandiyada ta'lim "kuchaytirilgan" yoki "bo'shroq" maktab degan tushunchalar yo'q. Hukumat proportsional moliyalashtirishni tajriba qilmoqda, barchaga birdek jihozlarni yetkazib beradi, maktab o'quvchilariga esa maktabga qabul qilinishda bir xil imkoniyat beriladi. Mamlakatda deyarli barcha maktablar davlat tasarrufida, faqat 10 tacha maktab qisman davlatga qarashli. Ularning farqi, qoidaga ko'ra, o'quvchilarga bo'lgan yuqori talabda va albatta, ota-onalar tomonidan ramziy to'lovdadir. Bunday maktablar asosan o'ziga xos pedagogik laboratoriyalar hisoblanadi.

1.2. Barcha predmetlarda. Boshqacha aytganda, mahalliy maktablarda bir fan ziyoniga ikkinchi fan chuqurlashtirib o'tilmaydi. Masalan, bu yerda san'at matematika kabi muhim va kerakli fan hisoblanadi. Qaysidir ma'noda fin maktablarida teskari mexanizmi kuzatish mumkin, ya'ni tasviriy san'at, musiqa, sportga moyilligi bor o'quvchilar ta'lim oluvchi sinflar bor. Ularga matematika va boshqa fanlar bo'yicha talab u qadar qat'iy bo'lmaydi.

1.3. Ota-onalarda. Finlyandiyada o'qituvchilar o'quvchilarning ota-onalari kasbi haqida ma'lumotga ega bo'lishmaydi. Har holda, zarurat tug'ilmasa, bunday masalalar ko'tarilmaydi. Maktablar va boshqa o'quv muassasalarida ota-onalarning ish joyiga doir savollar berishi taqiqlanadi.

1.4. O'quvchilarda. Maktablarda o'qituvchilarning sevimli o'quvchilari bo'lmaydi. Agar o'qituvchining "chegaradan chiqqani" sezilsa, darhol u bilan shartnoma buziladi. Finlyandiya ta'lim vazirligi tushunchasi bo'yicha o'qituvchi – bu muayyan fandan saboq beruvchi pedagog, undan ortig'i emas.

1.5. Haq-huquqlar tengligida. Finlyandiya maktablarida birinchi sinfdan bolalarga ularning haq-huquqlari o'rgatiladi, o'quvchining katta yoshli kishi ustidan shikoyat qilish huquqi ham shular jumlasidandir. O'qituvchilar o'quvchini xaqorat qilish yoki unga nisbatan kuch ishlatish huquqiga ega emas. SHunisi qiziqki, u yerda barcha o'qituvchilar kelgusida muddatni uzaytirish imkoni bilan faqat bir o'quv yiliga shartnoma tuzishadi. Bu punktni buzish ko'pchilik uchun karʼeraning tugashini anglatadi. Ta'kidlash joizki, Finlyandiyada o'qituvchilarga havas qilarli maosh to'lashadi (yordamchi - 2500 yevrodan boshlab, fan o'qituvchisiga - 5000 yevrogacha).

2. Yig'imlar

Mamlakatda ta'limdan boshqa yana quyidagilar bepul: tushliklar, ekskursiyalar, muzeylar va darsdan tashqari barcha tadbirlar; bolalarni uylariga tashuvchi transport; darsliklar, barcha o'quv qurollari, kal'kulyatorlar va hatto noutbuk-planshetlar. Ota-onalardan pul yig'ish noqonuniy hisoblanadi.

3. Individuallik

Har bir o'quvchi uchun individual ta'lim va rivojlanish rejasi tuziladi. Bu reja butun o'qish jarayoniga tegishli, biroq eng qizig'i ta'lim jarayonida ikki noyob yo'nalishning mavjudligi: bu "zaif" o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash (bizda buni repetitorlik deyishadi) va muayyan tilni, matematik ko'nikmalarni tushunish, shuningdek ba'zi bolalarning asotsial xatti-harakatlari bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch kelgan o'quvchilar ta'lim jarayoniga tuzatishlar kiritish. Tuzatish ta'limi kichik guruhlarda yoki individual ravishda o'tkaziladi.

4. Amaliylik

Finlar shunday deyishadi: "Biz yo hayotga tayyorlaymiz, yoki - imtihonlarga. Biz birinchisini tanlaymiz". Barcha fin maktablari deyarli hamma imtihonlardan voz kechgan, testlar va oraliq nazorat ishlari esa o'qituvchi xohishiga qarab belgilanadi. Faqat bir imtihon bundan mustasno - bu maktab tugallaganda topshiriladigan imtihon, lekin uning natijalari katta ahamiyatga ega emas, o'qituvchilar bu baholar ketidan birovga hisobot berishmaydi, o'quvchilar ham unga maxsus tayyorgarlik ko'rishmaydi: deyarli barcha natijalar ijobiy hisoblanadi.

5. Ishonch

O'qituvchi o'z o'quvchilarini qay usulda o'qitishi nazorat qilinmaydi. Mamlakatda yagona ta'lim dasturi amalda qo'llaniladi, biroq u faqat tavsiyalarni o'z ichiga olgan, o'qitish usullari esa maktab ishchisining tanloviga bog'liq. O'quvchilarga keladigan bo'lsak, ular ham o'ziga xos erkinlikka ega. Masalan, agar dars vaqtida o'quv filmi yoqilgan bo'lsa-yu o'quvchi kitob o'qishni ma'qul ko'rsa, unga hech kim tanbeh bera olmaydi. Maktab o'quvchisi o'zi uchun nima foydali ekanini tanlash huquqiga ega.

6. Ko'ngillilik

Finlyandiya maktablarida xohlagan odam o'qiydi. Pedagogdan faqat o'z faniga qiziqtirish talab qilinadi, lekin bolada o'qishga umuman qiziqish bo'lmasa, uni amaliy jihatdan foydali bo'lgan osonroq kasbga yo'naltirishadi va "2"lar bilan qiynab o'tirishmaydi.

7. Mustaqillik

Finlarning fikricha, maktab bolani eng asosiysi - mustaqil muvaffaqiyatli hayotga o'rgatishi kerak. Shu bois bu yerda fikr yuritish va bilim olishga o'rgatishadi. Maktablarda ma'lumot-nomalardan foydalanish, qo'shimcha materialni izlab topish, barcha bilim manbalarini qo'llay olishni bilish ijobiy qabul qilinadi. Bundan tashqari, pedagoglar o'quvchilarning mojarolariga aralashishmaydi. Asosiy sabab - o'quvchilarni muammolarni mustaqil hal qilishga o'rgatish.

Maktab darslari fin yoki shved tillarida o'tiladi. Davlat maktablari bilan birga xususiy maktablar ham bor. 1968-yil qonuniga binoan, yagona umumiy ta'lim tizimiga o'tish 1980-yilda nihoyasiga yetkazildi. Majburiy ta'lim - 9 yillik. Majburiy maktab negizida 3 yillik katta o'rta maktab tashkil etilgan. Davlat, munitsipal va xususiy

hunar bilim yurtlari va maktablarida quyi xunartexnika ta'limi, texnika, pedagog, tijorat institutlarida o'rta maxsus ta'lim beriladi. 22 oliy o'quv yurti, shu jumladan, 11 universitet bor. Yiriklari: Helsinki universiteti (1640), Tamperedagi universitet, Turkudagi Shved universiteti (Abo Akademiya), Tampere, Xelsinki va Lappenranta shaharlaridagi texnika universitetlari. Oliy tijorat maktablari va boshqa mavjud. Bundan tashqari, bir qancha maxsus oliy o'quv yurtlari: Ya. Sibelius nomidagi musika akademiyasi, 4 ta chet tillar instituti va boshqa bor. F.da jami 400 ilmiy tadqiqot muassasasi va jamiyat bo'lib, shundan 40 tasi, jumladan, texnika tadqiqotlari markazi (1942), qishloq xo'jaligi ilmiy tadqiqot markazi (1898), sellyulozaqog'oz sanoati markaziy laboratoriya, o'rmon genetikasi (1968) va o'rmon muhofazasi (1972) ilmiy tadqiqot institutlari davlatga qarashli. Oliy o'quv yurtlari huzurida 50 dan ortiq ilmiy tadqiqot instituta va laboratoriya bor.

Yirik kutubxonalari: Helsinki universitetining kutubxonasi (1640), Helsinki shahar kutubxonasi (1860), Parlament kutubxonasi. Milliy muzey, shahar muzeyi, Helsinki universitetining zool. muzeyi, Botanika bog'i, Turkuda tarix muzeyi, Tasviriy san'at muzeyi, Ya. Sibelius muzeyi, Marianxaminda Kema qatnovi muzeyi va boshqa mavjud.

– Ushbu davlat vakillari bilan muloqot qilganimizda, tajribasini o'rganganimizda yoshlar o'rtasida o'qituvchilik kasbi egallashga ishtiyoq juda yuqori ekani ma'lum bo'ldi. Bu juda muhim. Chunki o'quv dasturlarini ishlab chiqish, ta'lim natijalarini baholash va sohaga oid qarorlar qabul qilishda o'qituvchi asosiy o'rin tutadi. Oqituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi yuqori darajadagi hamkorlik ta'lim tizimining uzluksiz ishlashiga yordam beradi.

Oqituvchi bo'sh vaqtining ko'p qismini o'zlashtira olmayotgan, e'tibor talab qiladigan o'quvchilarga sarflaydi. Bunga uning assistenti yordam beradi.

Oqituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirishga "Ta'lim tizimi sifati o'qituvchi sifatidan yuqori bo'la olmaydi" tamoyili asosida yondashiladi. Oliy ta'limning eng yaxshi bitiruvchilari o'qituvchilikka jalb qilinadi.

Finlyandiya ta'lim tizimi bu darajaga yetgunicha sohada keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilgan. Ta'lim sohasida qarorlar qabul qilishda ko'p vakolatlar quyi bo'g'inga berildi. Sohaga ko'proq

hududiy munitsipalitetlar, (munitsipalitet m munitsipalitet (ba'zi mamlakatlarda: mahalliy o'z-o'zini idora qilish organi)), ya'ni hokimliklar mas'ul etib belgilandi. Shu bois bizda ham ayni paytda ta'lim sohasida mahalliy Kengash va hokimliklarning roli hamda mas'uliyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlardan biri Amerika Qo'shma Shtatlaridir.

AQSh: (Amerika Qo'shma Shtatlari)

Poytaxti: Vashington

Puli: Amerika dollari

Davlat tili: Ingliz

Dini: Protestantlar 53%, Katoliklar 26%, Islom 2%


Aholisi: 294.6mln

Maydoni: 9373000 km.kv

Milliy bayrami: 4-iyul Mustaqillik kuni (1776)

Qonun Chiqaruvchi organ: Kongress

O'z.r bilan diplomatik munosabatlar: 1992-yil 12-fevral



3-pacm AQSH ta'lim tizimi

AQShda majburiy ta'lim 16 yoshgacha amal qiladi. Bolalar, 3 yoshga to'lgunlaricha onalarga moddiy imtiyozlar berish belgilanmagan.

Bog'chalarda bolalar yoshlariga ko'ra turli guruhlarga bo'linadilar, ularga tarbiyachi mutaxassis qaraydi va ular o'z usuliga

ko'ra ishlaydi. Chunki o'quv dasturlari, umumiy qoidalar joriy qilinmagan. Biroq tarbiyachilar bolalarga turli qo'shiqlar o'rgatadilar, xilma-xil o'yinlar tashkil etadilar, she'rlar o'rgatadilar.

Bola besh yoshga to'lgach, ularga haqiqiy ta'lim-tarbiya berila boshlaydi. Ana shu yoshda ular "Kinder gorden" deb ataluvchi tayyorlov guruhlariga jalb etiladilar. 5 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash avvalo ota-onalar, bolalar bog'chalari, maktabning, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining vazifasi hisoblanadi.

Amerika Qo'shma Shtatlari ko'p millatli mamlakat:

Avvalo turli millat bolalarga o'z ona tili, urf-odatlarini, dinini bog'chalardayoq o'rgatiladi. Shu bilan birga ingliz tilini ham puxta egallashga katta e'tibor beriladi.

2. AQShda boshlang'ich ta'limning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

Boshlang'ich maktablarda 6 yoshdan boshlab 15 yoshgacha to'laqonli bilim, ta'lim beriladi va ularga umuminsoniy hislatlar, axloqiy sifatlar o'rgatiladi. O'quvchilarning umumiy savodxonligini ta'minlashdan tashqari, ma'lum darajada kasb egallashga yo'naltiriladi.

Sinf-dan-sinfga ko'chirishda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- o'qish tezligi;
- yozuvi, husnixati;
- arifmetika, tarix, geografiya, musiqa va san'at kabi fanlarni boshlang'ich sinf dasturi hamda darsliklar doirasida qanday o'zlashtirib olganligi.

Amerika maktablarida o'quv-tarbiya ishlari bilan bog'liq masalalarni to'laligicha har bir shtat o'zi hal qiladi. Shu bois o'quv davomiyligi turli shtatlarda turlichadir, ya'ni boshlang'ich ta'lim 4,5,6,8 yillik bo'lishi mumkin. AQSh maktablarida bilim olish imkoniyatiga ishonch hissi, o'quvchi uchun faxr-iftixor bo'lishi hissini tarbiyalashga jiddiy e'tibor beriladi.

AQShda to'laqonli o'rta maktab sirasiga 10,11,12-sinflar kiradi. 7,8,9-sinflarni aksariyat holda quyi o'rta maktab deb ham yuritiladi. Binobarin, quyi o'rta maktabni tugatganlar yuqori bosqich to'laqonli o'rta maktablarga qabul qilinadilar.

O'quvchilar sinf-dan-sinfga ko'chishda, kurs yoki maktabni bitirishda, albatta, test sinovlari topshiradilar.


3. AQShda o'quvchilarga qanday erkinliklar berilgan?

O'rta maktab o'quvchilariga o'zlari tanlagan yo'nalishlarga mos:


- predmetlarni tanlash erkinligi;
- ingliz tili, ijtimoiy fanlar;
- fizika-matematika;
- chet tili;
- nafis san'at fani;
- kasb ta'limi.

10-11-12-sinflarda maktab va oila hamkorligi yanada kuchaydi. Sababi, bu sinflarda o'quvchilarning kasb-korga moyilligi to'la qaror topadi. O'quvchilarning kundalik faoliyatida yarim kun sinf xonalarida, qolgan yarimi esa kutubxona, tajriba yer uchastkasi, amaliyotchi uchun mo'ljallangan joylarda o'tadi.

AQShda o'quvchilarga uch yo'nalishda bilim beradilar:



Ayni paytda o'quvchilarga to'rt yo'nalishda kasb-kor asoslari o'rgatiladi:



4. Amerika maktablarida qanday ta'lim vositalari qo'llaniladi?

- elektron yozuv apparatlari (kollegrafiya va yozuv qoidalarini takomillashtirishga yordam beradigan moslarnalar);
- ta'lim televideniyesi;
- qo'lda ko'tarib yuradigan til laboratoriyasi;
- slaydlar, videoappaturalar;
- kompyuter va hokazolar.

5. 2000-yilda qabul qilingan "Amerika ta'lim strategiyasi" nimalarni nazarda tutadi?

- Amerikalik kichkintoylarning maktabga tayyor holda kelishlari;
- ingliz tili, tabiiy va ijtimoiy fanlar sohasida o'z iqtidorini jahonga namoyish etishi;

– talabalarni tabiiy va matematika fanlarini egallashda jahonda eng oldingi o‘ringa chiqarish;

– iqtisodiyot sohasida bellasha oladigan yoshlarni tayyorlash;

– maktablarda giyohvandlik va zo‘ravonlikka barham berish;

– o‘qish, bilim olish uchun barcha sharoitlarni yaratib berish.

Bu, AQSh ta‘lim istiqbollarini belgilab beruvchi muhim dasturdir.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlardan yana biri Yaponiyadir.

2. Yaponiya – Sharqiy Osiyoda, Tinch okeandagi orollarda joylashgan davlat. Uning hududida 6,5 mingga yaqin orol bor. Eng yirik orollari: Xokkaydo, Xonsyu, Sekoku va Kyusyu.

Yaponlar o‘z davlatlarini “Nixon”, “Nippon” deb atashadi. Uning ma‘nosi “Kunchiqar mamlakat” deganidir.

Maydoni 377,8 ming kv.km.

Aholisi 133mln. kishi (2021 y). Aholisi bo‘yicha dunyoda 10 o‘rinda turadi.

Poytaxti – Tokio shahri.

1992-yilda Yaponiyaning Toshkentdagi elchixonasi o‘z faoliyatini boshlagan.

Davlat boshqaruvi konstitutsion parlamentar monarxiyaga asoslangan. Konstitutsiyaga ko‘ra, Yaponiya imperatori davlatni boshqarishda Vazirlar Mahkamasining qarorlariga tayanadi.

Barcha davlatlararo rasmiy uchrashuvlarda imperator davlat boshlig‘i sifatida qatnashadi.

Akixito 1989-yildan beri Yaponiya imperatori bo‘lib kelmoqda.

Yaponiya-juda tez rivojlanayotgan davlat bo‘lib, bu hol asosan yaponlarning tabiatan mehnatsevarlik va ishbilarmonligi bilan bog‘liqdir. Dunyodagi barcha yangiliklar va yuksalishlar sari intilish, eng so‘nggi yutuqlardan foydalanish va ularni yanada rivojlantirish - bu yapon xalqining azaliy milliy odatlariga aylanib qolgan. Bugungi kunda Yaponiya dunyodagi barcha davlatlar uchun ochiq va xalqaro hamkorlik maydonida faol 3 ishtirok etib kelmoqda. Yaponiyada juda qadimdan xalqning aqliy imkoniyatlaridan foydalanuvchi fan va texnikani qo‘llash siyosati eng muhim o‘rin tutadi. Hozirgi davrda Yaponiya ilmiy tadqiqotlarga ketgan sarmoya miqdori bo‘yicha dunyoda 2-o‘rinda turadi.

Yaponiya o‘z oldiga ikki vazifani qo‘yadi:

1. Boyish

2. G'arb texnologiyasini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish
Mazkur ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim
tizimini tubdan o'zgartirish va rivojlantirishni maqsad qiladi

Uzluksiz ta'lim tizimi

Maktabdan tashqari ta'lim. Maktabgacha ta'lim

Umumiy o'rta ta'lim (1-9 sinflar).

Uch yillik akademik litsey (AL), Uch yillik kasb-hunarkollej
(KHK)

Oliy ta'lim-Bakalavriat, Magistratura, Oliy o'quv yurtidan
keyingi ta'lim

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash

1872-yilda «Ta'lim to'g'risida» gi qonun qabul qilindi. Bunda
Yapon ta'limi g'arb ta'limi bilan uyg'unlashtiriladi.

1908-yil Yaponiyada boshlang'ich ta'lim majburiy 6 yillikka
aylantirildi.

1893-yili kasb yo'nalishidagi dastlabki kollej tashkil etildi.

Yaponiya ta'lim tizimi Maktabgacha ta'lim muassasalari

Yaponlar bolaning erta voyaga yetishi tarafdoridirlar. Turli
yoshlarda tarbiyaning turli muammolariga urg'u beradi. Masalan, 1
yoshda-o'ziga ishonch hissini uyg'otish, 2 yoshda-amaliy san'at qo'l
mehnatini ko'rsatish, 3 yoshda burch hissini tarbiyalash, 4yoshda-
yaxshilik va yovuzlikni farqlashgao'rgatish, 5yoshda-liderlik
hislatlarini tarbiyalash, mustaqillikka, reja tuzish va ularni bajarishga
o'rgatish. Bolalar va qizlar turlicha tarbiyalanadilar. O'g'ilga oilaning
bo'lajak tayanchi sifatida qaraydilar va qiyinchiliklarni yengishga
o'rgatadilar. Qizlarni esa uy ishlariga tayyorlaydilar. Yaponiya
bog'chalarida bolalarni 8 kishilik kichik guruhlar-"xan"larga bo'ladi.
Bu bolalarga bog'chada "o'z ish o'rni" ajratiladi, ular o'z xanlariga
nom tanlaydilar. Shu tariqa eng kichik yoshdan jamoada ishlashni
o'rgatadilar. Bu guruhdagi har bir o'quvchi guruhda o'z o'rniga ega
bo'lishi lozim. Bunday xanlar keyingi ta'lim bosqichida ham

qo'llaniladi. O'rta maktabda xanlar doimiy emas, ular yangi sharoitlarga tezroq ko'nikish uchun 3har 5 oyda o'zgartirib turiladi. Yaponiya bog'chalariga 3-5 yoshdagi bolalar qabul qilinadi. Bolalar bog'chalarining maqsadi bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik va ichki tartib ko'nikmalarini tarbiyalash, jamiyat hodisalariga to'g'ri munosabatda bo'la olishni o'rgatishdan iborat. Shuningdek, og'zaki nutq, so'zlarni to'g'riqo'llashni o'rgatishga ham katta e'tibor beriladi. Ertaklar, kitoblar, musiqa, sport o'yinlari, rassomlik kabi shaxsning ijodiy xususiyatlariga qiziqish uyg'otiladi. Hozirgi kunda maktabgacha tarbiya muassasalariga 60% bolalar jalb etilgan. Boshlang'ich ta'limga erta qabul qilishga o'tish maqsadida 4-5 yoshdagi bolalarning barchasini bolalar bog'chasiga jalb qilish ko'zda tutilmoqda. Bolalar bog'chasi Yaponiyada vatan fuqarosini shakllantirish tizimining 1-bosqichi hisoblanadi. Mustaqil faoliyat, jamoaviy ong, ijtimoiy mas'uliyat ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bolalar bog'chasining asosiy vazifasi-bolani maktabga tayyorlashdir. Bu yerda rasm, musiqa, ritmika, jismoniy tarbiya bo'yicha mashg'ulotlar o'tiladi. Individuallik, u qanchalik yaxshi bo'lmasin, o'quvchilarni o'ziga jalb qilmaydi, bolalar jamoasi tomonidan qabul qilinmaydi.

Boshlang'ich maktab,

Kichik o'rta maktab,

Yuqori o'rta maktab,

Oliy ta'lim tizimlariga kiruvchi o'quv yurtlari.

Bolalar yosh xususiyatlariga qarab 3, 2, 1 yillik ta'lim kurslariga jalb qilinadi. Majburiy ta'lim. Ta'limning pog'onasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'z ichiga oladi.

6 yillik boshlang'ich ta'lim va 3 yillik kichik o'rta maktab, 9 yillik majburiy ta'limni tashkil etadi va u bepuldir.

Yuqori bosqich o'rta maktab 10, 11, 12 sinflarni o'z ichiga oladi, bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi va kechki bo'limlari mavjud. O'quvchilarning 95% kunduzgi maktablarda o'qiydilar.

Yaponiyada o'quv yili 240 kun (AQSh 180). O'quv yili 1 apreldan boshlanib martda tugaydi. Yozgi ta'til iyun oyining oxirida boshlanib, avgustda tugaydi. Darslar 7 soatdan o'tiladi.

Dorilfununlarga katta o'rta maktabni yoki 12 yillik oddiy maktabni tugatgan o'quvchilar qabul qilinadi.

460 ta universitet bo'lib, 95 tasi davlat tasarrufida, 34 tasi

munitsipal, 331 tasi xususiy, 1-toifadagi universitetlarda har bir o'qituvchiga 8 nafar, 2-toifali universitetlarda esa 20 tadan talaba to'g'ri keladi.

Universitetlarga qabul qilish ikki bosqichga bo'linadi: 1-bosqichi turar joyda o'tkaziladi: buning uchun yapon, eski yapon tili, matematika, fizika, ximiya, jamiyatshunoslik, tarix bo'yicha test sinovlaridan o'tadilar.

Bu sinovlardan o'tgan o'quvchilar universitetlarga yo'llanma oladilar va yana sinovdan o'tadilar. Xususiy universitetlarga esa to'g'ridan-to'g'ri test topshiriladi.

Universitetdan talabalarni haydab yuborish mumkin emas. Lekin o'qish muddatini cho'zish mumkin (4 yillik o'qish 5-6 yilgacha cho'zilib ketishi mumkin).

1. Boshlang'ich maktab 6 yil.
2. O'rta maktab 3 yil.
3. Oliy maktab 3 yil.

Boshlang'ich maktab o'quvchilari (1-6 sinflar) uchun uyga vazifa berilmaydi. Biroq o'rta (7-9 sinflar) va oliy maktab (10-12 sinflar) o'quvchilari uchun ko'p uy ishi beriladi.

Yaponiyada bolalarni 6 yoshga to'lishi bilan maktabga berishadi. Unga qadar ular bog'chada ta'lim-tarbiya olishadi.

Bog'cha davrida bolalarga o'qituvchilar sodda hisob-kitoblarni, shuningdek, xiragana va katakana alifbolarini o'qishni o'rgatishadi.

Maktabda darslar odatda 8:30 da boshlanadi. Har dushanba kuni "lineyka" bo'ladi. Boshlang'ich maktablarda darslar 45 daqiqadan iborat. Boshlang'ich maktab (1-6 sinflar) Bu yerda o'quvchilar: ona tili matematika Biologiya, fizika, kimyo, tarix, etika, musiqa, rasm, jismoniy tarbiya, uy xo'jaligi kabi darslarni o'qishadi. Boshlang'ich maktabni tugatganga qadar bolalar 1006 ta kanjini yod olishlari talab etiladi.

O'rta maktabda yuqoridagi fanlarga qo'shimcha ravishda yana ingliz tili va bir qancha maxsus fanlar qo'shiladi. Dars 50 daqiqa davom etadi. Bir kunda 6 tagacha darslar bo'ladi. Maktab formasi majburiy hisoblanadi.

Kollej va universitet

Kollejlarda tahsil olish 2 yilni tashkil etadi. Bakalavriat Yaponiya oliy o'quv yurtlari dunyoda yagona bo'lgan "kenkyusey", ya'ni "talaba-tadqiqotchi" institutiga ega.

Kollejlar:

1-kichik kollej;

2-texnik kollej

3-maxsus kollejlarga bo'linadi.

Uni bitirgan talabalar bakalavr diplomini oladi va universitetning 3 yoki 4 kurslariga qabul qilinadi.

Qiziqarli ma'lumotlar

Yaponiyada pedagogika universiteti mavjud emas. Bu yerda "o'qituvchilik"ka o'qitilmaydi. Oliy ma'lumotga ega barcha fuqaro nisbatan murakkab bo'lgan imtihondan o'tib, o'qituvchilik kasbi bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya oladi va bimalol faoliyat yuritaveradi. Har 10 yilda esa o'z kasbi yuzasidan kurslardan o'tishi talab etiladi. Shunga qarab uning litsenziyasi yana uzaytiriladi. Shuningdek, Yaponiya maktablarida farroshlar yo'q. Darslar tugaganidan so'ng maktab o'quvchilari o'zlari maktabni va uning atroflarini tozalashadi.


Bolalar bog'chalari. Ta'limning bu sohasiga 3-5 yoshli bolalar qabul qilinadi. Ular yosh xususiyatlariga ko'ra 3,2,1 yillik ta'lim kurslariga jalb qilinadilar.

Majburiy ta'lim. Ta'limning bu pog'onasiga 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinib, ular shu muddat ichida 6 yillik boshlang'ich ta'lim, 3 yillik kichik o'rta maktab kursini o'taydilar. Barcha o'quvchilar bepul o'qiydilar va darsliklardan tekin foydalanadilar. Ota-onalar o'z farzandlarini shu turdagi xususiy maktablarga ham berib o'qitishlari mumkin, lekin pullik.

Yuqori bosqich o'rta maktabi. Kunduzgi o'rta maktablarda o'qish muddati 3 yil. O'quvchilarning 95 foizi kunduzgi maktablarda ta'lim oladilar. Bu turdagi maktablarda o'qish ixtiyoriydir. Bu maktabda o'quvchilar, albatta, kichik o'rta maktabni bitirgan bo'lishlari shart va ular yuqori o'rta maktablarga kirish sinovlaridan so'ng qabul qilinadilar. (16-18 yosh).

Yuqori o'rta maktablarda quyidagicha sohalar bo'yicha bilim beriladi:

Yaponiyada hozirgi zamon ta'lim tizimi.



4-пачм Yaponiyada hozirgi zamon ta'lim tizimi.

Bolalar bog'chalari. Ta'limning bu sohasiga 3-5 yoshli bolalar qabul qilinadi. Ular yosh

- akademik fanlar;
- texnik bilimlar;
- tijorat;
- milliy sanoat;
- qishloq xo'jaligi;
- chorvachilik;
- baliqchilik;
- kemasozlik va boshqa sohalar.

Bunda 98 foiz yoshlar o'qiydi

Oliy ta'lim. Dorilfununlar, kichik kollejlar, texnik kollejlar, maxsus ixtisoslashtirilgan kollejlar Yaponiyada Oliy ta'lim tizimini tashkil etadi. Bundan tashqari Yaponiyada “Ixtisos maktablari”

mavjud bo'lib, ular, asosan, turli firmalar, konsern, sindikatlar uchun qisqa muddatli kurslarda tikuvchi, oshpaz, hisobchi, mashinkada yozuvchi, avtotexnik, elektron mashinalar uchun dastur tuzuvchilar va boshqa zaruriy kasblar o'rgatiladi.

Yaponiyada davlat universitetlariga to'liq o'rta maktabni bitirib kirish mumkin. Qabul 2 bosqichda o'tkaziladi. Birinchi bosqichda abituriyentlar markazlashgan holda universitetlarga qabul bo'yicha Milliy markazlarda o'tkaziladigan "Yutuqlar birinchi bosqichining umumiy testi"ni topshiradilar. Testni muvaffaqiyatli topshirganlar universitetda o'tkaziladigan kirish imtihonlariga kiritiladilar. Testdan yuqori ball olganlar davlatning eng nufuzli universitetlariga kirish uchun imtihon topshiradilar.

Yaponiyada horijiy tillarni o'rgatishga mo'ljallangan "turli" maktablar ham mavjud.

Yaponiyada o'qish 1-apreldan boshlanib kelasi yilning 31-martida tugaydi. Ularda o'qish 2 yoki 3 semestrda bo'linadi. Yapon maktablarida asosiy e'tibor o'qituvchi faoliyatiga va darslikka qaratilgan. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar o'zlariga ishonib topshirilgan 35-40 o'quvchining bilimi va tarbiyasi uchun javobgardir.

Yaponiyada oilaviy byudjetning katta qismi bolalarning sara maktablarda puxta bilim olishlarini ta'minlashga, universitetlarga kirib bilim olishlariga sarflanadi. Oilada bolaning bilim olishi uchun barcha sharoitlar muhayyo etiladi.

Yapon oilalarining muhim jihatlari nimalardan iborat?

Bolalar tarbiyasida onalarning o'rni va mas'uliyati katta. Ular farzandlarini oqil va dono, muloyim, odil va mehnatsevar bo'lib o'sishlari uchun oila sulolasi va davlat oldida o'zlarini mas'ul deb biladilar.

Yaponlar to'g'ri va halol turmush tarzini qadrlaydilar. 1-9 sinflar oralig'ida axloqiy tarbiyaga jiddiy e'tibor beradilar.

Yapon maktablarining muhim jihatlari nimadan iborat?

- Turli ta'limiy ko'nikmalarni bolalar ongiga singdirish;
- 2-sinf o'quvchisi ko'pchilik oldida nutq so'zlay olishi zarur;
- 6-sinf o'quvchisi kamida 2 ta cholg'u asbobida kuy chala olishi;

- Boshlang'ich sinf o'quvchisi suvda bemalol so'za olishi kerak.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Yaponiyada ta'lim tizimi ham shaklan, ham mazmunan yuksak uyg'unlik kasb etgan. Ibrat olsa, o'rganish arziyidigai jihatlari ko'p. E'tiborli yana bir tomoni – Yaponiyada faqat milliy an'analar bilan cheklanib qolmay, jahondagi Amerika, Fransiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan mamlakatlarning ilg'or pedagogik ish tyajribalari ham ijodiy o'zlashtirilgan.

Bunday tajriba yangilanish jarayonini kechirayotgan mustaqil Respublikamiz ta'lim tizimini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishda qo'l kelishi shubhasiz. Hamma gap masalaga mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda ijodiy yondashishda, tashabbuskorlik va tashkilotchilik kursatib ish yuritishdadir.

Bugungi kunda internet va masofaviy ta'limning vujudga kelishi bilan o'zbek olimlarining doktorlik disser tavsiyalari, pedagog qo'llanmalarda ham uchratishingiz tabiiy holdir.

Zero turli mamlakatlarning iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarning rivojlanishi o'sib kelayotgan yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashning qo'yilishi bilan keng tanishishga, o'qitishning eng yaxshi shakl va metodlarini, ba'zan esa butunlay ta'lim tizimini o'zlashtirishga yordam beradi. Ana shunday mamlakatda ta'lim tizimida ma'qul yo'lni tanlash imkoniyati vujudga keladi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimini o'rganish bo'lajak o'qituvchiga pedagogik yangiliklarini qiyosiy tahlil qilishga, tushunishga, o'rganishga yordam beradi. Talabalarning tafakkurini kengaytiradi.

Tayanch tushunchalar: blended learning (aralash o'qitish), mahorat darslari, vebinar dars, evristik metodlar, tyutor, supervizor, fasilitator, edvayzer, moderatorlik faoliyati, trimestr, "xanlar", kenkyu-sey, Qiyosiy tahlil, Fin 7 tamoyili, akademik fanlar, texnik bilimlar, tijorat, "Amerika ta'lim strategiyasi", ta'lim televideniyesi, til laboratoriyasi.

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1.XX asr jahon ta'lim tizimidagi global tendentsiyalar.
2. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi.
- 3.Mazkur mavzu bo'lajak o'qituvchiga qanday bilimlarni beradi?
- 4.Yevropa mamlakatlarida ta'lim-tarbiya muammolari

5. Yevropa mamlakatlarida ta'lim tizimining tuzilishi
6. Qaysi universitetlar Yevropadagi eng qadimgi va nufuzli universitetlar o'rtasidagi farqlarini tashkil etadi?
7. Fin maktablarini dunyodagi eng yaxshi maktablarga aylantirgan 7 tamoyil nimalardan iborat?
8. Finlyandiyaning asosiy ta'lim to'g'risidagi qonuni qachon qabul qilgan?
9. Yapon oilalarining muhim jihatlari nimalardan iborat?
10. Yapon maktablarining muhim jihatlari nimadan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. T.: O'qituvchi 2021
2. Mutalipova M.J., Xadjaev B.X. Qiyosiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU. 2015.
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
4. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н., Педагогика. Москва, Академия, 2015.
5. Умарова.М. Теория и история педагогики. Учебное пособие. Т.: «Издательско полиграфический дом имени Чулпана» 2018.г.
6. Xadjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. T.: Sano-standart. 2017.
7. Yo'ldoshev O'.J. Umumiy pedagogika. Darslik. Toshkent. Fan va texnologiyalar. 2019.

XULOSA

Respublikamizda sermahsul ijod qilayotgan pedagog olimlarimiz hamda ajdodlarimizning boy ijodiy merosiga tayangan holda mazkur o'quv qo'llanmani yakunlar ekanmiz, tolibu ilmlarining bildirgan fikrlarni yanada chuqurroq kengaytirishlariga, mustaqil izlanish va doimiy mutolaa yo'ldosh bo'lib qolishiga ishonamiz. Zero, biz tanishtirib o'tgan har bir mavzu matnida bir olam ma'lumot ta'lim-tarbiyaga oid, pedagog uchun ayni zamonda va kelgusida asqotadigan sermazmun fikrlar mavjud.

Ajdodlarimiz hikmatlari, o'git-nasihatlaridan bahramand bo'lgan, mustaqil fikrlaydigan, irodali, diyonatli, mehnatkash, g'ayratli va bilimdon, o'z kasbini sevgan va puxta egallagan insongina ma'naviyatli bo'libgina qolmay, balki yetuklikka erishadi. Bunda murabbiy va ustoz, ajdodlarimiz ma'naviy merosi bilan zamondoshlari, ayniqsa yosh avlod o'rtasida jonli vositachiga aylanadi. Bu o'rinda kitobga muhabbat haqida so'z yuritar ekanmiz, ustoz Abdurahmon Jomiyning insoniyat donishmandligining hazinasi bo'lmish kitobning mohiyatiga bergan tavsifiga to'xtalishni joiz deb topdik. U kitobni "Teri yopingan olim"ga o'xshatadi.

Kitobga yuz o'girgin, ey jigarim farzandim,
kitobga ulfat bo'lgin, quloqqa ol bu pandim,
tanholikda munising, bilsang agar kitobdir,
donolikning tongiga, shu'la sochar kitobdir,
bepul, beminnat senga, chigallaringni yechar,
kitobdur yaxshi hamdam, teri yopingan olim,
ish siridan goh so'zlab, ammo goho turar jim.
Uning ichi g'unchadek, varaqalardan liq to'la,
har varag'i go'yoki, durdonadir bir yo'la.

Haqiqatan ham milliy pedagogikamiz tarixida yosh avlod uchun juda katta boy xazina mavjudki, ana shu pedagogik durdonalarni puxta o'rganib, yosh avlod ta'lim-tarbiyasi jarayonida amalda qo'llashni maqsad qilib olish, har bir bo'lajak o'qituvchi va murabbiyning kasbiy burchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi Qonuni" 2020 y. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2020 yil 24 sentyabr "Xalq so'zi",
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat 2008 y.
3. Karimov I. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. T., «O'zbekiston», 1996-y
4. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. T.: O'qituvchi 2021-y
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. Yoshlar nashriyoti uyi. T.: O'qituvchi 2019-y
6. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent – O'zbekiston -2016-y. 488 B.
7. Авлоний А. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. – Т.: Ўқитувчи, 1992-у.
8. Amir Temur va temuriylar haqida. Misr kutubxonalarida saqlanayotgan manbaa va qo'llanmalar FIXRISTI (Muqaddima muallifi- Sh.Boboxonov, tayyorlovchi -N.M.at-Termiziy). Qohira. 1996-y.
9. Aleks muur. Ta'lim berish va ta'lim olish: pedagogika ta'lim dasturi va tarbiya. - Rutledj. Ikkinchi nashr. 2012-y. 202-bet.
10. А.Навойй. Махбуб ул-қулуб. Асрлар 15 томлик, 13-том, Т.: Адабаёт ва санъат нашриёти 1990-у.
11. Бобохонов Ш, Ирисов А. Ҳадис илмининг пешволари. Т Т.: 1991-й. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
12. Слостенин В.А., Исаев И.Ф., Шиуанов Е.Н., Педагогика. Москва, Академия, 2015-й
13. Ибрагимов.Х.И., Абдуллаева. Ш.А. Педагогика назарияси- Т.: “Фан ва технологиялар” 2008

14. Калдыбекова А.С. Жалпы педагогика теориюасы жене практикасы. Педагогика теориюасы. – Т.: ТДПУ, 2013-й.
15. Mutalipova M.J., Xadjaev B.X. Qiyosiy pedagogika. Darslik. –Т.: TDPU. 2015-у.
16. Мухаммад Содиқ Қошғарий. «Одоб ас-солихин», «Шарк юлдузи», 1981-й.
17. Мўминова И. Амир Темурнинг ўрта осие тарихида тутган ўрни ва роли. Т., «Фан»,1993.
18. Махмудов Қ. Ахмад Югнакийнинг «Хиббат ул-хақойик» асари тўғрисида. Т., 1996-й.
19. Подласый И.П. Педагогика. Москва. Высшее образование, 2003-г.
20. Ro'ziyeva D.L., Tolipov , O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat 383 s. Т.: Innovatsiya ziyo. 2019-у.
21. Йўлдошев Ж, Хасанов С. «Авесто»да таълимий-ахлокий қарашлар. Т.: Ўқитувчи, 1991-й.
22. Yo'ldoshev O'.J. Umumiy pedagogika. Darslik. Т Т.: Fan va texnologiyalar. 2019-у.
23. Taxtaxadjaeva M. Pedagogika. Darslik. Т.: Faylasuflar milliy jamiyati. 2010-у.
24. Теория и практика общей педагогика. Учебник –Т.: ТДПУ. 2014-г.
25. Умарова.М. Теория и история педагогики. Учебное пособие.
Т.: «Издательско полиграфический дом имени Чулпана» 2018-г.
26. Hartlej I Stratedies from Programmed Instrukcional Technolog –London, 2006-у, 179 p
27. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – Т.: O'qituvchi, 1996-й.
28. Heckhausen H.Motivation and Handeln. Berlin : Springer, 2011-у 244 p
29. Omonov X., Xo'jayev N., Madyarova S., Eshchonov E. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Т.: Iqtisod-moliya, 2009-у.

30. Хомидов Х. «Шохнома»нинг шухрати. Т.: Ўзбекистон, 1994-й.

31. Қаюмов Азиз. Қадимият обидалари. Т.: Адабиёт ва санъат, 1990-й.

32. Xadjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. Т.: Sano-standart. 2017-у.

33. Xadjaev B.X., Choriev A., Salieva Z.T., pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. –Т.: Iqtisod dunyosi. 2018-у.

34. Юзликаева Э., Мадуарова С., Янбарисова Э., Морхова И. Теория и практика общей педагогика. Учебник –Т.: ТДПУ.2014-г.

35. Қамбаров М.М. Бўлажак ўқитувчиларда педагогик компетентлик компонентларини шакллантириш //НамДУ Илмий ахборотномаси.-Наманган, 2021-й. №11. – Б.681-686.

36. Қамбаров М.М. Бо'лажак о'қитувчиларда media kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari // NamDU Ilmiy axborotnomasi.-Namangan, 2021-у. №12. – В.693-697.

37. Қамбаров М.М. Талабалар мустақил фикрлаш маданиятини ривожлантириш. Монография- Наманган: Аржуманд медиа. 2021-й.

38. Ўзбек педагогикаси тарихи (проф Асқар Зуннуновнинг умумий тахрири остида). Т.: Ўқитувчи.1997-й

Internet saytlari:

39. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)

40. www. pedagog. uz

41. www. Ziyonet. uz

42. www. edu. uz

43. tdpu-INTRANET. Ped

MUNDARIJA

Soʻz boshi.....	3
1. Pedagogika tarixi fan sifatida. Ibtidoiy jamoada tarbiya. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha taʼlim-tarbiya va pedagogik fikrlar.....	5
2. VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha Oʻrta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.....	24
3. Sharq Uygʻonish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi. Taʼlimiy-axloqiy fikrlar rivoji.....	31
4. XIV asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji.....	76
5. XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.....	118
6. XIX asrning 2-yarmi – XX asrning birinchi choragida Turkiston oʻlkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.....	147
7. 1924-1991 yillarda Oʻzbekistonda taʼlim tizimi va pedagogik fikrlar rivoji.....	171
8. Mustaqil Oʻzbekiston taʼlim tizimi. Pedagogik fikrlar rivoji.....	182
9. Eng qadimgi davrlardan XIX asrning birinchi yarmida jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi. Y.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi.....	206

10. XIX asrning 2-yarmi – XX asrda jahon pedagogika fanining rivoji. K.D.Ushinskiyning pedagogik merosi.....	239
11. Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji.....	258
Xulosa.....	278
Foydalanilgan adabiyotlar.....	279

СОДЕРЖАНИЕ

Предисловие.....	3
1. История педагогики как науки. Воспитание в начальной общине. Образование - педагогические и педагогические идеи с древнейших времен до VII века.....	5
2. Образовательные, школьные и педагогические идеи в Средней Азии с VII века до первой половины XIV века.....	24
3. Развитие педагогической мысли в эпоху Восточного Возрождения. Развитие воспитательной и нравственной мысли.....	31
4. Развитие воспитательной, школьной и педагогической мысли во второй половине XIV века и половине XIX века.....	76
5. С XVII века до середины XIX века в образовании, школе и педагогической мысли.....	118
6. Вторая половина XIX века - первая четверть XX века в Туркестанском крае образование, школьно-педагогические идеи.....	147
7. Развитие системы образования и педагогические идеи в Узбекистане в 1924-1991 гг.	171
8. Независимая система образования Узбекистана. Развитие педагогической мысли	182
9. История развития мировой педагогической науки с древнейших времен до первой половины XIX века. Коменского учения о педагогике.....	206

10. Вторая половина XIX века - развитие мировой педагогики в XX веке. Педагогическое наследие К.Д.Ушинского	239
11. Развитие системы образования и педагогической науки в современном мире.....	258
Заключение.....	278
Литература	279

Contents

Foreword.....	3
1. History of pedagogy as a science. Education in the primary community. Educational – pedagogical ideas from the earliest times to the VII century.....	5
2. Educational, school and pedagogical ideas in Central Asia from the VII century to the first half of the XIV century.....	24
3. The development of pedagogical thought during the Eastern renaissance. Development of educational and moral ideas.....	31
4. Development of educational, school and pedagogical ideas in the second half of the XIV century and the first half of the XIX century.....	76
5. Education, school and pedagogical ideas from the XVII century to the middle of the XIX century.....	118
6. The second half of the XIX century Turkestan in the first quarter of the XX century upbringing in the country, school and pedagogical views.....	147
7. Development of the education system and pedagogical ideas in Uzbekistan in 1924-1991.....	171
8. Independent Education System of Uzbekistan. Development of pedagogical ideas.....	182
9. History of development of world pedagogical science from the earliest times to the first half of the XIX century. Comenius' pedagogical theory.....	206

10. The second half of the XIX century-the development of the world pedagogy in the XX century. K.D.Ushinskiy's pedagogical heritage.....	239
11. The current development of the education system and pedagogical science in the world.....	258
Conclusion.....	278
References.....	279

Pedagogika tarixi. [matn] o'quv qo'llanma / Qambarov M. – Toshkent: Bayoz, 2022. – 288 bet.

ISBN 978-9943-7955-7-0

UDK: 811.512.133.(038)

KBK: 74.202.5 81.2. O'zb

Qambarov Musoxon Muxtorjonovich

PEDAGOGIKA TARIXI

Barcha bakalavr yo'nalishlari uchun

O'QUV QO'LLANMA

Muharrir

B. Botirov

Texnik muharrir

Shohruh Botirov

Dizayner

Bahodir To'xliyev

Sahifalovchi

Bekzod Raxmatov

Nashriyot litsenziyasi: AI №234, 11. 02. 2013.

Bosishga ruxsat etildi: 06.09.2022.

Ofset qog'ozi. Qog'oz bichimi: 60x84 1/16.

Times garniturası. Ofset bosma.

Hisob nashriyoti t.: 12. Shartli b. t.: 18.

Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 33.

“BAYOZ” nashriyotida nashrga tayyorlandi

“BAYOZ” MChJ matbaa korxonasi chop etildi.

Toshkent. Lutfkor 1-tor ko'chasi, 1-uy.

ISBN 978-9943-7955-7-0



9 789943 795570